Musayev Jahongir Payozovich,
Fedorko Viktor Nikolayevich,
Xayitmurodov Alijon Olimjon o‘g‘li

GEOGRAFIYA



Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

O‘zbekiston Respublikasi Maktabgacha va maktab ta’limi vazirligi nashrga tavsiya etgan

Yangi nashr

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2026

UO‘K 91(075.3)
KBK 26.8ya72
M 90

Musayev, J.P.
Geografiya 9-sinf [Matn]: darslik / J.P. Musayev, V.N. Fedorko, A.O. Xayitmurodov. – Toshkent: G‘.G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2026 . – 192 b.

Mas’ul muharrir:

Xolmurodov Shakarbek Abdug‘aniyevich,

Nizomiy nomidagi O‘zMPU geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori

Taqrizchilar:

Safarova Nasiba Iranqulovna – Nizomiy nomidagi O‘zMPU geografiya va iqtisodiy bilim asoslari kafedrasi dotsenti, geografiya fanlari nomzodi;

Turopova Nargiza To‘lqinovna – Toshkent shahri Mirobod tumanidagi 110-umumiy o‘rta ta’lim maktabi geografiya fani o‘qituvchisi;

Boltayeva Lola Abduvohidovna – Toshkent shahri Yunusobod tumanidagi 273-umumiy o‘rta ta’lim maktabi geografiya fani o‘qituvchisi;

Ikramova Madina Xasanovna – Namangan viloyati To‘raqo‘rg‘on tumani Is’hoqxon Ibrat nomidagi ijod maktabi geografiya fani o‘qituvchisi.

Ushbu darslik Respublika ta’lim markazi bilan hamkorlikda tayyorlandi.

ISBN 978-9910-247-44-6

© G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi, 2026

MUNDARIJA

I BOB GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR VA TADQIQOTLAR

1.1. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya nimani o‘rganadi? 7
1.2. O‘zbekistonning geografik o‘rni 11
1.3. O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishi 14
1.4. Amaliy mashg‘ulot 17

II BOB YERNING TUZILISHI VA GEOLOGIYA

2.1. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar 20
2.2. O‘zbekiston relyefining xo‘jalikka ta’siri 23
2.3. Zilzilalarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari 26
2.4. O‘zbekistonning mineral resurslari 29
2.5. Amaliy mashg‘ulot 32

III BOB IQLIM VA SUV

3.1. O‘zbekistonning iqlim resurslari 35
3.2. Iqlim o‘zgarishining O‘zbekistondagi oqibatlari 39
3.3. Loyiha ishi 42
3.4. O‘zbekistonning suv resurslari va ulardan foydalanish 44

IV BOB AHOLI VA DEMOGRAFIK JARAYONLAR

4.1. O‘zbekiston aholisining soni va o‘sishi 51
4.2. O‘zbekiston aholisining tarkibi va joylashuvi 54
4.3. Shahar va qishloq aholi punktlari 58
4.4. Urbanizatsiya 61
4.5. Migratsiya 64
4.6. Amaliy mashg‘ulot 67
4.7. “Biz yashaydigan hudud aholisi” kichik loyiha ishi 69

V BOB INSON XO‘JALIK FAOLIYATI

5.1. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining tuzilishi 74
5.2. Sanoat – milliy iqtisodiyotning tayanch tarmog‘i 77
5.3. Yoqilg‘i sanoati 81
5.4. Elektr energetikasi 85

5.5. Kimyo sanoati 88
5.6. Metallurgiya sanoati 91
5.7. Mashinasozlik va uning tarmoqlari 94
5.8. Avtomobilsozlik 97
5.9. Qurilish materiallari sanoati 101
5.10. Agrosanoat majmuasi 104
5.11. Qishloq xo‘jaligi 107
5.12. Amaliy mashg‘ulot 110
5.13. Yengil va oziq-ovqat sanoati 112
5.14. Transport 115
5.15. Xizmat ko‘rsatish sohalari 118
5.16. Amaliy mashg‘ulot 121
5.17. Tashqi iqtisodiy aloqalar 123

VI BOB **INSON VA TABIAT**

6.1. Qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan oqilona foydalanish 127
6.2. Inson xo‘jalik faoliyati ta’sirida vujudga kelgan ekologik muammolar .. 130
6.3. O‘zbekistonda rekreatsiya va turizm 133

VII BOB **O‘ZBEKISTONNING HUDUDIY TAVSIFI**

7.1. O‘zbekiston iqtisodiyotining hududiy tashkil etilishi 137
7.2. Toshkent shahri 140
7.3. Toshkent viloyati 144
7.4. Farg‘ona viloyati 147
7.5. Andijon viloyati 150
7.6. Namangan viloyati 153
7.7. Amaliy mashg‘ulot 156
7.8. Sirdaryo viloyati 158
7.9. Jizzax viloyati 161
7.10. Samarqand viloyati 164
7.11. Amaliy mashg‘ulot 168
7.12. Navoiy viloyati 170
7.13. Buxoro viloyati 174
7.14. Qashqadaryo viloyati 177
7.15. Surxondaryo viloyati 180
7.16. Xorazm viloyati 183
7.17. Qoraqalpog‘iston Respublikasi 186
7.18. Umumlashtiruvchi dars 189

KIRISH

Aziz o‘quvchilar! Sayyoramizning tabiati va aholisi, turli mamlakat va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy rivojlanishi, tabiat va jamiyat hayotidagi hududiy tafovutlar, inson va tabiiy muhit o‘rtasidagi munosabatlarni o‘rganishda geografiya fanining ahamiyati beqiyosdir. Geografiya fani yoshlarda o‘z Vatanining tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlari, boyliklari hamda rivojlanish imkoniyatlari haqida tizimli bilimlarni shakllantiradi. Shu bois maktabda Vatan ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasini o‘rgatish muhim o‘rin tutadi.

Ushbu darslik O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasiga bag‘ishlangan bo‘lib, unda respublikamizning geografik joylashuvi, jahon hamjamiyatidagi o‘rni va xalqaro aloqalari, ma’muriy-hududiy tuzilishi, tabiiy sharoiti va resurslari, iqlim o‘zgarishiga moslashish va ekologik muammolarni yechish yo‘llari, aholisi, iqtisodiyoti va ijtimoiy sohalari, hududiy rivojlanishi, ya’ni ijtimoiy hayot va rivojlanishning deyarli barcha jabhalari qamrab olingan. Darslik orqali siz O‘zbekiston va uning tarkibidagi hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy geografik xususiyatlari hamda milliy iqtisodiyot tarmoqlarida yuz berayotgan o‘zgarishlar haqida muhim bilimlarga ega bo‘lasiz.

Darslikning muhim vazifasi O‘zbekistonning hozirgi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish bosqichi haqida tizimli ma’lumot va tasavvur bergan holda, o‘quvchilarga mustaqil bilim olish va uni amaliyotda qo‘llashni o‘rgatishdan iboratdir.

Darslik geografiya fanining o‘quv dasturiga mos holda tuzilgan bo‘lib, quyidagi 7 ta bobdan iborat:

1. Geografik kashfiyotlar va tadqiqotlar.
2. Yerning tuzilishi va geologiya.
3. Iqlim va suv.
4. Aholi va demografik jarayonlar.
5. Inson xo‘jalik faoliyati.
6. Inson va tabiat.
7. O‘zbekistonning hududiy tavsifi.

Ushbu boblarda nazariy mavzular bilan bir qatorda amaliy mashg‘ulotlar va loyiha ishlari, qiziqarli keyslar berilgan.

Darslikni yozishda mualliflar O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasi va uning hududiy boshqarmalari rasmiy ma’lumotlari, so‘nggi yillarda nashr etilgan turli statistik ma’lumotnoma va to‘plamlardan foydalangan.

Aziz o‘quvchi-yoshlar! Sizlarga ushbu darslik orqali mamlakatimizning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasini mukammal o‘rganish yo‘lida yuksak o‘quv natijalariga erishishni tilab qolamiz!

I BOB

GEOGRAFIK KASHFIYOTLAR VA TADQIQOTLAR



USHBU BOBDA QUYIDAGI MAVZULARNI O‘RGANASIZ:

1.1. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya nimani o‘rganadi?
1.2. O‘zbekistonning geografik o‘rni
1.3. O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishi
1.4. Amaliy mashg‘ulot

1.1. IJTIMOIY-IQTISODIY GEOGRAFIYA NIMANI O‘RGANADI?

DARS DAVOMIDA

- Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fani nimani tadqiq qilishi va uning tarkibida qanday ilmiy yo‘nalishlar mavjudligini izohlaysiz;
- O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografik o‘rganilishi bosqichlarini tavsiflaysiz;
- O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi fani rivojiga hissa qo‘shgan olimlar faoliyati bilan tanishasiz;
- geografik atamalarni to‘g‘ri qo‘llash va ularning mazmunini izohlashni o‘rganasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Tabiiy geografiya tabiat qonuniyatlari va resurslarini o‘rgansa, *ijtimoiy-iqtisodiy geografiya* inson faoliyati bilan geografik muhit o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlikni tadqiq etadi. Bu fan aholi, ishlab chiqarish, shaharlar va transport yo‘llarining joylashuvi, uning sabab va oqibatlarini o‘rganadi.

O‘YLAB KO‘RING

Mamlakatlarni o‘rganishda ularning tabiati haqidagi bilimlarni egallash yetarlimi?
Fikringizni asoslang.

Insoniyat qadimdan o‘z faoliyati uchun qulay geografik sharoitlarni izlab kelgan. Avvalo, dehqonchilik, chorvachilik va ovchilik uchun qulay hududlar tanlangan. Keyinchalik hunarmandchilik va sanoatning rivojlanishi aholi soni va xalq farovonligi o‘sishiga sabab bo‘ldi. Bu esa ishlab chiqarish korxonalari, maktab, shifoxona, bozor va turarjoylar kabi ijtimoiy obyektlarni joylashtirish zaruriyatini keltirib chiqardi. Bu jarayonlar geografik omillarga bog‘liq bo‘lib, ularni ilmiy jihatdan o‘rganish iqtisodiy va ijtimoiy geografiyaning asosiy vazifasidir.

Bu fan hayotning turli sohalarida – uy xo‘jaligidan to shaharsozlikkacha muhim ahamiyatga ega. Masalan, uy qurilishida (xonalar joylashuvida) qulaylik va samaradorlikni hisobga olish, shaharlarda transport yo‘nalishlarini belgilash yoki yangi sanoat korxonasini qulay hududda tashkil etish – bularning barchasi iqtisodiy va ijtimoiy geografiya qonuniyatlariga asoslanadi.

ILMIY ATAMALAR

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya – Yer yuzi, turli mamlakat va hududlarning tabiiy resurslari, aholisi, uning xo‘jalik faoliyati, yashash tarzi va sharoiti, tabiiy muhit bilan o‘zaro aloqadorligini o‘rganadigan fan.



1-rasm. Ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning tarmoqlari

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiya dastlab iqtisodiy geografiya sifatida shakllangan. XX asrning so‘nggi choragida jahon miqyosida, ayniqsa, G‘arb mamlakatlarida fanning tadqiqot obyektidagi o‘zgarishlar ijtimoiylashuvga olib keldi (1-rasm).

O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografik jihatdan o‘rganilishi hozirgi davrga qadar besh asosiy bosqichga bo‘linadi. Har bir bosqich hudud, resurslar, aholi va xo‘jalikni yanada chuqurroq anglashga xizmat qiladi (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekistonning ijtimoiy-iqtisodiy geografik jihatdan o‘rganilishi bosqichlari



Tabiiy va iqtisodiy hodisalar, aholi, mamlakatlar xo‘jaligi hamda ishlab chiqarishni joylashtirish omillarining o‘zaro bog‘liqligi haqida dastlab **M. V. Lomonosov** yozgan. Uning ijtimoiy-iqtisodiy geografiya rivojiga qo‘shgan hissasi, birinchi navbatda, aholini davlat qudratining manbayi sifatida o‘rganish zarurligini asoslab bergani bilan izohlanadi.

Ijtimoiy-iqtisodiy geografiyani turli hududiy darajalarda o‘rganish lozimligi haqida ilk bor mashhur iqtisodiy geograf olim **N. N. Baranskiy** asarlarida so‘z borgan.

“Geografik mehnat taqsimoti” tushunchasi va mamlakatshunoslik asoslarini ishlab chiqish ham aynan shu olim nomi bilan bog‘liq.





Fanning ijtimoiylashuvida geograf olim **R. J. Jonston**ning hissasi katta. U ijtimoiy-iqtisodiy geografiya nazariyasi va tarixini tadqiq qilgan. Shuningdek, shaharlar geografiyasi va saylov geografiyasi yo‘nalishlariga qo‘shgan hissasi bilan tanilgan. Jonston “Inson geografiyasi lug‘ati” ilmiy nashri bosh muharriri bo‘lgan.

O‘zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy geografiyani rivojlantirishga bir qator mahalliy olimlar katta hissa qo‘shgan.

Z. M. Akramov – O‘zbekistonda xizmat ko‘rsatgan fan arbobi, geografiya fanlari doktori, professor. O‘zbekiston Fanlar akademiyasida Geografiya bo‘limini tashkil etgan va uni boshqargan. U asosan O‘rta Osiyo iqtisodiy geografiyasi va qishloq xo‘jaligi geografiyasini o‘rgangan. Uzoq yillar mobaynida O‘zbekiston Geografiya jamiyatiga rahbarlik qilgan.





A. S. Soliyev – geografiya fanlari doktori, professor. Olimning tadqiqotlari aholi va shaharlar geografiyasi, ijtimoiy geografiyaning turli yo‘nalishlari, ijtimoiy-iqtisodiy geografiyaning nazariyasi hamda O‘zbekiston ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi masalalariga bag‘ishlangan.



A. A. Qayumov – geografiya fanlari doktori, professor. Aholi va shaharlar geografiyasi, mehnat resurslari va ularning bandligi, mamlakatimiz iqtisodiyotining turli tarmoqlarini rivojlantirish masalalarini tadqiq qilgan. Jahon ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasi bo‘yicha o‘zbek tilida ilk bor nashr etilgan maktab darsligi va atlasini yaratishga katta hissa qo‘shgan.

Shuningdek, Ozod Ata-Mirzayev, Abdimo‘min Ro‘ziyev, Shuhrat Azimov kabi olimlar ham Vatanimiz iqtisodiy va ijtimoiy geografiyasiga oid qimmatli ilmiy izlanishlar olib borgan.

O‘YLAB KO‘RING

Bugungi kunda ijtimoiy-iqtisodiy geografiya qanday yangi yo‘nalishlarda rivojlanmoqda?

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Quyidagi sohalarni o‘rganish tarmog‘iga ko‘ra ikki guruhga ajrating: a) transport va logistika; b) ta’lim va sog‘liqni saqlash; d) qishloq xo‘jaligini hududiy rejalashtirish; e) sanoatni hududiy joylashtirish; f) turizm va rekreatsiya; g) aholi tarkibi.

Iqtisodiy	Ijtimoiy

2. Jadvalga quyidagi olimlarning ijtimoiy-iqtisodiy geografiya fani rivojiga qo‘shgan hissasi haqida yozing.

Olimlar	Fan rivojiga qo‘shgan hissasi
N. N. Baranskiy R. J. Jonston Z. M. Akramov A. S. Soliyev	

UYGA VAZIFA

Maktabga borayotganingizda qanday obyektlar (bog‘cha, do‘kon, shifoxona, dorixona, avtobus bekati, korxona va boshqalar) yaqinidan o‘tasiz? Ularni qaysi birini iqtisodiy, qaysi birini ijtimoiy geografiya o‘rganishiga ko‘ra daftaringizga guruhlashtirib yozing. Ushbu obyektlardan birortasini tanlab, uning aynan shu joyda qurilganiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatganini izohlang.

1.2. O‘ZBEKISTONNING GEOGRAFIK O‘RNI

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekistonning geografik (tabiiy, iqtisodiy, siyosiy) o‘rnini qulay yoki noqulayligiga ko‘ra baholaysiz;
- O‘zbekistonning ijtimoiy va iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy va siyosiy geografik o‘rnining ahamiyatini tavsiflaysiz;
- geografik atamalarni to‘g‘ri qo‘llashni o‘rganasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

O‘zbekistonning geografik o‘rni mamlakat rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Muayyan mamlakat, hudud, viloyat, shahar, tuman, mahalla va hatto uy xo‘jaligining o‘ziga xos jihatidan biri uning yer yuzidagi joylashgan o‘rnidir. Bu fanda **geografik o‘rin** deb ataladi. Geografik o‘rin mazmunan *tabiiy geografik o‘rin, iqtisodiy geografik o‘rin* va *siyosiy geografik o‘rin* tarzida guruhlanadi.

ILMIY ATAMALAR

Geografik o‘rin – Yer yuzidagi ma’lum geografik obyekt (mamlakat, shahar va hk.)ning boshqa geografik obyektlarga nisbatan joylashuvi.

Tabiiy geografik o‘rin – tabiiy obyektlar (daryo, tog‘, dengiz va hk.)ga nisbatan joylashuv.

Iqtisodiy geografik o‘rin – iqtisodiy markazlar, savdo yo‘llari va resurslarga nisbatan joylashuv.

Siyosiy geografik o‘rin – davlatning boshqa mamlakatlar va xalqaro tashkilotlar bilan aloqalari orqali belgilanadigan o‘rni.

TABIIY GEOGRAFIK O‘RIN. O‘zbekiston Yevrosiyo materigining markaziy qismida, dengiz va okeanlardan uzoqda joylashgani sababli iqlimi kontinental, ya’ni yozi issiq va qishi sovuq bo‘ladi. Mamlakatning katta qismi cho‘l, chalacho‘l va tog‘ hududlaridan iborat.

Issiq kunlarning uzoq davom etishi mamlakat qishloq xo‘jaligida ekinlardan takroriy hosil olishda, transport rivojida, uy-joy va ijtimoiy obyektlar qurilishi hamda isitilishida mehnat va moliyaviy xarajatlarni tejash imkonini beradi.



3-rasm. Dunyo okeani va dengizlarga chiqish imkoniga ega bo‘lmagan davlatlar

IQTISODIY GEOGRAFIK O‘RIN. Dunyo okeani va uning dengizlariga chiqish imkoniyatiga ega bo‘lmagan 44 ta mustaqil davlatdan faqat O‘zbekiston va Yevropada joylashgan Lixtenshteyn hamma yo‘nalishda dengiz qirg‘oqlaridan kamida ikkita mamlakat hududi bilan ajralib turadi (3-rasm). Respublikamizning bunday joylashuvi bir qancha imkoniyatlarni cheklaydi, chunki xalqaro savdo aloqalarida dengiz transporti alohida ahamiyatga ega.

Ayni vaqtda, O‘zbekiston Yevrosiyo materigida qo‘shni mamlakatlarga nisbatan ancha qulay – markaziy iqtisodiy geografik o‘ringa ega bo‘lib, turli davlat va hududlar bilan temiryo‘l va avtomobil yo‘llari orqali bog‘langan. O‘zbekiston hududidan Osiyo va Yevropaning turli qismlarida joylashgan mamlakatlarni o‘zaro bog‘laydigan yo‘llarning o‘tgani mamlakatimiz iqtisodiy geografik o‘rnining ijobiy jihatidir.

SIYOSIY GEOGRAFIK O‘RIN. O‘zbekiston shimoli-g‘arb va shimolda Qozog‘iston, sharqda Qirg‘iziston, janubi-sharqda Tojikiston, janubi-g‘arbda Turkmaniston, janubda Afg‘oniston bilan chegaradosh. O‘zbekistonning suvereniteti jahon hamjamiyati tomonidan tan olingan bo‘lib, 160 dan ortiq davlatlar bilan diplomatik aloqalar o‘rnatilgan. Mamlakatda ko‘plab elchixonalar faoliyat yuritadi, O‘zbekiston ham ko‘p davlatlarda o‘z elchixonalariga ega. Mustaqil davlatlar hamdo‘stligi (MDH), Shanxay hamkorlik tashkiloti (SHHT), Turkiy davlatlar tashkiloti (TDT) kabi xalqaro tuzilmalarga a’zolik mamlakatning siyosiy mavqeyini mustahkamlagan. So‘nggi yillarda qo‘shni davlatlar bilan munosabatlar yaxshilanib, chegara masalalari hal qilindi va savdo aloqalari kuchaydi. Bu jarayonlar O‘zbekistonning mintaqaviy barqarorlikdagi o‘rnini mustahkamladi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. O‘quvchi O‘zbekistonning geografik o‘rni haqida bir qancha ma’lumotlar to‘pladi va ularni tabiiy, iqtisodiy va siyosiy geografik o‘ringa ajratishda qiyinchilikka duch keldi. Siz ushbu ma’lumotlar geografik o‘rinning qaysi turiga tegishli ekanini aniqlashda yordam bering va ularni jadvalga to‘g‘ri joylashtiring:

a) O‘zbekistonning katta qismi Amudaryo va Sirdaryo oralig‘ida joylashgan;

b) Respublikamiz janubi-g‘arbdan Turkmaniston bilan chegaradosh;

d) “Bir makon, bir yo‘l” loyihasidagi bir qancha magistral yo‘llar O‘zbekiston orqali o‘tadi;

e) Mamlakatimiz okeanlardan uzoqda, materikning markazida joylashgan;

f) O‘zbekiston Shanxay hamkorlik tashkiloti doirasida qator davlatlar bilan aloqalarni rivojlantirmoqda;

g) O‘zbekiston arzon dengiz transportidan to‘g‘ridan to‘g‘ri foydalanish imkoniyatiga ega emas.

Tabiiy geografik o‘rin	Iqtisodiy geografik o‘rin	Siyosiy geografik o‘rin

2. O‘zbekistonning geografik o‘rniga xos xususiyatlardan qaysilari mamlakatimiz rivojiga ijobiy, qaysilari esa salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkinligini izohlang. Mamlakatimizning geografik o‘rni noqulay xususiyatlarining iqtisodiyotga salbiy ta’sirini kamaytirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin?

UYGA VAZIFA

1. Xaritadan quyidagi geografik obyektlarni toping. Ularni O‘zbekistonning aynan qaysi davlat bilan chegarasida joylashganiga ko‘ra chizmada keltirilgan raqamlar bo‘yicha guruhlab daftaringizga yozing:

a) Qoplonqir platosi;
b) Amudaryo;
d) Piskom tizmasi;
e) Ugom tizmasi;
f) Talas Olatovi tizmasi;
g) Ko‘hitangtog‘;
h) Kofirnihon daryosi;
i) Bobotog‘ tizmasi;
j) Tuyamo‘yin suv ombori;
k) Qurama tizmasi.



2. Mamlakatimiz bilan chegarasining uzunligi kamayib borish tartibida qo‘shni davlatlar nomlarini daftaringizga yozib chiqing.

1.3. O‘ZBEKISTONNING MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishini izohlashni o‘rganasiz;
- geografik atamalarni to‘g‘ri qo‘llaysiz va ularning mazmunini izohlaysiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Mamlakatning siyosiy-ma’muriy xaritasida nimalar tasvirlanadi va undan qanday maqsadlarda foydalanish mumkin?

O‘zbekiston Respublikasining hududi 448,9 ming kvadrat kilometr bo‘lib, maydonining kattaligi bo‘yicha, 01.01.2025-y. holatiga ko‘ra, dunyodagi 194 ta mustaqil davlat orasida dastlabki 60 talikka kirgan. Mamlakatimiz maydoni dunyoning eng rivojlangan davlatlari hisoblangan Yaponiya, Germaniya, Italiya hududidan katta.

Har bir mamlakat, uning hududi katta yoki kichik bo‘lishidan qat’i nazar, boshqaruvni qulay va samarali tashkil etish uchun ma’muriy-hududiy qismlarga – viloyat, tuman va shaharlarga bo‘linadi. Bu tizim mahalliy muammolarni joyida hal etishga, xalq bilan yaqin aloqa o‘rnatishga va barcha hududlarni barobar rivojlantirishga yordam beradi. O‘zbekistonda ham viloyatlar, tumanlar va mahallalar orqali boshqaruv tizimi yo‘lga qo‘yilgan (4-rasm).



RESPUBLIKAMIZ JAHONNING 60 TA ENG YIRIK DAVLATLARI QATORIGA KIRADI. JUMLADAN:

DUNYODA 56-O‘RIN

YEVROSIYODA 19-O‘RIN

OSIYODA 15-O‘RIN

- **Ma’muriy-hududiy tuzilish** – mamlakat hududini boshqarish va tashkil etish maqsadida turli ma’muriy birliklarga ajratish tizimi.
- **O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishining eng yirik birliklari** – Qoraqalpog‘iston Respublikasi, viloyatlar va Toshkent shahri.
- **Ularning tarkibida** tumanlar va shaharlar bor.
- **Tuman va shaharlar tarkibida** shaharcha, qishloq va ovullar joylashgan (5-rasm).



4-rasm. O‘zbekiston Respublikasi ma’muriy-hududiy tuzilishining tarkibiy qismlari

Mamlakatimizda viloyatlar soni 12 tani tashkil etib, ular hududi va aholi soni bo‘yicha bir-biridan farq qiladi. Tuman, shahar, shaharcha, qishloq va ovullar soni hamda nomlanishi hududlardagi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga mos ravishda o‘zgarib turadi.



Mamlakatimizdagi shaharlarning bo‘ysunuviga ko‘ra 3 toifasi:

1. O‘zbekiston Respublikasi bo‘ysunuvidagi;
2. Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘ysunuvidagi;
3. Tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar.

Respublika bo‘ysunuvidagi shaharlar – O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi palatalarining qarorlari bilan belgilanishi mumkin bo‘lgan, strategik ahamiyatga, yirik sanoat korxonalariga va rivojlangan infratuzilmaga ega, shuningdek, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markazlar bo‘lgan aholi punktlari.

Mamlakatimiz poytaxti – Toshkent shahri O‘zbekiston Respublikasi bo‘ysunuvidagi shahar hisoblanadi.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar bo‘ysunuvidagi shaharlar turkumiga kamida 30 ming aholisi bo‘lgan, muhim ma’muriy ahamiyat kasb etadigan, istiqbolli iqtisodiy va madaniy markaz hisoblangan shaharlar kiritilishi mumkin.

Tuman bo‘ysunuvidagi shaharlar turkumiga kamida 7 ming aholisi bo‘lgan, rivojlangan infratuzilma va sanoat korxonalariga ega aholi punktlari kiritiladi. Masalan, Toshkent viloyatidagi Keles shahri Toshkent tumani bo‘ysunuvidagi shahar hisoblanadi.

Shaharchalar turkumiga sanoat korxonalari, qurilishlar, temiryo‘l stansiyalari va boshqa muhim obyektlar yaqinida joylashgan hamda kamida 2 ming aholisi bo‘lgan aholi punktlari kiritilishi mumkin.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Mamlakatlar qanday maqsadlarda ma’muriy-hududiy birliklarga bo‘linadi deb o‘ylaysiz? Ma’muriy-hududiy tuzilish nima uchun pog‘onasimon xususiyatga ega?
2. Xaritadan foydalanib O‘zbekistonning eng chekka nuqtalari joylashgan ma’muriy-hududiy birliklari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar) to‘g‘risidagi ma’lumotlarni quyidagi jadvalda qayd eting.

Ma’muriy-hududiy birliklar	Ma’muriy markazi	Chegaradosh davlat va viloyatlar

UYGA VAZIFA

Yozuvsiz xaritada O‘zbekistonning davlat chegaralari va poytaxti, ma’muriy-hududiy birliklarning chegara va markazlarini belgilang.

1.4. AMALIY MASHG‘ULOT

DARS DAVOMIDA

- xaritadan foydalanib O‘zbekistonning geografik o‘rnini tavsiflaysiz va tahlil qilasiz;
- xarita yordamida geografik koordinatalarni hamda masofalarni aniqlaysiz;
- O‘zbekistonning ma’muriy-hududiy tuzilishini izohlaysiz.

Keys-1.

a) Quyidagi xaritadan foydalanib ko‘rsatilgan yo‘nalishlarda O‘zbekistondan okean-largacha bo‘lgan masofani hisoblang.



Yechim. O‘zbekistondan Tinch okeangacha bo‘lgan masofa xaritada 5,8 cm, xarita masshtabi esa 1: 70 000 000. Xaritada 1 cm oraliqqa qancha masofa to‘g‘ri kelishini aniqlaymiz: 1: 70 000 000 = 1 cm da 700 km. Undan so‘ng proporsiya tuzamiz:

$$\begin{array}{l} 1\text{ cm} \text{ —— } 700\text{ km} \\ 5{,}8\text{ cm} \text{ —— } X \end{array} \qquad X = \frac{5{,}8\text{ cm} \times 700\text{ km}}{1\text{ cm}} = 4060\text{ km}$$

Demak, O‘zbekistondan Tinch okeangacha bo‘lgan masofa 4060 km ga teng.

b) Dunyoning siyosiy xaritasidan foydalanib O‘zbekistonni okeanlardan qaysi davlatlar hududi ajratib turishini aniqlang.

Keys-2.

Devoriy yoki atlasdagi O‘zbekistonning siyosiy-ma’muriy xaritasidan mamlakatimizning chekka nuqtalarini toping va ularning geografik koordinatalarini aniqlang. Mamlakatimizning eng chekka janubiy nuqtasidan ekvatorgacha, eng chekka shimoliy nuqtasidan esa Shimoliy qutbgacha bo‘lgan masofalarni daraja va km larda hisoblang (Izoh: 1° meridian yoyining uzunligi 111,1 km ga teng).

Keys-3.



Ushbu xaritada raqamlar (1–8) bilan mamlakatimizning qaysi ma’muriy-hududiy birliklari va qo‘shni davlatlar ko‘rsatilganini aniqlang.

Qo‘shni davlatlardan qaysi biri:

- O‘zbekiston bilan eng katta masofada chegaradosh?
- O‘zbekiston bilan eng qisqa masofada chegaradosh?
- O‘zbekistonning eng ko‘p viloyatlari bilan chegaralanadi?

Keys-4.

Quyidagi ma’muriy-hududiy birliklarni boshqaruv pog‘onalari bo‘yicha guruhlang va yuqori pog‘onadan quyi pog‘onaga tomon joylashtiring. O‘zingiz yashayotgan aholi punkti qaysi pog‘onada joylashgan?

a) Qoraqalpog‘iston Respublikasi;
b) tumanga bo‘ysunuvchi shaharlar;
d) tumanlar;
e) viloyatlar;
f) viloyatga bo‘ysunuvchi shaharlar;
g) qishloq va ovullar; h) Toshkent shahri.

II BOB

YERNING TUZILISHI VA GEOLOGIYA



USHBU BOBDA QUYIDAGI MAVZULARNI O‘RGANASIZ:

2.1. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar
2.2. O‘zbekiston relyefining xo‘jalikka ta’siri
2.3. Zilzilalarning ijtimoiy-iqtisodiy oqibatlari
2.4. O‘zbekistonning mineral resurslari
2.5. Amaliy mashg‘ulot

2.1. TABIIY SHAROIT VA TABIIY RESURSLAR

DARS DAVOMIDA

- tabiiy sharoit (geografik o‘rin, iqlim, relyef) hamda tabiiy resurslar (mineral resurslar, suv, yer, Quyosh va shamol energiyasi)ni farqlaysiz va misollarda tushuntira olasiz;
- O‘zbekiston tabiiy sharoiti va tabiiy resurslaridan foydalanish natijasida geosistemalarda bo‘layotgan antropogen o‘zgarishlarni tavsiflay olasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Mamlakatlarning rivojlanishida tabiiy sharoit va tabiiy resurslar katta ahamiyatga ega. Ular tabiat qonunlari asosida shakllanadi. Insonlar tabiiy sharoit va tabiiy resurslarning qanday holatda bo‘lishini belgilamaydi, faqat ulardan mamlakatni rivojlantirish yo‘lida oqilona foydalanish imkoniga ega. Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar tabiat bilan bog‘liq bo‘lsa-da, xo‘jalik faoliyatida farqli xususiyatlarga ega. Tabiiy resurslar xo‘jalik faoliyatda tabiatdan olinadigan ne’matlardir (1-rasm). Tabiiy sharoit esa xo‘jalik faoliyatini tashkil etishda qulaylik yoki noqulaylik tug‘diradigan tabiiy muhit hamda tabiiy omillardan iborat.

O‘YLAB KO‘RING

1. Siz yashaydigan hududda xo‘jalik faoliyati uchun tabiatning qanday qulay va noqulay xususiyatlari mavjud?
2. Bugungi nonushtangizdagi qaysi mahsulotlar tabiatdan olingan deb o‘ylaysiz? Ularning tabiatdagi dastlabki shakli qanday bo‘lgan?

Mamlakatimizning o‘ziga xos geografik o‘rni, yog‘in miqdorining nisbatan kamligi, havo haroratining yoz va qish oylaridagi katta farqi, sharqiy va janubi-sharqiy qismlari tog‘ tizmalaridan, g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy qismlari tekisliklardan iboratligi uning tabiiy sharoi-

ILMIY ATAMALAR

Tabiiy sharoit – aholi yashashi va xo‘jalik faoliyatiga bevosita ta’sir ko‘rsatadigan, sifat ko‘rsatkichlari (qulay yoki noqulay) bilan tavsiflash mumkin bo‘lgan geografik o‘rin, relyef va iqlim sharoiti.

Tabiiy resurslar (tabiiy boyliklar) – inson xo‘jalik faoliyatida tabiatdan oladigan barcha ne’matlar. Tabiiy resurslarga foydali qazilmalar, yer, suv, o‘simlik va hayvonlar, Quyosh va shamol energiyasi kiradi. Tabiiy resurslar tugaydigan va tugamaydigan resurslarga bo‘linadi.

Tugaydigan resurslar – tabiatda zaxirasi cheklangan, insonlarning foydalanish jarayonida kamayib boradigan va tugash ehtimoli mavjud bo‘lgan resurslar.

Tugamaydigan resurslar – tabiatda doimiy mavjud bo‘lgan, inson foydalanishi natijasida zaxirasi kamaymaydigan yoki muntazam ravishda qayta tiklanadigan resurslar.



1-rasm. Tabiiy resurslar

tiga xos umumiy xususiyatlardir. Mamlakatimizning tabiiy sharoiti foydali qazilmalar, yer, suv, o‘simlik va hayvonot dunyosi, Quyosh va shamol energiyasi kabi xilma-xil tabiiy resurslarga boy. Tabiati xilma-xil bo‘lgani tufayli tabiiy sharoiti va tabiiy resurslari ham cho‘l (400–500 m dan past), adir (400–500 m dan 1000–1200 m gacha), tog‘ (1000–1200 m dan 2700–2800 m gacha) va yaylov (2700–2800 m dan baland) tabiat mintaqalarida bir-biridan farq qiladi.

Mamlakatimizdagi cho‘l mintaqasi (tabiiy yaylov)dan chorvachilikda foydalaniladi. Cho‘l yaylovlari ozuqaga boy emas. Cho‘l mintaqasida yirik daryo va kanallar atrofidagi hududlar qadimdan o‘zlashtirilib, sug‘orma dehqonchilikda foydalaniladi. Bunday hududlarda vohalar shakllangan. Cho‘l mintaqasi foydali qazilmalarga boy. Shuningdek, cho‘llarda tuyalarda sayohat, o‘tovlarda dam olish kabi o‘ziga xos xususiyatlarga ega bo‘lgan turizmni rivojlantirish, Quyosh va shamol elektr stansiyalarini qurish mumkin.

Adir mintaqasida cho‘lga nisbatan tuproqlar unumdor, o‘simliklar turi ko‘p va zichroq. Adirlar qishloq xo‘jaligi uchun qulay bo‘lganidan bu yerlardagi o‘simliklar va hayvonot dunyosi o‘zgartirib yuborilgan. Adirlarning yuqoriroq qismlarida lalmikor dehqonchilik bilan shug‘ullaniladi.

Tog‘ mintaqasida yoz nisbatan qisqa, yog‘ingarchilik ko‘p bo‘ladi. Tuprog‘i nihoyatda chirindiga boy. Rovoch, tog‘ yalpizi, pista, bodom, na’matak kabi dorivor o‘simliklar o‘sadi. Tog‘ mintaqasidan tog‘-yaylov chorvachiligida, dorivor o‘simliklarni yig‘ishda, issiq fasllarda dam olish va hordiq chiqarishda foydalaniladi. Tog‘ mintaqasi turli rudali qazilmalarga boy.

Yaylov mintaqasida yilning aksariyat qismida havo sovuq bo‘ladi, yer ustini qor qoplab yotadi. Yoz qisqa o‘tadi, yog‘ingarchilik ko‘p kuzatiladi. Yaylov mintaqasining qulay joylaridan chorvachilikda foydalaniladi.

Ushbu mintaqadagi qor va muzliklarning suv manbayi sifatidagi ahamiyati katta. Ulardan ekstremal turizmni rivojlantirishda ham foydalanish mumkin.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Quyidagilarni xo‘jalikda foydalanish maqsadidan kelib chiqqan holda tabiiy sharoit va tabiiy resurslarga ajrating:

a) Mamlakatimizning tog‘li hududlari dorivor o‘simliklarga boy;

b) O‘zbekistonning g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy hududlaridagi tekisliklar transport yo‘llarini qurishga qulay;

d) Mamlakatimizning tog‘lari xushmanzara tabiati bilan sayyohlarni jalb etadi;

e) O‘zbekistonning cho‘l mintaqasida muhim ahamiyatga ega bo‘lgan neft va gaz konlari mavjud;

f) Mamlakatimizning tog‘ mintaqasida qo‘y va echkichilik uchun yaylovlar bor.

Tabiiy sharoit	Tabiiy resurslar

2. Tabiiy resurslarni tugaydigan va tugamaydigan guruhlarga ajrating.
3. O‘zingiz yashaydigan hududda tabiiy sharoit yoki tabiiy resurslardan foydalanish bilan bog‘liq biror muammoni aniqlang. Ushbu muammo sabablarini hamda uni hal etish bo‘yicha takliflaringizni yozing.

UYGA VAZIFA

1. O‘zbekistonning tabiat mintaqalari qaysi viloyatlarga to‘g‘ri kelishini aniqlang. Jadvalni to‘ldiring. Bitta viloyatda bir nechta tabiat mintaqalari uchrashi mumkinligini inobatga oling.

Tabiat mintaqalari	Ma’muriy birliklar (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar)
Cho‘l	
Adir	
Tog‘	
Yaylov	

2. Yashash hududingiz (shahar, qishloq) qaysi tabiat mintaqasida joylashgan? Mazkur joylashuvning mahalliy aholi kundalik turmush tarzi va xo‘jalik faoliyatiga ta’siri haqida daftaringizga yozing.

2.2. O‘ZBEKISTON RELYEFINING XO‘JALIKKA TA’SIRI

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekiston relyefi (tog‘, tekislik, botiq va vodiylar)ning asosiy xususiyatlarini hamda qishloq xo‘jaligi, sanoat sohalarining rivojlanishiga ta’sirini tahlil qilasiz;
- O‘zbekistonning tabiiy xaritasidan foydalanib hududlar relyefini tavsiflashni o‘rganasiz;
- mamlakatimizdagi asosiy relyef shakllarining xo‘jalik faoliyatiga ta’sirini bilib olasiz hamda afzallik va kamchiliklarini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘zbekistonning sharqiy, janubi-sharqiy qismlari tog‘ tizmalari va tog‘ oraliq botiqlaridan, g‘arbiy, shimoli-g‘arbiy qismlari esa tekisliklardan iborat (2-rasm).

Relyef tabiiy omil sifatida iqlimga, foydali qazilmalarning tarqalishiga, suv resurslarining taqsimlanishiga ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakatimizda tekisliklardan tog‘ tizmalariga ko‘tarilgan sari havo harorati pasayib, yog‘in miqdori ortib boradi. Tekisliklardagi asosiy suv manbalari bo‘lgan daryolar tog‘ tizmalaridan boshlanadi. Hududlarning o‘ziga xos tabiiy sharoitida relyef muhim o‘rin tutadi. Shuningdek, relyef aholining joylashuvi, qishloq xo‘jaligi, transport, sanoat va turizm kabi xo‘jalik tarmoqlariga ta’sir ko‘rsatadi.

Aholi manzilgohlarining joylashuvida relyef hal qiluvchi rol o‘ynaydi. Insonlar tekisliklar, daryo vodiylari, nishabligi kam yonbag‘irlar kabi qulay relyef shakllarida turarjoylar qurishni afzal ko‘radi. Bunday hududlarning aksariyati unumdor tuproqlarga ega bo‘lib, qishloq xo‘jaligi, transport va qurilish uchun yaxshiroq imkoniyatlar yaratadi. Mamlakatimizdagi ko‘pgina shaharlar tekisliklarda, qulay sharoitga ega daryo vodiylarida joylashgan.

Relyef qishloq xo‘jaligini yuritishga va uning mahsuldorligiga ta’sir ko‘rsatadi. Tekis yuzalar, nishabligi kam yonbag‘irlar sug‘orma dehqonchilik uchun qulay. Tik yonbag‘irlar esa eroziyaga moyil, u yerda sug‘orish tarmoqlarini tashkil etish imkoniyatlari

O‘YLAB KO‘RING

Nima uchun baland tog‘ yonbag‘irlarida aholi turarjoylari juda kam, daryo vodiylarida esa aholi zich joylashgan?

ILMIY ATAMALAR

Relyef – Yer yuzasining shakllari, jumladan, tog‘lar, tekisliklar, qirlar, tepalar, vodiylar, adirlar, soylar majmuyi.

Vodiy – atrofi tog‘lar bilan o‘ralgan botiq relyef shakli. Farg‘ona, Andijon va Namangan viloyatlari joylashgan Farg‘ona vodiysi bunga misol bo‘ladi.


Qoraqalpog'iston
Respublikasi
Jasliq
Mo'ynoq
Qo'ng'irot
Nukus
Ashshitov t.
Sariqamish k.
Urganch
Xiva
Bo'ston
Uchquduq
Tomdibuloq
Nurota
Navoiy
Gazli
Buxoro
Samarqand
Zarafshon tizm.
Jizzax
Guliston
Sirdaryo viloyati
TOSHKENT
Toshkent viloyati
Nurafshon
Namangan
Andijon
Farg'ona
Qashqadaryo viloyati
Qarshi
Xo'japiyox t.
Hisor tizmasi
Boysun
Surxondaryo viloyati
Termiz
Kohitang tizm.
Bobotog' tizm.
Zarkosa t.
Ugom tizmasi
Chotqol tizmasi
Piskom tizmasi
Beshtor t.
Talas Olatovi tizmasi
Qurama tizmasi
Turkiston tizm.
Ayteren do'ng.
Ovminza t.
Ovminzatov tog'lari
Qoratepa do'ng.
Beshqoq do'ng.
Hayotboshi t.
Taxku t.
Mo'lali botig'i
Yetimtov tog'lari
Mingbuloq botig'i
Bo'kantov tog'lari
Irlir t.
Tomdibuloq tog'lari
Qoratepa tizmasi
Qoratepa tog'lari
Qoratepa tizmasi
Qoratepa tog'lari
Qoratepa tizmasi
Qoratepa

Relyef xususiyatlari sanoat tarmoqlarining joylashuviga ham ta’sir ko‘rsatadi. Yirik sanoat korxonalari transport va infratuzilmalarni o‘tkazish qulay bo‘lgan tekis hududlarda quriladi. Tog‘li hududlar rudali qazilmalarga, tekisliklar va tog‘oldi hududlar esa neft va gaz, noruda qazilmalarga boy bo‘ladi. Tog‘-kon sanoati, neft va gazni qayta ishlash, metallurgiya kabi sanoat tarmoqlarini xomashyo manbalariga yaqin joylashtirish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Quyidagi xo‘jalik faoliyati turlari uchun relyefning turli shakllari qulay (++), kamroq qulay (+) yoki noqulay (−) ekanini yozing.

Xo‘jalik faoliyati turlari	Tekisliklar	Daryo vodiylari (tog‘ oraliq botiqlari)	Nishabligi kam tog‘ yonbag‘irlari	Tog‘larning baland qismlari va tik yonbag‘irlari
Sug‘orma dehqonchilik				
Transport yo‘llari qurish				
Shaharlar barpo etish				
Yoz faslida sayohat va dam olish				
Gidroenergetika				

2. O‘zbekiston tabiiy xaritasidan plato, tekislikdagi past tog‘lar va botiqlar, yirik tog‘ tizmalari, tog‘ oraliq botiqlarini toping, ular qaysi ma’muriy birliklarda (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar) joylashganini aniqlang. Daftaringizga jadval shaklida yozing.

UYGA VAZIFA

1. Toshkent shahridan Termiz shahriga avtomobilda yo‘lga chiqqan yo‘lovchi qaysi relyef shakllari (tog‘ tizmalari, tog‘ oraliq botiqlari, tekisliklar)ni kesib o‘tadi? Ularning nomini tabiiy xaritadan aniqlab, daftaringizga yozing. Ulardan sug‘orma dehqonchilik uchun qulay bo‘lganlarini ajratib ko‘rsating.
2. O‘zingiz yashaydigan hudud relyefiga tavsif bering. Bu hududdagi xo‘jalikka relyefning ta’sirini misollar bilan tushuntiring.

2.3. ZILZILALARNING IJTIMOIY-IQTISODIY OQIBATLARI

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekiston hududida sodir bo‘lgan zilzilalarning oqibatlarini ta’riflaysiz va uning inson xo‘jalik faoliyatiga ta’sirini baholaysiz;
- zilzilalar ta’sirini kamaytirishning samarali usullari (zilzilabardosh bino va inshootlar qurish)ni baholaysiz va bu borada takliflar berasiz;
- zilzila keltiradigan zararlarning katta-kichikligi turli omillarga bog‘liq ekanini bilib olasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Litosfera plitalarining harakati bilan bog‘liq yer qatlamlaridagi tektonik siljishlar natijasida zilzilalar sodir bo‘lib turadi. Litosfera plitasi boshqa bir plita tomon harakat qilishi natijasida vujudga kelgan bosim va kuchlanish Yer qatlamlaridagi tog‘ jinslarining sinishiga, yorilishiga sabab bo‘ladi. Natijada seysmik to‘lqinlar (energiya) tarqalib, Yer yuzasida tebranish yoki silkinish tarzida seziladi (3-rasm). Odatda kutilmaganda sodir bo‘ladigan bunday tebranish va silkinishlar *zilzila* deb ataladi.



3-rasm. Zilzila o‘chog‘i, markazi va seysmik to‘lqinlar

Zilzilalar inson xo‘jalik faoliyati natijasida ham sodir bo‘lishi mumkin. Masalan, tog‘-kon sanoatida hosil bo‘lgan bo‘shliqlarda qatlamlarning siljishi, yirik dambalarni qurish natijasida hududda og‘irlikning ortishi va qatlamlarning surilishi, yirik muhandislik inshootlarini qurishda kuzatiluvchi oqibatlar sabab bo‘lishi mumkin. Bunday zilzilalar nisbatan kuchsizroq bo‘ladi.

Keys-1. Zilzilalarning sabablari

1. Ushbu xaritadan foydalanib O‘zbekistonda nima sababdan zilzilalar sodir bo‘lishini tushuntiring.
2. Qaysi litosfera plitalarining to‘qnashishi natijasida Alp-Himolay seysmik mintaqasi shakllangan (4-rasm)?



4-rasm. Alp-Himolay seysmik mintaqasi

Zilzilalar odamlarning halok bo‘lishi va jarohatlanishi, bino va inshootlar buzilishi, kommunal tarmoqlar (gaz, elektr va suv ta’minoti)dagi uzilishlar, kanalizatsiyaning ishdan chiqishi, yong‘inlar, suv toshqinlari (dambalar buzilsa), surilmalar vujudga kelishi va boshqa shu kabi oqibatlarga sabab bo‘lishi mumkin.

O‘YLAB KO‘RING

Nima uchun ayrim hududlarda zilzilalar tez-tez sodir bo‘ladi, boshqa hududlarda esa deyarli kuzatilmaydi?

Zilzila oqibatlari va talafotlarining katta-kichikligi quyidagi omillarga bog‘liq:

- **Zilzilaning kuchi va seysmik to‘lqinlar soni.** Zilzila qanchalik kuchli bo‘lsa, talafot ham shuncha ko‘p bo‘ladi.
- **Aholi zichligi.** Zilzila aholi zichligi yuqori hududlarda, ayniqsa, shaharlarda aholi siyrak yashaydigan hududlarga nisbatan ko‘proq talafot keltiradi.
- **Bino va inshootlarning turi.** Binolarning zilzilabardoshligi ularni qurishda foydalanilgan materiallarga bog‘liq. Ba’zan ko‘p qavatli binolar qulab, boshqa inshootlarni bosib qolishi mumkin.
- **Sutkadagi vaqt.** Odamlar kunduzi (ish vaqtida) sanoat va savdo hududlarida, kechasi esa xonadonlarda zilziladan ko‘proq zarar ko‘rishi mumkin.
- **Zilzila markazi (epitsentr)gacha bo‘lgan masofa.** Hudud zilzila markaziga qanchalik yaqin bo‘lsa, talafot ham shunchalik ko‘p bo‘ladi.
- **Tog‘ jinslari va yotqiziqlarining turi.** Zilzila yumshoq tog‘ jinslarida joylashgan binolarga ko‘proq zarar keltiradi, qattiq tog‘ jinslari ustidagi binolar xavfsizroq bo‘ladi.

Zilzilalarning oldini olish yoki qachon sodir bo‘lishini aniq prognoz qilish imkonsiz. Bunday xavfli tabiiy jarayonga qarshi kurashishda bino va inshootlarni zilzilabardosh qilib qurish, aholiga zilzila vaqtida to‘g‘ri harakatlanishni o‘rgatish, favqulodda vaziyatlarga tayyorgarlikni kuchaytirish va aholini ogohlantirish tizimini yo‘lga qo‘yish kabi chora-tadbirlarni amalga oshirish mumkin.

So‘nggi yillarda mamlakatimizda ko‘p qavatli binolar soni ortib bormoqda. Bunday binolarning zilzilabardoshligini oshirish uchun temir-beton, devor panellari kabi materiallardan foydalaniladi. Binolarning zilzilabardoshlik darajasi aniqlanib, chidamsiz bo‘lganlaridan foydalanishga ruxsat berilmaydi. Aholining katta qismi (asosan qishloq hudud-



5-rasm. Zilzila talafotini kamaytirishning xorijiy tajribalari

larida) zilzilabardoshligi tekshiruvdan o‘tkazilmaydigan kam qavatli uylarda yashamoqda. Bunday hududlarda binolarning zilzilabardoshligini oshirishga qaratilgan, ko‘p mablag‘ talab qilmaydigan qurilish usullarini joriy etish muhim ahamiyatga ega (5-rasm).

Keys-2. **Toshkent zilzilasi**

1966-yilning 26-aprelida, soat 5:23 da Toshkent shahri aholisi dahshatli zilziladan uyg‘onib ketdi. Zilzilaning kuchi 8 ball, magnitudasi 5,3 ni tashkil etgan. Aholi o‘rtasida qurbonlar kam bo‘lsa-da, bino va inshootlarning qulab tushishi oqibatida 300 ming kishi boshpanasiz qoldi. Zilzila tufayli shahardagi hayot izdan chiqdi (6-rasm).

Nima sababdan Toshkent zilzilasi juda kuchli bo‘lmasa-da, katta talafot keltirgan deb o‘ylaysiz?



6-rasm. Toshkent zilzilasi (1966)

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. O‘zingiz yashaydigan hududga zilzilabardoshlik nuqtayi nazardan tavsif bering va sodir bo‘lishi mumkin bo‘lgan talafotlarni yozing. Jadvalni to‘ldiring.

Bino va inshootlarning xususiyatlari	Aholining zich yoki siyrak joylashuvi	Tog‘ jinslarining xususiyatlari	Zilzila oqibatidagi ehtimoliy talafotlar

2. Guruhlarga bo‘linib, “Zilzila vaqtida to‘g‘ri harakatlanish”, “Binolarning zilzilabardoshligini oshirish”, “Zilziladan so‘ng hududlarni qayta tiklash” va shu kabi mavzulardan biriga kichik loyiha ishi tayyorlang va uni birgalikda taqdim eting.

UYGA VAZIFA

1. Mamlakatimizda sodir bo‘lgan zilzilalardan 3 tasiga quyidagi jadval asosida tavsif bering.

Sodir bo‘lgan joyi va yili	Zilzila kuchi (ball)	Zilzila keltirgan talafot	Zilziladan keyingi hududlarni tiklash ishlari va tabiiy ofatga qarshi ko‘rilgan boshqa chora-tadbirlar

2. Siz yashaydigan hududda binolarning zilzilabardoshligini oshirish uchun qanday materiallar va qurilish usullaridan foydalanilganini misollar bilan tushuntiring. Binolarning zilzilabardoshligini oshirish uchun yana qanday chora-tadbirlarni taklif etasiz?

2.4. O‘ZBEKISTONNING MINERAL RESURSLARI

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekiston hududida uchraydigan foydali qazilma konlari va ularning joylashuvini tahlil qilasiz;
- resurslarning cheklangani va ularning muqobil variantlarini topish yo‘llarini aniqlashni o‘rganasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Mineral resurslar (foydali qazilmalar) jamiyat turmushida juda katta ahamiyatga ega, chunki ko‘plab mahsulotlar, shuningdek, issiqlik va elektr energiyasini ishlab chiqarishda ulardan keng foydalaniladi. Ular *yoqilg‘i-energetika*, *ma’danli (rudali)* va *noma’dan (noruda)* resurslar guruhlariga bo‘linadi (7-rasm).

O‘YLAB KO‘RING

Nima uchun mineral resurslar (foydali qazilmalar) tugaydigan va tiklanmaydigan tabiiy resurs turi hisoblanadi? Sizningcha, ulardan foydalanishda bu holat qanday hisobga olinishi lozim?

O‘zbekiston hududida, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, turli mineral resurslarning **2537 ta** koni aniqlangan (O‘zbekiston Respublikasi Tog‘-kon sanoati va geologiya vazirligining rasmiy ma’lumoti). Xususan, yurtimiz oltin (**3-o‘rin**), kumush (**8-o‘rin**), uran (**12-o‘rin**), mis (**10-o‘rin**), kaliy tuzlari (**4-o‘rin**), volfram (**8-o‘rin**) kabi muhim mineral xomashyo turlarining zaxiralari bo‘yicha jahon mamlakatlari ichida ancha yuqori o‘rinda turadi.

MINERAL RESURSLAR

- **Yoqilg‘i-energetika resurslari –** ko‘mir, neft, tabiiy gaz, torf, yonuvchan slanes, uran.
- **Ma’danli (rudali) resurslar –** temir, mis, oltin, alyuminiy, kumush, simob va boshqa metallarning ma’danlari (rudalari).
- **Noma’dan (noruda) resurslar –** qurilish xomashyolari, qimmatbaho toshlar, mineral tuzlar, oltingugurt va boshqalar.

7-rasm. Mineral resurslarning tasnifi

Tabiiy gazning asosiy konlari Qashqadaryo (*Sho‘rtan, Shimoliy va Janubiy Muborak, Odamtosh* va b.), Buxoro (*Qandim, Gazli* va b.) viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasida (*Surgil, O‘rg‘a, Quvonish* va b.) joylashgan. Neft konlari Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo viloyatlari, Farg‘ona vodiysi va Qoraqalpog‘iston Respublikasida mavjud bo‘lib, eng yirik neft koni Qashqadaryo viloyatidagi *Ko‘kdumaloq* hisoblanadi.



8-rasm. O'zbekiston mineral resurslari xaritasi

Mamlakatimizda *Angren* (Toshkent viloyati), *Sharg'un, Boysun* (Surxondaryo viloyati) kabi ko'mir konlari mavjud. Uran konlarining asosiy qismi Navoiy, Buxoro va Samarqand viloyatlariga to'g'ri keladi. Ulardan eng kattasi Navoiy viloyatidagi *Uchquduq* konidir.

O'zbekiston oltin, mis, rux, qo'rg'oshin, molibden, volfram va boshqa metallar rudalarining zaxirasiga boydir. Oltinning eng yirik konlari *(Muruntov, Qoqpatas)* Markaziy Qizilqumda, Navoiy viloyatida joylashgan. Shuningdek, oltin konlari Samarqand *(Zarmitan)*, Jizzax *(Marjonbuloq)*, Toshkent *(Qizilolmasoy)* va Namangan *(Pirmirob)* viloyatlarida ham mavjud. Mis rudalarining yirik konlari *(Qalmoqqir, Saricheku, Dalneye)* Toshkent viloyatida, Qurama tizmasi yonbag'irlarida joylashgan. Qo'rg'oshin-rux (**polimetall** deb ham ataladi) rudalarining konlari Jizzax *(Uchquloch)*, Surxondaryo *(Xonjiza)*, Toshkent *(Lashkarak)* viloyatlarida, volfram rudalarining konlari Jizzax *(Qo'ytosh)*, Samarqand *(Ingichka)* viloyatlarida, molibden rudalarining konlari esa Toshkent *(Olmaliq)* viloyatida joylashgan (8-rasm).

Mineral tuzlarning katta zaxiralari Qoraqalpog'iston Respublikasi (sulfat tuzlari – *Qo'ng'irottuz, Borsakelmas* konlari), Qashqadaryo (kaliy tuzi – *Tubegatan* koni) va Navoiy (fosforit – *Yeruy-Sardara, Shimoliy Jetimtov* konlari) viloyatlarida bor. O'zbekiston hududida turli qurilish materiallarining 1850 dan ziyod konlari topilgan. Ayniqsa, O'zbekiston marmar konlari bilan mashhur bo'lib, ulardan eng yirigi Navoiy viloyatidagi *G'ozg'on* konidir (8-rasm).

Umuman olganda, O‘zbekiston hududlari orasida turli foydali qazilma konlarining ko‘pligi bilan Navoiy, Toshkent, Qashqadaryo viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi alohida ajralib turadi. Ayni paytda, Xorazm, Sirdaryo va Andijon viloyatlarida boshqa hududlarimizga nisbatan mineral resurslar nisbatan cheklangan.

ILM-FAN KUNDALIK HAYOTDA

Geologiya – Yerning tarkibi, tuzilishi va rivojlanish tarixini o‘rganadigan fan hamda foydali qazilmalarni qidirish va ularni o‘zlashtirish bilan shug‘ullanadigan amaliy soha.

O‘zbekistonda geologiya sohasi mutaxassislari Geologiya fanlari universiteti, O‘zbekiston Milliy universiteti, Toshkent davlat texnika universiteti, Navoiy davlat konchilik va texnologiyalar universiteti, Olmaliq davlat texnika instituti va boshqa o‘quv yurtlarida tayyorlanadi.

Maktabda geologiya sohasiga oid dastlabki bilimlar esa o‘quvchilarga geografiya darslarida o‘rgatiladi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Quyidagi foydali qazilmalarni yoqilg‘i-energetika, ma’danli va noma’dan kabi guruhlarga ajrating: *sement xomashyosi, ko‘mir, yonuvchan slanes, marmar, mis, torf, kaliy tuzlari, molibden, temir, neft, fosforit, volfram.*
2. Quyidagi konlardan qanday mineral resurslar qazib olinishi va ular qaysi viloyatlarda joylashganini aniqlang: *Ko‘kdumaloq, G‘ozg‘on, Sho‘rtan, Angren, Muruntov, Tubegatan, Qalmoqqir, Uchquduq.*
3. O‘zbekistonning qaysi viloyatlarida mineral resurslar konlari ko‘p? Qaysi viloyatlarda esa konlar nisbatan kam?

UYGA VAZIFA

1. Quyidagi jadvalni daftaringizga ko‘chiring. Uni zaxirasi bo‘yicha O‘zbekiston jahon mamlakatlari orasida yuqori o‘rinlarda turadigan mineral resurslarning turlariga oid ma’lumotlar bilan to‘ldiring.

Mineral resurs turi	Xaritadagi shartli belgisi	Kon	Kon joylashgan viloyat

2. Mineral resurslarga muqobil ravishda hozirgi kunda qanday energiya manbalari va xomashyo materiallaridan foydalanilishi va bunday muqobil resurslarni ko‘paytirishning zarurati haqida axborot tayyorlang.

2.5. AMALIY MASHG‘ULOT

DARS DAVOMIDA

- mineral resurslar bilan ta’minlanganlik ko‘rsatkichlarini hisoblaysiz;
- foydali qazilma konlarini o‘zlashtirishning samaradorligiga ta’sir qiladigan omillarni aniqlaysiz;
- ilmiy g‘oya, hodisalarni model (xarita, rasm, sxema, diagramma, grafik, maket)dan foydalanib tavsiflaysiz.

Keys-1. Foydali qazilma konlaridagi zaxiralar qancha vaqtga yetishini hisoblash

Foydali qazilma konidagi mineral xomashyoning zaxiralari necha yilga yetishi mumkinligini aniqlash uchun geolog mutaxassislar hisoblagan mineral resurs zaxiralari hamda kondan yiliga qazib olinadigan xomashyo miqdorini bilish zarur. Agar ushbu ma’lumotlar bizda mavjud bo‘lsa, zaxiralar hajmini yillik qazib olish miqdoriga bo‘lamiz. Chiqqan natija kondagi mineral resurs xomashyosi necha yilga yetishini ko‘rsatadi. Jadvaldagi ma’lumotlardan foydalanib, tegishli konlardagi mineral xomashyo zaxiralari necha yilga yetishini hisoblang.

Konning nomi	Mineral resurs turi	Kon joylashgan hudud	Kondagi foydali qazilmaning aniqlangan zaxiralari (ming t, 1.06.2024-yil)	Foydali qazilmani yillik qazib olish miqdori (ming t, 2023-yil)	Kondagi mineral xomashyo zaxiralari qancha vaqtga yetishi (yil)
Tubegatan	Kaliy tuzi	Qashqadaryo viloyati	226 270	2 656	?
Yeruy-Sardara	Fosforit	Navoiy viloyati	52 547	193	?
Borsakelmas	Osh tuzi	Qoraqalpog‘iston Respublikasi	242 695	608	?
Jarqoq	Gips	Buxoro viloyati	5 835	235	?
Angren	Qo‘ng‘ir ko‘mir	Toshkent viloyati	1 803 000	5 848	?

Keys-2. Davlatlarning mineral resurs zaxiralari bilan ta’minlanganini hisoblash (aholi jon boshiga)

Davlatning mineral resurs bilan ta’minlanganlik darajasi tegishli resurs zaxiralarining necha yilga yetishini aniqlash orqali yoki aholi jon boshiga (ya’ni bir kishiga) nisbatan o‘lchanadi. Resurs zaxiralarining qancha muddatga yetishi zaxiralar hajmini ularni yillik qazib olish miqdoriga bo‘lish orqali aniqlanadi. Resurs bilan ta’minlanganlikni aholi jon boshiga nisbatan aniqlash uchun esa resurs zaxiralari hajmi mamlakat aholisi soniga bo‘linadi.

Quyidagi diagrammalarda oltin zaxiralariga eng boy bo‘lgan 10 ta davlatga oid ma’lumotlar keltirilgan. Ulardan foydalanib ushbu davlatlarning oltin zaxiralari bilan aholi jon boshiga ta’minlanganlik ko‘rsatkichlarini (grammda) hisoblang. Bunda oltin zaxiralari tonnada, aholi soni million kishida berilganini hisobga oling.



Oltin zaxiralari (t, 2024)



Aholi soni (mln kishi, 2024)

Keys-3.

Har doim ham foydali qazilma konlarini o‘zlashtirish va ulardan mineral xomashyoni qazib olish samarali hisoblanmaydi. Shu sababli ba’zan ayrim konlardan yillar davomida foydalanilmaydi. Sizningcha, jadvalda ko‘rsatilgan omillar foydali qazilma konini o‘zlashtirish samaradorligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi (9-rasm)? Bu boradagi fikrlaringizni daftaringizga yozing.



9-rasm. Konni o‘zlashtirish samaradorligiga ta’sir etuvchi omillar

III BOB

IQLIM VA SUV



USHBU BOBDA QUYIDAGI MAVZULARNI O‘RGANASIZ:

3.1. O‘zbekistonning iqlim resurslari
3.2. Iqlim o‘zgarishining O‘zbekistondagi oqibatlari
3.3. Loyiha ishi
3.4. O‘zbekistonning suv resurslari va ulardan foydalanish

3.1. O‘ZBEKISTONNING IQLIM RESURSLARI

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekiston iqlim resurslari (harorat, yog‘in, namlik, shamol, quyosh radiatsiyasi)ning milliy iqtisodiyot rivojlanishiga ta’sirini izohlaysiz;
- O‘zbekiston xo‘jaligining ixtisoslashuvi uning iqlim ko‘rsatkichlari (harorat, namlik, quyoshning nur sochish davomiyligi)ga bog‘liqligini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Inson xo‘jalik faoliyatida foydalanishi mumkin bo‘lgan Quyosh energiyasi, shamol, yog‘ingarchilik iqlim resurslarini tashkil etadi. Iqlim resurslari qishloq xo‘jaligi, turizm, rekreatsiya, elektr energetikasi sanoatida va boshqa tarmoqlarda muhim ahamiyatga ega (1-rasm).

Iqlim resurslari orasida Quyosh energiyasining ahamiyati yuqori bo‘lib, qishloq xo‘jaligi ekinlarini yetishtirish imkoniyatini belgilab beradi. Sutkalik o‘rtacha havo harorati +10 °C dan oshganda o‘simliklarning faol o‘sish davri boshlanadi. Mamlakatimizda +10 °C dan yuqori bo‘lgan haroratlarning yillik yig‘indisi 4500–5900 °C ga yetadi. Bunday iqlim sharoiti ingichka tolali paxta, makkajo‘xori, xurmo, sholi, kungaboqar va boshqa ko‘pgina ekinlarni yetishtirish imkonini beradi.



1-rasm. Iqlim resurslaridan foydalanish

O‘YLAB KO‘RING

1. Boshqa mamlakatlardan keltiriladigan kivi, banan, ananas, apelsin kabi mevalar nima sababdan mamlakatimizda yetishtirilmaydi?
2. O‘zbekistonga sayyohlar qaysi fasllarda eng ko‘p tashrif buyuradi? Buning asosiy sabablari nimada?

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Sizningcha, O‘zbekistonda Quyosh radiatsiyasining shimolga tomon kamayib borishi nima bilan bog‘liq?
2. Iqlim xaritasi yordamida qaysi viloyatlarda lalmikor dehqonchilik uchun yetarli yog‘ingarchilik kuzatilishini aniqlang.



2-rasm. O'zbekistonda yillik yog'in miqdori va Quyosh nur sochib turishi davomiyligi

Ekinlarni yetishtirishda yog'ingarchilik ham muhim rol o'ynaydi (2-rasm). Yillik yog'in miqdori 200 mm dan ortiq bo'lgan hududlarda yerni sug'ormasdan, tabiiy namlik hisobiga dehqonchilik qilish imkoniyati mavjud. Bunday hududlar *lalmikor yerlar* deb nomlanadi. Lalmikor yerlar yog'in miqdori nisbatan yuqori, relyef sharoiti sug'orishga noqulay bo'lgan tog'oldi hududlarda, tog' yonbag'irlarida keng tarqalgan. Bunday yerlar sug'orma dehqonchilikka nisbatan anchagina kam hosil berishiga qaramay, sug'orish uchun noqulay bo'lgan hududlardan foydalanish imkonini bergani uchun ham katta iqtisodiy ahamiyatga ega. Mamlakatimizda yog'in miqdori g'arbdan sharqqa tomon, relyefning balandlashishi bilan ortib boradi. O'zbekistonning sharqiy va janubi-sharqiy tog'oldi hududlarida, adir mintaqasida lalmikor yerlar mavjud.

Quyosh radiatsiyasi janubdan shimolga tomon, Quyosh tushish burchagining kichiklashishi sababli kamayib boradi va issiqlik resurslarining notekis taqsimlanishiga sabab bo'ladi. Mamlakatimizda iqlim resurslari g'arbdan sharqqa tomon relyefning balandlashib borishiga bog'liq holda o'zgaradi.

Tugamaydigan resurslarga kiradigan Quyosh va shamol energiyasi ekologik jihatdan toza energiya manbalaridir. Quyoshning nur sochib turishi davomiyligi Quyosh elektr stansiyalaridan keng foydalanish imkonini beradi.

Mamlakatimizda shamol elektr stansiyalari qurish imkonini beradigan mahalliy shamollar mavjud. Bularga Bekobod shamoli (tezligi 30–40 m/s ga yetadi), Qo'qon shamoli (15–25 m/s), mahalliy tog'-vodiy shamollarini misol qilib keltirish mumkin. Bugungi kunda

shamol ko‘p esadigan hududlar aniqlanib, shamol elektr stansiyalari qurilmoqda. Bunday hududlarga Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro, Toshkent viloyatlarini misol qilish mumkin.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

Quyidagi rasmlarda ko‘rsatilgan hududlarga qaysi iqlim diagrammalari mosligini va ular mamlakatimizning qaysi tabiat mintaqalariga to‘g‘ri kelishini aniqlang. Jadvalni to‘ldiring va savollarga javob bering.



Tabiat mintaqalari	Qaysi rasmda ko‘rsatilgan?	Qaysi diagrammaga to‘g‘ri keladi?	Iqlim resurslaridan qanday maqsadlarda foydalaniladi?
Cho‘l			
Adir			
Tog‘			
Yaylov			

1. Tabiat mintaqalarida yog‘in miqdori nima sababdan farqlanishini tushuntiring. Yog‘in miqdori qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuviga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
2. Lalmikor dehqonchilik qaysi tabiat mintaqalarida yo‘lga qo‘yilgan? Diagrammalar yordamida lalmikor dehqonchilikda ekinlar qaysi faslda yetishtirilishini tushuntiring.
3. Yoz faslida qaysi tabiat mintaqalari sayohat uchun qulay? Nima sababdan?
4. O‘simliklarning vegetatsiya davri qaysi tabiat mintaqasida uzoqroq davom etadi?

ILM-FAN KUNDALIK HAYOTDA



Meteorologlar Yerdagi iqlim va atmosfera hodisalarini o‘rganib, turli sohalar uchun ob-havo prognozlarini tuzadilar. Buning uchun ular meteostansiyalar, sun’iy yo‘ldosh va dron ma’lumotlari, shuningdek, geografik bilimlardan keng foydalanadilar. Masalan, relyef va Yer yuzasi tuzilishining iqlimga ta’sirini, havo massalari harakatini, yog‘in va namlikning hududiy taqsimlanishini o‘rganish juda muhim. Bu boradagi bilimlar prognozlar aniqligini oshiradi. O‘zbekistonda ushbu faoliyat bilan Gidrometeorologiya xizmati markazi shug‘ullanadi.

UYGA VAZIFA



Tadbirkor bir nechta loyihalarni amalga oshirish maqsadida O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qildi va hududlarning salohiyatini yon daftariga yozib bordi. U hududlarning tabiiy sharoitidan kelib chiqib, ulardan foydalanish bo‘yicha quyidagi ma’lumotlarni yozdi:

1. Ushbu hudud issiqlik resurslari bilan yaxshi ta’minlangan, Quyosh nurlari yuqori burchak ostida tushadi. Bu yerlarda ingichka tolali paxtaning yangi navlarini sinab ko‘rish mumkin.
2. Hududning tog‘li relyef shakli yoz faslida salqin ob-havo bo‘lishini ta’minlaydi. Hudud iqlimi yozgi turizmni rivojlantirish uchun qulay. Yirik shaharlar va xalqaro aeroportlarning yaqinligi turizmni rivojlantirishga xizmat qiladi.
3. Tog‘lar bilan o‘ralgan vodiy relyef shakli kuchli mahalliy shamollarni shakllantiradi. Shamol elektr stansiyalari qurish uchun anchagina qulay.
4. Yil davomida havo ochiq kunlar juda ko‘p bo‘ladi va shu tufayli bu yer Quyosh elektr stansiyalari qurish uchun qulay.

Keltirilgan ma’lumotlar asosida quyidagi savollarga javob bering:

a) Tadbirkor daftariga qayd etib borgan ma’lumotlar xaritada qaysi harflar bilan ko‘rsatilgan hududga to‘g‘ri keladi?

b) Xaritada qaysi viloyatlar belgilangan? Bu hududlarni Quyosh radiatsiyasini eng ko‘p qabul qiladiganidan eng kamiga tomon tartib bilan yozing.

d) Tadbirkor rejalashtirgan loyihalarning qaysilarini siz yashaydigan hududda amalga oshirsa bo‘ladi? Javobingizni asoslang.

3.2. IQLIM O‘ZGARISHINING O‘ZBEKISTONDAGI OQIBATLARI

DARS DAVOMIDA

- global, mintaqaviy, mahalliy iqlim o‘zgarishlari ta’sirida O‘zbekistonning xo‘jalik tarmoqlarida yuzaga keladigan muammolarni aniqlaysiz;
- O‘zbekistondagi iqlim o‘zgarishining oqibatlarini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Nima uchun O‘zbekistondagi tog‘ muzliklari maydoni qisqarib bormoqda? Bu jarayon mamlakatimiz xo‘jaligiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

Inson xo‘jalik faoliyatining tabiatga ta’siri insoniyat tarixi davomida ortib borgan. Bu ta’sir, ayniqsa, sanoat inqilobidan keyin keskin kuchaydi. O‘rmonlarning kesilishi hamda sanoat korxonalari, transport vositalaridan atmosferaga chiqarilayotgan gazlar (karbonat angidrid – CO_2, metan – CH_4, azot (I) oksidi – N_2O) “issiqxona effekti”ning ortishiga sabab bo‘lmoqda. Iqlim o‘zgarishiga sabab bo‘layotgan ushbu gazlar *issiqxona gazlari* deb ataladi. Ular atmosferaga kirib kelgan Quyosh radiatsiyasini o‘tkazib, yer yuzasidan qaytadigan issiqlik energiyasining fazoga tarqalishiga to‘sqinlik qiladi. Ushbu jarayon sayyoramizdagi havo harorati ortib borishiga, ya’ni global iqlim isishiga sabab bo‘lmoqda. Mamlakatimizda o‘rtacha havo harorati 1880-yildagiga nisbatan 1,6 °C ga oshgan bo‘lib, bu ko‘rsatkich dunyo bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan (1 °C) yuqoridir.

Keys

1. Nima uchun iqlim o‘zgarishi jarayoni dunyoning turli qismlarida har xil jadallikda kuzatilmoqda?
2. Diagrammadan Toshkent va Andijon shaharlarida havo harorati 2020-yilda 1900-yildagiga nisbatan necha gradusga o‘zgarganini aniqlang (3-rasm).



3-rasm. Havo haroratining o‘zgarishi grafigi

Tabiatdagi barcha hodisalar bir-biriga chambarchas bog‘liq. Iqlimning o‘zgarishi tabiatda bir qancha o‘zgarishlarga sabab bo‘ladi. Global iqlim isishining oqibatlari dunyoning turli qismlarida bir-biridan farq qiladi. Ushbu jarayon mamlakatimizda suv resurslarining kamayishi, daryolar suv rejimining o‘zgarishi, qurg‘oqchilik va cho‘llashishning

kuchayishi, ekstremal ob-havo hodisalarining ortishiga olib kelmoqda. Tabiatda ro‘y berayotgan bunday o‘zgarishlar, o‘z navbatida, xo‘jalikka salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Suv resurslarining kamayishi mamlakatimizdagi daryolar suv oladigan tog‘ muzliklari maydonining qisqarib borishi bilan bog‘liq. Yurtimizda cho‘llar katta maydonni egallagani sababli suv tanqisligi asosiy muammolardan biridir. Suv resurslarining kamayishi ushbu muammoni yanada dolzarblashtiradi. Natijada sug‘orma dehqonchilik qilinadigan hududlarda ekin maydonlari qisqarishi, hosildorlik pasayishi kuzatilishi mumkin. Shuningdek, suv tanqisligi va qurg‘oqchilik biologik xilma-xillikning kamayishiga, tuproq unumdorligining pasayishi va cho‘llashish jarayonlarining tezlashishiga sabab bo‘lmoqda. Iqlimning ilishi natijasida daryolarning suv rejimi ham o‘zgaradi. Muzliklardan to‘yinadigan daryolarda to‘linsuv davri yoz oylaridan bahor oylariga ko‘chmoqda. Bu esa yoz mavsumida sug‘orish uchun suv tanqisligini kuchaytiradi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Xaritada A–F harflar bilan ko‘rsatilgan hududlarda iqlim o‘zgarishi bilan bog‘liq qanday oqibatlar (jadvalda berilgan) kuzatilishi mumkinligini + ishorasi bilan belgilang.
2. Ushbu hududlar qaysi ma’muriy birliklarga to‘g‘ri keladi? Guruhlarga bo‘linib, har bir hudud uchun iqlim o‘zgarishiga moslashish chora-tadbirlarini o‘z ichiga oladigan loyiha ishlarini tayyorlang.



Iqlim o‘zgarishining oqibatlari	A	B	D	E	F
Suv resurslarining kamayishi					
Qurg‘oqchilik					
Ekin maydonlarining qisqarishi					
Tog‘ muzliklarining erishi					
O‘simliklar va hayvonlar balandroq hududlarga ko‘chishi					
Aholi migratsiyasining ko‘payishi					
Qor ko‘chkilarining ko‘payishi					
Yerosti suvlari sathining pasayishi					

3. Iqlim o‘zgarishlariga qarshi kurashish bo‘yicha tashkil etilgan xalqaro anjumanlarni bilasizmi? Ular qachon tashkil etilgan va qanday chora-tadbirlar ishlab chiqqan deb o‘ylaysiz?

Iqlimning o‘zgarishi mamlakatimizda ob-havo sharoitlari bilan bog‘liq ekstremal hodisalarning ortishiga olib keladi. Jumladan, yoz oylarida issiqlik to‘lqinlari kuchayishi,

bahor va kuzda suv toshqinlari, qishda esa tog‘li hududlarda qor ko‘chkilari kuzatilishi mumkin. Iqlimning isishi tog‘li hududlarda qishki turizmga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

BMT ma’lumotlariga ko‘ra, har o‘n yillikda dunyodagi o‘rtacha havo harorati 0,2 °C ga ortib bormoqda. Ayni paytda iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va amaliyotga joriy qilish dolzarb masalaga aylangan. Ular suvni tejashga, qayta tiklanuvchi energiya manbalaridan keng foydalanishga, yashillik darajasini oshirishga va boshqa shu kabi jihatlarga qaratilgan (4-rasm). Ushbu chora-tadbirlar iqlim o‘zgarishining salbiy oqibatlarini kamaytirishga yordam beradi.



4-rasm. Mamlakatimizda issiqxona gazlarini kamaytirish va iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha chora-tadbirlar

UYGA VAZIFA

1. Iqlim o‘zgarishi oqibatlari va unga moslashish chora-tadbirlarini o‘zaro moslashtiring.

Iqlim o‘zgarishining O‘zbekistondagi oqibatlari		Iqlim o‘zgarishiga moslashish chora-tadbirlari	
1.	Suv resurslarining kamayishi	a	Suv oqimini boshqaruvchi to‘g‘onlar va to‘siqlarni mustahkamlash
2.	Ekstremal ob-havo hodisalarining ko‘payishi	b	Tomchilatib sug‘orish texnologiyalarini qo‘llash va suvdan qayta foydalanishni yo‘lga qo‘yish
3.	Cho‘llashish jarayonining kuchayishi	d	Agrotexnik tadbirlarni takomillashtirish va iqlimga mos yangi ekin navlarini yaratish
4.	Qishloq xo‘jaligida hosildorlikning kamayishi	e	Ekinlarni himoya qilish uchun issiqxonalarni hamda chorva mollarini issiq va sovuqdan asraydigan inshootlarni takomillashtirish
5.	Tog‘li hududlarda qor ko‘chkilari, suv toshqinlari xavfining ortishi	f	Daraxt ekish, hududlarni ko‘kalamzorlashtirish va shamolga qarshi himoya ihotalarini barpo etish

2. Mamlakatimizda yuqorida keltirilgan chora-tadbirlardan qaysilari amalga oshirilmoqda va buni qaysi hududlarda kuzatish mumkin?

3.3. LOYIHA ISHI

DARS DAVOMIDA

- qishloq xo‘jaligi va sanoat tarmoqlarini rejalashtirishda tekislik va tog‘ iqlimi xususiyatlarini hisobga olish zaruratini aniqlaysiz;
- iqlim o‘zgarishiga sabab bo‘ladigan tabiiy va antropogen omillarni farqlaysiz;
- aholining iqlim o‘zgarishi haqidagi fikr-mulohazalarini so‘rovnoma orqali tahlil qilishni o‘rganasiz.

Keys-1.

O‘zbekistonning tekislik va tog‘li hududlari iqlimini taqqoslang. Javobingizni daftarga Venn diagrammasi ko‘rinishida yozing. Qishloq xo‘jaligini rejalashtirishda tekislik va tog‘ iqlimining qanday xususiyatlarini hisobga olish kerak? Tekislik va tog‘ iqlimining xo‘jalik sohalariga ijobiy va salbiy ta’sirlarini tahlil qiling.



Keys-2.

Jadvalda berilgan iqlim va aholining xo‘jalik faoliyatiga oid xususiyatlar mamlakatimizning qanday (tekislik yoki tog‘li) hududlariga xos ekanini aniqlang (“+” bilan belgilang).

Iqlim xususiyatlari va xo‘jalik faoliyati	Tekislik	Tog‘
Lalmi dehqonchilik yaxshi rivojlangan.		
Yog‘in miqdorining kamligi sug‘orma dehqonchilikni yo‘lga qo‘yishni talab qiladi.		
Yoz fasli juda issiq bo‘ladi va uzoq davom etadi.		
Bulutli kunlarning ko‘p bo‘lishi Quyosh elektr stansiyalari samaradorligini pasaytirishi mumkin.		
Chorva mollarini sug‘orishda yerosti suvlarning ahamiyati katta.		
Chorva mollari ko‘proq buloqlar va soylardan sug‘oriladi.		

Keys-3.

O‘quvchi bir hafta davomida dunyo yangiliklarini kuzatdi va ulardan issiqxona gazlari ajralib chiqishi hamda iqlim o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan hodisalarni alohida ajratib yozdi:

a) Avstraliyada yozning issiq kelishi oqibatida sodir bo‘layotgan o‘rmon yong‘inlarini o‘chirish imkoni topilmayapti;

b) Toshkent shahriga 200 dan ortiq elektrobus olib kelinib, yoqilg‘ida harakatlanadigan avtobuslar kamaytirildi;

d) Yaponiyalik olimlar Quyosh dog‘larining faollashganini aniqladi;

e) Turkmanistonda gaz konidagi nosozlik sababli havoga gaz sizib chiqa boshladi;

f) Afrikada juda katta maydondagi tropik o‘rmonlar qishloq xo‘jaligi maqsadida kesildi;

g) Indoneziyada vulqon otilishi juda ko‘p talafotga sabab bo‘ldi;

h) Hindistonda ko‘mir bilan ishlaydigan issiqlik elektr stansiyasi ishga tushirildi;

i) So‘nggi hafta davomida Amazonka o‘rmonlaridagi organik moddalarning chirishi oqibatida metan gazi ajralib chiqishi ortgani kuzatildi.

1. Yuqoridagi ma’lumotlarni tabiiy va antropogen omillarga ajratib, jadval shaklida yozing.

Tabiiy omillar	Antropogen omillar

2. Yuqorida keltirilgan hodisalar iqlim o‘zgarishiga qanday ta’sir qilishi mumkinligini tushuntiring. Ulardan qaysilari iqlim o‘zgarishini yumshatishga yordam beradi?

UYGA VAZIFA

1. Dunyoda va mamlakatimizda sodir bo‘layotgan yangiliklarni kuzating. Iqlim o‘zgarishiga ta’sir ko‘rsatishi mumkin bo‘lgan voqea-hodisalarga 5 ta misol topib, daftaringizga yozing. Ushbu hodisalar iqlim o‘zgarishiga qanday ta’sir ko‘rsatishini, qaysi issiqxona gazlari ajralib chiqishi mumkinligini tushuntiring. Ularni tabiiy va antropogen omillarga ajrating.
2. O‘zingiz yashaydigan hududdagi kishilar orasida (oila a’zolaringiz ham bo‘lishi mumkin) iqlim o‘zgarishi haqida so‘rovnoma o‘tkazing. So‘rovnoma natijalarini tahlil qiling va quyidagi savollarga javob bering:
   - Qancha odam iqlim o‘zgarishi va uning sabablari haqida to‘g‘ri ma’lumotga ega?
   - Aholini iqlim o‘zgarishlaridan xabardor qilish uchun qanday chora-tadbirlarni taklif qilasiz?

3.4. O‘ZBEKISTONNING SUV RESURSLARI VA ULARDAN FOYDALANISH

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekistondagi asosiy suv manbalarini, jumladan, transchegaraviylarini aniqlaysiz;
- transchegaraviy daryolardan oqilona foydalanish choralarini tavsiflaysiz.

O‘YLAB KO‘RING

Sizningcha, O‘zbekistonning iqlimi va relyefi daryo va ko‘llar bilan ta’minlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘zbekiston aholisining kundalik hayoti va xo‘jalik faoliyatida suv resurslarining ahamiyati beqiyos. Suv resurslaridan dehqonchilikda, barcha ishlab chiqarish korxonalarida, ko‘plab dam olish maskanlarida, baliqchilikda, kundalik turmushda keng foydalaniladi. Shu bois suv resurslari noyob tabiiy resurs hisoblanadi.

O‘zbekiston sharoitida suv resurslarining asosiy manbayi – daryolar. Eng yirik daryolar qatoriga *Amudaryo, Sirdaryo, Zarafshon, Norin, Qoradaryo, Chirchiq, Surxondaryo, Qashqadaryo, Ohangaron, So‘x* kabilar kiradi. Ularning suv resurslaridan qishloq xo‘jaligi yerlarini sug‘orishda keng foydalaniladi. Buning uchun ko‘plab sug‘orish kanallari qurilgan. Ulardan eng yiriklari: Farg‘ona vodiysidagi *Katta Farg‘ona, Katta Andijon, Shimoliy Farg‘ona, Janubiy Farg‘ona, Katta Namangan* kanallari; Toshkent viloyatidagi *Qorasuv, Parkent magistral, Xandam* kanallari; Mirzacho‘ldagi *Do‘stlik, Janubiy Mirzacho‘l* kanallari, Samarqand va Qashqadaryo viloyatlaridagi *Eski Anhor* kanali; Samarqand viloyatidagi *Darg‘om, Narpay* kanallari; Qashqadaryo viloyatidagi *Qarshi magistral, Mirishkor* kanallari; Surxondaryo viloyatidagi *Zang, Amu-Zang, Sherobod* kanallari; Buxoro va Navoiy viloyatidagi *Amu-Buxoro* kanali; Xorazm viloyatidagi *Shovot, Polvon-G‘ozovot* kanallari; Qoraqalpog‘iston Respublikasidagi *Suenli, Quvonishjarma* kanallari.

Ayrim kanallar yerning tabiiy nishabiga teskari yo‘nalishda qurilgani bois, suv nasoslar yordamida harakatga keltiriladi. Bunday kanallar *mashina kanallari* deb atalib, ularga Amu-Buxoro, Qarshi magistral, Amu-Zang, Janubiy Mirzacho‘l va boshqa kanallar misol bo‘ladi.

O‘zbekistondagi ko‘llarning eng yiriklari mamlakatimizning tekislik qismida joylashgan. Bunday ko‘llar qatoriga *Orol, Aydarko‘l, Tuzkon, Arnasoy, Sariqamish, Dengizko‘l* va boshqalar kiradi. O‘zbekiston tekisliklarida joylashgan bu va boshqa ko‘llar sho‘r ko‘llar bo‘lib, ulardan asosan baliqchilik va dam olish maqsadlarida foydalaniladi.

Mamlakatimizdagi daryolarning aksariyati *transchegaraviy* xususiyatga ega, ya’ni ikkita va undan ko‘p davlat hududidan oqib o‘tadi. Daryolarimiz asosan Tojikiston va Qirg‘iziston-



5-rasm. Orol dengizi havzasidagi suv resurslari shakllanishida turli davlatlarning ulushi

da joylashgan baland tog‘ tizmalaridan boshlanadi. Mamlakatimiz chegaralari doirasida 9 km³ ga yaqin suv resurslari shakllanadi va bu Orol dengizi havzasi jami suv resurslarining 8% dan kamroq qismini tashkil etadi (5-rasm).

O‘zbekistonning hozirgi va kelajakdagi suv bilan ta’minlanish holati ko‘p jihatdan qo‘shni mamlakatlarning transchegaraviy daryolar suv resurslaridan foydalanishi darajasiga bog‘liq. O‘lkamizda iqlim o‘zgarishi, qo‘shni Tojikiston va Qirg‘iziston hududidagi tog‘ muzliklarining erib borishi hamda tog‘ yonbag‘irlaridagi o‘rmonlarning kesilishi O‘zbekiston daryolaridagi suv miqdorining kamayishiga sabab bo‘lmoqda. Shuning uchun O‘zbekiston hamda qo‘shni mamlakatlar transchegaraviy daryolarning suv resurslaridan o‘zaro kelishgan, bir-birining tabiiy sharoit va manfaatlarini hisobga olgan holda foydalanishi, birgalikda iqlim o‘zgarishi va tog‘ muzliklarining erishiga qarshi kurashishi, tekislik va tog‘larda ko‘kalamzorlashtirish ishlarini keng miqyosda amalga oshirishi lozim. Eng asosiysi, Orol dengizi havzasidagi barcha davlatlarda suv tejaydigan texnologiyalarni amaliyotga keng joriy etish zarur.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Quyidagi sug‘orish kanallari O‘zbekistonning qaysi hududlaridan oqadi:

   Zang, Darg‘om, Shovot, Eski Anhor, Do‘stlik, Suenli?
2. Nima sababdan ayrim kanallarda suv nasoslar yordamida harakatlanadi?
3. Amudaryo va Sirdaryo havzalari qaysi davlatlar hududiga to‘g‘ri kelishini inobatga olib, quyidagi diagrammalardan qaysi birida Amudaryo, qaysi birida esa Sirdaryo suv resurslarining taqsimlanishi ifodalanganini aniqlang.





UYGA VAZIFA

1. Quyidagi jadvalni daftaringizga ko‘chiring, O‘zbekiston tabiiy xaritasidan foydalanib uni to‘ldiring.

O‘zbekiston hududlari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi, 12 ta viloyat, Toshkent shahri)	Yirik daryolari	Yirik sug‘orish kanallari

2. Quyidagi jadvalga O‘zbekistonni suv resurslari bilan ta’minlashda katta ahamiyatga ega transchegaraviy daryo va kanallar nomini kiriting.

Davlatlar						Transchegaraviy daryo va kanallar
O‘zbekiston	Qozog‘iston	Tojikiston	Afg‘oniston	Qirg‘iziston	Turkmaniston	
+		+	+		+	
+	+	+		+		
+				+		
+	+					
+		+				
+					+	

MAVZUNING DAVOMI (2-DARS)

DARS DAVOMIDA

- suv resurslaridan oqilona foydalanishning zamonaviy usullarini o‘rganasiz, ularni misollar yordamida izohlaysiz;
- suv resurslarini zaxiralash va ulardan sug‘orish tizimlarida oqilona foydalanish yo‘llarini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘zbekistonda ko‘p yillik hisobga ko‘ra, turli xo‘jalik va maishiy maqsadlarda o‘rtacha 51–53 km³ suv resurslaridan foydalaniladi. Bu hajmning eng katta qismi (91 %) qishloq xo‘jaligida sug‘orish maqsadlarida ishlatiladi. Shu bilan birga, suv resurslaridan maishiy-kommunal xo‘jalik, sanoat (asosan elektr energetikasi, tog‘-kon, kimyo, sellyuloza-qog‘oz sanoatida), baliqchilik va boshqa tarmoqlarda ham foydalaniladi (6-rasm).

O‘YLAB KO‘RING

Suv omborlari nima maqsadda quriladi va ular suvdan foydalanishda qanday qulayliklar yaratadi?

BU QIZIQ!

O‘zbekiston Respublikasi va uning hududlarida foydalaniladigan suv resurslarining miqdori, turli sug‘orish inshootlarining soni va o‘lchamlari, suv xo‘jaligiga oid boshqa muhim ma’lumotlar bilan O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portalida, https://data.egov.uz/ elektron manzili bo‘yicha tanishish mumkin. Buning uchun “Tashkilotlar” bo‘limiga kirib, vazirliklar ro‘yxatidan O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligini tanlash kerak. Shundan keyin suv xo‘jaligiga tegishli bo‘lgan turli ma’lumotlar to‘plamini fayl ko‘rinishida yuklab olish mumkin bo‘ladi.



6-rasm. O‘zbekistonda foydalaniladigan suv resurslarining xo‘jalik tarmoqlari kesimida taqsimlanishi (%, o‘rtacha ko‘p yillik ko‘rsatkichlar)

Demak, suv resurslarini tejash uchun, birinchi navbatda, sug‘orishning zamonaviy tejamkor usullarini keng miqyosda amaliyotga joriy etish lozim. Sug‘orishning bunday usullariga, jumladan, tomchilatib va yomg‘irlatib sug‘orish ham kiradi (7-rasm). Tomchilatib sug‘orish texnologiyasida suv bevosita o‘simliklarning ildizlariga me’yorlashtirilgan miqdorda plastik quvurlar orqali yetkazib beriladi va bu texnologiya an’anaviy egatlab sug‘orish usuliga nisbatan 40–50% suvni tejaydi.



7-rasm. Sug‘orish usullari

ILM-FAN KUNDALIK HAYOTDA

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 10.07.2020-yildagi PF-6024-son farmoni bilan “O‘zbekiston Respublikasi suv xo‘jaligini rivojlantirishning 2020–2030-yillarga mo‘ljallangan konsepsiyasi” tasdiqlangan. Bu dasturiy hujjatga ko‘ra, mamlakatimizda 2020-yil holatiga tomchilatib sug‘orish texnologiyasi 77,4 ming gektar maydonda joriy etilgan bo‘lib, 2030-yilgacha bunday yerlarning umumiy maydonini 600 ming gektargacha yetkazish rejalashtirilgan. Shuningdek, respublika bo‘yicha sug‘orish jarayonida tuproqqa shimilish natijasida suv yo‘qotishlarini kamaytirish uchun beton qoplamali kanallarning jami kanallardagi ulushini 34% dan 46% gacha yetkazish ham rejalashtirilgan.



8-rasm.
Suv omborlarining vazifalari

Daryolar suv oqimini boshqarish, to‘linsuv davrida suvni zaxiralab, yil davomida (ehtiyojdan kelib chiqqan holda) uni qayta taqsimlash maqsadida **suv omborlari** quriladi. Ular turli muhim vazifalarni bajaradi (8-rasm). Suv omborlari joylashish o‘rni va suv bilan to‘ldirilish usuliga ko‘ra 2 turga bo‘linadi: **o‘zanli** va **quyilma**. O‘zanli suv omborlari daryo o‘zanini to‘g‘on bilan to‘sish yo‘li orqali quriladi. Quyilma suv omborlari esa daryo o‘zaniga yaqin botiqda joylashgan bo‘lib, unga kanal orqali suv tashlanadi (9-rasm).



Andijon suv ombori (Qoradaryoda qurilgan o‘zanli suv ombori)



Qorovultepa suv ombori (Tuyatortar kanalidan to‘ldiriladigan quyilma suv ombori)

9-rasm. O‘zanli va quyilma suv omborlari

O‘zbekistondagi o‘zanli suv omborlariga Tuyamo‘yin, Chorvoq, Andijon, Chimqo‘rg‘on, Tuyabo‘g‘iz, Ohangaron, Pachkamar, To‘palang kabilar misol bo‘la oladi. Quyilma suv omborlari qatoriga esa Tolimarjon, To‘dako‘l, Kattaqo‘rg‘on, Quyimozor, Jizzax, Uchqizil, Karkidon kabilarni kiritsa bo‘ladi.

Respublikamizdagi ko‘p suv omborlaridan yoz faslida aholining dam olishini tashkil etish maqsadida ham foydalaniladi. Bu borada, ayniqsa, Chorvoq, Tuyabo‘g‘iz (Toshkent dengizi), To‘dako‘l, Janubiy Surxon, Kattaqo‘rg‘on, Karkidon suv omborlarining ahamiyati katta. Yaqin kelajakda suv omborlaridan shu yo‘nalishda foydalanish yanada rivojlantiriladi. Natijada bu jarayonda turli iqtisodiyot tarmoqlarining manfaatlarini hisobga olish (ayniqsa, yozgi mavsumda), shuningdek, suv omborlarini muhofaza qilish, ular qurilgan daryo va kanallardagi suvning sifatini saqlash masalalari yanada dolzarblashadi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Nima uchun O‘zbekiston sharoitida suv resurslarini tejash usullari asosan dehqonchilik tarmog‘ida amalga oshirilishi lozim?
2. Sug‘orishning qanday usullari mavjud? Ulardan qaysilari suvni tejovchi texnologiyalar qatoriga kiradi? Sug‘orish texnologiyalari qay tariqa suvni tejashga imkon beradi?
3. Oila a’zolaringiz bilan suv resurslaridan tejamkor foydalanishingizga bir nechta misollar keltiring.
4. O‘zanli va quyilma suv omborlari farqini izohlang.

UYGA VAZIFA

1. O‘zbekistonda o‘rtacha hisobda 1 gektar sug‘oriladigan yerga yil davomida 11 000 m^3 suv sarflanadi. Tomchilatib sug‘organda suv sarfi 50 % ga kamayishini hisobga olib, 2020-yilda respublika bo‘yicha bu texnologiya 77,4 ming gektarda joriy etilishi tufayli qancha suv resurslari tejalganini aniqlang. 2030-yilga borib, 600 ming gektar maydon tomchilatib sug‘orilsa, qancha hajmdagi suv tejalishini hisoblang.
2. O‘zbekiston Respublikasi ochiq ma’lumotlar portalida https://data.egov.uz/ elektron manzili bo‘yicha joylashtirilgan O‘zbekiston Respublikasi Suv xo‘jaligi vazirligining rasmiy statistik materiallaridan “Respublikada mavjud irrigatsiya va melioratsiya tizimlari to‘g‘risida ma’lumot” jadvalini topib, uni “Microsoft Excel” dasturida oching va saqlab oling. Jadvalda berilgan ma’lumotlardan foydalanib hududlar kesimida jami kanallarning qancha qismini (% hisobida) beton qoplamali kanallar tashkil etishini hisoblab chiqing va bu borada 3 ta eng yuqori hamda 3 ta eng past ko‘rsatkichga ega hududlarni aniqlang.

IV BOB

AHOLI VA DEMOGRAFIK JARAYONLAR



USHBU BOBDA QUYIDAGI MAVZULARNI O‘RGANASIZ:

4.1. O‘zbekiston aholisining soni va o‘sishi
4.2. O‘zbekiston aholisining tarkibi va joylashuvi
4.3. Shahar va qishloq aholi punktlari
4.4. Urbanizatsiya
4.5. Migratsiya
4.6. Amaliy mashg‘ulot
4.7. “Biz yashaydigan hudud aholisi” kichik loyiha ishi

4.1. O‘ZBEKISTON AHOLISINING SONI VA O‘SISHI

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekiston aholisining soni va o‘sishini tahlil qilasiz;
- O‘zbekiston aholisining tabiiy va mexanik o‘sish jarayonlari va omillarini izohlaysiz;
- aholi soni va o‘sishining ko‘rsatkichlarini tasvirlovchi jadval, grafik, diagrammalarni tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Mamlakat va uning alohida hududlari aholisining hisobi nima uchun kerak? Aholi soni va uning o‘sishi haqidagi ma’lumotlardan davlat boshqaruvida qanday maqsadlarda foydalaniladi deb o‘ylaysiz?

O‘zbekiston Respublikasi aholisining soni, 2025-yil boshi holatiga ko‘ra, 37 mln 543,2 ming kishini tashkil etgan. Rasmiy axborotlarga binoan, 2025-yil 28-avgust kuni O‘zbekiston aholisining soni 38 mln kishidan oshdi.

BMTning 2024-yilgi statistik ma’lumotlariga ko‘ra, aholi soni jihatidan O‘zbekiston jahonning 194 ta mustaqil davlati orasida 43-o‘rinda turgan. Bu borada O‘zbekistonga eng yaqin ko‘rsatkichlar Marokash, Angola va Malayziya davlatlariga tegishli bo‘lgan.

O‘zbekiston aholisining soni muttasil o‘sib bormoqda (1-rasm). Masalan, 2020–2024-yillar davomida 3,6 mln kishiga, ya’ni yiliga o‘rtacha hisobda 720 ming kishiga ko‘payib borgan. 2024-yilda esa 744 ming kishiga, ya’ni 2% ga ko‘paygan.



1-rasm. O‘zbekiston aholisi sonining o‘sishi (mln kishi, yil boshi holatiga ko‘ra)

Aholi ko‘payishining 2 ta: *tabiiy* va *mexanik* turi ajratiladi. O‘zbekiston aholisi sonining o‘sib borishida tabiiy ko‘payish katta ahamiyatga ega (1-jadval).

ILMIY ATAMALAR

Aholining tabiiy ko‘payishi – ma’lum vaqt oralig‘ida tug‘ilganlar va vafot etganlar soni orasidagi farq.

Aholining mexanik ko‘payishi – muayyan vaqt oralig‘ida doimiy yashash maqsadida kelgan va ketganlar soni orasidagi tafovut.

Migratsiya – aholining bir hududdan boshqa hududga ko‘chishi.

Immigratsiya – aholining mamlakatga chetdan ko‘chib kelishi.

Emigratsiya – aholining mamlakatdan chetga ko‘chib ketishi.

Migratsiya saldosi (balansi) – ma’lum vaqt davomida mamlakatga ko‘chib kelgan (immigratsiya) va undan ko‘chib ketgan (emigratsiya) aholi soni orasidagi farq. Mamlakat aholisining mexanik ko‘payishi uning migratsiya saldosi (balansi)ga tengdir.

1-jadval. O‘zbekiston aholisi tabiiy ko‘payishining ko‘rsatkichlari (ming kishi, 2020–2024-yillar)

Yil	Tug‘ilganlar soni	Vafot etganlar soni	Tabiiy ko‘payish
2020	841,8	175,6	666,2
2021	905,2	174,5	730,7
2022	932,2	172,1	760,1
2023	962,0	172,8	789,2
2024	926,4	174,4	752,0

Aholining mexanik ko‘payishi *migratsiya* jarayonlari bilan bog‘liq. Aholi migratsiyasi ichki va tashqi bo‘lishi mumkin. Ichki migratsiya muayyan davlat ichida kechsa, tashqi migratsiya davlatlar orasida ro‘y beradi. Mamlakat aholisining soniga faqat tashqi migratsiya ta’sir ko‘rsatadi.

STATISTIK FAKT

O‘zbekistonga 2024-yilda xorijdan 2229 kishi ko‘chib kelgan, 10842 kishi esa mamlakatdan ko‘chib ketgan. Natijada aholining mexanik ko‘payishi -8613 kishini tashkil etdi (2-rasm). Migratsiya saldosi manfiyligi sababli aholining umumiy ko‘payishi tabiiy ko‘payishga nisbatan biroz pastroq bo‘ldi. O‘zbekiston tashqi migratsiya aloqalari orqali asosan Qozog‘iston va Rossiya bilan bog‘langan.



2-rasm. O‘zbekiston Respublikasi aholisining tashqi migratsiya ko‘rsatkichlari (2020–2024-yillar)

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. 1-rasmda berilgan diagrammadan foydalanib respublikamiz aholisi 1990–2025-, 2000–2025-, 2010–2025- va 2020–2025-yillarda qanchaga (mln kishi hisobida) ko‘payganini hisoblang.
2. Ko‘rsatilgan yillar oralig‘ida mamlakatimiz aholisi soni necha foizga o‘sganini aniqlang.
3. 1-jadval hamda 2-rasmdagi raqamlardan foydalanib mamlakatimiz aholisining umumiy ko‘payishi 2022-yilda qanchaga teng bo‘lganini hisoblang.

UYGA VAZIFA

1. Daftaringizda 1-jadvalda berilgan raqamlarni ifodalovchi ustunli diagrammalarni chizing. Diagrammalar masshtabini 1 mm da 10 ming kishi deb oling.
2. O‘zbekiston aholisiga oid ko‘plab miqdoriy ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy vebsaytidan (https://stat.uz/) olish mumkin. Ushbu veb-saytga kiring, menyu qatoridagi “Ochiq ma’lumotlar” yozuvi ustiga kursorni olib borib, ochilgan ro‘yxatdan “Demografiya” bo‘limini tanlang va ustiga bosing. Ushbu bo‘limdagi “Tug‘ilganlar soni” va “Vafot etganlar soni” jadvallarini yuklab oling. Jadvallarda berilgan ma’lumotlardan foydalanib o‘zingiz yashaydigan hudud (viloyat, Qoraqalpog‘iston Respublikasi yoki Toshkent shahri) hamda tuman (yoki shahar) aholisining 2024-yildagi tabiiy ko‘payish ko‘rsatkichlarini aniqlang.

4.2. O‘ZBEKISTON AHOLISINING TARKIBI VA JOYLASHUVI

DARS DAVOMIDA

- aholi tarkibi va joylashuviga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilasiz va taqqoslaysiz;
- aholi tarkibi va zichligiga doir masalalarni ishlaysiz;
- geografik xaritalar yordamida hududlar aholisining joylashuvini izohlaysiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Aholining yosh tarkibi odatda 3 ta yirik yosh guruhiga ajratiladi:

1) mehnatga layoqatli yoshdan kichiklar;
2) mehnatga layoqatli yoshdagilar;
3) mehnatga layoqatli yoshdan kattalar.

O‘YLAB KO‘RING

Yer yuzida aholining notekis joylashuviga qanday omillar ta’sir ko‘rsatadi? O‘zbekistonda qaysi sharoitlar aholi joylashuvida ayniqsa kuchli ahamiyatga ega?

Mehnatga layoqatlilik yoshining chegarasi dunyo davlatlarida turlicha belgilanadi. O‘zbekistonda mehnatga layoqatli yosh erkaklar va ayollarda 16 yoshdan boshlanib, erkaklarda 60, ayollarda esa 55 yoshgacha davom etadi. Mehnatga layoqatli yoshning yuqori chegarasi **nafaqa (pensiya) yoshi** hisoblanadi, chunki tegishli yoshga yetgan kishilar nafaqaga chiqadilar.

Shunday ekan, 16 yoshgacha bo‘lgan aholi **mehnatga layoqatli yoshdan kichik** qatlam, 60 va undan katta yoshdagi erkaklar hamda 55 va undan katta yoshdagi ayollar **mehnatga layoqatli yoshdan kattalar** guruhini tashkil qiladi (3-rasm).

Yurtimiz aholisining o‘rtacha yoshi, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, **29,3 yosh**ga teng. Dunyo bo‘yicha bu ko‘rsatkich **30,9 yosh**ni tashkil etadi. Shu bois O‘zbekistonning aholisi nisbatan yosh hisoblanadi. Bu holat mamlakatimizning **mehnat resurslari** bilan ta’minlanish darajasiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.



3-rasm. O‘zbekiston aholisining yosh tarkibi (01.01.2025-yil holatiga ko‘ra)

ILMIY ATAMALAR

Mehnat resurslari – mehnatga layoqatli yoshdagi aholining mehnat qilishga jismoniy va ruhiy jihatdan layoqatli qismi, shuningdek, ishlayotgan nafaqaxo‘rlar hamda 14–16 yoshdagi o‘smirlar.



4-rasm. O‘zbekiston aholisining yosh-jins piramidasi (2025-yil 1-yanvar holati, ming kishi)

O‘zbekiston aholisining **jinsiy tarkibida**, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, erkaklarning ulushi 50,3 %, ayollar ulushi esa 49,7 % ga teng bo‘lgan. Ta’kidlash joizki, aholining jinsiy tarkibi yosh tarkibiga chambarchas bog‘liqdir. Odatda yangi tug‘ilgan chaqaloqlar orasida o‘g‘il bolalar qizlarga qaraganda ko‘proq, shu sababdan aholining kichik yosh guruhlarida erkaklar son jihatdan ayollardan ustunroq. Ayni vaqtda, ayollarning o‘rtacha umr davomiyligi erkaklarga nisbatan biroz yuqoriligi tufayli katta yosh qatlamlarida ayollar ko‘pchilikni tashkil etadi.

Turli yosh oralig‘ida jinslarning o‘zaro nisbati aholining **yosh-jins piramidasida** yaqqol ko‘rinadi (4-rasm). O‘zbekiston aholisining yosh-jins piramidasidan ko‘rinib turibdiki, 40 yoshgacha bo‘lgan aholi guruhlarida erkaklar, undan keyingi yoshlarda esa ayollar son jihatdan yetakchilik qiladi. Mamlakatimiz aholisi nisbatan yosh bo‘lgani sababli jami aholining jinsiy tarkibida erkaklar ayollarga qaraganda biroz ko‘proq.

O‘zbekistonda **130 dan ziyod millat** vakillari o‘zaro hurmat va bag‘rikenglik muhitida yashaydilar. Respublikamiz aholisining milliy tarkibida o‘zbeklarning ulushi deyarli 85 foizga teng. Boshqa millatlardan esa tojiklar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, ruslar, qirg‘izlar, turkmanlar, tatarlar va koreyslar nisbatan ko‘p. Tojiklar asosan Surxondaryo, Samarqand, Namangan, Farg‘ona, Toshkent va Qashqadaryo viloyatlarida; qozoqlar Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent va Navoiy viloyatlarida; qoraqalpoqlar Qoraqalpog‘iston Respublikasida; qirg‘izlar Andijon, Farg‘ona va Jizzax viloyatlarida; turkmanlar Qoraqalpog‘iston Respubli-

kasi, Buxoro, Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida; ruslar, tatarlar va koreyslar esa Toshkent shahri va Toshkent viloyatida hamda viloyat markazlari va katta shaharlarda istiqomat qilishadi.

Mamlakatimiz aholisining aksariyat qismi daryo vodiylarida, tog‘oldi tekisliklar hamda tog‘ oralig‘idagi botiqlarda, ayniqsa, qadimdan dehqonchilik maqsadlarida o‘zlashtirilgan hududlarda yashaydi. Cho‘l va tog‘larda esa aholi ancha kam.

O‘zbekiston hududlari aholi soni bo‘yicha farqlanadi. Aholisi 4 mln kishidan ziyod viloyatlar, 2025-yil boshi holatiga ko‘ra, Samarqand va Farg‘onadir. Qashqadaryo, Andijon, Namangan, Toshkent viloyatlari hamda Toshkent shahrida aholi 3 mln kishidan ko‘proq. Aholi soni eng kam bo‘lgan viloyat – Sirdaryo. Bu viloyat aholisi 1 mln kishidan kamroq bo‘lgan respublikamizdagi yagona hudud (5-rasm). Shu bilan birga, Navoiy viloyati ham bu borada nisbatan past ko‘rsatkichga ega *(Sizningcha, buning sababi nimada?)*.



5-rasm. O‘zbekiston hududlaridagi aholi soni va zichligi

Aholi joylashuviga tavsif berganda **aholi zichligi** ko‘rsatkichi muhim ahamiyatga ega. Aholi zichligi 1 km² hududga qancha aholi to‘g‘ri kelishini aks ettiradi.

$$\text{AHOLI ZICHLIGI} = \frac{\text{Aholi soni (kishi)}}{\text{Hudud maydoni (km}^2\text{)}}$$

O‘zbekiston bo‘yicha o‘rtacha aholi zichligi 84 kishi / km² ga teng (01.01.2025). Hududi qadimdan dehqonchilik yaxshi rivojlangan tekisliklardan iborat bo‘lgan Andijon (805 kishi/km²), Farg‘ona (613 kishi/km²), Namangan (421 kishi/km²) va Xorazm (336 kishi/km²) viloyatlarida bu ko‘rsatkich eng yuqori. Ayni vaqtda, maydonining katta qismini cho‘llar egallagan Buxoro (52 kishi/km²), Navoiy (10 kishi/km²) viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida (12 kishi/km²) aholi zichligi ancha past.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Mamlakatdagi tug‘ilish va aholining tabiiy ko‘payish darajasi yosh tarkibiga qanday ta’sir ko‘rsatadi deb o‘ylaysiz? Tug‘ilish darajasi yuqori bo‘lgan mamlakat aholisining yosh tarkibi tug‘ilish darajasi past mamlakat aholisining yosh tarkibidan qanday farq qiladi?
2. 4-rasmda keltirilgan O‘zbekiston aholisining yosh-jins piramidasidagi ma’lumotlardan foydalanib, 2025-yil boshi holatiga ko‘ra, yurtimizdagi 30–34 yoshli va 20–24 yoshli aholi sonini aniqlang va o‘zaro taqqoslang. Aholining ushbu yosh guruhlari nechanchi yillar oralig‘ida tug‘ilganini hamda qaysi yillarda tug‘ilish darajasi nisbatan yuqori va past bo‘lganini aniqlang.
3. O‘zbekistonning aholisi soni 01.01.1990-yilda 20,2 mln kishini tashkil etgani, maydoni esa 448,9 ming km² ga teng bo‘lganini hisobga olib, 1990–2025-yillar oralig‘ida respublikamizda aholi zichligi qanchaga o‘zgarganini hisoblang.

UYGA VAZIFA

O‘zbekiston hududlarida 2025-yil boshidagi aholi zichligini hisoblang va hisob-kitoblar natijasini tahlil qiling. Hududlardagi aholi soni 5-rasmdagi xaritada, maydoni esa quyidagi jadvalda berilgan.

Hudud nomi	Maydoni (ming km²)	Hudud nomi	Maydoni (ming km²)	Hudud nomi	Maydoni (ming km²)
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	166,59	Navoiy viloyati	111,10	Toshkent viloyati	15,14
Andijon viloyati	4,30	Namangan viloyati	7,44	Farg‘ona viloyati	6,76
Buxoro viloyati	40,22	Samarqand viloyati	16,77	Xorazm viloyati	6,05
Jizzax viloyati	21,21	Sirdaryo viloyati	4,28	Toshkent shahri	0,45
Qashqadaryo viloyati	28,57	Surxondaryo viloyati	20,10		

4.3. SHAHAR VA QISHLOQ AHOLI PUNKTLARI

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekistondagi aholi punktlari turlarini (shahar va qishloq) ajratish va tasniflashni bilib olasiz;
- shahar va qishloq aholi punktlari joylashuviga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni aniqlaysiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Shahar va qishloqlarning qanday o‘zaro farqlarini ayta olasiz? Shahar va qishloqlar bir-birini qanday to‘ldiradi va qay tariqa o‘zaro bog‘langan?

Aholi doimiy yoki vaqtincha yashaydigan barcha joylar, ya’ni shahar, shaharcha, qishloq va ovullar **aholi punkti** deb ataladi.

Aholi punktlari *shahar* va *qishloq* aholi punktlariga bo‘linadi. Shahar va qishloq hududlari orasida turli tafovutlar bor. Asosiy farq aholi bandligi bilan bog‘liq: qishloq joylarda yashovchi aholining aksariyati dehqonchilik va chorvachilik bilan shug‘ullanadi va asosiy daromadlarini shu xo‘jalik mashg‘ulotlari orqasidan topadi. Shahar hududida yashovchilarning asosiy qismi sanoat, qurilish, savdo, xizmat ko‘rsatish, ta’lim, davlat boshqaruvi kabi sohalarda band bo‘ladi.

O‘zbekistonda shahar aholi punktlari jumlasiga shaharlar va shaharchalar, qishloq aholi punktlari qatoriga esa qishloq va ovullar kiradi.

O‘zbekistonda, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 120 ta shahar, 1059 ta shaharcha va 10987 ta qishloq va ovul mavjud.

ILMIY ATAMALAR

O‘zbekiston qonunchiligiga binoan:

Shahar – aholisining soni, qoida tariqasida, kamida 7 ming kishi bo‘lgan, sanoat korxonalari va rivojlangan xizmat ko‘rsatish obyektlariga ega aholi punkti.

Shaharcha – aholisining soni, qoida tariqasida, kamida 2 ming kishi bo‘lgan, sanoat korxonalari, temiryo‘l stansiyalari va boshqa muhim obyektlarga yaqin joylashgan aholi punkti.

Qishloqlar va ovullar – shahar va shaharchalardan tashqari barcha aholi punktlari. Ovullar deb asosan Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy va Buxoro viloyatlarining olis cho‘l hududlaridagi kichik qishloqlar ataladi.

Shaharlarning rivojlanishi ko‘p jihatdan ulardagi aholi soniga bog‘liq. Shuning uchun ijtimoiy-iqtisodiy geografiyada shaharlar aholisi soniga ko‘ra quyidagi toifalarga bo‘linadi:

- kichik (50 000 kishigacha aholiga ega);
- o‘rta (50 000 – 100 000 kishi);
- katta (100 000 – 250 000 kishi);
- yirik (250 000 – 500 000 kishi);
- eng yirik (500 000 – 1 000 000 kishi);
- “millioner” shaharlar (1 000 000 kishi va undan ko‘p).

O‘zbekistondagi 120 ta shahardan, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 76 tasi kichik, 24 tasi o‘rta, 11 tasi katta, 6 tasi yirik, 2 tasi eng yirik va 1 tasi “millioner” shahar hisoblanadi. Shunday ekan, mamlakatimizdagi 20 ta shaharda aholi soni 100 ming kishidan oshadi (6-rasm).



6-rasm. Aholisi soni 100 ming kishidan ziyod bo‘lgan O‘zbekiston shaharlari (2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, ming kishi)

Shahar va shaharchalarning ijtimoiy-iqtisodiy o‘sish va rivojlanish imkoniyatlarini ko‘p jihatdan ularning geografik o‘rni belgilab beradi. O‘zbekiston sharoitida shahar va shaharchalarning joylashuviga bir qator omillar ta’sir ko‘rsatadi (7-rasm).

O‘zbekistonda qishloq aholi punktlari aholisi soni jihatidan kichik (1000 kishigacha), o‘rta (1000 – 3000 kishi), katta (3000 – 5000 kishi) va yirik (5000 kishidan ko‘p) kabi guruhlarga

BU QIZIQ!

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotlariga binoan, 2025-yil holatiga ko‘ra, jahondagi aholisi eng ko‘p shaharlar jumlasiga Indoneziya poytaxti Jakarta (42 mln kishi), Bangladesh poytaxti Dakka (37 mln kishi) va Yaponiya poytaxti Tokio (33 mln kishi) kiradi.



bo'linadi. Qoraqalpog'iston Respublikasi, Buxoro, Navoiy, Samarqand va Jizzax viloyatlarida kichik qishloqlar son jihatdan ustuvorlik qilsa, boshqa viloyatlarda o'rta qishloqlar ko'p. Katta va yirik qishloqlar, ayniqsa, Andijon va Namangan viloyatlarida ko'p. Eng kichik qishloqlar esa yurtimizning olis cho'l va tog'li hududlari uchun xos.

O'zbekistonda qishloq aholi punktlari sug'orma dehqonchilik rivojlangan hududlarda zich, cho'l va tog'larda esa ancha tarqoq holda joylashgan. Mamlakatimizdagi ko'p qishloqlar daryo, soy, kanal, ariq, buloq, quduq singari suv manbalari yonida joylashgan.

7-rasm. O'zbekistonda shahar va shaharchalarning joylashuviga ta'sir ko'rsatadigan omillar

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. 6-rasmdagi diagrammani tahlil qilib, O'zbekistondagi katta, yirik, eng yirik va "millioner" shaharlarni aniqlang.
2. Shahar va qishloq aholi punktlari orasidagi eng muhim tafovutni izohlang.
3. O'zbekistonda shahar va shaharchalarning joylashuviga 7-rasmda keltirilgan omillarning ta'sirini tushuntiring.

UYGA VAZIFA

1. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasining rasmiy vebsaytidagi (stat.uz) "Ochiq ma'lumotlar" menyusidan "Demografiya" bo'limini tanlang hamda undagi "Shaharlar" va "Shaharchalar" jadvallarini yuklab oling. Ulardagi ma'lumotlardan foydalangan holda, quyidagi jadvalni daftaringizda to'ldiring. Shaharlar hamda shaharchalar soni eng ko'p va eng kam bo'lgan viloyatlarni aniqlang.

Hudud nomi	Shaharlar soni	Shaharchalar soni
Qoraqalpog'iston Respublikasi		
Andijon viloyati		
...		

4.4. URBANIZATSIYA

DARS DAVOMIDA

- urbanizatsiya jarayonining mohiyati, sabablari, aholi turmush tarzi va hududlarning rivojlanishiga ta’sirini tushunib olasiz;
- urbanizatsiya jarayonining ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qilasiz va taqqoslaysiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Katta shaharlardagi yashash muhiti qishloq joylaridan qanday xususiyatlari bilan farq qiladi?

Butun dunyoda so‘nggi 200 yil mobaynida shaharlarning tez sur’atlar bilan o‘sishi, aholining aksariyati shaharlarga intilishi kuzatilmoqda. Buni ba’zi faktlar orqali ko‘rish mumkin. Dunyo bo‘yicha 1800-yilda shaharlarda insonlarning bor-yo‘g‘i 3 %i yashagan bo‘lsa, 1900-yilga borib, bu ko‘rsatkich 14 %gacha ko‘tarildi. XX asr davomida shaharlarning o‘sishi yanada tezlashib, 1950-yili shaharlarda jahon aholisining 29 %i, 2000-yilda 47 %i, 2010-yilda esa 50 %i istiqomat qilgan. 2024-yil ma’lumotlariga ko‘ra, shaharlarda jahon aholisining 58 %i yashagan. O‘zbekistonda ham oxirgi 85 yil davomida shahar aholisi salmog‘i ortgan (8-rasm). Demak, dunyo bo‘yicha, jumladan, O‘zbekistonda ham, aholining shaharlashib borishi jarayoni kuzatilmoqda. Bu ijtimoiy-iqtisodiy jarayon **urbanizatsiya** deb ataladi. Urbanizatsiya jarayonining ma’lum mamlakat yoki hududdagi rivojlanganlik darajasi, eng avvalo, jami aholi tarkibidagi shahar joylarida yashovchi aholi ulushi bilan o‘lchanadi.



8-rasm. O‘zbekistonda shahar va qishloq aholisi ulushining o‘zgarib borishi (1940–2025)

ILMIY ATAMALAR

Urbanizatsiya (lotincha “urbs” – shahar) – shahar aholisi soni va ulushining o‘sishi, shahar turmush tarzining tarqalishi, shaharlarning jamiyat hayotidagi ahamiyatining ortib borishi jarayoni.

Shahar aglomeratsiyasi – turli ijtimoiy-iqtisodiy aloqalar bilan o‘zaro bog‘langan yirik shaharlar va ularning atrofida joylashgan aholi punktlarining hududiy birikmasi.

Shahar aholisi soni va ulushi quyidagi jarayonlar natijasida o‘sib boradi:

- yangi shahar va shaharchalarning bunyod etilishi;
- qishloq aholi punktlarining ma’muriy maqomini o‘zgartirish, ya’ni ularni rasmiy ravishda shaharcha yoki shaharlarga aylantirish;
- mavjud shahar aholi punktlari hududini kengaytirish, ularning tarkibiga atrofdagi qishloqlarni kiritish;
- aholining qishloqlardan shaharlarga ko‘chib borishi.

Shaharlar, ayniqsa, katta va yirik shaharlar hududining kengayishi ularga qishloq joylaridan, kichik shahar va shaharchalardan aholining ko‘chib borishi jarayoni bilan uzviy bog‘liq. Aholining uy-joylari, xizmat ko‘rsatish obyektlari, sanoat korxonalari, transport yo‘llari, dam olish maskanlarini oqilona joylashtirish, turmush sharoitlarini yaxshilash maqsadida aholisi tabiiy va mexanik ko‘payish hisobiga tez o‘sib borayotgan shaharlarning hududi ularning tarkibiga atrofda joylashgan shaharcha va qishloqlarni qo‘shib yuborish hisobiga kengaytiriladi. Yurtimizda mustaqillik yillarida Toshkent, Namangan, Samarqand, Andijon, Nukus, Farg‘ona, Qo‘qon, Termiz va boshqa shaharlarning ma’muriy chegaralari kengaytirilib, ularning tarkibiga qator shaharcha va qishloqlar hududi kiritilgan.



9-rasm. O‘zbekistondagi 5 ta eng yirik shahar aholisi sonining o‘sishi (yil boshi holatiga ko‘ra, ming kishi)

Yirik shaharlar o‘z atrofida joylashgan aholi punktlarining rivojlanishiga ham katta ta’sir ko‘rsatadi. Bunday shaharlarga atrofdagi qishloqlar, shaharchalar va kichikroq shaharlarda yashovchi aholi ishlash, o‘qish, turli xizmatlardan foydalanish, dam olish maqsadlarida tashrif buyuradi. O‘z vaqtida, shahar aholisi atrof hududlarga vaqtinchalik yashash, tabiat qo‘ynida dam olish, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini iste’mol qilish yoki sotib, daromad topish uchun yetishtirish va boshqa maqsadlarda borib turishadi. Natijada yirik shahar va atrofdagi kichik aholi manzilgohlari orasida mustahkam aloqalar shakllanadi. Bu aloqalar ta’sirida **shahar aglomeratsiyalari** vujudga keladi. O‘zbekistonda Toshkent, Samarqand, Namangan, Farg‘ona, Marg‘ilon, Qo‘qon, Nukus, Buxoro kabi shaharlar negizida yirik shahar aglomeratsiyalari shakllangan.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

Sinfdoshlaringiz bilan katta shaharlarda yashashning ijobiy va salbiy jihatlarini muhokama qilib, quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Katta shaharlarda yashashning ijobiy jihatlari (imkoniyatlari)	Katta shaharlarda yashashning salbiy jihatlari (muammolari)

UYGA VAZIFA

9-rasmda O‘zbekistondagi 5 ta eng yirik shahar aholisi sonining 1990–2025-yillar mobaynida o‘sib borishi aks ettirilgan. Rasmdagi ma’lumotlardan foydalanib, ushbu shaharlar aholisi 2025-yilga kelib 1990- va 2010-yillarga nisbatan qancha o‘sganini hisoblang. Natijalarni daftaringizga qayd eting va xulosa chiqaring. Eng yuqori va eng past ko‘rsatkichli shaharlarni aniqlang.

Shaharlar	Aholisi soni (1.01.2025-yil, ming kishi)	1990-yilga nisbatan o‘sish		2010-yilga nisbatan o‘sish	
		ming kishida	% da	ming kishida	% da
Toshkent					
Namangan					
Samarqand					
Andijon					
Nukus					

4.5. MIGRATSIYA

DARS DAVOMIDA

- aholi migratsiyasi sabablarini aniqlaysiz;
- qishloq aholisining yirik shaharlarga ko‘chishiga sabab bo‘luvchi tabiiy, iqtisodiy va ijtimoiy omillarni tushunib olasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Kishilar bir joydan boshqa joyga qanday sabablarga ko‘ra ko‘chib ketishlari mumkin? Migratsiya jarayonlarida ko‘proq qaysi yosh guruhiga mansub aholi faol? Nimaga?

Aholi tarkibi va joylashuviga migratsiya jarayoni katta ta’sir ko‘rsatadi. **Migratsiya** (lotincha “migratio” – ko‘chish) deb, aholining bir hududdan boshqa hududga doimiy yoki vaqtincha muddatga ko‘chishiga aytiladi. Bitta manzilgoh ichidagi ko‘chish migratsiya hisoblanmaydi.

Migratsiya turli mezonlar bo‘yicha tasniflanishi mumkin (10-rasm).

Jumladan, hududiy miqyosi jihatidan *tashqi* va *ichki* migratsiyalar ajratiladi. Tashqi migratsiya deganda, boshqa davlatga ko‘chish tushuniladi. Ichki migratsiya esa bir davlat ichidagi boshqa hududga ko‘chish hisoblanadi. U, o‘z navbatida, *hudud ichidagi* va *hududlararo* kabi turlarga bo‘linadi. Masalan, viloyat ichida bir tumandan boshqa tumanga ko‘chish hudud ichidagi, bir viloyatdan boshqa viloyatga ko‘chish esa hududlararo migratsiya hisoblanadi.



10-rasm. Migratsiya turlari

Muddati nuqtayi nazaridan migratsiya *doimiy* va *vaqtincha* turlarga bo‘linadi. Doimiy migratsiya aholining butunlay boshqa manzilga ko‘chib ketishini, vaqtincha migratsiya esa doimiy yashash joyiga qaytib kelishini nazarda tutadi. Vaqtincha migratsiyaning *mavsumiy, vaxtali, mayatniksimon (tebranma)* kabi o‘ziga xos ko‘rinishlari mavjud.

Mavsumiy migratsiya ko‘proq qishloq xo‘jaligi ishlari bilan bog‘liq.

Vaxtali migratsiya deganda tabiiy sharoiti noqulay olis hududlardagi foydali qazilma konlarida yoki qurilish obyektlarida navbat bilan almashib mehnat qilish nazarda tutiladi. Mayatniksimon (tebranma) migratsiya esa shahar va uning atrofidagi hududlar o‘rtasida kunlik va haftalik tartibda kechadi: shaharga atrofidagi manzilgohlardan aholi ishlash va o‘qish kabi maqsadlarda, shaharliklar esa bu hududlarga asosan dam olish, ziyorat qilish yoki dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun tez-tez qatnab turadi. Boshqacha qilib aytganda, tebranma migratsiya ko‘proq shahar aglomeratsiyalari doirasida rivojlanadi.

STATISTIK FAKT

Birlashgan Millatlar Tashkilotining ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yilda dunyo bo‘yicha boshqa davlatga doimiy yoki vaqtincha muddatga ko‘chib borgan migrantlar soni 304 million kishini tashkil etgan. Eng ko‘p xorijiy migrantlarni qabul qilgan davlatlar qatoriga Amerika Qo‘shma Shtatlari (52,4 mln kishi), Germaniya (16,8 mln kishi), Saudiya Arabistoni (13,7 mln kishi), Buyuk Britaniya (11,8 mln kishi), Fransiya (9,2 mln kishi) kiradi.

Migratsiya sabablariga ko‘ra *iqtisodiy, oilaviy, siyosiy, etnik, diniy, ekologik (tabiiy)* turlarga bo‘linadi. Migratsiyaning iqtisodiy sabablari kishilarning yashash va mehnat qilish sharoitlarini yaxshilashga intilishidan iborat. Oilaviy migratsiya turli joylarda yashayotgan oila a’zolarining o‘zaro birlashishi bilan bog‘liq. Siyosiy migratsiya urush yoki siyosiy inqiloblar natijasida ro‘y beradi. Etnik va diniy migratsiya deganda, ma’lum millat yoki din vakillarining boshqa davlat yoki hududga ko‘chishi tushuniladi. Ekologik (tabiiy) migratsiya tabiiy muhitning buzilishi tufayli aholining o‘z yashash hududini tark etishi bilan bog‘liqdir.

Dunyoda eng katta hajmdagi aholi migratsiyasi iqtisodiy sabablar bilan bog‘liq bo‘lib, migrantlarning asosiy qismi yashash, mehnat qilish va daromad topishning yaxshiroq sharoitlarini izlab doimiy yoki vaqtincha muddatga boshqa joyga ko‘chib boradi.

IQTISODIY SABABLAR	IJTIMOIY SABABLAR	TABIIY-EKOLOGIK SABABLAR
• ish haqining nisbatan yuqoriligi; • daromad manbalarining xilma-xilligi; • tadbirkorlik bilan shug‘ullanishga keng imkoniyatlar; • yangi texnologiya va innovatsiyalar ...	• qulay uy-joy kommunal sharoiti; • sifatli ta’lim olishga keng imkoniyatlar; • tibbiy xizmat ko‘rsatishning nisbatan yuqori sifati; • madaniy hordiq chiqarishga keng imkoniyatlar ...	• qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanishni cheklovchi tabiiy iqlim sharoiti; • sug‘orish uchun suv resurslarining taqchilligi; • yer resurslari unumdorligining pasayishi ...

11-rasm. Aholining qishloq joylardan shaharlarga ko‘chib ketishi sabablari

Xalqaro migratsiya turmush darajasi pastroq bo‘lgan mamlakatlardan ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi yuqoriroq bo‘lgan davlatlarga tomon yo‘naladi. Ichki migratsiya esa ko‘p holatlarda qishloq joylardan shaharlarga, ayniqsa, katta shaharlarga tomon yo‘naladi. Aholi qishloq joylardan shaharlarga tomon intilishining bir qancha omillari mavjud (11-rasm).

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Quyidagi misollar vaqtincha migratsiyaning qaysi turlariga mos kelishini aniqlang:

a) Samarqand shahriga atrofdagi tumanda yashovchi kishi universitetdagi ishi tufayli har kuni qatnaydi;

b) Bahorda Andijon viloyatidan Toshkent viloyatiga dehqonchilik bilan shug‘ullanish uchun kelgan oila kuzda hosilni sotib, doimiy yashash joyiga qaytdi;

d) Nukus shahrida yashovchi kishi Ustyurt platosidagi Qirqqiz shaharchasida joylashgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasida ishlaydi. Oyning boshida Qirqqizga borib, 15 kun davomida korxona yotoqxonasidan ishga qatnaydi. So‘ng Nukusga qaytadi va oy oxirigacha dam oladi.

2. Ushbu migratsiyalar qanday sabablar bilan bog‘liqligini aniqlang:

a) suv tanqisligi keskinlashgan qishloq aholisining shaharga ko‘chib borishi;

b) ota-onaning bir necha yil oldin shaharga ko‘chib ketgan farzandi oldiga qishloqdan ko‘chib borishi;

d) oila ajdodlarining tarixiy vataniga, boshqa davlatga ko‘chib ketishi;

e) xorijiy davlatga ishlash va daromad topish uchun vaqtincha borish.

UYGA VAZIFA

Hozirgi kunda jahonda millionlab odamlar xorijiy davlatlarga mehnat qilish va daromad topish uchun boradi. Bu jarayon migrantlarning asl yurti va ularni qabul qilgan mamlakatlar rivojiga sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatadi. Bu boradagi fikr-mulohazalaringizni daftaringizga jadval shaklida yozing.

Xalqaro mehnat migratsiyasi ta’siri	
Migrantlarning o‘z mamlakatiga	Migrantlarni qabul qilgan mamlakatlarga
Ijobiy ta’sir	Ijobiy ta’sir
Salbiy ta’sir	Salbiy ta’sir

4.6. AMALIY MASHG‘ULOT

DARS DAVOMIDA

- Ernst Georg Ravenshtaynning migratsiya qonunlari bilan tanishasiz;
- Jon Fridmanning “Markaz–periferiya” modeli mazmunini anglaysiz va uni misollar bilan izohlaysiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Aholi migratsiyasiga oid ilmiy tadqiqotlar olib borgan olimlar orasida kelib chiqishi germaniyalik bo‘lgan ingliz geograf va kartograf olimi **Ernst Georg Ravenshtayn** (1834–1913) alohida o‘rin egallaydi. U uzoq yillar Buyuk Britaniyadagi aholi migratsiyasini o‘rganish natijasida bu jarayonga doir bir qator qonuniyatlarni aniqlagan va ularni 1885-yilda chop etilgan “Migratsiya qonunlari” ilmiy ishida bayon qilgan.

E.Ravenshtayn aniqlagan migratsiya qonunlari:

1. Migrantlar ko‘proq qisqa masofalarga ko‘chadi, uzoq masofaga ko‘chadiganlar esa asosan yirik shaharlarga intiladi.
2. Migrantlar odatda qishloqlardan kichik shaharlarga, kichik shaharlardan katta shaharlarga, katta shaharlardan esa poytaxtga ko‘chadi.
3. Har bir migratsiya oqimiga mos holda teskari yo‘nalishdagi migratsiya oqimi hosil bo‘ladi. Masalan, katta shaharga ko‘chishga harakat qilganlarning bir qismi o‘z vataniga qaytadi.
4. Shaharliklar qishloq aholisiga nisbatan o‘z yashash joylarini kamroq holatlarda tark etadi.
5. Uzoq masofaga migratsiya jarayonlarida erkaklar ayollarga nisbatan ko‘proq faol bo‘ladi.
6. Migratsiyada ko‘proq mehnatga layoqatli yoshdagilar faol bo‘ladi.
7. Ishlab chiqarish, texnika va texnologiyalar, ayniqsa, transport sohasi rivojlangani sari migratsiya kuchayib boradi.
8. Eng ko‘p migrantlarni yirik shaharlar qabul qiladi va shuning uchun aholisi soni ko‘chib kelganlar hisobiga ko‘payadi.
9. Migratsiya asosan iqtisodiy sabablar bilan bog‘liq.



Amerikalik geograf olim **Jon Fridmann** (1926–2017) 1960-yillarda **“Markaz–periferiya”** hududiy rivojlanish modelini asoslab bergan. Unga muvofiq, jahon, mamlakat yoki uning muayyan bir qismi miqyosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish darajasi va tezligi yuqori bo‘lgan markazlar hamda nisbatan qoloq va sust rivojlanadigan periferiya (chekka, olis) hududlarni ajratish mumkin. Rivojlanish markazlari sifatida odatda yirik shaharlar ajratilib, ularda aholi, mablag‘, ishlab chiqarish korxonalari, ta’lim va ilm-fan muassasalari va boshqa muhim resurslar to‘planadi, yangi texnologiya va g‘oyalar (innovatsiyalar) vujudga keladi. Chekka hududlar esa markazlar uchun turli xomashyo va ishchi kuchi manbayi bo‘lib xizmat qiladi.

Keys

Jadvaldagi statistik ma’lumotlar asosida 2024-yil yakunlari bo‘yicha O‘zbekiston hududlaridagi migratsiya saldosi (farqi)ni hisoblab chiqing. Qaysi hududlarda ijobiy migratsiya saldosi kuzatilganiga e’tibor bering. Bu statistik raqamlarni E. Ravenshtayn va J. Fridmann g‘oyalari asosida izohlang (2-jadval).

2-jadval. O‘zbekiston hududlarida aholi migratsiyasi ko‘rsatkichlari (2024)

Hududlar	2024-yilda ko‘chib kelganlar soni	2024-yilda ko‘chib ketganlar soni
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	10429	14843
Andijon	7202	9068
Buxoro	9303	12801
Farg‘ona	13362	15384
Jizzax	7586	9824
Namangan	3314	5355
Navoiy	12341	13786
Qashqadaryo	11109	17819
Samarqand	13330	16388
Sirdaryo	7580	8421
Surxondaryo	10839	13857
Toshkent	32434	28856
Xorazm	10822	12391
Toshkent shahri	92145	71616

4.7. LOYIHA ISHI. BIZ YASHAYDIGAN HUDUD AHOLISI

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining https://stat.uz/ vebsaytidan foydalanib, aholining tabiiy o‘sishi, migratsiyasi va unga ta’sir qiladigan omillar haqidagi ma’lumotlarni tahlil qilishni o‘rganasiz.



12-rasm. https://stat.uz/ saytidan aholi haqidagi ma’lumotlarni olish

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Mamlakatimiz iqtisodiyotidagi turli tarmoqlar bo‘yicha aniq, yangilanib boruvchi statistik ma’lumotlarni O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining rasmiy https://stat.uz/ vebsaytidan olish mumkin. Ushbu saytning bosh sahifasidagi “Ochiq ma’lumotlar”ning “Demografiya” bo‘limida yurtimizdagi viloyatlar, shaharlar va tumanlar aholisi haqida ma’lumotlar berilgan. So‘nggi 15 yillik ma’lumotlarni turli formatlarda (masalan, pdf) yuklab olishingiz mumkin (12-rasm).

3-jadval. Tumanning demografik ko‘rsatkichlari

T/r	Demografik ko‘rsatkichlar	Dastlabki hisob yili	Hisob yilidan keyingi 5 yil	Hisob yilidan keyingi 10 yil	Oxirgi hisob yili
1	Tug‘ilganlar soni, kishi				
2	Vafot etganlar soni, kishi				
3	Tabiiy ko‘payish, kishi				

Keys

1. https://stat.uz/ saytidan tug‘ilganlar va vafot etganlar sonini yuklab oling. O‘zingiz yashaydigan tuman (shahar)ga tegishli ma’lumotlarni topib, 3-jadvalning 1- va 2-qatorlariga ko‘chirib yozing. Ushbu ma’lumotlardan foydalanib aholining tabiiy ko‘payishini hisoblang va daftaringizga uni chiziqli diagramma shaklida tasvirlang.
2. Oxirgi hisob yilidagi ma’lumotlar asosida tumaningizdagi (shahringizdagi) tug‘ilish, o‘lim va tabiiy ko‘payishning bir kunga to‘g‘ri keladigan o‘rtacha sonini hisoblang.
3. https://stat.uz/ saytidagi ma’lumotlar asosida oxirgi ko‘rsatilgan yilda tumaningizga ko‘chib kelganlar va ko‘chib ketganlar sonini aniqlab, 4-jadvaldagi 1- va 2-ustunlarga yozing. Ushbu ma’lumotlardan foydalanib aholining mexanik ko‘payishini hisoblang.

4-jadval. Tumanning migratsiya ko‘rsatkichlari

Ko‘chib kelganlar soni, kishi	Ko‘chib ketganlar soni, kishi	Mexanik ko‘payish, kishi

4. Tumaningizda migratsiyaga ta’sir qilayotgan tabiiy, ekologik, iqtisodiy-ijtimoiy omillarni jadval shaklida yozing.

5-jadval. Migratsiyaga ta’sir qiladigan omillar

Aholini ko‘chib ketishga majbur qilayotgan omillar	Migrantlarni jalb qilayotgan omillar

5. 3- va 4-jadvallardagi ma’lumotlardan foydalanib tumaningiz aholisining umumiy yillik ko‘payishini hisoblang. Tumaningiz aholisining tabiiy, mexanik va umumiy ko‘payishini ustunli diagrammada tasvirlang.

UYGA VAZIFA

Mahallangiz aholisini o‘rganish uchun kamida 15 kishi orasida kichik so‘rovnoma o‘tkazing. So‘rovnoma natijalarini tahlil qilib, quyidagi topshiriqlarni bajaring:

a) Mahallangizdagi oilalar o‘rtacha necha kishidan iborat ekanini aniqlang.

b) Aholi orasidagi bolalar, mehnat yoshidagilar va keksalar ulushini aniqlang.

d) So‘rovnomada qaysi millat vakillari qatnashganini aniqlang. Eng ko‘p uchragan millatni toping va uning umumiy ishtirokchilardagi ulushini (%) hisoblang.

e) Aholining yosh tarkibi qanday xizmat ko‘rsatish muassasalariga (bog‘cha, maktab, poliklinika, dam olish maskanlari va boshqalar) ehtiyoj kattaligini ko‘rsatmoqda? Javobingizni asoslang.

MAVZUNING DAVOMI (2-DARS)

DARS DAVOMIDA

- “Google Earth” ilovasidan foydalanib mahallangiz maydoni, aholisi va aholi zichligini hisoblashni o‘rganasiz hamda aholi zichligiga ta’sir qiladigan omillarni tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Ma’lumki, aholi zichligi aholi sonini hudud maydoniga bo‘lish orqali aniqlanadi. Mahallangizdagi aholi zichligini aniqlash uchun hudud aholisining umumiy soni va maydonini bilishingiz lozim. Buning uchun sizga bir qancha ilovalar yordam berishi mumkin. Ularning orasida keng tarqalgani “Google Earth”. Bu dasturdan foydalanish uchun “Google”ning qidiruv qismiga “Google Earth” deb yozasiz va https://earth.google.com/web/ havolasiga kirasiz.

BU QIZIQ!

“Google Earth” ilovasida “3D” tugmasi orqali relyefni uch o‘lchamli tarzda ko‘rishingiz, “Ko‘cha ko‘rinishi ( )” tugmasini bosib, ayrim hududlarda olingan suratlarni tomosha qilishingiz mumkin.

Ushbu ilovadan foydalanishda quyidagi amallarni ketma-ket bajarishingiz lozim:

1. Ilovadan mahallangizni toping. Buning uchun kompyuteringiz (telefoningiz)dan “Joylashuv”ni yoqing. Ilovadan “Joylashuvingizni ko‘rsatish” tugmasini bosib, mahallangizni yiriklashtirib ko‘ra olasiz. Ilovadan o‘zingiz turgan nuqtaning koordinatalari va mutlaq balandligini ham aniqlashingiz mumkin (13-rasm).



13-rasm. “Google Earth” ilovasidan o‘zingiz turgan nuqtani aniqlash

2. Oldingi darsda berilgan topshiriqni bajarishda har bir oilada (xonadonda) o‘rtacha necha kishi yashashini aniqlagan edingiz. Endi mahallangizdagi aholi sonini aniqlang. Buning uchun quyidagi amalni bajaring:

Aholi soni = Xonadonlar soni × Xonadonlarda yashovchi o‘rtacha kishilar soni

Ilovadagi interaktiv xaritani yiriklashtirib, xonadonlar sonini sanab chiqishingiz mumkin. Agar ko‘p qavatli uyda yashasangiz, har bir qavatda qancha xonadon mavjudligini aniqlab, uni qavatlar soniga ko‘paytirish orqali binodagi aholi sonini topishingiz mumkin. Yon-atrofdagi xuddi shunday binolarda ham aholi soni shu miqdorda deb oling.

3. Mahallangiz maydonini aniqlang. Buning uchun ilovadagi “Masofa va maydonni aniqlash” tugmasi ustiga bosib, mahallangiz chegaralarini nuqtalar qo‘yish orqali belgilang.



14-rasm. “Google Earth” ilovasidan mahallangiz maydonini aniqlash

Barcha nuqtalarni qo‘yib bo‘lgach, dastlabki belgilangan nuqtangiz ustiga qayta bossangiz, mahallangiz maydoni aniqlanadi (14-rasm).

4. Mahallangizdagi aholi zichligini aniqlang. Buning uchun aholi sonini hudud maydoniga bo‘lasiz.

UYGA VAZIFA

Siz yashaydigan tuman va viloyatdagi aholi zichligini hisoblang yoki https://stat.uz/ veb-saytidan aniqlang. O‘zingiz yashaydigan mahalla, tuman, viloyatdagi aholi zichligini ustunli diagrammada tasvirlang va bir-biriga taqqoslang. Ulardan qaysi birida aholi zichligi eng yuqori? Sabablarini tushuntiring.

V BOB

INSON XO‘JALIK FAOLIYATI



USHBU BOBDA QUYIDAGI MAVZULARNI O‘RGANASIZ:

5.1. O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining tuzilishi
5.2. Sanoat – milliy iqtisodiyotning tayanch tarmog‘i
5.3. Yoqilg‘i sanoati
5.4. Elektr energetikasi
5.5. Kimyo sanoati
5.6. Metallurgiya sanoati
5.7. Mashinasozlik va uning tarmoqlari
5.8. Avtomobilsozlik
5.9. Qurilish materiallari sanoati
5.10. Agrosanoat majmuasi
5.11. Qishloq xo‘jaligi
5.12. Amaliy mashg‘ulot
5.13. Yengil va oziq-ovqat sanoati
5.14. Transport
5.15. Xizmat ko‘rsatish sohalari
5.16. Amaliy mashg‘ulot
5.17. Tashqi iqtisodiy aloqalar

5.1. O‘ZBEKISTON MILLIY IQTISODIYOTINING TUZILISHI

DARS DAVOMIDA

- milliy iqtisodiyotning tarmoqlar tarkibini izohlaysiz;
- O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida amalga oshirilayotgan islohotlarning mamlakat va o‘zingiz yashaydigan hududning ijtimoiy-iqtisodiy rivojiga ta’sirini baholaysiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Milliy iqtisodiyot – muayyan davlat hududida faoliyat yurituvchi korxonalar, tashkilotlar, uy xo‘jaliklari va davlat organlarining mehnat taqsimoti hamda o‘zaro iqtisodiy aloqalar orqali bog‘langan yagona tizimi. U mamlakat aholisining moddiy va nomoddiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladi, turli mahsulotlarni ishlab

O‘YLAB KO‘RING

1. Iqtisodiyot deganda nimani tushunasiz?
2. Mamlakat iqtisodiyotining rivojlanishi qanday omillarga bog‘liq?



1-rasm. Milliy iqtisodiyotning tuzilishi

chiqarish va xizmatlarni ko‘rsatish bilan shug‘ullanadi.

Milliy iqtisodiyot faqat iqtisodiy omillarga emas, balki geografik sharoitlarga ham bog‘liq. Mamlakatning joylashuvi, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisining soni, tarkibi, o‘sishi va joylashuvi, transport yo‘llari va xo‘jalik an’analari milliy iqtisodiyotning rivojlanishi va tarkibiga katta ta’sir ko‘rsatadi.

Mamlakatimiz iqtisodiyoti o‘zaro bog‘langan sanoat, qishloq xo‘jaligi, transport, qurilish, aloqa, savdo, fan, ta’lim, sog‘liqni saqlash kabi tarmoqlarni birlashtiradi (1-rasm).



2-rasm. O‘zbekistonda yalpi ichki mahsulot tarkibining o‘zgarishi (jamiga nisbatan foizda)

Ushbu tarmoqlar faoliyatini baholashda eng ko‘p qo‘llanadigan ko‘rsatkichlardan biri **yalpi ichki mahsulot (YIM)**dir. YIM iqtisodiyotning umumiy hajmi, uning o‘sish sur’ati va samaradorligini baholash imkonini beradi (2-rasm). U milliy iqtisodiyotdagi barcha tarmoqlar faoliyatining “umumiy natijasi”ni ko‘rsatadi.

Milliy iqtisodiyot o‘sishining, ya’ni YIM ko‘rsatkichini oshirishning ikki asosiy yo‘li mavjud: **ekstensiv** va **intensiv**. Ekstensiv yo‘lda mamlakatning milliy iqtisodiyoti ishlab chiqarish texnologiyalarini takomillashtirish orqali emas, asosan turli iqtisodiy resurslardan foydalanish hajmini kengaytirish hisobiga o‘sib boradi. Intensiv yo‘lda esa mamlakat iqtisodiyotida, resurslar tejalgan holda ko‘proq hajmdagi mahsulot ishlab chiqarilishi ta’minlanadi. Bunga intellektual salohiyatning yuqoriligi, ilmiy-texnika taraqqiyoti, zamonaviy texnologiyalarning rivojlangani hisobiga erishiladi.

ILMIY ATAMALAR

Yalpi ichki mahsulot (YIM) – mamlakat hududida muayyan davr (odatda bir yil) mobaynida ishlab chiqarilgan barcha pirovard mahsulotlar va ko‘rsatilgan xizmatlarning umumiy qiymatini ifodalovchi asosiy iqtisodiy ko‘rsatkich.

Ekstensiv – asosan ishlab chiqarishga qo‘shimcha resurslar (xomashyo, yer, ishchi kuchi va hk.) jalb qilinishi hisobiga ta’minlanadigan iqtisodiy o‘sish yo‘li.

Intensiv – mavjud resurslarning sifatini va ulardan foydalanish samaradorligini oshirish orqali ta’minlanadigan iqtisodiy o‘sish yo‘li.

Jahondagi rivojlangan mamlakatlar iqtisodiy o‘sishga asosan intensiv yo‘l orqali erishmoqda. Ularda yangi yerlarni o‘zlashtirish imkoniyatlari cheklangan, shu bois ilm-fan va innovatsiyalarga investitsiya kiritadilar.

Rivojlanayotgan mamlakatlar ko‘p hollarda mavjud tabiiy va mehnat resurslaridan keng foydalanishga tayanadigan ekstensiv o‘sish yo‘lidan bormoqda.

Davlatimiz fan va texnika yutuqlarini iqtisodiyotga jadal joriy etib, resurslardan tejamkor va samarali foydalanishga asoslangan intensiv rivojlanish yo‘lini tanlagan. Sanoatga innovatsion texnologiyalarni joriy etish, IT parklar va texnoparklarni rivojlantirish intensiv o‘sishning asosiy manbayiga aylangan.

Energiya samaradorligini oshirish, yashil energiya loyihalarini amalga oshirish hamda qishloq xo‘jaligida tomchilatib sug‘orish va yuqori hosilli navlardan foydalanish orqali kamroq resurs bilan ko‘proq mahsulot olish amaliyoti kengaymoqda. Bu jarayonlar qaysi hududda qay tarmoqni ustuvor rivojlantirish mumkinligini chuqur o‘rganishni talab qiladi. Shu o‘rinda geografik omillar alohida ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyotining shakllanishi va rivojlanishiga mineral resurslar, suv resurslari, iqlim va tuproq sharoiti, aholi joylashuvi va transport tizimi kabi omillar ta‘sir ko‘rsatadi.

O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti va uning tarmoqlari tabiiy sharoitlar, resurslar, aholi joylashuvi hamda transport yo‘nalishlari bilan uzviy bog‘langan. Mamlakatni hududlar bo‘yicha rivojlantirish strategiyalari ham geografik xususiyatlarni inobatga olgan holda ishlab chiqiladi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

Matnni o‘qib, savollarga javob bering. Korxonalar ishlab chiqarish hajmini bir xil miqdorda oshirdi. Natijaga erishish uchun biri ekstensiv, yana biri intensiv o‘sish yo‘lini tanladi.

Birinchi korxona zamonaviy texnologiyalarni joriy etdi, ishlab chiqarish jarayonining bir qismini avtomatlashtirdi va energiya tejamkor uskunalarni o‘rnatdi. Natijada kamroq resurs sarflab, ko‘proq mahsulot ishlab chiqarish imkoniyati paydo bo‘ldi.

Ikkinchi korxona yangi sexlar qurdi va ko‘proq ishchilarni jalb qildi. Korxona foydalanadigan xomashyo hajmi, suv sarfi va energiya iste’moli sezilarli darajada oshdi.

1) Qaysi korxona ekstensiv, qaysi korxona intensiv yo‘ldan borgan?
2) Qaysi korxonada mehnat unumdorligi yuqoriroq bo‘lib, ishchilar maoshini oshirish imkoniyati yaratiladi?
3) Qaysi korxonada resurslardan samaraliroq foydalanilmoqda?
4) Qaysi korxonaning atrof-muhitga salbiy ta’siri ko‘proq?
5) Agar siz tadbirkor bo‘lganingizda, qaysi o‘sish yo‘lini tanlar edingiz?

UYGA VAZIFA

1-rasmda ko‘rsatilgan milliy iqtisodiyot tarmoqlaridan birini tanlang. Uning faoliyati to‘xtab qolishi natijasida iqtisodiyotda qanday muammolar yuzaga kelishi mumkinligi haqida fikrlaringizni yozing. Ushbu tarmoqdagi kasblarga 3 ta misol toping.

5.2. SANOAT – MILLIY IQTISODIYOTNING TAYANCH TARMOG‘I

DARS DAVOMIDA

- sanoat tarmoqlarining hayotiy ahamiyatini izohlaysiz;
- O‘zbekiston hududlarining sanoat ixtisoslashuvida tarmoqlar shakllanishi va rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatuvchi omillarni muhokama qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Sanoat – tabiiy xomashyolarni qayta ishlab, tayyor yoki yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqaradigan tarmoqlar majmuyidir.

U milliy iqtisodiyotda yangi ish o‘rinlari yaratish, texnologiya joriy etish va eksportni kengaytirishda hal qiluvchi o‘rin tutadi.

Sanoat tarmoqlarining rivojlanishi ko‘pincha yuqori texnologiya, mehnatni avtomatlashtirish, energiya bilan ta’minlash va ilmiy-texnik innovatsiyalar bilan bog‘liq bo‘ladi. Sanoatning ishlab chiqarish yo‘nalishi va mahsulot turiga ko‘ra farqlanishi uni turli tarmoqlarga ajratish imkonini beradi (1-jadval).

O‘YLAB KO‘RING

1. Nima uchun sanoat rivoji mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga katta ta’sir ko‘rsatadi?
2. Agar sanoat sohasi yo‘q bo‘lsa, kundalik hayotimizda qanday muammolar yuzaga keladi?

1-jadval. O‘zbekiston sanoatining asosiy tarmoqlari

Sanoat tarmoqlari	Asosiy texnologik jarayonlar
Yoqilg‘i sanoati	Yoqilg‘i resurslari (neft, gaz, ko‘mir va b.) qazib olinadi hamda ulardan turli mahsulotlar ishlab chiqariladi.
Elektr energetikasi sanoati	Elektr energiyasini ishlab chiqarish hamda uni iste’molchilarga yetkazish bilan shug‘ullanadi.
Kimyo sanoati	Xomashyolar qayta ishlanib, mineral o‘g‘itlar, plastmassa, kislota, bo‘yoq va boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi.
Metallurgiya sanoati	Rudalar qazib olinadi, boyitiladi, eritiladi va ulardan metallar va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqariladi.
Mashinasozlik sanoati	Turli mashinalar va asbob-uskunalar ishlab chiqariladi.
Qurilish materiallari sanoati	Qurilish uchun zarur bo‘lgan sement, g‘isht, beton, shisha va boshqa materiallar ishlab chiqariladi.
Yengil va oziq-ovqat sanoati	Aholi uchun iste’mol mahsulotlari ishlab chiqariladi.

Nima uchun sanoat milliy iqtisodiyotning tayanch tarmog‘i?

Sanoat iqtisodiyotning boshqa sohalari bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, uning rivojlanishi mamlakatning umumiy taraqqiyotiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Ayni paytda milliy iqtisodiyotimizda sanoatning yuzlab ixtisoslashgan tarmoqlari mavjud (3-rasm).



3-rasm. O‘zbekiston sanoatining asosiy markazlari

Sanoat mamlakat iqtisodiy rivojlanishining asosiy harakatlantiruvchi kuchlaridan biridir. U quyidagi yo‘nalishlarda hal qiluvchi ahamiyatga ega:

Iqtisodiy rivojlanishni ta’minlaydi. Mamlakat YIMining katta qismi sanoatda shakllanadi. Korxonalarda mahsulot ishlab chiqarilishi orqali iqtisodiy o‘sish ta’minlanadi va mamlakatning umumiy iqtisodiy qudrati ortadi.

Eksportbop mahsulotlar asosini tashkil qiladi. Yarim tayyor va tayyor sanoat mahsulotlari O‘zbekiston tashqi savdosining asosiy qismi hisoblanadi. Bu mahsulotlar valyuta tushumini oshirib, mamlakatning tashqi iqtisodiy ustuvorligini mustahkamlaydi.

Yangi ish o‘rinlarini yaratadi. Sanoat tarmoqlari yuz minglab ishchi-xodimlarning bandligini ta’minlaydi. Ayniqsa, mashinasozlik, to‘qimachilik va qurilish materiallari sanoati aholi bandligida muhim o‘rin tutadi.

Texnologik rivojlanish va innovatsiyani rag‘batlantiradi. Sanoat ilm-fan yutuqlari amaliyotda qo‘llanadigan asosiy sohadir. Zamonaviy texnologiyalarni sanoatga joriy etish mamlakatning iqtisodiy jihatdan raqobatbardoshligini oshiradi va ishlab chiqarish samaradorligi ortadi.

Boshqa tarmoqlarni rivojlantiradi. Sanoatning barqaror rivojlanishi qishloq xo‘jaligi, xizmatlar sohasi, transport va logistika kabi boshqa sohalarda ham o‘sish jarayonlarini tezlashtiradi. Shu bois sanoat milliy iqtisodiyotning tayanch tarmog‘i sifatida e’tirof etiladi.

Yuqoridagilarni amalga oshirish jarayonida sanoat qator muhim vazifalarni bajaradi (4-rasm).

Sanoat tarmoqlari qanday shakllanadi? Sanoatning rivojlanishiga ta’sir etuvchi bir qancha omillar mavjud.

Sanoat korxonalarining joylashuvi ko‘plab tabiiy va iqtisodiy omillarga bog‘liq. Avvalo, korxonani xomashyo, energiya manbalari va ishchi kuchiga yaqin hududlarda joylashtirish qulay, chunki bu ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi va ish samaradorligini oshiradi. Shu bilan birga, transport tizimi rivojlangan, temiryo‘llar va logistika markazlari mavjud hududlarda sanoat tezroq rivojlanadi.



4-rasm. Sanoatning asosiy funksiyalari

Tabiiy sharoit va tabiiy resurslar ham ayrim sanoat turlarining rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

Infratuzilmaning rivojlangani, ya’ni transport, elektr energetikasi, suv ta’minoti, kommunikatsiya va xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining mavjudligi sanoat korxonalarining barqaror ishlashida muhim ahamiyatga ega.

Shu bilan birga, mahalliy yoki xorijiy sarmoyalar jalb etilgan hududlarda sanoat tarmoqlari tezroq rivojlanib, modernizatsiya jarayonlari jadallashadi.

Shu omillar natijasida har bir hududda sanoatning o‘ziga xos tarkibi va ixtisoslashuvi shakllanadi. Hududiy ixtisoslashuv sanoat tarmoqlarining joylashuvi va rivojlanishiga ta’sir qiladi.

Sanoat tarmoqlari. Sanoat tarkibida ishlab chiqariladigan mahsulotlari bilan bir-biridan farqlanuvchi bir qator tarmoqlar ajratiladi. Ushbu tarmoqlar qatoriga elektr energetikasi, yoqilg‘i, kimyo, metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, o‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza-qog‘oz, poligrafiya, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoati kiradi.

Ishlab chiqarish – xomashyo va tabiiy resurslarni qayta ishlab, tovar va xizmatlar yaratishga qaratilgan iqtisodiy jarayon. U mehnat, texnologiya, kapital va tabiiy resurslardan samarali foydalanish orqali iqtisodiy qiymat yaratadi.

Ishlab chiqarish sanoatning o‘zagini tashkil etadi. Ya’ni sanoat korxonalarida aynan ishlab chiqarish jarayoni orqali mahsulotlar tayyorlanadi, yangi qiymat yaratiladi va iqtisodiy o‘sishga hissa qo‘shiladi.

ILMIY ATAMALAR

Xomashyo – tabiatdan olinadigan va qayta ishlash uchun asos bo‘ladigan materiallar (masalan, neft, gaz, ruda).

Yarim tayyor mahsulot – qayta ishlashning bir necha bosqichidan o‘tgan, ammo to‘liq tayyor bo‘lmagan mahsulot.

Qayta ishlash sanoati – xomashyoni tayyor yoki yarim tayyor mahsulotga aylantiradigan sanoat tarmog‘i.

Undiruvchi sanoat – barcha turdagi mineral resurslarni qazib olish bilan shug‘ullanadigan sanoat tarmog‘i.

Ishlab chiqarish infratuzilmasi – korxonalar faoliyati uchun zarur kommunikatsiyalar: yo‘llar, elektr tarmoqlari, suv ta’minoti, logistika markazlari va boshqalar.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Tasavvur qiling, siz sanoat korxonasi tashkil etmoqchisiz. Korxona qanday mahsulotlar ishlab chiqarishi va qanday xomashyolardan foydalanishini ayting. Korxona uchun joyni qanday tanlaysiz? Tanlovingiz sababini 3 ta omil bilan izohlang.
2. Xaritadan foydalanib o‘zingiz yashaydigan viloyatda qaysi sanoat tarmoqlari rivojlanganini aniqlang va buning sabablarini tushuntiring.

UYGA VAZIFA

Sanoat tarmoqlarida mashina va asbob-uskunalar, robotlardan foydalanish ortib borib, qo‘l mehnatiga ehtiyoj kamaymoqda. Natijada korxonada mehnat unumdorligi sezilarli darajada oshmoqda. Sizningcha, ushbu jarayon ishsizlik ko‘payishiga sabab bo‘lishi mumkinmi? Agar shunday bo‘lsa, qanday yechimlar taklif qilasiz? Fikrlaringizni yozma ifodalang.

5.3. YOQILG‘I SANOATI

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekistonning asosiy yoqilg‘i resurslari va ularning iqtisodiy ahamiyatini tushuntirasiz;
- resurslarning cheklanganini va ularning muqobil variantlarini topish yo‘llarini aniqlaysiz;
- yoqilg‘i sanoatining hududiy va ijtimoiy-iqtisodiy ta’sirini baholaysiz;
- xarita bilan ishlash, ma’lumotlarni tahlil qilish ko‘nikmalarini shakllantirasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Yoqilg‘i resurslariga nimalar kiradi va ular qanday paydo bo‘ladi?

Tabiiy gaz, neft, kondensat va ko‘mirdan iborat yoqilg‘i resurslariga mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy geografiyasida strategik tarmoq sifatida qaraladi. U sanoatning barqaror rivojlanishi, hududlar o‘rtasidagi iqtisodiy aloqalar, transport infratuzilmasi va aholi bandligiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Mamlakatimizda olib borilayotgan geologik qidiruv ishlari natijasida ko‘plab gaz, neft konlari ishga tushirilmoqda (5-rasm).



5-rasm. O‘zbekiston yoqilg‘i sanoati xaritasi



6-rasm. Gazni qayta ishlash korxonasi

GAZ SANOATI. O‘zbekistondagi tabiiy gaz zaxiralari asosan Qashqadaryo va Buxoro viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida mavjud. Bu hududlardagi Sho‘rtan, Shimoliy va Janubiy Muborak, Gazli, Qandim, Surgil kabi yirik gaz konlari mamlakatimizning energiya manbalari bilan ta’minlashda katta ahamiyatga ega.

Tabiiy gaz respublikamizdagi gazni qayta ishlash korxonalarida qayta ishlanadi (6-rasm). Quvur tarmoqlari orqali gaz mamlakat bo‘ylab tarqatiladi. Elektr energiyasining katta qismi tabiiy gazdan yoqilg‘i sifatida foydalaniladigan issiqlik elektr stansiyalarida (IES) ishlab chiqariladi. Kimyo sanoatining rivojlanishi ham ko‘p jihatdan gaz ta’minotiga bog‘liq.

Hozirda yurtimizda Muborak (Qashqadaryo viloyati), Qandim va Gazli (Buxoro viloyati) gazni qayta ishlash zavodlari, Sho‘rtan (Qashqadaryo viloyati), Ustyurt (Qoraqalpog‘iston Respublikasi) gaz-kimyo majmualari, “Uzbekistan GTL” zavodi (Qashqadaryo viloyati) kabi juda yirik gazni qayta ishlash korxonalari mavjud.

Rasmiy statistika ma’lumotlariga ko‘ra, O‘zbekistonda tabiiy gaz qazib olish hajmi 2022-yilda 51,7 mlrd m³ bo‘lgan bo‘lsa, 2023-yilda 46,7 mlrd m³ va 2024-yilda 41,5 mlrd m³ gacha kamaygan (7-rasm). Elektr energiyasining asosiy qismi gaz yoqilishi hisobiga ishlab chiqarilishini inobatga olsak, gaz hajmining bunday qisqarishi energetika uchun qo‘shimcha muammolar keltirib chiqaradi.



7-rasm. O‘zbekistonda yoqilg‘i sanoati mahsulotlarini ishlab chiqarish dinamikasi

NEFT SANOATI. Neft zaxiralari nisbatan cheklangan bo‘lsa-da, Farg‘ona vodiysi, Qashqadaryo, Surxondaryo va Buxoro viloyatlaridagi konlar milliy ehtiyojni qoplashda muhim manba bo‘lib xizmat qiladi.

Ichki bozorda ishlatiladigan neft mahsulotlarining sezilarli qismi aynan shu hududlarda qazib olingan xomashyodan tayyorlanadi. Ayniqsa, aholining zich joylashuvi, sanoat korxonalari ko‘pligi va yetakchi infratuzilmaning mavjudligi sababli neft sanoati Farg‘ona vodiysida ijtimoiy va iqtisodiy jihatdan muhim tarmoqqa aylangan.

O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining ma’lumotlariga ko‘ra, so‘nggi 10 yillikda mamlakatda neft ishlab chiqarish hajmi kamayib bormoqda (7-rasm).

Neftni qayta ishlash zavodlari mamlakatni benzin, dizel va aviakerosin kabi yoqilg‘ilar bilan ta’minlaydi. Qolaversa, bu korxonalar yuk tashish, logistika va ish o‘rinlari yaratish kabi ijtimoiy-iqtisodiy masalalarga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatadi.

O‘zbekistondagi asosiy neftni qayta ishlash korxonalari Qorovulbozor (Buxoro viloyati), Farg‘ona, Jarqo‘rg‘on (Surxondaryo viloyati) va Chinoz (Toshkent viloyati) shaharlarida joylashgan. Bu korxonalarda turli yoqilg‘i mahsulotlari ishlab chiqariladi. Ta’kidlash lozimki, mamlakatimizda deyarli barcha neft mahsulotlarini ishlab chiqarishda Qorovulbozor shahridagi Buxoro neftni qayta ishlash zavodi yetakchilik qiladi. Shu tufayli respublikamizda neft mahsulotlarini ishlab chiqarishda Buxoro viloyatining ulushi 80 % dan oshadi.

KO‘MIR SANOATI. Ko‘mir 2 turga bo‘linadi: toshko‘mir va qo‘ng‘ir ko‘mir. Toshko‘mir yuqori sifatli bo‘lib, yonganda ko‘p issiqlik chiqaradi. Qo‘ng‘ir ko‘mir sifati past, issiqligi kam bo‘lgan yoqilg‘i. Qo‘ng‘ir ko‘mirni uzoq masofalarga tashish xarajati qimmatga tushadi. Shu sababli undan asosan qazib olingan hududda foydalaniladi.

Ko‘mir zaxiralari milliy iqtisodiyotda muhim ahamiyatga ega, chunki ular

- ichki bozorni arzon yoqilg‘i bilan ta’minlaydi;
- energetik xavfsizlikni mustahkamlaydi.



8-rasm. Ko‘mir qazib olish jarayoni

Asosiy ko‘mir konlari: Toshkent viloyatidagi Angren (qo‘ng‘ir ko‘mir), Surxondaryo viloyatidagi Sharg‘un va Boysun (toshko‘mir). Ko‘mir sanoatining rivojlanishi hududlarda yangi korxonalar, elektr stansiyalari va yo‘llar qurilishi bilan bog‘liq bo‘lib, mintaqalar infratuzilmasini yaxshilaydi.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda ko‘mir sanoati barqaror o‘smoqda. Rasmiy statistik ma’lumotlarga ko‘ra, mamlakatimizda ko‘mir qazib olish hajmi 2023-yilda 6,5 million

tonnadan 2024-yilda 8,5 million tonnaga oshgan. Bu ko‘rsatkich tarmoqdagi ishlab chiqarish quvvatlari kengayib borayotgani va ko‘mirga talab yuqori ekanini ko‘rsatadi. O‘zbekistonda ko‘mir sanoati mamlakat energiya ta’minotida muhim manbalardan biri hisoblanadi (8-rasm).

Yoqilg‘i sanoati bir vaqtning o‘zida bir necha vazifani bajaradi. Elektr energiyasi ishlab chiqarishda gaz asosiy, ko‘mir esa qo‘shimcha yoqilg‘i manbayi hisoblanadi.

ILMIY FAKT

Mamlakatimizda qazib olinayotgan ko‘mirning deyarli hammasi (97,4%) qo‘ng‘ir ko‘mir, qolgan qismi toshko‘mirdir. Mamlakatimizda ko‘mir qazib olishning o‘ziga xos yana bir xususiyati shundaki, uning 90-95% ochiq usulda qazib olinadi.

Umuman olganda, yoqilg‘i sanoati mamlakat aholisi va iqtisodiyotini energiya manbalari bilan ta’minlashda katta ahamiyatga ega. Ayni vaqtda, yoqilg‘i-energetika foydali qazilmalari tugaydigan va qayta tiklanmaydigan resurs turi ekani ulardan foydalanishda tejamkorlikni talab etadi. Shuning uchun ishlab chiqarish, transport, uy-joy kommunal xo‘jalik sohalariga zamonaviy energiya tejamkor texnologiyalarni keng miqyosda joriy etish dolzarb ahamiyatga ega.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

Quyida keltirilgan yoqilg‘i turlari va ularga oid tavsiflarni o‘zaro moslashtiring.

Yoqilg‘i turlari	Tavsifi
1) gaz kondensati	a) Sharg‘un va Boysun konlaridan qazib olinadigan yuqori sifatli ko‘mir
2) qo‘ng‘ir ko‘mir	b) asosan quvurlarda tashiladigan yoqilg‘i turi
3) toshko‘mir	d) qayta ishlash orqali benzin, kerosin va boshqa mahsulotlar olinadi
4) neft	e) Angren konidan qazib olinadigan sifati past ko‘mir
5) gaz	f) gaz bilan birga qazib olinadigan suyuq uglevodorod

UYGA VAZIFA

1. Neft va gazni qayta ishlash korxonalarining hududiy joylashuviga qanday omillar ta’sir ko‘rsatishini tahlil qiling. O‘zbekistondagi korxonalardan misol keltirib javobingizni asoslang.
2. O‘zbekistonning neft-gaz konlari mavjud mintaqalarini, yirik neft va gazni qayta ishlash korxonalarini yozuvsiz xaritaga belgilang.

5.4. ELEKTR ENERGETIKASI

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmlaridagi o‘zgarishlarni jadval va grafik asosida tahlil qilasiz;
- issiqlik, gidro, quyosh va shamol elektr stansiyalarining afzallik va kamchiliklarini solishtirasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Bugungi kunda sanoat korxonalarining ishlashi, aholi turmush darajasi, transport, sog‘liqni saqlash, ta’lim, hatto raqamli xizmatlar ham to‘liq elektr ta’minotiga bog‘liq. Shuning uchun elektr energetikasi tarmog‘ining rivoji mamlakatning iqtisodiy salohiyati va barqarorligini belgilab beradi. O‘zbekistonda aholi sonining ko‘payishi, sanoatning kengayishi va maishiy texnikadan foydalanishning ortishi elektr energiyasiga bo‘lgan talabni yil sayin oshirmoqda.



9-rasm. O‘zbekistonda elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi (mlrd kW·h)

Elektr energiyasi turli manbalar orqali ishlab chiqariladi. Har bir manbaning o‘z afzalliklari va cheklovlari mavjud. O‘zbekistonda an’anaviy issiqlik, gidroelektr stansiyalari bilan birga, quyosh va shamol kabi yangi manbalardan foydalanish ham bosqichma-bosqich rivojlanmoqda.

1. Hisoblang.

2010-yildan 2024-yilgacha elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi necha mlrd kW·h ga oshgan (9-rasm)?

2. Tahlil qiling.

Nega 2010–2024-yillar oralig‘ida elektr energiyasi ishlab chiqarish hajmi sezilarli oshgan? 2 yoki 3 ta sabab keltiring.

O‘YLAB KO‘RING

“Elektr energiyasi inson hayotidagi eng muhim zamonaviy ne’matlardan biri” degan fikrga qo‘shilasizmi? Nima uchun?

BU QIZIQ!

Global elektr energiyasi sarfining qariyb 20 foizi sovitish qurilmalari hissasiga to‘g‘ri kelmoqda va bu ulush iqlim o‘zgarishi bilan ortmoqda. Shuning uchun ham tejamkor texnologiyalar va sifatli izolyatsiya energiya sarfini kamaytirishga xizmat qiladi.



ISSIQLIK ELEKTR STANSIYALARI (IES)

O‘zbekistonda ishlab chiqariladigan elektr energiyasining asosiy qismi issiqlik elektr stansiyalarida hosil qilinadi. Bu turdagi stansiyalarda tabiiy gaz, ko‘mir yoki mazut yoqib, issiqlik hosil qilinadi.

Sirdaryo, Toshkent, Angren, Yangi Angren, Navoiy, Taxiatosh, Tolimarjon, To‘raqo‘rg‘on issiqlik elektr stansiyalari mamlakatimizdagi yirik IESlar hisoblanadi.

Afzalliklari:

- quvvati katta, tunda ham, bulutli kunlarda ham barqaror ishlaydi;
- iqlim va mavsumga bog‘liq emas.

Kamchiliklari:

- yoqilg‘i yonishi natijasida atmosferaga karbonat angidrid chiqaradi;
- gaz va ko‘mir zaxiralari cheklangan.



GIDROELEKTRSTANSIYALAR (GES)

Gidroelektrstansiyalarida daryo suvining oqimi turbinani aylantiradi va natijada elektr energiyasi hosil bo‘ladi. O‘zbekistonda, 2025-yil boshi holatiga ko‘ra, 77 ta GES mavjud bo‘lib, aksariyati kichik quvvatli hisoblanadi. Ulardan eng yirigi – Chorvoq GES.

Afzalliklari:

- karbonat angidrid chiqarmasdan toza energiya ishlab chiqaradi;
- tuzilmasi ishonchli va uzoq yil xizmat qiladi.

Kamchiliklari:

- faqat suv yetarli bo‘lgan hududlardagina qurish mumkin;
- ba’zan ekotizimga salbiy ta’sir ko‘rsatishi mumkin.



ATOM ELEKTR STANSIYALARI (AES)

Atom energetikasi hozirgi kunda ko‘plab mamlakatlar uchun asosiy elektr manbayi hisoblanadi. O‘zbekistonda energiyaga bo‘lgan talab o‘sib borayotgani sababli Jizzax viloyatida yurtimizdagi dastlabki AES qurilishi boshlangan.

Shu o‘rinda ta’kidlash lozimki, 1 gramm uran bergan energiya 2 tonna toshko‘mir energiyasiga teng bo‘lishi mumkin.

Afzalliklari:

- atmosferaga karbonat angidrid chiqarmaydi, shuning uchun ekologik jihatdan zarari kam;
- uzoq muddat ishlaydi va asosiy quvvat manbayi bo‘la oladi.

Kamchiliklari:

- qurilishi qimmatga tushadi va jarayonga 7–10 yildan ortiq vaqt ketishi mumkin;
- radioaktiv chiqindilarni maxsus usulda saqlash va nazorat qilish talab etiladi.



QUYOSH ELEKTR STANSIYALARI (QES)

Quyosh panellari quyosh nurini to‘g‘ridan to‘g‘ri elektr energiyasiga aylantiradi. Mamlakatimizning quyoshli iqlimi QES uchun juda qulay.

Hozirda Navoiy, Samarqand, Buxoro, Qashqadaryo va Jizzaxda quyosh elektr stansiyalari ishlamoqda va ularning soni ortib bormoqda.

Afzalliklari:

- toza, xavfsiz va tiklanuvchi manba;
- qurilish muddati tez, ekspluatatsiyasi arzon.

Kamchiliklari:

- tunda yoki quyosh nuri kam bo‘lgan kunlarda quvvati pasayadi;
- katta yer maydonini talab qiladi.



SHAMOL ELEKTR STANSIYALARI (SHES)

O‘zbekistonda shamol energetikasi asosan Qoraqalpog‘iston va Navoiy viloyatida jadal rivojlanmoqda. Yangi avlod shamol turbinalarining qanotlari 80–100 metrgacha yetadi, bu “Boing” samolyoti qanotidan ham uzun. Shuning uchun bitta yirik shamol turbinasi bir vaqtning o‘zida 1,5–2 ming xonadonni elektr energiyasi bilan ta’minlay oladi.

Afzalliklari:

- toza va arzon energiya manbayi;
- shamolli hududlarda juda samarali.

Kamchiliklari:

- quvvati shamol kuchiga bog‘liq;
- katta yer maydonini talab qiladi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. 85-betda berilgan 9-rasmdagi diagramma va 4.1-mavzudagi 1-rasmda keltirilgan ma’lumotlardan foydalanib 2010–2024-yillarda O‘zbekistonda aholi jon boshiga elektr energiyasi ishlab chiqarish miqdorini hisoblang va bu ko‘rsatkich tegishli yillar oralig‘ida qanday o‘zgarganini aniqlang.
2. Qaysi turdagi elektr stansiyalari O‘zbekiston uchun muhim ahamiyatga ega? Buning sababini qanday izohlash mumkin?

UYGA VAZIFA

www.stat.uz vebsaytining “Ochiq ma’lumotlar” oynasi “Sanoat” bo‘limidagi jadvallardan so‘nggi yilda respublikamizda jami, shundan quyosh va shamol elektr stansiyalari orqali qancha elektr energiyasi ishlab chiqarilganini aniqlang. Bu turdagi elektr stansiyalarining mamlakatimizda jami elektr energiyasini ishlab chiqarishdagi ulushini hisoblang.

5.5. KIMYO SANOATI

DARS DAVOMIDA

- kimyo sanoati va uning tarmoqlari haqida tushunchaga ega bo‘lasiz;
- kimyo sanoati korxonalarining hududiy joylashuviga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni bilib olasiz;
- mamlakatimiz kimyo sanoatining asosiy markazlari va xomashyo olinadigan yirik konlarni ayta olasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Kimyo sanoati tarmoqlari juda xilma-xil bo‘lib, deyarli barcha sanoat tarmoqlari bilan chambarchas bog‘liq. Bu sanoat iqtisodiyotning turli sohalari uchun xilma-xil mahsulotlar ishlab chiqaradi (10-rasm). Kimyo sanoati mahsulotlaridan mashinasozlik (plastmassa, oyna, rezina, bo‘yoqlar), to‘qimachilik (tolalar, bo‘yoqlar), qishloq xo‘jaligi (mineral o‘g‘itlar, pestitsidlar, o‘simliklarni himoya qilish vositalari), transport (yoqilg‘i, motor moyi), qurilish (oyna, plastik, biriktiruvchi aralashmalar) kabi tarmoqlarda, shuningdek, kundalik uy-ro‘zg‘or ehtiyojlarida keng foydalaniladi. Masalan, kir yuvish kukunlari, sovun, shampun, tish pastasi, plastmassa idishlar, maishiy kimyoviy tozalagichlar va turli sintetik materiallar kimyo sanoati mahsulotlaridir.



10-rasm. Kimyo sanoati mahsulotlari

Odatda korxonalar ishlab chiqarish sarf-xarajatlari kam, olinadigan foyda esa ko‘proq bo‘ladigan hududlarda quriladi. Kimyo sanoati korxonalarini joylashtirishda xomashyo omili har doim ham hal qiluvchi ahamiyatga ega emas. Chunki sanoatning xomashyo bazasi nihoyatda xilma-xil bo‘lib, mineral resurslar, biologik resurslar (o‘simliklar va hayvonlar), chiqindilar, hatto havo tarkibidagi azotdan ham foydalanish

O‘YLAB KO‘RING

Sinfxonangiz va undagi jihozlarda kimyo sanoatida ishlab chiqarilgan qanday mahsulotlardan foydalanilgan? Ushbu mahsulotlarni ishlab chiqaradigan korxonalar mamlakatimizning qaysi hududlarida joylashgan?

mumkin. Bu esa kimyo sanoatining juda ko‘p tarmoqlari uchun xomashyoni hamma joydan topish imkonini beradi. Neft-kimyo sanoati bundan mustasno bo‘lib, bu tarmoqda korxonalarni xomashyo manbalariga, ya’ni neft konlariga yaqinroq joylashtirish ishlab chiqarish samaradorligini oshirishga yordam beradi.

Kimyo sanoati korxonalari atrof-muhitga zararli chiqindilar chiqargani sababli ularni istalgan hududda qurish mumkin emas. Elektr energiyasi va suv manbalari bilan ta’minlangan, transport tarmoqlariga yaqinroq hududlarga joylashtirish ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytiradi. Yirik suv havzalari (daryolar, kanallar, ko‘llar) ham joylashuvga ta’sir ko‘rsatadi. Chunki ushbu sanoat tarmog‘ida tozalash, jihozlarni sovitish, kimyoviy moddalarni tayyorlash uchun ko‘p miqdorda suv kerak bo‘ladi.

Mamlakatimizda kimyo sanoatini rivojlantirish uchun turli tuz konlari, tabiiy gaz va neft zaxiralari, dorivor o‘simliklar, metallurgiya korxonalarining chiqindilari, qishloq xo‘jaligi ekinlari kabi katta xomashyo manbalari mavjud. Kimyo sanoatida qishloq xo‘jaligi uchun mahsulotlar ishlab chiqaradigan agrokimyo tarmog‘i muhim ahamiyatga ega (2-jadval).

2-jadval. Kimyo sanoati mahsulotlari ishlab chiqariladigan sanoat markazlari

Sanoat markazlari	Kimyo sanoati mahsulotlari	Sanoat markazlari	Kimyo sanoati mahsulotlari	Sanoat markazlari	Kimyo sanoati mahsulotlari
Chirchiq	Mineral o‘g‘itlar, ammiak, kislotalar	Dehqonobod	Kaliyli o‘g‘itlar	Qirqqiz	Polietilen, polipropilen
Chirchiq, Navoiy, Farg‘ona	Azotli o‘g‘itlar	Yangiyo‘l	Etil spirti, xamirturush	Sho‘rtan	Polietilen, oltingugurt
Olmaliq	Ammofos o‘g‘itlari	Andijon	Etil spirti	Jizzax	Plastmassa quvurlar
Qo‘qon, Samarqand	Fosforli o‘g‘itlar	Qo‘ng‘irot	Soda	Farg‘ona	Kimyoviy tolalar

Ishlab chiqarishning kombinatlashtirish shakli kimyo sanoatida eng ko‘p uchraydi. Korxonadan chiqqan chiqindilar yoki yarim tayyor mahsulotlar kimyo sanoatining biror korxonasi uchun xomashyo bo‘lishi mumkin. Bunda korxonalarni bir hududda joylashtirish xomashyoni tashishga ketadigan transport xarajatlarini tejashga yordam beradi. Kombinat tarkibidagi korxonalar umumiy energiya manbalari, transport yo‘llaridan foydalanadi va yangi korxona uchun qo‘shimcha infratuzilmalarni qurishga ketadigan mablag‘lar tejaladi.

ILMIY ATAMALAR

Kombinatlashtirish – turli tarmoqlarga mansub, texnologik jihatdan o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ishlab chiqarish jarayonlarini bir korxonada birlashtirish.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Nima uchun neft-kimyo sanoati korxonalarini xomashyo manbalariga yaqinroq qurish lozim?
2. Kimyo sanoatida kombinat shaklida tashkil etilgan korxonalarga misollar toping. Kombinatlashtirishning afzalliklarini tushuntiring.
3. Ushbu rasmda Chirchiq shahridagi “Maksam-Chirchiq” korxonasi hududining aerokosmik tasviri keltirilgan. Quyidagilardan korxonani aynan shu hududda qurilishiga ta’sir ko‘rsatgan 5 ta omilni ajrating:

a) relyefning tekisligi;
b) aeroportning mavjudligi;
d) temiryo‘llar o‘tgani;
e) aholi turarjoylaridan uzoq masofada joylashgani;
f) GESlarda ishlab chiqarilgan energiyadan foydalanish imkoniyati;
g) ekin maydonlarining yaqinligi;
h) xomashyo manbasi bo‘lgan qazilma konlariga yaqinligi;
i) daryoning yaqinligi;
j) zilzila xavfining yo‘qligi;
k) qulay avtomobil yo‘llari o‘tgani.



UYGA VAZIFA

1. O‘zingiz yashaydigan viloyatdagi birorta kimyo sanoati korxonasi haqida ma’lumot to‘plang.
2. Jadvaldagi kimyo sanoati tarmoqlari va ularda ishlab chiqariladigan mahsulotlarni moslashtiring.

Kimyo sanoati tarmoqlari	Ishlab chiqariladigan mahsulotlar
1. Neft-kimyo sanoati	a) kislota va ishqorlar
2. Asosiy (anorganik) kimyo sanoati	b) insonlar va hayvonlar uchun dori-darmonlar
3. Agrokimyo sanoati	d) etil spirti, ozuqa achitqilari (xamirturush)
4. Farmatsevtika sanoati	e) polimerlar va plastiklar
5. Gidroliz sanoati	f) mineral o‘g‘itlar, pestitsidlar

5.6. METALLURGIYA SANOATI

DARS DAVOMIDA

- metallurgiya sanoati va uning tarmoqlari haqida tushunchaga ega bo‘lasiz;
- metallurgiya korxonalarining hududiy joylashuviga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni bilib olasiz;
- mamlakatimiz metallurgiya sanoatining asosiy markazlari va xomashyo olinadigan yirik konlarni tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Nima sababdan ko‘p hollarda metallurgiya zavodlari tog‘li hududlarda quriladi va ularning yaqinida elektr stansiyalari joylashgan bo‘ladi?

Metallurgiya sanoati rudali foydali qazilmalarni qayta ishlab, turli metallar va metall mahsulotlari ishlab chiqaradigan sanoat tarmog‘i. Metallurgiya sanoati mashinasozlik, qurilish, transport, energetika va kimyo sanoati kabi iqtisodiyotning barcha asosiy tarmoqlarining rivojlanishida hal qiluvchi ahamiyatga ega. Bu sanoat *qora metallurgiya va rangli metallurgiya* tarmoqlariga bo‘linadi.

Qora metallurgiya temir rudasini qazib chiqarish, cho‘yan va po‘lat eritish, prokat va ferroqotishmalar ishlab chiqarishdan iborat. Mamlakatimizda temir rudasining yirik konlari yo‘q, ammo bir nechta kichikroq konlar bor. Xomashyoning kamligi ushbu sanoat tarmog‘ining rivojlanishida qiyinchiliklar tug‘diradi. Toshkent viloyatidagi Bekobod shahrida O‘zbekistondagi eng yirik qora metallurgiya korxonasi – “O‘zmetkombinat” zavodi faoliyat ko‘rsatadi. Metallurgiya zavodining aynan Bekobodda qurilishiga hududdan qulay transport yo‘llari o‘tgani, shaharda elektr energiya manbalari (Farhod GESi) va qurilish uchun sement zavodining borligi, pechlarni sovitish uchun suv manbasining (Sirdaryo) yaqinligi kabi omillar ta’sir ko‘rsatgan. Bu korxona ikkilamchi xomashyo, ya’ni temir-tersak (metallolom)ni qayta ishlaydi. Shuningdek, har xil metall listlar ishlab chiqaradigan Toshkent metallurgiya zavodi, Samarqand va Namangan (Chustda joylashgan) metallurgiya zavodlari, Ohangarondagi po‘lat quvurlar zavodi ham mamlakatimizdagi yirik qora metallurgiya korxonalari hisoblanadi.

O‘zbekistonda qora mettallurgiya sanoati mahsulotlariga talab yuqoriligidan ushbu sanoat tarmog‘ini rivojlantirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Qoraqalpog‘istondagi Tebinbuloq temir koni xomashyosini qayta ishlash negizida kon-metallurgiya majmuasi qurish loyihasi amalga oshirilmoqda.

Rangli metallurgiya sanoati rangli metallarni qazib olish, eritish, boyitish va ulardan turli mahsulotlar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi. Ushbu sanoat tarmog‘i mamlakatimizda qora metallurgiya sanoatiga nisbatan yaxshiroq rivojlangan. Bunga iqtisodiyotning turli tar-



11-rasm. Metallurgiya korxonasi

moqlarida rangli metallurgiya mahsulotlariga talabning yuqoriligi, ushbu sanoatni rivojlantirish uchun boy xomashyo manbalarining mavjudligi ta’sir ko‘rsatgan. Rangli metallar *og‘ir, yengil, qimmatbaho, qiyin eruvchi* va *nodir* kabi guruhlarga bo‘linadi.

Rangli metallurgiya korxonalarining joylashuviga bir qancha omillar ta’sir ko‘rsatadi. Qazib olingan rudalar tarkibida oz miqdorda metallar mavjud bo‘lgani sababli katta hajmdagi rudalar qazib olinib, qayta ishlanadi. Bu esa transport xarajatlarini kamaytirish uchun rangli metallurgiya korxonalarini qazilma konlariga yaqin joylashtirishni taqozo etadi. Rangli metallarni eritish jarayoni ko‘p miqdorda elektr energiyasini talab qiladi. Shuning uchun korxonalarni elektr energiya manbalariga yaqinroq joylashtirish maqsadga muvofiq. Rangli metallurgiya korxonalarini qurishda ekologik omillarni ham hisobga olish zarur. Chunki metallarni eritish natijasida chiqadigan zaharli chiqindilar yaqin atrofda yashaydigan aholiga zarar yetkazmasligi kerak (11-rasm).

Navoiy va Olmaliq kon-metallurgiya kombinatlari mamlakatimizdagi rangli metallurgiya sanoatining eng yirik markazlaridir. Qazib olinadigan rudalar tarkibida bir qancha metallar uchragani sababli ularni har tomonlama (kompleks) qayta ishlash talab qilinadi. Bu esa turli texnologik jarayonlarni birlashtiradigan kombinatlarning shakllanishiga sabab bo‘ladi. Navoiy kon-metallurgiya kombinatida oltin, kumush, turli qurilish materiallari qazib olinadi va qayta ishlanadi. Kombinat xomashyoning asosiy qismini Navoiy viloyatining o‘zidan oladi. Viloyatdagi Muruntov oltin koni zaxirasining kattaligi va sifati bo‘yicha jahonda mashhur. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati xomashyoni Toshkent viloyatidan tashqari Jizzax (Qo‘ytosh koni) va Samarqand viloyat (Ingichka koni)laridan ham oladi. Ushbu kombinat tarkibida qo‘rg‘oshin-rux va mis ishlab chiqarish majmualari, Chirchiq shahrida joylashgan “Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish bo‘yicha ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi” mavjud.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Quyidagi rasmlarda ko‘rsatilgan mahsulotlarni (1–5) ularni tayyorlashda foydalanilgan metallar (a–f) bilan moslashtiring. Ushbu metallarning konlari mamlakatimizning qaysi ma’muriy-hududiy birliklari (Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar)da mavjud ekanini tabiiy xaritadan aniqlang va jadvalga yozing.











a) volfram | b) temir | d) qo‘rg‘oshin | e) oltin | f) mis

Metallar	Metall konlari joylashgan ma’muriy-hududiy birliklar

2. “Nodir metallar va qattiq qotishmalar ishlab chiqarish bo‘yicha ilmiy ishlab chiqarish birlashmasi”ni xomashyo qazib olinadigan konlar yaqinida emas, Chirchiq shahrida joylashtirishga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan bo‘lishi mumkin?
3. Toshkent metallurgiya zavodini raqamli xaritalar (Google map, Google Earth)dan toping. Zavodning hududiy joylashuviga ta’sir ko‘rsatgan omillarni izohlang.

ILMIY ATAMALAR

Kon-metallurgiya kombinati – foydali qazilmalarni qazib oluvchi, rudalarni turli usullarda boyituvchi, shuningdek, metall va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari majmuyi.

UYGA VAZIFA

1. O‘zingiz yashaydigan viloyatdagi metallurgiya korxonasi haqida ma’lumot to‘plang va uni jadvalga yozing.

Korxona nomi	Korxonaning xomashyo manbalari (ruda konlari)	Korxona ishlab chiqaradigan mahsulotlar

2. Mamlakatimizdagi metallurgiya sanoatining yirik korxonalari joylashgan shaharlarni yozuvsiz xaritada belgilang.

5.7. MASHINASOZLIK VA UNING TARMOQLARI

DARS DAVOMIDA

- mashinasozlik sanoatining ahamiyati, tarmoqlari tarkibi, korxonalarini joylashtirish omillarini izohlaysiz;
- O‘zbekistonning mashinasozlik sanoati, uning tarmoqlari, hududiy joylashuvi va iqtisodiyotdagi ahamiyatini baholaysiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Odatda “mashina” so‘zini avtomobillarga nisbatan ishlatamiz. Lekin aslida texnika sohasida “mashina” deganda faqat avtomobil tushuniladimi?

Mashinasozlik mamlakat sanoatidagi eng murakkab va yuqori texnologiyalarga asoslangan tarmoqlardan biri bo‘lib, u milliy iqtisodiyotning barcha sohalarini zarur texnika, texnologik uskunalar va mehnat vositalari bilan ta’minlab, ularning samarali faoliyat yuritishi uchun asos yaratadi (12-rasm).

Mashinasozlik mamlakat iqtisodiyotining umumiy o‘sishi, eksport salohiyati va hududiy rivojlanishida muhim harakatlantiruvchi kuch vazifasini bajaradi.

Mashinasozlik tarmoqlarining rivojlanishi va hududiy joylashuvi mehnat resurslari va malakali kadrlar, transport va logistika, xomashyo singari omillarga chambarchas bog‘liqdir.

Mehnat resurslari va malakali kadrlar. Mashinasozlik yuqori malakali muhandislar, texnologlar, konstruktorlar va zamonaviy uskunalar bilan ishlay oladigan ishchilarni talab qiladi. Shu sababli yirik korxonalar ko‘pincha aholisi zich va sanoat an’analari rivojlangan hududlarda, texnika yo‘nalishidagi oliy va o‘rta maxsus, professional ta’lim muassasalari joylashgan shaharlarda quriladi.

MASHINASOZLIK MAJMUASI TARMOQLARI

- Avtomobilsozlik
- Temiryo‘l mashinasozligi
- Samolyotsozlik
- Yo‘l qurilish mashinasozligi
- Metallurgiya mashinasozligi
- Kimyo mashinasozligi
- Energetika mashinasozligi
- Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi
- Traktorsozlik
- Turli tarmoqlar uchun jihozlar ishlab chiqarish
- Radioelektronika
- Elektrotexnika
- Asbobsozlik
- Stanoksozlik

12-rasm. Mashinasozlik majmuasi tarmoqlari

Transport va logistika imkoniyatlari. Mashinasozlik uchun xomashyo (metall, plastmassa, texnik materiallar), ehtiyot qismlar va tayyor mahsulotlarni tez va arzon yetkazib berish katta ahamiyatga ega. Shuning uchun zavodlar asosan temiryo‘l tarmoqlari o‘tgan, avtomobil magistrallariga yaqin, logistika markazlari rivojlangan hududlarda joylashtiriladi.

Xomashyo bazasiga yaqinlik. Mashinasozlikning asosiy resurslaridan biri metall hisoblanadi. Korxonalarning metallga boy hududlarda ochilishi detallarni arzonroq olish, transport xarajatlarini kamaytirish, ishlab chiqarish samaradorligini oshirish kabi afzalliklar yaratadi. Masalan, Bekobod (metallurgiya kombinati) – qurilish metallari va prokat mahsulotlarining asosiy manbayidir, “Olmaliq KMK” rangli metall mahsulotlari bilan sanoatni ta’minlaydi, Navoiy va Angren sanoat zonalari esa metallni qayta ishlash va mashinasozlik uchun muhim xomashyo bazalari sifatida xizmat qiladi.

O‘zbekiston mashinasozlik sanoatining asosiy tarmoqlari. O‘zbekiston mashinasozligi bir nechta strategik tarmoqlarga ega: avtomobilsozlik, qishloq xo‘jaligi mashinasozligi, transport mashinasozligi, elektronika va neft-gaz uskunalari ishlab chiqarish. O‘zbekiston mashinasozlik sanoati metallurgiya, kimyo va yengil sanoat bilan chambarchas bog‘langan kompleks tizim bo‘lib, har bir tarmoq boshqasini to‘ldirib turadi. Shu bois mashinasozlik sanoat rivojining asosiy yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi (13-rasm).

BU QIZIQ!

Zamonaviy mashinasozlik ilk bor Buyuk Britaniyada shakllangan. Bu jarayon ancha avval boshlangan bo‘lsa-da, XVIII asr-dagi sanoat inqilobi davriga kelibgina mustaqil tarmoq sifatida rivoj topgan.

HAR BIR TARMOQ MA’LUM HUDUDDA JOYLASHGAN YIRIK KORXONALARGA TAYANADI VA MAMLAKATNING IQTISODIY O‘SISHIDA MUHIM O‘RIN TUTADI:

Avtomobilsozlik O‘zbekistonda mashinasozlikning eng rivojlangan tarmoqlaridan biridir. Korxonalar asosan Farg‘ona vodiysi, Toshkent shahri, Samarqand, Xorazm va Jizzax viloyatlarida joylashib, yirik sanoat va transport markazlari bilan bog‘langan.

Metallurgiya mashinasozligi mashinasozlik tarmoqlarini metall, prokat va rangli metallar bilan ta’minlaydigan asosiy xomashyo bazasidir. Barcha mashinasozlik yo‘nalishlari metallga bog‘liq bo‘lgani sababli bu soha sanoat zanjirining muhim qismi hisoblanadi.

Temiryo‘l texnikasi va transport mashinasozligi. O‘zbekistonda ushbu sohaga ixtisoslashgan korxonalar asosan Toshkent shahrida joylashgan. U mamlakatdagi eng yirik transport uzeli sifatida temiryo‘l magistrallarini bog‘lovchi strategik markaz hisoblanadi.

Neft-gaz va energetika mashinasozligi mamlakat iqtisodiyotida strategik ahamiyatga ega. Tarmoq neft-gaz va energetika sohalari uchun yuqori bosimli agregatlar, nasoslar, burg‘ulash uskunalari hamda yirik metall konstruksiyalar ishlab chiqaradi.

Qishloq xo‘jaligi mashinasozligi agrar soha rivojlangan hududlarda joylashib, qishloq xo‘jaligi salohiyatini ta’minlaydi. Tarmoq xo‘jaliklarga traktor, kombayn hamda boshqa mexanizatsiya vositalarini yetkazib beradi.

Elektrotexnika va maishiy texnika ishlab chiqarish sohasi aholisi zich, infratuzilmasi rivojlangan va malakali kadrlar mavjud hududlarda rivojlanadi. Tarmoq kundalik hayot va sanoatni zarur elektr hamda maishiy texnika bilan ta’minlaydi.

13-rasm. O‘zbekiston mashinasozlik sanoatining strategik tarmoqlari



Bundan tashqari, mashinasozlik tarmog‘i metallurgiya, kimyo, elektronika, neft-gaz kabi sohalarning ham rivojlanishiga turtki beradi. Bu jarayon iqtisodiyotda “multiplikativ effekt” deb ataladi.

Mashinasozlikning iqtisodiy ahamiyati. Geografiya nuqtayi nazaridan, mashinasozlik tarmog‘ining rivojlanishi hudud iqtisodiyotini jonlantiradi, yangi sanoat korxonalari ochilishiga va sanoat infratuzilmasining barqaror rivojlanishiga sabab bo‘ladi (14-rasm).

14-rasm. Mashinasozlikni rivojlantirishning samarasi

ILMIY ATAMALAR

Multiplikativ effekt – bir sohadagi rivojlanishning boshqa iqtisodiyot sohalariga ham ijobiy ta’sir ko‘rsatib, ularni rivojlantirishi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. O‘zbekiston mashinasozlik sanoatining asosiy tarmoqlarini aniqlab, ularning hududiy joylashuvini xarita yoki jadvalda ko‘rsating.
2. O‘zbekistondagi biror mashinasozlik korxonasi misolida uning hududiy joylashuviga ta’sir ko‘rsatgan omillarni tushuntiring.
3. Mashinasozlik sanoatining mamlakat iqtisodiyotidagi ahamiyatini guruhingiz bilan muhokama qiling va fikrlaringizni taqdimot ko‘rinishida namoyish eting.

UYGA VAZIFA

1. Daftaringizga mashinasozlik korxonalarini joylashtirishda energetika va transport-logistika omillarining ahamiyatini izohlab yozing.
2. Sizningcha, mamlakatimizda mashinasozlikning qaysi tarmog‘ini rivojlantirish maqsadga muvofiq va nima sababdan? Javobni daftaringizga yozing.

5.8. AVTOMOBILSOZLIK

DARS DAVOMIDA

- ushbu sohaning iqtisodiy va ekologik ahamiyatini geografiya nuqtayi nazaridan tahlil qilishni o‘rganasiz;
- avtomobilsozlik sanoatining iqtisodiy geografik ahamiyatini tahlil qilasiz.

O‘YLAB KO‘RING

Sizningcha, avtomobilning barcha qismlarini bitta korxonada tayyorlash mumkinmi? Javobingizni izohlang.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘zbekistonda avtomobil sanoati. 1996-yili Janubiy Koreyaning “DAEWOO” korporatsiyasi bilan Asaka shahrida yillik loyiha quvvati 200 ming dona yengil avtomobillar (“Damas”, “Tiko”, “Neksiya”) ishlab chiqaradigan “UzDAEWOO-AUTO” qo‘shma korxonasi barpo etilgan. 2008-yildan ushbu korporatsiyaning nomi “General Motors”ga o‘zgarib, avtomobillar “Chevrolet” markasi ostida ishlab chiqarila boshlagan.

O‘zbekistonning avtomobil sanoati avtotransport vositalari ishlab chiqaradigan davlatlar orasida 29-o‘rinni egallaydi. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha MDHda Rossiyadan keyin ikkinchi o‘rinda, Markaziy Osiyo davlatlari orasida esa birinchi o‘rinda turadi. O‘zbekiston 1998-yildan beri Xalqaro avtomobilsozlik tashkiloti (OICA) a’zosi hisoblanadi. Ayni paytda mamlakatda ishlab chiqarilayotgan avtomobillar turli davlatlarga eksport qilinmoqda (15-rasm).



15-rasm. Avtomobilsozlik korxonasi

Avtomobilsozlik – avtomobillar, avtobuslar, yuk va maxsus texnikalarni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan mashinasozlik tarmog‘i. Bunday korxonalarni joylashtirishda xomashyo manbalarining mavjudligi, soha mutaxassislari bilan ta’minlanganlik, butlovchi qismlarini turli hududlardan keltirishga qulay transport sharoiti, energetika bazasi, ichki va tashqi iste’mol bozorlariga yaqinligi singari iqtisodiy geografik omillar hisobga olinishi lozim.

BU QIZIQ!

Dunyoda har yili **90 milliondan** ortiq avtomobil ishlab chiqariladi. Hozirgi kunda Yer yuzida 1,5 milliarddan ortiq avtomobil mavjud va ularning soni **har 10 yilda** deyarli **1,5 barobarga** oshib bormoqda.

Iqtisodiy jihatdan avtomobilsozlik mamlakatning sanoat mahsuloti hajmini oshiradi, ish o‘rinlarini yaratadi, eksport salohiyatini yuksaltiradi, investitsiyalarni jalb qiladi, transport xizmatlari, savdo va logistika sohalarining rivojlanishiga ham kuchli turtki beradi.

Shu sababli avtomobilsozlik faqat transport vositasi ishlab chiqaradigan soha emas, balki butun hududning iqtisodiy qiyofasini o‘zgartiruvchi strategik tarmoq hisoblanadi.



16-rasm. O‘zbekiston avtomobillari eksportining geografiyasi

Mamlakatimizda yengil avtomobillardan tashqari Yaponiyaning ISUZU (Samarqand viloyatida) va Germaniyaning MAN (Samarqand viloyatida) kompaniyalari bilan birgalikda tashkil qilingan qo‘shma korxonalarda avtobuslar, yuk mashinalari, turli maxsus texnikalar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Ayni paytda mazkur korxonalar avtotransport vositalarining 30 dan ortiq turini ishlab chiqarib, eksport qilib kelmoqda (16-rasm).

So‘nggi 8 yil (2017–2024) davomida bu soha rivoji tufayli mamlakat iqtisodiyoti sezilarli darajada yuksalgani kuzatildi (17-rasm).



17-rasm. O‘zbekistonda avtomobilsozlik sanoatining ko‘rsatkichlari

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

O‘zbekiston xaritasidan Andijon, Jizzax, Samarqand, Xorazm viloyatlarini ko‘rsating va nega aynan shu hududlarda avtomobilsozlik sanoati rivojlanganini izohlang.

BU QIZIQ!

2024-yil yakunlariga ko‘ra, dunyodagi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar “Toyota”, “BYD” va “Volkswagen” hisoblanadi. Ular bozor ulushi bo‘yicha yetakchi o‘rinlarni egallab turibdi (18-rasm).



18-rasm. Dunyodagi eng yirik avtomobil ishlab chiqaruvchi kompaniyalar (jahon bo‘yicha sotilgan avtomobillardagi ulushi, % da, 2024-y.)

So‘nggi yillarda butun dunyoda ekologik toza transport vositalariga talab keskin ortib bormoqda. Bu jarayonga havo ifloslanishining ortishi, neft mahsulotlari (benzin, dizel yoqilg‘isi) narxining doimiy o‘sishi, global iqlim o‘zgarishi va issiqxona gazlari chiqindilarini kamaytirish zarurati kabi omillar sabab bo‘lmoqda. Shu tufayli dunyo mamlakatlari muqobil energiya manbalariga (elektr energiyasi, vodorod, quyosh energiyasi) asoslangan transport vositalariga faol o‘tmoqda. Eng keng tarqalgan va amaliy yo‘nalish – elektromobillardir.

O‘zbekiston Respublikasi ham yashil iqtisodiyotga o‘tish strategiyasi doirasida elektromobillarni ommalashtirishga alohida e’tibor qaratmoqda. Bu siyosat quyidagi maqsadlarga xizmat qiladi:

- havoning ifloslanishini kamaytirish;
- import qilinadigan yoqilg‘iga qaramlikni kamaytirish;
- zamonaviy energiya tejovchi texnologiyalarni joriy etish.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda elektromobillarga bo‘lgan talab jadal o‘sib bormoqda. Davlat berayotgan imtiyozlar (bojxona va soliq imtiyozlari, quvvat stansiyalarini kengaytirish) va xususiy sektorning faolligi ushbu jarayonni tezlashtirmoqda.

Elektromobil benzin yoki dizel emas, balki elektr energiyasi hisobiga harakatlanadigan transport vositasi. O‘zbekistonda elektromobillar bozori juda tez rivojlanmoqda. Xususan, ularning importi yildan yilga oshib bormoqda (2025-yilning birinchi yarmida mamlakatda 28 800 ta elektromobil sotildi), elektr quvvatlash shoxobchalari soni esa ko‘paymoqda (hozirda O‘zbekiston bo‘ylab 1400 ga yaqin elektrozaryad stansiyasi mavjud). Bunday islohotlar mamlakatda zararli gaz chiqindilari yuqori bo‘lgan transport vositalaridan foydalanishni cheklash siyosati doirasida amalga oshirilmoqda. Hozirda elektromobillar soni eng tez o‘sayotgan hududlarga Toshkent shahri va Toshkent viloyati, Sirdaryo, Xorazm viloyatlari kiradi.

2024-yili Jizzax viloyatida “BYD” kompaniyasining elektromobil ishlab chiqarish zavodi ochildi. Mazkur korxonada elektromobillar, akkumulyator batareyalari, elektr uskunalari ishlab chiqarilmoqda.

Elektromobillar ishlab chiqarish sohasining rivojlanishi mamlakat iqtisodiyotining o‘sishiga, atrof-muhit holatining yaxshilanishiga hamda aholi turmush sifati oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda.

ILMIY ATAMALAR

Yashil iqtisodiyot – tabiat resurslarini asrab-avaylash, ekologik zararni kamaytirishga qaratilgan iqtisodiy rivojlanish modeli.

Logistika – mahsulot, xomashyo va axborotlarni ishlab chiqaruvchidan iste’molchigacha samarali, tez va tejamkor tarzda yetkazib berishni rejalashtirish, boshqarish va nazorat qilish tizimi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Nima uchun dunyoda avtomobillar soni tez oshib bormoqda? Bu holat atrof-muhitga qanday ta’sir qiladi? Elektromobillar ushbu muammoni hal qila oladimi?
2. Sizningcha, 10 yildan keyin O‘zbekistonda transportning asosiy qismi qanday yoqilg‘ida harakatlanadi? Nima uchun? Fikringizni daftaringizga yozing.
3. Agar elektromobillar soni keskin oshsa, elektr tarmoqlariga qanday bosim tushadi? Joylardagi infratuzilmada nima o‘zgaradi?

UYGA VAZIFA

Quyidagi jadval asosida avtomobil va elektromobilning afzallik va kamchiliklarini solishtiring. Tahlilingizni daftaringizga yozing.

An’anaviy avtomobil		Elektromobil	
Afzalligi	Kamchiligi	Afzalligi	Kamchiligi

5.9. QURILISH MATERIALLARI SANOATI

DARS DAVOMIDA

- qurilish materiallari sanoatining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni va ahamiyati, uning asosiy tarmoqlari va mahsulot turlarini izohlaysiz;
- tarmoqning muayyan hududiy joylashuvi sabablarini tushuntirasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Qurilish materiallari sanoati milliy iqtisodiyotning deyarli barcha tarmoqlari bilan chambarchas bog‘liqdir. Chunki ushbu tarmoq aholi turarjoylari, ijtimoiy obyektlar, sanoat korxonalari hamda yo‘l qurilishi uchun zarur bo‘lgan asosiy mahsulotlarni ishlab chiqaradi (19-rasm).

O‘YLAB KO‘RING

Turarjoy bunyod etish uchun 5 ta asosiy qurilish materialini sanang. Ulardan qaysi biri tashish va yetkazib berishda eng ko‘p qiyinchilik tug‘diradi?

Qurilish materiallari sanoati sement, qurilish oynasi, gips mahsulotlari, quruq qurilish qorishmalari, keramik va farfor plitalar, tom yopish materiallari, laminat, temir-beton konstruksiyalari va boshqa turdagi mahsulotlarni ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.



19-rasm. O‘zbekiston qurilish materiallari sanoati xaritasi

BU QIZIQ!

Qurilish materiallari korxonalarining joylashuvi, avvalo, xomashyo omillariga bog‘liq. Masalan, sement zavodlari ohaktosh konlari mavjud bo‘lgan hududlarda, qurilish oynasi ishlab chiqarish korxonalari esa kvars qumlari zaxirasi ko‘p bo‘lgan joylarda quriladi. Bunday hududiy joylashuv transport xarajatlarini kamaytirish va mahsulot tannarxini arzonlashtirishga xizmat qiladi.

O‘zbekistonda so‘nggi yillarda shaharsozlik va shahar infratuzilmasining jadal rivojlanishi natijasida qurilish sezilarli darajada ko‘paydi. Bu esa qurilish materiallariga bo‘lgan talabning keskin oshishiga olib keldi. Masalan, 2025-yilning sakkiz oyi davomida mamlakatda 13 million tonnadan ortiq sement mahsuloti ishlab chiqarildi. Bu, o‘z navbatida, qurilish materiallari sanoatining iqtisodiyotda tutgan o‘rnini yaqqol namoyon etadi (20-rasm).



20-rasm. Qurilish materiallari sanoatining o‘sish dinamikasi

Binokorlik uchun asosiy mahsulot hisoblangan sement mamlakatning turli hududlarida, jumladan, Quvasoy (Farg‘ona vil.), Ohangaron, Angren, Navoiy va Bekobod shaharlarida hamda Zafarobod (Jizzax vil.) shaharchasida ishlab chiqarilmoqda. Ohangaron va Navoiy sement zavodlari ishlab chiqarish quvvati jihatidan eng yirik korxonalar hisoblanadi. Angrenda bezakbop oq sement ishlab chiqariladi.

O‘zbekiston marmar zaxiralariga ham boy mamlakat. Yurtimizda aniqlangan 34 ta marmar konidan bugungi kunda 5 tasida marmar qazib olinmoqda. Shulardan G‘ozg‘on koni (Navoiy vil.) marmarining yuqori sifati bilan ajralib turadi. Qolaversa, u dunyodagi eng mashhur marmar konlaridan biri.



21-rasm. Zamonaviy oynalarning binolardagi mikroiqlimga ta’siri

Mamlakatimizda marmarning aniqlangan umumiy zaxiralari 85 million kub metrdan ortiq bo‘lib, ushbu zaxiralar toshni qayta ishlovchi korxonalarni uzoq yillar davomida xomashyo bilan ta’minlash imkonini beradi.

Hozirgi kunda qurilish materiallari sanoati energiya ko‘p talab etadigan tarmoq bo‘lgani sababli, zamonaviy qurilishda ekologik toza va energiya tejovchi mahsulotlar ishlab chiqarishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bunday mahsulotlarga quyidagilar kiradi:

- gazobeton va penobeton bloklar (yengil, issiqlikni yaxshi saqlaydi);
- mineral paxta (shisha paxta, bazalt paxta) – issiqlik va tovush izolyatsiyasi uchun;
- energiya tejovchi ikki yoki uch qatlamli oyna paketlari;
- kompozit panellar va fasad plitkalari;
- qayta ishlangan xomashyo asosidagi ekobeton va polimer materiallar.

Bu materiallar qurilish xarajatlarini qisqartirish, energiya samaradorligini oshirish va atrof-muhitga salbiy ta’sirni kamaytirishga xizmat qiladi (21-rasm).

So‘nggi o‘n yillikda Toshkent siti, Samarqand siti, Namangan siti kabi shahar ichida shahar loyihalari barpo etildi. Ularda an’anaviy yog‘och eshik-derazalar o‘rnini plastmassa romlar va DVP eshiklar egalladi, bu esa yog‘ochga bo‘lgan ehtiyojni kamaytirdi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. 1 tonna sement ishlab chiqarish uchun o‘rtacha 1,5 tonna ohaktosh talab etiladi. Ohaktoshni tashish qiymati: 1 km masofaga 1 tonna xomashyo tashish – 1 000 so‘m. Sement zavodi ohaktosh konidan 100 km uzoqlikda joylashgan. 1 tonna sement ishlab chiqarish uchun ohaktosh tashish xarajatini hisoblang.
2. An’anaviy qurilish materiallari bilan energiya tejovchi zamonaviy materiallarni solishtirib, farqli jihatlarini ajrating.

UYGA VAZIFA

1. Qurilish materiallari sanoatining rivojlanishi shaharlarning o‘sishi va yangi ish o‘rinlarining yaratilishiga qanday ta’sir qiladi? Javobingizni izohlang.
2. O‘zingiz yashayotgan hudud yoki yaqin shaharda ishlab chiqariladigan bitta qurilish materialini tanlang (masalan, sement, oyna, keramika).

   Quyidagilarni yozma ravishda tushuntiring:
   - Ushbu material uchun qanday xomashyo kerak?
   - Zavodning aynan shu hududda joylashishiga qaysi omillar ta’sir ko‘rsatgan?
   - Uni tashishda (logistika borasida) qanday qiyinchiliklar bo‘lishi mumkin?

5.10. AGROSANOAT MAJMUASI

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekiston milliy iqtisodiyoti tarmoqlari tarkibida agrosanoat majmuasining tutgan o‘rni va ahamiyatini tushunib olasiz;
- sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining aholi hayotidagi roli va sohada ixtisoslashuvi shakllanishiga ta’sir etuvchi omillarni tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

AGROSANOAT MAJMUASI (ASM). Qishloq xo‘jaligi jamiyatni oziq-ovqat va boshqa iste’mol mahsulotlari bilan ta’minlaydi. Ayni vaqtda, bu soha turli sanoat tarmoqlari bilan chambarchas bog‘liq. Ulardan ba’zilari qishloq xo‘jaligini zarur mahsulot va xizmatlar bilan ta’minlasa, boshqalari esa soha mahsulotlarini qayta ishlaydi va iste’molchilarga yetkazib beradi. Qishloq xo‘jaligi va u bilan bog‘liq holda rivojlanadigan sanoat tarmoqlari **agrosanoat majmuasi (ASM)** deb ataladi.

U milliy iqtisodiyotda aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, ish o‘rinlari yaratish va eksport salohiyatini oshirishda muhim ahamiyatga ega.

O‘YLAB KO‘RING

1. Agar qishloq xo‘jaligi rivojlanmasa, bu holat sanoat va aholi turmush darajasiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
2. O‘ylab ko‘ring, agar viloyatda chorvachilik yaxshi rivojlangan bo‘lsa, u yerda qanday sanoat korxonalari bo‘lishi mumkin?

Agrosanoat majmuasi uchta yirik bo‘g‘indan tashkil topgan:

1. **Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari.** Qishloq xo‘jaligida aholi uchun oziq-ovqat mahsulotlari va sanoat uchun zarur xomashyo yetishtiriladi. Qishloq xo‘jaligi agrosanoat majmuasining barqaror faoliyatini ta’minlovchi asosiy bo‘g‘in hisoblanadi. ASMning boshqa bo‘g‘inlari esa qishloq xo‘jaligi uchun zarur sharoitlarni yaratadi hamda yetishtirilgan mahsulotni qayta ishlaydi.
2. **Qishloq xo‘jaligi xomashyosini qayta ishlovchi tarmoqlar.** Masalan, paxta xomashyo sifatida nisbatan arzon, undan ishlab chiqarilgan ip-kalava, mato va tayyor kiyim mahsulotlarining qiymati esa ancha yuqori. Sanoatning ushbu tarmoqlari yangi ish o‘rinlarini yaratishda muhim ahamiyatga ega.
3. **Qishloq xo‘jaligiga xizmat ko‘rsatuvchi tarmoqlar.** Ularga qishloq xo‘jaligi texnikalari, o‘g‘itlar, o‘simliklarni himoya qilish vositalari va boshqa zarur mahsulotlarni ishlab chiqaradigan sanoat tarmoqlari, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini saqlash va tashishni amalga oshiradigan korxonalar kiradi (22-rasm).



22-rasm. Agrosanoat majmuasi tarkibiy tuzilishi

O‘ZBEKISTONDA AGROSANOAT MAJMUASINING HUDUDIY XUSUSIYATLARI.

Yurtimizning turli hududlarida, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan kelib chiqib, agrosanoat majmuasining muayyan tarmoqlari yaxshiroq rivojlangan. Masalan, Farg‘ona vodiysi viloyatlarida bog‘dorchilik, sabzavotchilik, yengil sanoat; Qashqadaryo va Surxondaryo viloyatlarida paxtachilik, g‘allachilik va chorvachilik; Samarqand va Toshkent viloyatlarida bog‘dorchilik, uzumchilik, parrandachilik va oziq-ovqat sanoati; Buxoro va Navoiy viloyatlarida qorako‘lchilik, paxtachilik, uzumchilik; Xorazm viloyatida sholichilik; Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida paxtachilik va polizchilik tarmoqlari ko‘proq rivojlangan. Agrosanoat majmuasining hududiy xususiyatlariga quyidagi asosiy omillar ta’sir ko‘rsatadi.

Tabiiy omillar. Iqlim, suv resurslari, relyef va tuproq unumdorligi qishloq xo‘jaligi tarmoqlari shakllanishida muhim omil hisoblanadi. O‘zbekistonda tabiiy sharoit xilma-xilligi ta’sirida 4 ta – *sug‘oriladigan dehqonchilik, lalmikor dehqonchilik, cho‘l-yaylov chorvachiligi va tog‘oldi-tog‘-yaylov chorvachiligi* qishloq xo‘jaligi mintaqalari shakllangan.

Sug‘oriladigan dehqonchilik asosan suv manbalari bilan yaxshi ta’minlangan tekislik va tog‘oldi hududlarda rivojlangan. Ta’kidlash lozimki, sug‘oriladigan yerlarda respublikamizdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining asosiy qismi yetishtiriladi.

Lalmikor dehqonchilik yog‘inlar bilan sug‘orishga asoslangan bo‘lib, tog‘oldi va past tog‘li hududlarga xos. Mamlakatimizda eng ko‘p lalmi yerlar Qashqadaryo, Jizzax va Samarqand viloyatlarida uchraydi. Bunday yerlarda asosan bug‘doy, arpa, dukkakli ekinlar yetishtiriladi.

Cho‘l-yaylov chorvachiligi Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Navoiy, Buxoro, Qashqadaryo, Surxondaryo va Jizzax viloyatlarida rivojlangan bo‘lib, qo‘ychilik (jumladan, qorako‘lchilik), echkichilik, tuyachilik va yilqichilikka ixtisoslashgan.

Tog‘oldi–tog‘-yaylov chorvachiligi mintaqasida esa qoramolchilik, qo‘ychilik, echkichilik, yilqichilik va asalarichilik bilan birga tog‘ vodiylarida bog‘dorchilik yo‘lga qo‘yilgan. Tog‘ol-

di–tog‘ yaylovlari, ayniqsa, Surxondaryo, Qashqadaryo, Jizzax, Toshkent va Namangan viloyatlarida katta maydonni egallaydi.

Iqtisodiy omillar. Qayta ishlovchi korxonalar, bozorlar va investitsiyalarning mavjudligi agrosanoat majmuasini rivojlantirishga xizmat qiladi.



23-rasm. O‘zbekiston hududlarida yetishtirilgan qishloq xo‘jaligi mahsuloti (trln so‘m, 2024-y.)

Aholi va mehnat resurslari. Aholi zich joylashgan hududlarda, katta shaharlar atrofida joylashgan ko‘plab xo‘jaliklarda sabzavot, meva va rezavorlar yetishtiriladi, chorvachilik tarmoqlaridan esa qoramolchilik va parrandachilik yetakchi ahamiyatga ega.

Transport va geografik joylashuv. Transport tugunlari rivojlangan hududlarda mahsulotlarni tez yetkazib berish hamda ularni qayta ishlash imkoniyati yuqori bo‘ladi.

Respublikamiz hududlari ichida qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmi bo‘yicha Samarqand, Andijon va Toshkent viloyatlari peshqadam, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Sirdaryo va Navoiy viloyatlari esa so‘nggi o‘rinlarni egallaydi (23-rasm).

Shunday qilib, O‘zbekistonda agrosanoat majmuasining rivojlanishi va hududiy ixtisoslashuviga turli tabiiy hamda ijtimoiy-iqtisodiy omillar ta’sir etadi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Agrosanoat majmuasi qaysi uchta asosiy bo‘g‘indan tashkil topgan? Ularning tarkibiga kiradigan tarmoqlarni sanab bering.
2. Nima uchun qishloq xo‘jaligi ASMning asosiy bo‘g‘ini hisoblanishini tushuntiring.
3. “Paxta xomashyosi – ip-kalava – mato – tayyor kiyim” zanjiri kabi boshqa bir qishloq xo‘jaligi mahsuloti (masalan, sut yoki meva) uchun ham shunday qayta ishlash zanjirini tuzing.

UYGA VAZIFA

www.stat.uz vebsaytidan viloyatingizda yiliga qancha sabzavot, meva va rezavorlar, go‘sht, sut yetishtirilishiga oid ma’lumotlarni toping hamda tegishli mahsulotlarni yetishtirishda hududingizning respublikadagi ulushini foizda hisoblang.

5.11. QISHLOQ XO‘JALIGI

DARS DAVOMIDA

- qishloq xo‘jaligining milliy iqtisodiyotda tutgan o‘rni va ahamiyatini tushunib olasiz;
- qishloq xo‘jaligining asosiy tarmoqlari – dehqonchilik va chorvachilik o‘rtasidagi farqni aniqlaysiz;
- O‘zbekiston hududlarida qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvi qanday shakllanganini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Qishloq xo‘jaligi – aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan, sanoatni esa xomashyo bilan ta’minlovchi iqtisodiyotning muhim tarmog‘i. Inson hayoti bilan bevosita bog‘liq bu tarmoqda kundalik iste’mol mahsulotlari yetishtiriladi. Qishloq xo‘jaligi ikki asosiy yo‘nalishdan iborat: *dehqonchilik* – o‘simlik mahsulotlarini yetishtirish; *chorvachilik* – hayvon mahsulotlarini ishlab chiqarish.

Qishloq xo‘jaligi milliy iqtisodiyotning barqaror rivojlanishida muhim o‘rin tutadi, chunki u aholi turmush darajasi, oziq-ovqat xavfsizligi va ish bilan bandlikka bevosita ta’sir qiladi. Masalan, O‘zbekistonning qishloq joylarida aholining katta qismi aynan qishloq xo‘jaligi bilan shug‘ullanadi va shu soha orqali daromad topadi (24-rasm).

Dehqonchilik qishloq xo‘jaligining yetakchi tarmog‘i bo‘lib, u paxta, g‘alla, meva-sabzavot, texnik ekinlar singari mahsulotlarni yetishtirishni o‘z ichiga oladi.

Texnik ekinlar bu – sanoat xomashyosi sifatida yetishtiriladigan paxta, kungaboqar, qand lavlagi va boshqalar. Ular sanoat uchun zarur xomashyo manbayi hisoblanadi. Masalan, kungaboqar oziq-ovqat sanoatida yog‘ ishlab chiqarishda keng qo‘llanadi. Paxtachilik O‘zbekiston qishloq xo‘jaligining an’anaviy tarmoqlaridan biri. Paxta yetishtirishda so‘nggi yillarda Qashqadaryo, Buxoro, Xorazm viloyatlari yetakchi. Paxta tolasi to‘qimachilik sanoati uchun tabiiy xomashyoning asosiy turi bo‘lib, undan ip-kalava va mato ishlab chiqariladi.



24-rasm. Qishloq xo‘jaligi

Donli ekinlarning asosiy qismini bug‘doy, arpa, sholi, makkajo‘xori tashkil etadi. Bug‘doy va arpa ko‘proq lalmikor yerlarda ekiladi. Bug‘doy yetishtirish aholini non va un mahsulotlari bilan ta’minlaydigan muhim tarmoq.

O‘YLAB KO‘RING

1. Nima uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlari aholi kundalik hayotida muhim ahamiyatga ega?
2. Sizning hududingizda qishloq xo‘jaligining qaysi mahsulotlari ko‘proq yetishtiriladi? Nima uchun?

Shu bois, bug‘doy respublikamizning barcha viloyatlarida yetishtiriladi, lekin eng ko‘p hosil Qashqadaryo, Farg‘ona va Samarqand viloyatlarida yig‘ib olinadi.

Donli ekinlar yetishtirishda sholikorlik ham muhim o‘rin tutadi. Sholi asosan Xorazm, Qoraqalpog‘iston Respublikasi, Toshkent va Farg‘ona vodiysi viloyatlarida ekiladi.

Meva-sabzavotchilik. Ichki bozorni sifatli mahsulotlar bilan ta’minlash va eksportni rivojlantirishda muhim o‘rin tutadi. Mamlakatimizda meva va sabzavotlarni yetishtirishda Farg‘ona vodiysi, Samarqand va Toshkent viloyatlari peshqadam. Dehqonchilikning bu tarmog‘i yirik shaharlarning atrofida, shuningdek, tog‘oldi hududlarida rivojlangan.

So‘nggi yillar mobaynida O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligi tarmoqlari barqaror rivojlanib, dehqonchilik mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi sezilarli darajada oshdi. Bu jarayon aholini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash, eksport salohiyatini kengaytirish va qishloq joylarda ish o‘rinlari yaratishda muhim ahamiyat kasb etmoqda (25-rasm).



25-rasm. O‘zbekistonda dehqonchilik mahsulotlarini yetishtirish hajmi dinamikasi

Chorvachilik aholini sut, go‘sht va chorva mahsulotlari bilan ta’minlaydi va qishloq xo‘jaligining ikkinchi asosiy yo‘nalishi hisoblanadi. Qishloq xo‘jaligining chorvachilik tarmog‘i qo‘ychilik, qoramolchilik, yilqichilik, parrandachilikka bo‘linadi. Unga asalarichilik, baliqchilik va pillachilik ham kiradi.

Mamlakatimizda qo‘y va echkilarning umumiy soni 25 mln boshga yaqin bo‘lib, ularning katta qismi qorako‘l qo‘ylaridir. Qorako‘l qo‘ylari Toshkent, Sirdaryo, Andijon, Farg‘ona, Namangan viloyatlaridan tashqari barcha hududlarda boqiladi. Ulardan yuqori sifatli teri olinadi. Echkilar respublikaning deyarli barcha viloyatlarida go‘sht va sut uchun boqiladi. Qo‘y va echkilar bosh soni bo‘yicha Qashqadaryo viloyati katta ustuvorlik bilan birinchi o‘rinda turadi.

Yirik shoxli qoramol ham barcha viloyatlarda go‘sht va sut mahsulotlarini olish maqsadida boqiladi. Mamlakatimizda qoramollarning jami soni 14,4 mln boshdan ortadi. Shuning 1/4 qismi Samarqand va Qashqadaryo viloyatlariga to‘g‘ri keladi.

BU QIZIQ

Yer yuzidagi chuchuk suvning 70 % i qishloq xo‘jaligida sarflanadi. Iqlim o‘zgarishi va aholi o‘sishi suvni taqchil resursga aylantirmoqda. Shu sababli kam suv bilan yuqori hosil olish dunyo qishloq xo‘jaligining muhim vazifasiga aylangan.



26-rasm. Chorvachilik mahsulotlarini yetishtirish va chorva mollari bosh soni dinamikasi

Parrandachilik tarmog‘i aholini go‘sht va tuxum bilan ta’minlaydi. Ayni paytda O‘zbekistonda parrandalar soni 106,6 mln boshdan ortgan (26-rasm). Bu tarmoqda Toshkent va Samarqand viloyatlari alohida o‘rin egallaydi.

Mamlakatimizda yilqilar Toshkent, Qashqadaryo, Jizzax, Samarqand viloyatlari hamda Qoraqalpog‘iston Respublikasida eng ko‘p boqiladi. Buxoro, Navoiy viloyatlari va Qoraqalpog‘iston Respublikasi tuyachilik rivojlangan asosiy hududlar hisoblanadi.

Pillachilik mamlakatimiz qishloq xo‘jaligining qadimiy va muhim tarmoqlaridan biri bo‘lib, dehqonchilik bilan chambarchas bog‘liq. Ipak qurti tut bargi bilan oziqlanadi. Shu sababli ko‘pincha ekin maydonlari chetlarida, ariq va kanallar bo‘yida hamda yo‘l yoqalarida tut daraxtlari yetishtiriladi. Tut daraxti ekinlarni kuchli shamoldan, ariq va kanal qirg‘oqlarini yuvilishdan saqlaydi. Pilla yetishtirishda Samarqand, Andijon va Buxoro viloyatlari yetakchi.

Baliqchilik turli hududlardagi ko‘l, suv omborlari va hovuzlarda keng yo‘lga qo‘yilgan. Baliq ovlash hajmi bo‘yicha Xorazm viloyati yetakchi o‘ringa ega.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Mavzudagi ma’lumotlardan foydalanib O‘zbekiston qishloq xo‘jaligi tarmoqlari tarkibini ifodalovchi sxema tuzing va uni guruhda muhokama qiling.
2. Qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish hajmini oshirishning ekstensiv va intensiv yo‘llarini tahlil qiling va ularga misollar keltiring.

UYGA VAZIFA

Mavzu matnini tahlil qilib, daftaringizda quyidagi jadvalni to‘ldiring.

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlari	Yetakchi hududlar

5.12. AMALIY MASHG‘ULOT

DARS DAVOMIDA

- Iogann fon Tyunen ishlab chiqqan qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini joylashtirish nazariyasining mohiyati va hozirgi davrdagi ahamiyatini misollar yordamida tushunib olasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini oqilona joylashtirish masalasini nemis iqtisodchi va geograf olimi **Iogann fon Tyunen** (1783–1850) o‘rgangan va bu borada o‘zining nazariyasini yaratgan. Mazkur nazariya qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ko‘p miqdorda iste’mol qilinadigan yirik shaharlar atrofida qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini oqilona joylashtirishga bag‘ishlangan. Unda shaharga yaqinlashgan sari yer narxi qimmatlashib borishi, mahsulotni tashishga sarflanadigan xarajatlar esa asosiy bozorga yaqinligi hisobiga kamayishi va aksincha, shahardan uzoqlashgan sari yer narxi pasayishi, transport xarajatlari esa ko‘payib borish qonuniyatlari o‘z aksini topgan.

Iogann Tyunen nazariyasining asosiy g‘oyalari quyidagicha:

- bevosita shaharga yaqin hududlarda tez ayniydigan hamda tashilishi qimmatga tushadigan mahsulotlar (masalan, sabzavot, meva va rezavorlar, gullar, sut) yetishtirilishi lozim;
- shahardan olisroqdagi yerlarda tashilishi osonroq va arzonroq bo‘lgan, talabga mos hajmdagi hosilni olish uchun katta ekin maydonni talab qiladigan, shuningdek, tez aynimaydigan mahsulotlar (masalan, paxta, bug‘doy) yetishtirilishi maqsadga muvofiq;
- shahar atrofida turli qishloq xo‘jaligi tarmoqlari rivojlangan “halqasimon mintaqalar” shakllantirilishi lozim (27-rasm). Bu holat, albatta, relyef, iqlim, suv va tuproq sharoiti bir tekis bo‘lishini nazarda tutadi.



27-rasm. I. Tyunenning qishloq xo‘jaligi tarmoqlarini yirik shahar atrofida joylashtirish modeli (Shimoliy Germaniya sharoitidan kelib chiqib tuzilgan)

Keys

Toshkent viloyatining Toshkent shahriga tutash tumanlaridagi ekin maydonlarining tarkibi viloyatning boshqa tumanlaridan qanday farq qilishini jadvaldan aniqlang. Qaysi tuman qayerda joylashganini xaritada ko‘rsatilgan raqamlardan bilib olasiz. Shahar atrofidagi tumanlarda ko‘proq qanday ekinlar yetishtirilishiga e’tibor qarating. Toshkent shahridan uzoqroqda joylashgan tumanlarning poytaxtga tutash bo‘lgan tumanlardan bu boradagi farqini aniqlang. Toshkent viloyati tumanlari orasida ekinlarni yetishtirishdagi tafovutlardan I. Tyunen nazariyasining dalillarini toping. Jadval va uning tahlili natijasida olgan xulosangizni daftaringizga yozing (3-jadval).



3-jadval. Toshkent viloyati tumanlarida ekin maydonlari tarkibi (foizda, 2024)

Xaritadagi raqami	Tuman	Paxta	Bug‘doy	Kartoshka, sabzavot va poliz ekinlari	Yem-xashak ekinlari	Boshqa ekinlar
Toshkent shahriga bevosita tutash tumanlar						
1	Toshkent	0	25	57	15	3
2	Zangiota	0	23	35	26	16
3	Qibray	0	32	28	25	16
Toshkent shahridan nisbatan olisroq masofadagi tumanlar						
8	Chinoz	39	42	11	5	3
9	Oqqo‘rg‘on	49	35	4	7	6
10	Bo‘ka	40	43	5	8	4

5.13. YENGIL VA OZIQ-OVQAT SANOATI

DARS DAVOMIDA

- yengil va oziq-ovqat sanoatlari hamda ularning tarmoqlari haqida tushunchaga ega bo‘lasiz;
- yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarining hududiy joylashuviga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni bilib olasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Yengil va oziq-ovqat sanoati qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini qayta ishlash negizida shakllangan. Ushbu sanoat tarmoqlarida turli kiyim-kechak, oziq-ovqat kabi iste’mol mahsulotlari hamda ularni tayyorlash uchun yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqariladi.

Yengil sanoat tarkibiga paxta tozalash, ipakchilik, to‘qimachilik, tikuvchilik, charm-poyabzal, gilamdo‘zlik va boshqa tarmoqlar kiradi. Yengil sanoat korxonalarini qurish juda katta mablag‘ talab qilmaydi, ishlab chiqarish jarayoni ham texnologik jihatdan murakkab emas. Ushbu sanoat tarmog‘i ko‘proq qo‘l mehnatini talab qiladi. Chunki tikish, bezash, qadoqlash kabi ishlarning barchasini mashinalar va asbob-uskunalarda bajarish mushkul. Shuningdek, bozor talablaridan kelib chiqqan holda yengil sanoat mahsulotlarining nusxa va dizaynlari o‘zgarib boradi. Bunday o‘zgarishlarga moslashish qo‘l mehnatida turli mashinalarga nisbatan osonroq kechadi.

Yengil sanoat korxonalarining hududiy joylashuvi xomashyo, iste’molchi va ishchi kuchi kabi omillarga bog‘liq. Sohaning xomashyo bazasi juda keng bo‘lib, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, kimyoviy tolalardan foydalaniladi. Paxta tozalash, pillakashlik, teri va jun tayyorlash kabi tarmoqlarni xomashyo manbalariga yaqin joyda qurgan ma’qul. Mamlakatimizdagi ko‘plab paxta tozalash korxonalari paxta yetishtiriladigan qishloq tumanlarida joylashtirilgan. Yengil sanoat tarmoqlari ishchi kuchini ko‘p talab qilgani sababli tikuvchilik, trikotaj va poyabzal korxonalari aholisi zich va ishchi kuchi arzon hududlarda quriladi. Aholi ko‘p bo‘lgan hududlarda bunday korxonalarni qurish esa iste’molchilarga mahsulotlarni yetkazishda transport xarajatlarini kamaytirishga yordam beradi. To‘qimachilik sanoatida xomashyodan tayyor mahsulot tayyorlashgacha bo‘lgan jarayon bir qancha bosqichlarda amalga oshiriladi va ular alohida korxona va sexlar qurishni taqozo etadi. Ushbu korxonalarni birlashtirish natijasida to‘qimachilik kombinatlari vujudga keladi.

O‘YLAB KO‘RING

1. Yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalari keng tarqalganligi va O‘zbekistonning deyarli barcha hududlarida faoliyat ko‘rsatishini qanday izohlash mumkin?
2. Nima uchun bug‘doy va paxta tolasi qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, un va ip-kalava esa sanoat mahsulotlari hisoblanadi?

Mamlakatimizda yengil sanoatning asosiy mahsulotlariga ip-kalava, gazlamalar, trikotaj mahsulotlari, kiyim-kechaklar, poyabzal va gilamlar kiradi. Yengil sanoat mahsulotlari O‘zbekiston eksportida ham salmoqli o‘ringa ega. Ushbu sanoat deyarli barcha hududlarda yaxshi rivojlangan. Bu borada Andijon, Farg‘ona, Toshkent, Namangan viloyatlari hamda Toshkent shahri yuqori o‘rinlarni egallaydi. Shuningdek, ayrim hududlarga yengil sanoatning hududiy ixtisoslashuvi xos. Masalan, Marg‘ilon atlas, Xiva gilam, Rishton kulolchilik buyumlari ishlab chiqarish bilan dong taratgan.

BU QIZIQ!

To‘qimachilik eng qadimgi sanoat tarmog‘i sanalib, XVIII asrda Buyuk Britaniyada sanoat inqilobiga turtki bo‘lgan. Ushbu sanoat dastlab turli asbob-uskunalar ishlab chiqaradigan to‘qimachilik mashinasozligining, to‘qimachilik mashinasozligi esa metallurgiya sanoatining rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Metallurgiya esa yoqilg‘i sanoati rivojlanishiga olib kelgan. Turli sanoat tarmoqlaring shakllanishi temiryo‘l transportining rivojlanishiga turtki bo‘lgan.

Mamlakatimizda korxonalarning modernizatsiya qilinishi, klasterlarning yo‘lga qo‘yilishi, tadbirkorlarga keng imkoniyatlar yaratilishi natijasida yengil sanoat tarmog‘ida katta yutuqlarga erishilmoqda. Ushbu sanoatda xususiy sektor ulushi yildan yilga ortib bormoqda.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Ma’lumki, yengil sanoatda xomashyodan tayyor mahsulot tayyorlashgacha bo‘lgan jarayon bir nechta korxonalarda ketma-ketlikda amalga oshirilishi mumkin. “Paxtadan tayyor mahsulotgacha” texnologik zanjirida quyidagi korxonalarni ketma-ket joylashtiring.



tikuvchilik | ip yigirish | paxta tozalash | gazlama ishlab chiqarish | tola ishlab chiqarish

Ushbu korxonalarning hududiy joylashuviga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni izohlang.

2. Sizningcha, mazkur korxonalarni birlashtirib, to‘qimachilik kombinati tashkil etishning qanday afzalliklari bor?
3. O‘zbekistonning qaysi hududlari yengil sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarishda yetakchi o‘rinlarda turadi? Bunga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan deb o‘ylaysiz?

Oziq-ovqat sanoatida un, o‘simlik moyi, sut va go‘sht mahsulotlari, konservalar, shakar, makaron, turli ichimliklar hamda boshqa mahsulotlar ishlab chiqariladi. Mamlakatimizda ushbu sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi aholi sonining o‘sib borayotgani, shuningdek, xomashyoning ko‘pligi sababli ortib bormoqda. Ushbu sanoatda xomashyo qishloq xo‘jaligi mahsulotlari, jumladan, paxta chigiti, g‘alla, mevalar, sabzavotlar, sut, go‘sht va boshqa mahsulotlardan olinadi. Oziq-ovqat sanoati korxonalari asosan xususiy mulkchilik shaklida tashkil qilingani bilan ajralib turadi.

Oziq-ovqat sanoati korxonalari odatda xomashyo manbalariga va iste’molchilarga yaqin joylashtiriladi. Bunday xususiyat ushbu sanoat korxonalarining kichikroq aholi manzilgohlari, xususan, o‘rta va kichik shaharlarda hamda shaharchalarda ham keng rivojlanishiga imkon yaratadi. Chunki mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida xomashyo manbayi bo‘lgan qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtiriladi va ushbu sanoat mahsulotlari iste’molchilari ham shu hududlarda istiqomat qiladi.

Oziq-ovqat sanoati mamlakatimizning deyarli barcha hududlarida yaxshi rivojlangan. Un ishlab chiqarishda Toshkent shahri, Toshkent va Sirdaryo viloyatlari, o‘simlik yog‘ini ishlab chiqarishda esa Namangan, Samarqand va Jizzax viloyatlari peshqadam. Toshkent va Samarqand shaharlarida choy qadoqlash korxonalari, Urgutda tamaki-fermentatsiya zavodi mavjud.

Keys

Siz yashaydigan tumanda yengil va oziq-ovqat sanoati korxonalarini qurish uchun qanday imkoniyatlar mavjud? Agar siz tadbirkor bo‘lsangiz, aynan qaysi mahsulot ishlab chiqaradigan korxona qurardingiz? Shu mavzuda kichik loyiha ishi tayyorlang.

UYGA VAZIFA

1. Mamlakatimiz yengil sanoatining turli tarmoqlariga tegishli bo‘lgan yirik korxonalardan kamida 5 tasi haqida ma’lumot to‘plang.

T/r	Korxona nomi	Joylashgan hududi	Qanday mahsulotlar ishlab chiqarilishi	Xomashyo manbayi

Ushbu korxonalardan birontasini tanlab, uning hududiy joylashuviga ta’sir ko‘rsatgan omillarni aniqlang.

2. Oziq-ovqat do‘koniga boring, turli oziq-ovqat mahsulotlari qayerdan keltirilishini sotuvchidan so‘rab yoki mahsulotlarning yorlig‘idan aniqlang. Mahsulot keltiriladigan hududlarni daftaringizga sxematik xarita ko‘rinishida chizing.

5.14. TRANSPORT

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekiston transport tizimi va uning integratsion ahamiyati haqida bilib olasiz;
- O‘zbekiston transport tizimini takomillashtirish borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlarning mohiyati va ahamiyatini tushunib olasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Transport milliy iqtisodiyotning qon tomiri, harakatlantiruvchi kuchi hisoblanadi, chunki u mamlakat va dunyo bo‘ylab yuk va odamlarning harakatini ta’minlaydi. Hudud iqtisodiy geografik o‘rnining qulayligi, birinchi navbatda, transport aloqalarini amalga oshirish imkoniyatlari bilan belgilanadi.

O‘YLAB KO‘RING

Hozirgi zamonda kundalik hayotimizda transport sohasi qanday vazifalarni bajaradi? Fan va texnika yutuqlari transport rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatmoqda?

Transportning quyidagi turlari mavjud:

- **Quruqlik transporti.** Uning tarkibiga avtomobil, temiryo‘l, quvur *(tabiiy gaz, neft, neft mahsulotlari, turli kimyoviy moddalar hamda suvni tashishda qo‘llanadi)*, elektrlashgan *(metropoliten, tramvay, trolleybus)* transport singari turlar kiradi.
- **Suv transporti.** Turli suv obyektlari bo‘ylab harakatlanuvchi kema va qayiqlar kiradi. Suv transporti dengiz va ichki suv transportiga bo‘linadi.
- **Havo transporti.** Yo‘lovchi va yuklarni samolyot va vertolyotlar orqali tezkor va uzoq masofalarga tashishni ta’minlaydigan transport turi.

Har bir transport turining kuchli va zaif tomonlari bor. Bu xususiyatlar ularning *sig‘imi, tashishning tannarxi, muayyan manzilgacha yetkazish imkoniyatlari, tezligi, ob-havo sharoitlariga bog‘liqligi*dan kelib chiqadi.

Mamlakatda transportning ma’lum vaqt oralig‘idagi faoliyati quyidagi ko‘rsatkichlar bilan o‘lchanadi:

- yuk tashish (tonna);
- yuk aylanmasi (tashilgan yuklar og‘irligining tashilgan o‘rtacha masofaga ko‘paytmasi, tonna-km);
- yo‘lovchi tashish (kishi);
- yo‘lovchi aylanmasi (tashilgan yo‘lovchi sonining tashilgan o‘rtacha masofaga ko‘paytmasi, yo‘lovchi-km).



28-rasm. O‘zbekistonda yuk tashish va yuk aylanmasining transport turlari bo‘yicha taqsimlanishi (foizda, 2024)

O‘zbekistonda transportning temiryo‘l, avtomobil, havo, quvur kabi turlari asosiy ahamiyatga ega. Quruqlik ichkarisida joylashgani bois O‘zbekiston iqtisodiyotida suv transportining ahamiyati juda past. Faqatgina Amudaryo orqali oz miqdorda yuklar tashiladi.

Transport turlari ichida O‘zbekistonda eng ko‘p yuk avtomobil transportiga to‘g‘ri keladi (2024-yilda jami tashilgan yuklarning 91% i, 28-rasm). Ammo yuk aylanmasi ko‘rsatkichi avtomobil, temiryo‘l va quvur transporti o‘rtasida deyarli teng taqsimlangan. Bu holat yuklar avtomobil transportida asosan qisqa masofaga, boshqa transport turlarida esa uzoq masofaga tashilishi bilan izohlanadi. Temiryo‘l va quvur transportining ichki yuk tashishdagi ahamiyati biroz pastroq bo‘lsa-da, xalqaro yuk tashishdagi o‘rni ancha yuqori.

Yo‘lovchi tashishda avtomobil transporti yaqqol ustuvorlikka ega. Xususan, 2024-yilda avtomobil transportining yo‘lovchi tashishdagi salmog‘i 95,8%, yo‘lovchi aylanmasidagi ulushi esa 86,1% ga teng bo‘lgan. Shuningdek, metropoliten orqali (Toshkent shahrida) jami yo‘lovchilarning 3,9% qismi tashilgan. Boshqa transport turlarining bu boradagi ko‘rsatkichlari ancha past.

Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda transport tarmoqlarini rivojlantirishda salmoqli natijalarga erishildi. Shulardan eng ahamiyatlisi respublika temiryo‘l transporti tizimining bir butunligi ta’minlanganidir. Respublikamiz temiryo‘llari mustaqillik davridan oldin uning turli hududlarini bog‘lash nuqtayi nazaridan yagona tizimni tashkil etmasdi. Ko‘p hududlar bilan temiryo‘l yordamida aloqalar qo‘shni respublikalar hududi orqali amalga oshirilardi. Shu bois O‘zbekistonda transport xavfsizligi masalasiga jiddiy e’tibor qaratilib, qo‘shni davlatlar hududiga kirmagan holda o‘tadigan yangi temiryo‘llar qurildi. Natijada Surxondaryo viloyati **Toshguzar – Boysun – Qumqo‘rg‘on**, Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasi **Uchquduq – Miskin – Nukus** hamda **Konimex – Miskin**, Farg‘ona vodiysi viloyatlari esa **Angren – Pop** temiryo‘llari orqali O‘zbekistonning yagona temiryo‘l tarmog‘i bilan bog‘landi.

Bundan tashqari, so‘nggi yillarda turistik salohiyati yuqori bo‘lgan Xiva shahri temiryo‘l orqali Urganch shahri bilan bog‘landi, Xorazm viloyati va Qoraqalpog‘iston Respublikasini o‘zaro bog‘lovchi **Shovot–Qorao‘zak** temiryo‘li ishga tushirildi, katta ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatga ega Urgut tumaniga Samarqand shahridan temiryo‘l liniyasi tortildi.

Mamlakatimiz Sharqiy, Janubiy, Janubi-G‘arbiy Osiyo hamda Janubiy va Sharqiy Yevropa davlatlarini o‘zaro bog‘lashga xizmat qiladigan turli xalqaro transport yo‘laklarini ri-

vojlantirishga qaratilgan loyihalarda faol ishtirok etmoqda. Masalan, 2024-yilda **Xitoy–Qirg‘iziston–O‘zbekiston** temiryo‘li loyihasini amalga oshirish borasidagi ishlar boshlandi.

Shu bilan birga, O‘zbekistonda transport sohasini yanada rivojlantirish maqsadida yangi zamonaviy avtomobil yo‘llarini qurish va mavjudlarini ta’mirlash, temiryo‘l va avtomobil ko‘priklarini bunyod etish, xalqaro va mahalliy aeroportlarni barpo etish va kapital rekonstruksiya qilish, Toshkent metropolitenining yangi yo‘nalish va bekatlarini ishga tushirish va boshqa choralar amalga oshirilmoqda.

BU QIZIQ!

Farg‘ona vodiysi viloyatlarini Toshkent viloyati, u orqali esa O‘zbekistonning qolgan hududlari bilan mustahkam transport aloqasini ta’minlagan Angren–Pop temiryo‘li 2016-yil 22-iyun kuni ishga tushirilgan. Temiryo‘lning umumiy uzunligi 123,1 km ni tashkil etib, uning 19,2 km qismi 2200 m mutlaq balandlikda Qurama tizmasi tog‘lari ichida qurilgan Qamchiq tunneli orqali o‘tadi. Qamchiq tunneli qurilish texnologiyasining murakkabligi bo‘yicha dunyodagi tog‘li hududlarda qurilgan temiryo‘l tunnellarining birinchi o‘ntaligiga kiradi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Transportning integratsion, ya’ni birlashtiruvchi ahamiyati nimalarda o‘z aksini topadi, deb hisoblaysiz?
2. O‘zbekistonning geografik joylashuvi xalqaro transport aloqalari rivojida qanday ahamiyatga ega?
3. Nima uchun yuklarni qisqa masofaga tashishda avtomobil, uzoq masofaga tashishda esa temiryo‘l transportidan foydalanish qulayroq?
4. Toshguzar–Boysun–Qumqo‘rg‘on, Angren–Pop, Uchquduq–Miskin–Nukus, Konimex–Miskin temiryo‘l liniyalarini 9-sinf atlasidagi transport xaritasidan toping. Ushbu temiryo‘llarning qurilishini qanday geografik omillar murakkablashtirgan, deb o‘ylaysiz?

UYGA VAZIFA

Transport turlarining kuchli va zaif tomonlarini ajrating va o‘zaro solishtiring. Bu boradagi fikrlaringizni jadval shaklida daftaringizga yozib chiqing.

Transport turlari	Kuchli tomonlari	Zaif tomonlari
Avtomobil		
Temiryo‘l		
Suv		
Havo		

5.15. XIZMAT KO‘RSATISH SOHALARI

DARS DAVOMIDA

- xizmat ko‘rsatish sohalarining ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati va tarmoq tarkibi haqida bilib olasiz;
- xizmat ko‘rsatish sohalari hududiy tashkil etilishining sabab va omillari hamda qonuniyatlarini tushunib olasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Xizmat ko‘rsatish sohalarining faoliyati aholining turmush sifati va tarziga, farovonligiga, iste’mol darajasiga ta’sir ko‘rsatadi. Bu soha tarkibiga bir nechta iqtisodiyot tarmoqlari kirib, ular asosiy maqsadidan kelib chiqan holda 2 ta guruhga bo‘linadi (29-rasm).

O‘YLAB KO‘RING

Xizmat ko‘rsatish deganda nimani tushunasiz? Xizmat ko‘rsatish bilan bog‘liq qanday faoliyat turlarini bilasiz?

XIZMAT KO‘RSATISH SOHASI TARMOQLARI

Moddiy ne’matlarni iste’molchiga yetkazishga xizmat qiladigan tarmoqlar

- Savdo
- Mehmonxona va umumiy ovqatlanish xizmatlari
- Transport va saqlash xizmatlari
- Uy-joy kommunal xo‘jaligi
- Moliya, kredit va sug‘urta
- Reklama va marketing xizmatlari
- Aloqa va axborot xizmatlari va boshqalar

Aholining jismoniy, ijtimoiy-madaniy, ma’naviy, intellektual ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan tarmoqlar

- Sog‘liqni saqlash
- Ta’lim
- Jismoniy tarbiya va sport
- San’at va ko‘ngil ochish
- Dam olish va turizm
- Fan va ilmiy xizmat ko‘rsatish va boshqalar

29-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlari tarkibi

Xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanish darajasi hozirgi zamonda aholi turmush sifatini belgilab beradigan muhim omil hisoblanadi. Xizmat ko‘rsatish sohalari yaxshi yo‘lga qo‘yilgan shaharlar aholini o‘zlariga faol ravishda jalb qiladi, shu bois soha rivoji mamlakatda kechayotgan urbanizatsiya va migratsiya jarayonlariga bevosita ta’sir ko‘rsatadi.

Xizmat ko‘rsatish tarmoqlari korxonalarining joylashuvi iste’molchilarga yaqinlikni, xizmat ko‘rsatuvchilarga esa yuqori daromad topishni ta’minlashga qaratilgan.

Shu sababdan u aholi soni, tarkibi va zichligi, muayyan xizmat turlariga iste’mol talabining davriyligi, aholining daromadlari hamda transport yo‘llari singari omillarga bog‘liq (30-rasm).



30-rasm. Xizmat ko‘rsatish sohalarini joylashtirish omillari

Muayyan aholi punkti – shahar, shaharcha yoki qishloqda aholi soni qancha ko‘p bo‘lsa, u yerdagi xizmat ko‘rsatish korxonalarining soni shuncha ko‘p, xizmat turlari esa xilma-xil bo‘ladi. Chunki iste’molchi qancha ko‘p bo‘lsa, xizmat ko‘rsatish sohalarining rivojlanish imkoniyatlari shuncha kengayadi.

Xizmat ko‘rsatish sohalarining joylashuvi xizmatlarga bo‘lgan talabning davriyligiga ham bog‘liq. Xizmatlar *davriy (muntazam)* va *bir martalik (epizodik)* guruhga bo‘linadi. Muntazam ravishda talab qilinadigan xizmatlarni ko‘rsatuvchi korxona va tashkilotlar, masalan, oziq-ovqat do‘konlari, maktabgacha ta’lim tashkilotlari, umumta’lim maktablari, sartaroshxonalar, oshxonalar kichik aholi punktlarida ham faoliyat yuritadi. Epizodik ravishda talab etiladigan xizmatlarni ko‘rsatadigan korxona va tashkilotlar (turli texnikalarni ta’mirlaydigan ustaxonalar, yuridik maslahat beradigan firmalar, rieltor agentliklari (ko‘chmas mulk obyektlarning oldi-sotdisi bilan shug‘ullanadigan firmalar) va boshqalar) esa, qoida tariqasida, kattaroq qishloq, shaharcha va shaharlarda faoliyat ko‘rsatadi. Kichikroq qishloqlarda yashovchi aholida tegishli xizmatlardan foydalanish zarurati tug‘ilgan taqdirda, ular kattaroq aholi manzilgohlariga borib, tegishli korxonalarga murojaat etadilar.

Umuman olganda, xizmat ko‘rsatish sohalarining joylashuvi **pog‘onasimon (iyerarxik)** xususiyatga ega. Chunki kattaroq aholi punktiga kichikroq aholi punktidan odamlar turli xizmatlardan foydalanish maqsadida tashrif buyuradilar. Natijada shaharchalar va katta qishloqlar o‘z atrofidagi hududlarga, tuman markazlari o‘z tumanlariga, viloyat markazlari o‘z viloyatlariga, poytaxt esa butun mamlakatga xizmat ko‘rsatadi.

Shuningdek, xizmat ko‘rsatish sohalarining korxonalari serqatnov transport yo‘llari bo‘yida zich joylashadi. Chunki yo‘lbo‘yi hududlarda iste’molchilar oqimi ancha faol bo‘ladi. Bu qonuniyat ham aholi punktlarining ichida, ham ular orasidagi hududlarda kuzatiladi. Masalan, yirik shaharlarda serqatnov avtomobil yo‘llari bo‘ylab qurilgan ko‘p qavatli uylarning birinchi qavatida odatda do‘konlar va turli ofislar joylashgan. Ayni vaqtda, turli viloyat, tuman va shaharlarni o‘zaro bog‘lovchi avtomobil yo‘llarining bo‘yida muayyan masofa oralig‘ida yoqilg‘i quyish shoxobchalari, do‘konlar, oshxonalar, mehmonxonalar, avtoservis ustaxonalari kabi xizmat ko‘rsatish sohasi korxonalarining majmualari shakllanib, yo‘lovchi va haydovchilarga qulaylik yaratiladi.

Demak, xizmat ko‘rsatish sohalarining hududiy joylashuvi asosan aholi va transport yo‘llarining joylashuvi bilan belgilanadi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Xizmat ko‘rsatish sohasi tarkibiga iqtisodiyotning qaysi tarmoqlari kiradi?
2. Xizmat ko‘rsatish sohalari korxonalarining joylashuviga qaysi omillar ta’sir ko‘rsatadi?
3. Davriy va epizodik ravishda talab etiladigan xizmatlarning hududiy tarqalishi qanday farqlanadi?
4. Xizmat ko‘rsatish sohalarining pog‘onasimon joylashuvi qanday bo‘ladi?
5. Nima uchun xizmat ko‘rsatish sohalarining joylashuvi aholi va transport yo‘llari joylashuviga bevosita bog‘liq, deb o‘ylaysiz?

UYGA VAZIFA

30-rasmda keltirilgan omillarning xizmat ko‘rsatish sohalari joylashuviga qay tarzda ta’sir ko‘rsatishi haqidagi fikrlaringizni daftaringizga jadval ko‘rinishida yozing, misollar keltiring.

Omillar	Xizmatlar sohasining joylashuviga ko‘rsatadigan ta’siri
Aholi soni va zichligi	
Aholining yosh, milliy va ijtimoiy tarkibi	
Aholi daromadlari	
Xizmatlarga bo‘lgan talabning davriyligi	
Transport yo‘llari	

5.16. AMALIY MASHG‘ULOT

DARS DAVOMIDA

- Valter Kristallerning markaziy o‘rinlar nazariyasining mohiyati va asosiy g‘oyalari bilan tanishasiz;
- xizmat ko‘rsatish sohasi tarmoqlari joylashuvining pog‘onasimonligini V. Kristaller nazariyasiga asoslanib misollar yordamida tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Quyidagi matnni o‘qib, V. Kristaller ishlab chiqqan markaziy o‘rinlar nazariyasining asosiy g‘oyalari bilan tanishing.

Markaziy o‘rinlar nazariyasini nemis geografi **Valter Kristaller** (1893–1969) ishlab chiqqan. Nazariyaga ko‘ra, markaziy o‘rin deganda, atrofidagi kichikroq aholi punktlariga xizmat ko‘rsatadigan manzilgoh tushuniladi. Markaziy o‘rinlar turli darajali bo‘lib, pog‘onasimon tizimni hosil qiladi.



Markaziy o‘rinlarning pog‘onalari:

- Qishloq – quyi pog‘ona
- Kichik shahar yoki shaharcha – o‘rta pog‘ona
- Yirik shahar – yuqori pog‘ona

Yuqoriroq pog‘onadagi markaziy o‘rin pastroq pog‘onadagi aholi punktlariga xizmat ko‘rsatadi hamda undagi xizmatlarning tarkibi quyi pog‘onadagi aholi punktlariga nisbatan xilma-xil bo‘ladi. Markaziy o‘rinlarning pog‘onasimonligi quyidagicha izohlanadi:

1. Muayyan turdagi xizmatni yo‘lga qo‘yish uchun tegishli hududda unga yetarlicha talab bo‘lishi kerak, kichik aholi punktlarida esa ko‘p turdagi xizmatlarga talab yuqori bo‘lmaydi;
2. Iste’molchilar u yoki bu turdagi xizmatdan foydalanish uchun muayyan masofagacha harakatlanishga tayyor. Xizmatga talab qanchalik muntazam bo‘lsa, odamlar undan shunchalik yaqin masofada foydalanishga intiladi. Bir martalik (epizodik) xizmatga zarurat tug‘ilganda esa uzoqroqqa borishlari ham mumkin.

Markaziy o‘rinlar nazariyasining asosiy xulosalari: yirik shaharlarda iste’molchilar uchun ancha xilma-xil tarkibdagi xizmatlar taklif etiladi, mahsulot va xizmatlarning tanlovi kengroq bo‘ladi; markaziy o‘rinning pog‘onasi va aholi soni oshib borgan sari, uning xizmat ko‘rsatish masofasi (radiusi) kengayib boradi.

Keys-1.

Quyidagi xizmat ko‘rsatish sohalarining korxona va tashkilotlarini 3 ta guruhga ajrating:

- oliy ta’lim tashkiloti (universitet, institut);
- oziq-ovqat do‘koni;
- stomatologiya klinikasi;
- maktabgacha ta’lim tashkiloti;
- ko‘z mikroxirurgiya klinikasi;
- texnikum;
- sartaroshxona;
- avtomobillarni sotish saloni;
- reklama agentligi;
- repetitorlik markazi;
- qurilish mollari do‘koni;
- umumta’lim maktabi.

a) kichik aholi punktlari, qishloqlarda ham joylashtirilishi mumkin bo‘lgan;

b) o‘rta pog‘onadagi aholi punkti (masalan, tuman markazi)da joylashtirilishi mumkin bo‘lgan;

d) yirik shaharga mos keladigan.

Keys-2.

Quyida qaysi viloyat va shaharlar haqida so‘z borayotganini va tegishli viloyatlarning xaritalari qaysi rasmlarda berilganini aniqlang:

- viloyat markazi uning janubiy qismida, kattaligi bo‘yicha ikkinchi shahri esa shimolda joylashgan bo‘lib, u shahar viloyatning shimoliy tumanlari uchun xizmat ko‘rsatadigan markaziy o‘rin hisoblanadi;
- viloyat markazi uning sharqida joylashgan, viloyatning kattaligi bo‘yicha ikkinchi shahri uning g‘arbiy tumanlari uchun markaziy o‘rin vazifasini bajaradi;
- viloyatning bosh shahri uning g‘arbiy qismida, kattaligi jihatidan ikkinchi shahri esa shimoli-sharqida joylashgan va atrofidagi tumanlarga xizmat ko‘rsatuvchi markaz hisoblanadi;
- viloyatning ma’muriy markazi uning o‘rta qismida joylashgan bo‘lib, boshqa shaharlardan birortasi markaziy o‘rin sifatida alohida ajralib turmaydi.









5.17. TASHQI IQTISODIY ALOQALAR

DARS DAVOMIDA

- tashqi iqtisodiy aloqalarning mazmuni va ahamiyatini tushunib olasiz;
- O‘zbekistonning tashqi savdo aloqalarini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Mamlakatning boshqa davlatlar bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy munosabatlari *tashqi iqtisodiy aloqalar* deb ataladi.

Tashqi iqtisodiy aloqalarning eng muhim yo‘nalishi *tashqi savdo* hisoblanadi. U mahsulot va xizmatlarning *eksporti* (mamlakatdan tashqariga chiqarilishi) va *importi* (mamlakatga tashqaridan olib kirilishi)dan iborat.

Mamlakat tashqi savdosining asosiy ko‘rsatkichlari *tashqi savdo aylanmasi* va *balansi (saldosi)* hisoblanadi (31-rasm).

O‘YLAB KO‘RING

Nima sababdan jahonning barcha mamlakatlari bir-biri bilan savdo aloqalarini olib boradi? Biron davlat boshqa mamlakatlar bilan savdo aloqalarini yo‘lga qo‘ymasdan yuqori darajada rivojlana oladimi?



31-rasm. O‘zbekiston tashqi savdosining asosiy ko‘rsatkichlari (mlrd AQSH dollarida)

ILMIY ATAMALAR

Tashqi savdo aylanmasi – mamlakat eksporti va importining yig‘indisi.

Tashqi savdo balansi (saldosi) – mamlakat eksporti va importining ayirmasi.

Tashqi savdo aylanmasi bo‘yicha O‘zbekistonning eng yirik hamkorlari uzoq yillardan buyon Xitoy, Rossiya, Qozog‘iston, Turkiya va Koreya Respublikasi bo‘lib kelmoqda. Bu beshta mamlakatga 2024-yilda respublika tashqi savdo aylanmasining 50,5 % i to‘g‘ri kelgan (32-rasm). Bu borada, ayniqsa, Xitoy va Rossiya davlatlari muhim o‘rin egallaydi. Shuningdek, Germaniya, Fransiya, Turkmaniston, Afg‘oniston, Qirg‘iziston, Tojikiston,

Hindiston va boshqa davlatlar bilan ham faol savdo aloqalari rivojlantirilmoqda. Umuman olganda, respublikamiz tashqi savdo aylanmasining 95 foizdan ortig‘i Osiyo va Yevropa davlatlari hissasiga to‘g‘ri keladi.



32-rasm. O‘zbekistonning 10 ta eng yirik tashqi savdo hamkorlari (2024-yil, respublika tashqi savdo aylanmasidagi ulushi)

O‘zbekiston boshqa mamlakatlarga eng ko‘p eksport qiladigan mahsulotlar qatoriga oltin, turli rangli metallar (asosan mis), to‘qimachilik mahsulotlari (ip-kalava, kiyim-kechak, trikotaj mahsulotlari va boshqalar), oziq-ovqat mahsulotlari (asosan meva-sabzavotlar) kiradi. Shuningdek, sayyohlik, transport, aloqa va axborotlashtirish hamda boshqa sohalardagi xizmatlar eksporti ham katta ahamiyatga ega (33-rasm).

O‘zbekiston importida mashina va asbob-uskunalar, jumladan, sanoat uskunalari, avtotransport vositalari va ularning ehtiyot qismlari, elektrotexnika va elektronika mahsulotlari yetakchilik qiladi. Bu holat mamlakatimizda mashinasozlik sanoatini yanada rivojlantirish zaruratini ko‘rsatadi. Shu bilan birga, respublikamiz importida energiya manbalari va neft mahsulotlari, qora metallar, kimyo va farmatsevtika mahsulotlari, oziq-ovqat mahsulotlarining (birinchi navbatda, don mahsulotlari va o‘simlik yog‘i) salmog‘i ham nisbatan yuqori.

BU QIZIQ!

Mustaqillikning dastlabki yillarida O‘zbekiston eksportining 60 foizgacha qismini paxta tolasi tashkil etgan, bugungi kunda esa paxta xomashyosi to‘laligicha qayta ishlanib, tashqi bozorga undan ishlab chiqarilgan tayyor to‘qimachilik buyumlari yetkazib berilmoqda. Umuman olganda, mamlakatimiz eksportining tarkibida xomashyo mahsulotlarining ulushi tobora kamayib, tayyor mahsulotlar hamda xizmatlar salmog‘i ortib bormoqda. Bu holat milliy iqtisodiyotimizda ro‘y berayotgan sifat o‘zgarishlarini aks ettiradi.



33-rasm. O‘zbekiston eksport va importining tovar tarkibi (% da, 2024-y.)

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Nima uchun O‘zbekiston tashqi savdo aloqalarini asosan Osiyo va Yevropa mamlakatlari bilan amalga oshiradi, boshqa qit’alarda joylashgan davlatlar bilan mamlakatimizning tashqi savdo aylanmasi esa ancha past?
2. O‘zbekiston eksporti tarkibidan kelib chiqib, respublika iqtisodiyotining qaysi tarmoqlari tashqi bozorga ko‘p hajmda mahsulot yetkazishini aniqlang.
3. Iqtisodiy jihatdan xomashyoni eksport qilish foydaliroqmi yoki tayyor mahsulotlarnimi? Fikringizni asoslang.

UYGA VAZIFA

Jadvaldagi ma’lumotlardan foydalanib O‘zbekistonning quyidagi davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi va balansini hisoblang.

Davlatlar	O‘zbekistondan eksport (mln AQSH doll., 2024-yil)	O‘zbekistonga import (mln AQSH doll., 2024-yil)
Xitoy	2054,9	10431,8
Rossiya	3682,9	7947,3
Qozog‘iston	1452,3	2825,5
Turkiya	1169,3	1768,0
Koreya Respublikasi	39,9	1960,8

VI BOB

INSON VA TABIAT



USHBU BOBDA QUYIDAGI MAVZULARNI O‘RGANASIZ:

6.1. Qishloq xo‘jaligida yer resurslaridan oqilona foydalanish

6.2. Inson xo‘jalik faoliyati ta’sirida vujudga kelgan ekologik muammolar

6.3. O‘zbekistonda rekreatsiya va turizm

6.1. QISHLOQ XO‘JALIGIDA YER RESURSLARIDAN OQILONA FOYDALANISH

DARS DAVOMIDA

- yerlarning sho‘rlanishi muammosining mohiyati, sabab va oqibatlarini tushunib olasiz;
- O‘zbekistonda dehqonchilik yerlaridan oqilona foydalanish maqsadida amalga oshiriladigan melioratsiya tadbirlarini bilib olasiz;
- geografik xaritalardan statistik ma’lumotlar manbayi sifatida foydalanishni o‘rganasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Qishloq xo‘jaligi uchun yer resurslari juda katta ahamiyatga ega. Mamlakatning qishloq xo‘jaligi sohasidagi imkoniyatlari ko‘p jihatdan yer resurslarining miqdori va sifatiga bog‘liq. Shuning uchun yerlarning unumdorligi masalasi katta iqtisodiy ahamiyatga ega.

O‘YLAB KO‘RING

1. Yerlarning unumdorligini qanday saqlash va oshirish mumkin?
2. Nima uchun yer resurslari tugaydigan, qayta tiklanadigan tabiiy resurs turi hisoblanadi?

O‘zbekistonning qurg‘oqchil iqlim sharoitida yerlarning sho‘rlanishi keng tarqalgan. Yozda yerosti suvlari bug‘lanib, tuproqning yuqori qatlamiga turli tuzlar ko‘tarilishiga sabab bo‘ladi (1-rasm). Natijada tuproq tarkibida turli tuzlarning miqdori ko‘payib, yerlarning unumdorligi va ekinlarning hosildorligi pasayadi.



1-rasm. Tuproqning sho‘rlanish jarayoni



2-rasm. O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasi xaritasi

Sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish jarayoni O'zbekistonning turli hududlarida har xil darajada rivojlanadi. Bu yerosti suvlarning chuqurligi va sho'rlanish darajasi (mineralla-shuvi), tuproq va uning negizidagi tog' jinslarining tarkibi, suvlarning oqimiga ta'sir etuvchi yerlarning nishabligi, yoz faslidagi havo harorati va namligi, sug'orish jarayonida sarflanadigan suv miqdori va boshqa omillarga bog'liq. Shu kabi omillar ta'sirida Tosh-kent, Samarqand, Andijon, Namangan viloyatlarida sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish jarayoni eng past, Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm, Buxoro, Navoiy, Sirdaryo va Jizzax viloyatlarida esa eng yuqori darajada tarqalgan (2-rasm).

Shuning uchun O'zbekistonda sug'oriladigan yerlarning sho'rlanish darajasini pasay-tirish, tuproqda tuzlar to'planishining oldini olish **melioratsiya**ning eng muhim yo'nalish-

ILMIY ATAMALAR

Melioratsiya – yerlarning sifatini yaxshilashga, unumdorligini oshirishga qaratilgan chora-tadbirlar.

Drenaj – muayyan yer maydonidan ortiqcha suvlarni chiqarib tashlash tizimi.

Zovur – yerosti suvlari sathini pasaytirish, ortiqcha suvlarni chiqarib tashlash uchun qazilgan chuqur ariq.

laridan biri hisoblanadi. Dalalarda tuproqlarning sho‘rlanish darajasini pasaytirish uchun kuz-qish davrida yoki erta bahorda yer sho‘rini yuvish ishlari amalga oshiriladi. Buning uchun dalaga katta miqdorda suv quyiladi, natijada tuproqning yuqori qatlamlaridagi tuzlar eriydi va yerga singadi.

Yerlar sho‘rlanishining oldini olishda **drenaj**ning ahamiyati katta. Drenaj yordamida tuproqdagi ortiqcha zax uning tarkibidagi tuzlar bilan birga yuvib yuboriladi. Buning uchun dalalarning eng pastki qismlarida **zovurlar** deb ataladigan chuqur ariqlar qaziladi. Zovurlar orqali dalalardagi ortiqcha yerusti va yerosti suvlar chiqib ketadi, sizot suvlarning sathi esa pasayadi. Natijada tuproqning sho‘rlanish jarayoni susayadi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Nima uchun dalalarda sizot suvlarning sathini pasaytirish choralari ko‘riladi? Zovurlarning bu jarayondagi vazifasini tushuntiring.
2. 2-rasmda berilgan xaritaga qarab, sug‘oriladigan yerlarning sho‘rlanish darajasi eng yuqori va eng past bo‘lgan viloyatlarni aniqlang. Bunday hududiy tafovutlar qanday omillar ta’sirida vujudga kelgan deb o‘ylaysiz?

UYGA VAZIFA

2-rasmda keltirilgan xarita va jadvaldagi ma’lumotlardan foydalangan holda O‘zbekiston hududlaridagi sho‘rlangan sug‘oriladigan yerlar maydonini tahlil qiling. Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda har bir viloyatda sug‘oriladigan yerlarning necha foizi sho‘rlanganini hisoblang.

Qoraqalpog‘iston Respublikasi hamda viloyatlarda sug‘oriladigan yerlarning umumiy maydoni (ming gektar, 2024-yil)

Hudud nomi	Maydoni (ming ga)	Hudud nomi	Maydoni (ming ga)	Hudud nomi	Maydoni (ming ga)
Qoraqalpog‘iston Respublikasi	517,0	Navoiy viloyati	123,1	Toshkent viloyati	400,2
Andijon viloyati	271,5	Namangan viloyati	288,5	Farg‘ona viloyati	368,6
Buxoro viloyati	276,3	Samarqand viloyati	380,2	Xorazm viloyati	267,6
Jizzax viloyati	303,4	Sirdaryo viloyati	287,5		
Qashqadaryo viloyati	513,3	Surxondaryo viloyati	324,9		

6.2. INSON XO‘JALIK FAOLIYATI TA’SIRIDA VUJUDGA KELGAN EKOLOGIK MUAMMOLAR

DARS DAVOMIDA

- inson xo‘jalik faoliyati natijasida tabiiy muhitda sodir bo‘ladigan o‘zgarishlar oqibatlarini iqtisodiy-ijtimoiy jihatdan baholaysiz va muqobil yechimlar taklif eta olasiz;
- sanoat va qishloq xo‘jaligi ta’sirida vujudga kelgan ekologik muammolar mohiyatini aniqlaysiz va ekologik vaziyatni yaxshilash uchun takliflar berasiz;
- Orol dengizi sathining pasayishi oqibatida kelib chiqqan ekologik muammolar va ularning oqibatlarini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Insonning xo‘jalik faoliyati, ayniqsa, sanoat, transport va qishloq xo‘jaligining rivojlanishi, tabiiy resurslardan oqilona foydalanmaslik natijasida ko‘plab ekologik muammolar kelib chiqishi mumkin. Bunday ekologik muammolarga atrof-muhitning ifloslanishi, xavfli tabiiy jarayonlarning shakllanishi, biologik xilma-xillikning kamayishi va boshqalar kiradi.

O‘YLAB KO‘RING

Sizningcha, inson xo‘jalik faoliyati natijasida qanday ekologik muammolar kelib chiqishi mumkin? O‘zingiz yashaydigan hududdan misol keltiring.

Ekologik muammolarning oldini olish bo‘yicha zarur chora-tadbirlar ishlab chiqilmasa va ularning chuqurlashishiga yo‘l qo‘yilsa, hududlarning iqtisodiy rivojlanishi sekinlashadi, bu esa aholining turmush darajasiga salbiy ta’sir ko‘rsatadi. Ekologik vaziyatning yomonlashuvi aholi migratsiyasining ortishiga olib kelishi mumkin. Majburiy migratsiya ayrim hududlarda mehnat resurslarining kamayishiga, boshqa hududlarda esa aholi soni ko‘payib, demografik bosim kuchayishiga sabab bo‘ladi. Bu holat, o‘z navbatida, iqtisodiy va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqaradi.

Sanoat korxonalari havoning (IESlar, metallurgiya, neft va gazni qayta ishlash, sement ishlab chiqarish va b.), suvning (kimyo va neft-kimyo sanoati, metallurgiya, yog‘ochsozlik va b.), yer resurslari (tog‘-kon sanoati va b.) ifloslanishiga sabab bo‘ladi. Shuning uchun korxonalardan oqava suvlarni tozalab chiqarish, havoga zaharli gazlar chiqishini kamaytirish uchun sanoat obyektlarini zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlash, sanoat chiqindilarini qayta ishlashni yo‘lga qo‘yish zarur. Havoni ifloslantiruvchi korxonalarni imkon qadar aholi yashash hududlaridan uzoqroq joylashtirish maqsadga muvofiqdir.

Qishloq xo‘jaligida yer va suv resurslaridan oqilona foydalanmaslik oqibatida Orol dengizi sathining pasayishi va u bilan bog‘liq ekologik muammolar kelib chiqqan. Ushbu masala mamlakatimizdagi eng asosiy ekologik muammolardan biridir.

Keys **Orol dengizi sathining pasayishi va buning oqibatlari**

XX asrning 60-yillarida Orol dengizi maydoni kattaligi bo‘yicha dunyoda to‘rtinchi, Yevrosiyo materigida ikkinchi o‘rinda turgan. Maydoni katta bo‘lgani tufayli “dengiz” deb atalgan. Paxta ekin maydonlarining kengaytirilishi, yangi yerlarning o‘zlashtirilishi, tejamkor sug‘orish usullarining joriy etilmasligi natijasida Amudaryo va Sirdaryoning Orol dengiziga quyiladigan suv miqdori yildan yilga kamayib borgan. Oqibatda Orol dengizining sathi pasayib, hajmi kichrayib borgan (3-rasm). XX asrning 80-yillari o‘rtalariga kelib, Orol dengizi ikki qismga ajralib qolgan: asosiy qismi O‘zbekiston hududida bo‘lgan Katta Orol va Qozog‘iston hududidagi Kichik Orol. Keyingi yillarda Katta Orol ham sharqiy va g‘arbiy qismlarga bo‘lingan. Katta Orolning sharqiy qismi deyarli qurib qolgan bo‘lsa, g‘arbiy qismi nisbatan chuqurligi, yog‘ingarchilik va bug‘lanish o‘rtasidagi farq katta bo‘lmagani sababli saqlanib qolgan. Orol dengizining qurigan qismida Orolqum cho‘li vujudga kelgan.

Orol dengizi suv sathining pasayishi oqibatida turli ekologik va iqtisodiy-ijtimoiy muammolar paydo bo‘ldi. Orolbo‘yida iqlimning kontinentalligi ortdi, ya’ni o‘rtacha havo harorati qishda pastroq, yozda yuqoriroq bo‘lishiga, qurg‘oqchillikning ortishiga olib keldi. Orolbo‘yidagi 50 dan ziyod o‘simlik va hayvon turlari yo‘qolib ketdi, yana ko‘plab turlar yo‘qolish arafasida turibdi. Suv minerallashuvining ortishi o‘ndan ortiq turdagi baliqlarning butunlay yo‘qolib ketishiga sabab bo‘ldi.



3-rasm. Orol dengizi suv sathining o‘zgarib borishi

Orol dengizining qurishi natijasida baliqchilik katta zarar ko‘rdi. Mo‘ynoq porti sohildan ancha uzoqda qolib ketdi. Mo‘ynoqdagi baliq-konserva zavodi esa faoliyatini tugatdi. Baliqchilik bilan shug‘ullanadigan 60 mingdan ortiq kishi o‘z ishidan ayrildi.

Orolbo‘yi mintaqasida cho‘llashish va yerlarning sho‘rlanishi ortib bormoqda. Orolning qurigan qismidan ko‘tarilayotgan qum, chang va tuz zarralari shamol ta’sirida hududlarga keng tarqalmoqda. Bu holat qishloq xo‘jaligi yerlarining degradatsiyasiga hamda hosildorlikning pasayishiga olib kelyapti.

Qozog‘iston hududida joylashgan Kichik Orol dengizida maxsus to‘g‘on qurilib, suv sathi qisman ko‘tarilgan va baliqchilik faoliyati qayta yo‘lga qo‘yilgan. Orol dengizining boshqa qismlarida suv tanqisligi, bug‘lanishning yuqoriligi sababli suv sathi hanuz pasa-

yib bormoqda. Orolning qurigan qismi va Orolbo‘yida tuz va qumning ko‘chishini sekinlashtirish uchun saksovullar ekish, ko‘kalamzorlashtirish loyihalari amalga oshirilmoqda. Bugungi kunda Orol dengizining qurigan qismi va qum ustida qolib ketgan kemalarni ko‘rish uchun hududga ko‘plab mahalliy va xorijiy sayyohlar tashrif buyurmoqda.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. “Google Earth” ilovasidan foydalanib Orol dengizi qirg‘og‘i Mo‘ynoq shahridan qancha masofa uzoqlashganini aniqlang. Sizningcha, Orol dengizi sathining pasayishi oqibatida ushbu shaharda qanday iqtisodiy-ijtimoiy muammolar kelib chiqqan?

4-jadval. Orol dengizining turli yillardagi ko‘rsatkichlari

Orol dengizi ko‘rsatkichlari/ Yillar	1960	1970	1980	1990	2000	2009	2014
Suv hajmi, km^3	1089	941	632	302 (280-Katta Orol)	159 (140-Katta Orol)	34 (23-Katta Orol)	23 (11-Katta Orol)
Maydoni, ming km^2	68,9	58,9	49,2	36,5 (33,7-Katta Orol)	25,5 (22,9-Katta Orol)	10 (6,7-Katta Orol)	7,7 (4,3-Katta Orol)
Suv sathi, m	53,4	51,5	45,8	38,2	33,5	26,9	26
Sho‘rligi, ‰	10	11	16	30	>60	>100	>150

Ushbu jadvaldagi ma’lumotlardan foydalanib

2. Orol dengizining hajmi va maydoni 2014-yilda 1960-yilga nisbatan qancha miqdorda hamda necha marotaba kamayganini hisoblang. Orol dengizi sathining pasayishiga antropogen omillardan tashqari qanday tabiiy omillar ta’sir ko‘rsatganini ayting.
3. Orol dengizi maydoni va sho‘rligining turli yillardagi o‘zgarishini chiziqli diagrammada tasvirlang. Ushbu ikki ko‘rsatkich o‘rtasidagi bog‘liqlikni tushuntiring.

UYGA VAZIFA

Sanoat tarmoqlarining atrof-muhitga, ya’ni tuproq, tirik organizmlar, suv, havo va boshqa tabiat komponentlariga ta’sirini yozing. Qaysi sanoat tarmoqlari atrof-muhitga eng zararli chiqindilar chiqarishi, qaysilari nisbatan “toza” ekanini ayting.

T/r	Sanoat tarmoqlari	Atrof-muhitga ta’siri

Ixtiyoriy sanoat tarmog‘ini tanlab, uni hududiy joylashtirishda ekologik omillarni hisobga olish bo‘yicha tavsiyalar bering.

6.3. O‘ZBEKISTONDA REKREATSIYA VA TURIZM

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekistonning rekreatsiya va turizm sohasidagi imkoniyatlarini bilib olasiz hamda mazkur tarmoqlarning mamlakat iqtisodiyotiga ta’sirini misollar bilan ifodalaysiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Mamlakatimiz tabiiy sharoitining xilma-xilligi, boy tarixiy-madaniy merosi rekreatsiya va turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar yaratadi. Bugungi kunda mazkur sohalarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib, yangi mehmonxonalar, transport yo‘llari va dam olish maskanlari barpo etilmoqda. Olib borilayotgan islohotlar hamda transport aloqalarining yaxshilanishi sayyohlar sonining oshishiga ijobiy ta’sir ko‘rsatmoqda. 2022-yilda mamlakatimizga 5,2 mln xorijlik sayyoh tashrif buyurgan bo‘lsa, bu ko‘rsatkich 2024-yilda 8,2 mln kishiga yetdi. Eng ko‘p sayyohlar Qirg‘iziston, Qozog‘iston va Tojikistondan tashrif buyurmoqda.

Rekreatsiya va turizm mamlakat iqtisodiyotida muhim o‘rin egallaydi. Ushbu sohalar xizmat ko‘rsatish tarmoqlarining kengayishiga, transport va savdoning rivojlanishiga, shuningdek, hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotiga ijobiy ta’sir ko‘rsatadi. Ko‘plab rivojlangan mamlakatlarda rekreatsiya va turizm mamlakat yalpi ichki mahsulotida katta ulushga ega.

O‘YLAB KO‘RING

1. Transport va boshqa infratuzilmalarning rivojlanish darajasi turizmning hududiy rivojiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
2. Nima uchun tog‘li hududlarda rekreatsiya va turizm tekisliklarga nisbatan yaxshiroq rivojlanadi?



4-rasm. Ichan qal’a (Xiva)

ILMIY ATAMALAR

Rekreatsiya – insonning mehnat faoliyati natijasida sarflagan kuchi hamda sog‘ligini qayta tiklash va dam olishi bilan bog‘liq faoliyat.

Turizm – insonning doimiy yashash joyidan boshqa hududlarga vaqtincha (uzog‘i bilan bir yil), haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda sayohat qilish jarayoni.

Turizmning mamlakat iqtisodiyoti rivojlanishiga ta’siri quyidagi omillarda namoyon bo‘ladi:

- Xalqaro turizm orqali mamlakatga xorijiy valyuta kirib keladi. Xorijiy sayyohlar ushbu valyutalarni milliy valyutaga ayirboshlaydi yoki mehmonxona, transport, ovqatlanish, savdo va boshqa xizmatlar uchun xorijiy valyutada to‘lov qiladi. Ushbu valyuta tushumlari mamlakatning tashqi savdosida, xususan, import qilinadigan mahsulotlar uchun to‘lovlarni amalga oshirishda muhim ahamiyat kasb etadi.
- Turizmning rivojlanishi iqtisodiyotning boshqa tarmoqlari rivojlanishiga ham turtki bo‘ladi. Turizm transport, savdo, qurilish, hunarmandchilik va xizmat ko‘rsatish sohalari bilan bevosita bog‘liq. Masalan, yangi mehmonxona yoki dam olish maskani qurilishi ish o‘rinlarini yaratsa, sayyohlar oqimining ortishi transport va savdo xizmatlariga bo‘lgan talabni oshiradi.
- Turizm sohasi davlat byudjetiga soliq tushumlarini ko‘paytiradi. Sayyohlarga xizmat ko‘rsatuvchi mehmonxonalar, restoranlar, turistik firmalar va yakka tartibdagi tadbirkorlar turli soliqlar to‘laydi.
- Turizm kichik biznes va tadbirkorlikning rivojlanishiga yordam beradi. Chunki turizm xizmatlarini asosan kichik va o‘rta biznes vakillari bajaradi. Taksi xizmatlari, xonadonlarda tashkil etilgan mehmonxonalar, kichik restoranlar, suvenirlar ishlab chiqarish kabi faoliyat turlari keng rivojlanadi.
- Qishloq hududlarida turizmning rivojlanishi hududiy ijtimoiy-iqtisodiy muammolarni kamaytirishga xizmat qiladi. Bunday hududlarda dam olish maskanlari va turizm obyektlarining tashkil etilishi mahalliy aholi uchun yangi ish o‘rinlarini yaratadi.

Samarqand, Buxoro, Xiva, Shahrisabz, Toshkent, Qo‘qon kabi shaharlardagi qadimgi inshootlar tarixiy-madaniy turizmni keng rivojlantirish imkonini bermoqda (4-rasm). Ushbu shaharlardagi tarixiy obidalarning aksariyati UNESCOning Butunjahon merosi ro‘yxatiga kiritilgan. Ushbu tarixiy obidalar nafaqat mahalliy, balki xorijiy sayyohlarni ham o‘ziga jalb qilmoqda. Muzeylar ham turizm rivojlanishida muhim o‘rin tutadi.

O‘zining betakror tabiati bilan ajralib turadigan tog‘ tizmalari, suv manbalari sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi. Ayniqsa, yoz faslida tekisliklarda yashaydigan aholi dam olish, sayohat maqsadida tog‘li hududlarga boradi. Mamlakatimizda ekoturizm ham ommalashib bormoqda. Ekoturizm – atrof-muhitni muhofaza qilish tamoyillariga amal qilgan holda, tabiatning o‘ziga xos xususiyatga ega manzillariga sayohat qilish. Ekoturizmda alohida muhofaza qilinadigan hududlar, xususan, milliy bog‘lar muhim ahamiyatga ega. Zomin, Zarafshon, Ugom-Chotqol milliy tabiat bog‘lariga ko‘plab sayyohlar tashrif buyuradi. Bunday hududlarda ular tabiat go‘zalliklaridan zavq olish, o‘simliklar va hayvonot olamini o‘rganish imkoniga ega bo‘ladi.

BU QIZIQ!

2024-yilda Fransiya (yiliga 102 mln), Ispaniya (94 mln), AQSH (72 mln), Turkiya (61 mln) mamlakatlariga eng ko‘p sayyoh tashrif buyurgan.

Tog‘larning shifobaxsh va maftunkor tabiatli joylarida davolanish hamda dam olish maskanlari mavjud. Toshkent viloyatidagi “Oqtosh”; Farg‘ona vodiysidagi “Shohimardon”, “Chodak”, “Nanay”, “Bog‘i shamol”, “Chortoq”; Buxoro viloyatidagi “Sitorai Mohi Xosa” hamda Qashqadaryo viloyatidagi “Miroqi” dam olish va davolanish maskanlari xorijda ham mashhur. Ularning aksariyati shifobaxsh mineral buloqlar negizida tashkil etilgan.

So‘nggi yillarda O‘zbekistonda turizm sohasini jadal rivojlantirish maqsadida turistik-rekreatsion zonalar tashkil etilmoqda. Turistik-rekreatsion zona – turizmni rivojlantirish uchun maxsus sharoitlar yaratilgan hudud. Bunday hududlarda tadbirkorlar va investorlar uchun soliq hamda bojxona imtiyozlari beriladi. Mamlakatimizda tashkil etilgan turistik–rekreatsion zonalarga “Chorvoq”, “Samarqand siti”, “Zomin” kabi hududlarni misol qilib keltirish mumkin. Ushbu zonalarda zamonaviy turizm inshootlari barpo etilib, sayyohlarga qulay va sifatli xizmatlar ko‘rsatish yo‘lga qo‘yilmoqda.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Agar siz kelajakda tabiat qo‘ynida sayyohlarga xizmat ko‘rsatish markazi ochmoqchi bo‘lsangiz, qaysi hududni tanlagan bo‘lar edingiz? O‘zbekiston tabiiy xaritasidan foydalanib hududning tabiiy sharoiti, rekreatsion va turistik salohiyati, transport yo‘llaridan foydalanish imkoniyatlarini tahlil qiling. Topshiriqni kichik guruhlarda bajaring.
2. Rekreatsiya va turizm rivojlanishi tufayli vujudga kelgan kasblarga misollar keltiring. Bu kasb egalari uchun qanday bilimlar zarur?
3. Ochiq statistik manbalardan foydalanib mamlakatimizga so‘nggi 10 yilda tashrif buyurgan xorijiy sayyohlar soni haqida ma’lumot to‘plang. Ushbu ma’lumotlarni chiziqli diagrammada tasvirlang. Sayyohlar soni qaysi yillarda eng kam va eng ko‘p bo‘lganini aniqlang hamda buning sabablarini tushuntiring.

UYGA VAZIFA

1. Turizmning hududlar va mahalliy aholi hayot tarziga iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy, ekologik ta’sirlarini yozing.

Turizmning ta’sirlari	Ijobiy	Salbiy
Iqtisodiy ta’sir		
Ijtimoiy ta’sir		
Madaniy ta’sir		
Ekologik ta’sir		

2. “Men yashaydigan hududda rekreatsiya va turizmni rivojlantirish imkoniyatlari” mavzusida kichik loyiha tayyorlang.

VII BOB

O‘ZBEKISTONNING HUDUDIY TAVSIFI



USHBU BOBDA QUYIDAGI MAVZULARNI O‘RGANASIZ:

7.1. O‘zbekiston iqtisodiyotining hududiy tashkil etilishi
7.2. Toshkent shahri
7.3. Toshkent viloyati
7.4. Farg‘ona viloyati
7.5. Andijon viloyati
7.6. Namangan viloyati
7.7. Amaliy mashg‘ulot
7.8. Sirdaryo viloyati
7.9. Jizzax viloyati
7.10. Samarqand viloyati
7.11. Amaliy mashg‘ulot
7.12. Navoiy viloyati
7.13. Buxoro viloyati
7.14. Qashqadaryo viloyati
7.15. Surxondaryo viloyati
7.16. Xorazm viloyati
7.17. Qoraqalpog‘iston Respublikasi
7.18. Umumlashtiruvchi dars

7.1. O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTINING HUDUDIY TASHKIL ETILISHI

DARS DAVOMIDA

- hududiy mehnat taqsimoti jarayoni, hududiy ixtisoslashuv va unga ta’sir etuvchi omillar mohiyatini tushunib olasiz;
- O‘zbekistonning iqtisodiy rayonlashtirilishi haqida bilib olasiz;
- hududlarning muayyan mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqarishga ixtisoslashuv koeffitsiyentini hisoblashni o‘rganasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Muayyan hudud – shahar, tuman yoki viloyatda aholining ehtiyojlarini to‘liq qondira oladigan darajada barcha zarur bo‘lgan mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarish mumkinmi? Fikringizni izohlang.

O‘zbekistondagi har bir hudud – viloyat, tuman, shahar, shaharcha, qishloq, mahallada turli mahsulot ishlab chiqaradigan va xizmatlar ko‘rsatadigan korxona, xo‘jalik, tashkilot va yakka tartibdagi tadbirkorlar faoliyat yuritadi. Ularning iqtisodiy faoliyati natijasida tegishli hududda ayrim turdagi mahsulot va xizmatlar ko‘proq, boshqalari esa kamroq miqdorda ishlab chiqariladi. Mahalliy aholining ehtiyojlariga nisbatan ortiqroq hajmda ishlab chiqarilgan mahsulot va xizmatlar tashqi bozorga yo‘naltiriladi. O‘z navbatida, ushbu hududda ishlab chiqarilmaydigan yoki kam miqdorda ishlab chiqariladigan mahsulot va ko‘rsatiladigan xizmat turlari tashqaridan olib kiriladi. Shu tarzda kechadigan iqtisodiy geografik jarayon **hududiy mehnat taqsimoti** deb ataladi va buning natijasida har bir hududning **ixtisoslashuvi** shakllanadi.

ILMIY ATAMALAR

Hududiy mehnat taqsimoti – hududlarning turli mahsulot va xizmatlarni ishlab chiqarishga ixtisoslashuvi hamda tegishli mahsulot va xizmatlar bilan o‘zaro almashinuvi.

Hududiy ixtisoslashuv – ishlab chiqariladigan mahsulot va xizmatlari katta miqdorda boshqa hududlarga olib chiqiladigan mahalliy iqtisodiyot tarmoqlari.

Ma’lumki, ishlab chiqarish jarayoniga bir nechta omil ta’sir ko‘rsatadi. Ularga, xususan, tabiiy sharoit va resurslar, ishchi kuchi, texnologiya va texnika, moliyaviy resurslar kiradi. Ishlab chiqarishning turli tarmoqlari uchun ushbu omillarning ahamiyati turlicha,



1-rasm. Hududiy ixtisoslashuv omillari

shu bois ularning hammasi hududning ixtisoslashuviga ta’sir ko‘rsatadi (1-rasm). Muayyan hududning xo‘jalik ixtisoslashuvi uning turli ishlab chiqarish omillari bilan ta’minlanganlik darajasidan kelib chiqadi. Qolaversa, u boshqa hududlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirish imkoniyatlari, ya’ni **geografik o‘rnining qulayligi**ga ham bog‘liqdir.

Hududiy mehnat taqsimoti natijasida mamlakatning milliy iqtisodiyoti tizimida ixtisoslashuvi jihatidan o‘zaro farqlanuvchi yirik hududlar – **iqtisodiy rayonlar** shakllanadi. O‘zbekistonda 6 ta iqtisodiy rayon ajratiladi (2-rasm).



2-rasm. O‘zbekistonning iqtisodiy rayonlashtirilishi xaritasi

Hududning muayyan mahsulot yoki xizmatni ishlab chiqarishga ixtisoslashuv darajasini aniqlash uchun turli usullar bilan topiladigan koeffitsiyentlar yordam beradi. Ixtisoslashuv koeffitsiyenti ko‘pincha hududning mamlakatda tegishli mahsulotni ishlab chiqarishdagi ulushini uning mamlakat jami aholisi sonidagi salmog‘iga bo‘lish orqali aniqlanadi:

$$K_{IXT} = \frac{\text{Hududning mamlakatda tegishli mahsulot (xizmat)ni ishlab chiqarishdagi ulushi}}{\text{Hududning mamlakat jami aholisi sonidagi salmog‘i}}$$

Bunday yo‘l bilan aniqlangan koeffitsiyent 1,0 dan yuqori bo‘lganda hudud tegishli mahsulot (xizmat)ni ishlab chiqarishga ixtisoslashgan deb e’tirof etiladi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Nima sababdan mamlakat milliy iqtisodiyotida hududiy mehnat taqsimoti jarayoni vujudga kelgan?
2. Sizningcha, hududlarning qaysi iqtisodiyot tarmoqlariga ixtisoslashuvida tabiiy iqlim sharoiti, mineral resurslar, malakali mutaxassislar bilan ta’minlanganlik omillari katta ahamiyatga ega?
3. O‘zbekiston qaysi iqtisodiy rayonlarga bo‘linadi?
4. Samarqand viloyatida O‘zbekiston aholisining 11,4 foizi istiqomat qilgan holda, 7,2% paxta, 20,1% kartoshka, 15,4% tuxum yetishtirilishini hisobga olib, viloyatning tegishli qishloq xo‘jaligi tarmoqlariga ixtisoslashuv koeffitsiyentini hisoblang.

UYGA VAZIFA

2-rasmdagi xaritadan iqtisodiy rayonlarning elektr energiyasi va gazlamalar ishlab chiqarish, sabzavot va go‘sht yetishtirishdagi ulushini aniqlang. Respublika aholisi salmog‘ini hisobga olib (3-rasmda ko‘rsatilgan), har bir iqtisodiy rayonning tegishli mahsulotlarni ishlab chiqarish (yetishtirish)ga ixtisoslashuv koeffitsiyentini hisoblang. Sanoat va qishloq xo‘jaligining tegishli tarmoqlariga ixtisoslashgan iqtisodiy rayonlarni ajrating.



3-rasm. O‘zbekiston aholisining iqtisodiy rayonlar bo‘yicha taqsimlanishi (01.01.2025-y.)

7.2. TOSHKENT SHAHRI



DARS DAVOMIDA

- Toshkent shahrining geografik o‘rni, ma’muriy-hududiy tuzilishi va iqtisodiyoti bilan tanishasiz;
- Toshkent shahri rivojlanishining o‘ziga xos xususiyatlari va ichki tafovutlarini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI. Toshkent 1930-yildan buyon mamlakatimiz poytaxti, yirik iqtisodiy, madaniy markaz. Ma’muriy-hududiy jihatdan 12 ta tumandan iborat (01.01.2025-y., 5-rasm). Shuningdek, Ulug‘bek shaharchasi Toshkent shahri tarkibiga kiradi.

O‘YLAB KO‘RING

Toshkent shahrining iqtisodiy jihatdan jadal rivojlanayotgani qanday omillar bilan bog‘liq?

Toshkent shahri mamlakatimizning shimoli-sharqiy qismida, G‘arbiy Tyanshan tog‘lari etagida, Chirchiq daryosi vodiysida joylashgan. Shahar relyefi shimoli-sharqdan (470–500 m) janubi-g‘arbga (400–420 m) tomon pasayib boradi. Chirchiq daryosi shaharning sharqiy qismidan oqib o‘tadi. Ushbu daryodan suv oladigan Bo‘zsuv, Qoraqamish, Salor, Bo‘rijar, Anhor, Qorasuv kanallari shaharni suv bilan ta’minlashda muhim ahamiyatga ega.

Toshkent shahrining rivojlanishiga uning geografik o‘rni katta ta’sir ko‘rsatgan. O‘tgan asrda xalqaro ahamiyatdagi temiryo‘l va avtomobil magistrallarining qurilishi



4-rasm. Toshkent shahrining kosmik surati: a) 1991-yildagi, b) 2020-yildagi



5-rasm. Toshkent shahri plani

Toshkentni yirik iqtisodiy markazga aylantirgan. Buning ta'sirida respublikamizdagi dastlabki oliy o'quv yurtlari aynan Toshkentda tashkil etilgan. Natijada shahar yirik ilmiy-madaniy markaz sifatida ham shakllandi.

Jadal iqtisodiy rivojlanish, aholi sonining ko'payishi va shaharga tutash hududlarda urbanizatsiya jarayonining rivojlanishi natijasida Toshkent shahri kengayib bormoqda (4-rasm). Shaharning shimoli-sharqiy qismida, Chirchiq daryosining chap sohilida "aqlli shahar" prinsiplari asosida Yangi Toshkent shahri bunyod etilmoqda.

AHOLISI. Toshkent shahri aholi soniga ko‘ra Markaziy Osiyoda birinchi o‘rinda turadi. Shahar aholisi, 2025-yil 1-yanvar holatiga ko‘ra, 3113 ming kishini tashkil qiladi (O‘zbekiston aholisining 8,3 % i). Aholining o‘rtacha zichligi 1 km² ga 7156 kishiga teng. Shahar aholisi tarixiy davrlar davomida ko‘payib borgan (6-rasm). Toshkent shahrida aholining yillik o‘sishi 1,7% ga teng bo‘lib, bu mamlakatimizdagi o‘rtacha ko‘rsatkichga nisbatan pastroq. So‘nggi yillarda Toshkent shahri aholisining ko‘payishi tabiiy ko‘payish, aholi migratsiyasi hamda Toshkent viloyatining Qibray, Zangiota va Toshkent tumanlari hududlarining bir qismi shahar tarkibiga kiritilishi hisobiga yuz bermoqda. Toshkent shahrida yashovchi asosiy millat vakillari o‘zbeklardir, keyingi o‘rinda esa ruslar turadi.



6-rasm. Toshkent shahri aholisi soni dinamikasi (ming kishi, yil boshiga)

IQTISODIYOTI VA ICHKI TAFOVUTLARI. Toshkent shahrining mamlakatimiz yalpi ichki mahsuloti (YIM) hamda sanoatidagi ulushi deyarli 20% ni tashkil etadi. Toshkent shahri yirik sanoat markazi bo‘lib, asosiy sanoat tarmoqlariga mashinasozlik va metallni qayta ishlash, metallurgiya, yengil va oziq-ovqat, kimyo va neft-kimyo sanoatlari kiradi. Hududda Toshkent qishloq xo‘jaligi texnikasi zavodi, Toshkent metallurgiya zavodi, Toshkent mexanika zavodi va boshqa ko‘plab yirik korxonalar joylashgan. “Artel” kompaniyasi sifatli maishiy texnikalar ishlab chiqarish bilan nom taratgan. Shahar energetikasida Chirchiq-Bo‘zsuv gidroelektrostansiyalar kaskadi, Toshkent IEM va Toshkent IESi muhim o‘rin egallaydi. Sanoat ishlab chiqarish hajmiga ko‘ra Yashnobod, Bektemir, Sergeli, Chilonzor tumanlari oldingi o‘rinlarda turadi.



7-rasm. Toshkent shahrida zamonaviy usulda qurilgan ko‘p qavatli uylardan iborat turarjoy massivlari

Toshkent shahri muhim transport tugunidir. Hududdan Markaziy Osiyo mamlakatlarini bog‘laydigan muhim transport yo‘llari o‘tadi. Toshkent shahrida avtovokzal, 2 ta temiryo‘l vokzali, xalqaro aeroport mavjud. Yo‘lovchilarni tashuvchi transport turlari orasida metropolitenning hissasi katta. So‘nggi yillarda ushbu transport tarmog‘i kengaytirilmoqda.

Toshkent shahrining poytaxtligi va aholisining ko‘pligi hududda ta’lim, sog‘liqni saqlash, savdo, maishiy xizmat va boshqa ijtimoiy sohalar yuqori darajada rivojlanishiga sabab bo‘lgan. Hududda O‘zbekiston Fanlar akademiyasi, o‘nlab ilmiy tadqiqot institutlari, ko‘plab oliy ta’lim muassasalari, zamonaviy maktab, akademik litsey va kasb-hunar maktablari, bir qancha teatr va konsert zallari, sirk, zamonaviy stadionlar mavjud.

Toshkent ko‘plab diqqatga sazovor joylar, tarixiy-madaniy binolarga ham boy. Islom sivilizatsiyasi markazi, Teleminora, “Tashkent City” (7-rasm), “Magic City”, “Yangi O‘zbekiston” bog‘i, “Botanika” bog‘i, madaniyat va istirohat bog‘lari, parklar va boshqa obyektlar ko‘plab sayyohlarni o‘ziga jalb qilmoqda.

Toshkent shahri tumanlari iqtisodiy va demografik ko‘rsatkichlariga ko‘ra bir-biridan farq qiladi. Bunga tumanlarning joylashuvi (shahar markazi yoki chekka qismida ekanligi), tarixiy rivojlanish xususiyatlari, hududiy ixtisoslashuvi, transport tizimi, migratsiya va shahar rejasi kabi omillar ta’sir ko‘rsatgan. Shahardagi turarjoylarning joylashuvida ham o‘ziga xos xususiyatlar bor. Uzoq davrlar davomida shakllangan madaniy hayotni saqlab qolgan mahallalar shaharning shimoli-g‘arbiy hududlari (Eski shahar)da uchraydi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining https://stat.uz/ vebsaytidan “Ochiq ma’lumotlar” tarkibidagi “Demografiya” bo‘limidan “Ko‘chib kelganlar soni (jami)” va “Ko‘chib ketganlar soni (jami)” nomli jadvallarni yuklab oling. Ulardan foydalanib so‘nggi 3 yilda Toshkent shahriga ko‘chib kelganlar soni, undan ko‘chib ketganlar soni va migratsiya saldosini aniqlang.
2. 4-rasm yoki “Google Earth” ilovasida berilgan turli yillardagi kosmik suratlardan foydalanib Toshkent shahri hududi qaysi yo‘nalishlarda kengayib borganini aniqlang. Shahar kengayishining ijobiy va salbiy jihatlarini tahlil qiling. Sizningcha, Yangi Toshkent shahri qurilganidan so‘ng poytaxtdagi muammolar (tirbandlik, havo ifloslanishi, ijara narxlarining ko‘tarilishi va boshqalar) kamayadimi? Javobingizni asoslang.
3. Ko‘plab yirik sanoat korxonalari Toshkent shahrining chekka qismlarida joylashganiga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan deb o‘ylaysiz?

UYGA VAZIFA

1. O‘zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo‘mitasining https://stat.uz/ vebsaytidan foydalanib Toshkent shahrining qaysi tumanlari sanoat ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha yetakchi, qaysi tumanlari so‘nggi o‘rinlarni egallashini aniqlang va buning sabablarini tahlil qiling.
2. Agar siz Toshkent shahri bo‘ylab sayohat uyushtirsangiz, qaysi obyektlarga borasiz? Ularning ro‘yxatini shakllantirib, sayohat marshrutini yozuvsiz xaritaga belgilang yoki daftaringizga xarita-sxema shaklida chizing.

7.3. TOSHKENT VILOYATI



DARS DAVOMIDA

- Toshkent viloyatining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va iqtisodiyoti bilan tanishasiz;
- Toshkent viloyati xo‘jaligi ixtisoslashuviga tabiiy sharoit va resurslar hamda Toshkent shahrining ta’sirini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI. Toshkent viloyati mamlakatimizning shimoli-sharqiy qismida joylashgan. Hudud shimol va shimoli-g‘arbdan Qozog‘iston, shimoli-sharqdan Qirg‘iziston, sharqdan Namangan viloyati, janubdan Tojikiston, janubi-g‘arbdan Sirdaryo viloyati bilan chegaradosh. Chegaralarning katta qismi tabiiy obyektlar – Sirdaryo va tog‘ tizmalari orqali o‘tadi. Toshkent viloyatining iqtisodiy geografik o‘rni qulay bo‘lib, hududdan mamlakatimizni xorijiy mamlakatlar, boshqa viloyatlarni Farg‘ona vodiysi bilan bog‘laydigan asosiy transport yo‘llari o‘tadi. Mamlakatimiz poytaxti shu hududda joylashgani viloyatning iqtisodiy rivojlanishida muhim o‘rin tutadi (8-rasm).

Toshkent viloyati ma’muriy-hududiy tuzilishiga ko‘ra 15 ta tumanga bo‘linadi. Viloyatda 16 ta shahar, 89 ta shaharcha mavjud (01.01.2025-y.).

O‘YLAB KO‘RING

Toshkent viloyati O‘zbekiston ma’muriy-hududiy birliklari orasida shaharlar va shaharchalar soniga ko‘ra oldingi o‘rinlarda turadi. Sizningcha, bunga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan?

TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI. Toshkent viloyatining shimoliy, shimoli-sharqiy qismlarida G‘arbiy Tyanshanning tarmoqlari – Ugom, Piskom, Qorjantov, Chotqol, Qurama tizmalari hamda tog‘ oraliq botiqlari joylashgan. Ugom va Piskom tizmalaridagi mutlaq balandligi 4000 m dan ortiq bir nechta cho‘qqilarda tog‘ muzliklari mavjud. Viloyatning katta qismi tog‘oldi tekisliklaridan iborat. Viloyat hududi shimoli-sharqdan janubi-g‘arbga, ya’ni Sirdaryoga tomon pasayib boradi. Viloyatning janubiy qismida Dalvarzin cho‘li joylashgan.

Toshkent viloyati foydali qazilmalarga boy. Hududda oltin, mis, alyuminiy, qo‘ng‘ir ko‘mir, qurilish materiallarining yirik konlari mavjud. Angren mamlakatimizdagi eng yirik ko‘mir konidir. Qizilolma, Ko‘chbuloq oltin, Qalmoqqir, Dalneye, Saricheku mis qazib olinadigan yirik konlar hisoblanadi. Viloyatning turli foydali qazilmalarga boyligi sanoatni yuqori darajada rivojlantirish imkonini beradi.

Viloyatdagi Chirchiq va Ohangaron daryolarining xo‘jalikdagi ahamiyati katta. Ushbu daryolardan yerlarni sug‘orish maqsadida bir qancha kanallar o‘tkazilgan. Chirchiq



8-rasm. Toshkent viloyatining iqtisodiy xaritasi

daryosi gidroenergetika resurslariga boy. Relyefning nishabligi va suv manbalarining mavjudligi yerlarni sug'orish uchun qulay sharoit yaratadi. Suv resurslaridan samarali foydalanish uchun Chirchiq daryosida Chorvoq, Ohangaron daryosida Tuyabo'g'iz, Ohangaron suv omborlari qurilgan.

AHOLISI. Toshkent viloyatining aholisi soni, 01.01.2025-yil holatiga ko'ra, 3109 ming kishini tashkil etadi. Aholining o'rtacha zichligi 1 km^2 hududga 205 kishiga teng. Chirchiq va Ohangaron vodiylarida, tog'oldi tekisliklarida aholi zich joylashgan, viloyatning baland tog'li hududlarida esa aholi zichligi yuqori emas.

Toshkent shahri atrofida o'ndan ortiq shaharlar va o'nlab shaharchalar Toshkent aglomeratsiyasini shakllantirgan. Aglomeratsiya tarkibidagi aholi punktlari asosan Chor-

voqdan Sirdaryogacha bo‘lgan oraliqdagi yo‘llar atrofida joylashgan. Toshkent viloyati aholisining turmush tarziga Toshkent shahrining ta’siri katta. Viloyatdagi ko‘p aholining ish, ta’lim va turli ijtimoiy xizmatlar uchun Toshkent shahriga qatnashi tebranma (mayatniksimon) migratsiyani shakllantiradi.

Viloyatning urbanizatsiya darajasi 50% ni tashkil etadi. Angren, Olmaliq, Chirchiq, Bekobod aholi soniga ko‘ra katta shaharlar, Parkent, Yangiyo‘l, Nurafshon o‘rta shaharlar guruhiga kiradi.

IQTISODIYOTI VA ICHKI TAFOVUTLARI. Toshkent viloyatining sanoati yaxshi rivojlangan. 2024-yilda viloyat mamlakatimizdagi sanoat mahsulotlarining deyarli 16% ini ishlab chiqargan. Viloyat sanoatining tarmoqlar tarkibida metallurgiya, mashinasozlik va metallni qayta ishlash, elektr energetikasi, oziq-ovqat va kimyo sanoatlari asosiy o‘rinni egallaydi. Olmaliq kon-metallurgiya kombinati, Chirchiq shahridagi “Maksam-Chirchiq” korxonasi, Bekobod shahridagi “O‘zmetkombinat” korxonasi mamlakatimiz iqtisodiyotida muhim o‘rin tutadi. Viloyatda qurilish materiallari sanoati ham yaxshi rivojlangan. Bekobod, Ohangaron, Angren shaharlarida sement ishlab chiqaradigan yirik korxonalar bor.

Toshkent viloyati qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha mamlakatimizda oldingi o‘rinlarda turadi. Toshkent shahriga tutash tumanlarda shahar atrofi xo‘jaligi tarmoqlari – sabzavotchilik, bog‘dorchilik va parrandachilik yaxshi rivojlangan. Viloyatning shimoli-sharqiy qismlaridagi tog‘li tumanlarda lalmikor dehqonchilik va tog‘-yaylov chorvachiligi, janubi-g‘arbiy qismidagi tog‘oldi tekisligidagi tumanlarda paxtachilik va donchilik yaxshi rivojlangan.

Toshkent viloyatining tog‘li hududlari, ayniqsa, Bo‘stonliq va Parkent tumanlarida rekreatsiya va turizmni rivojlantirish uchun katta imkoniyatlar bor. Sayyohlarni qabul qilishda Chorvoq turistik-rekreatsion zonasi alohida ahamiyat kasb etadi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Tabiiy xaritadan foydalanib Toshkent viloyati chegaralari qaysi daryo va tog‘ tizmalaridan o‘tishini va ular orqali viloyat qaysi hududlar bilan chegaralanishini aniqlang.
2. Toshkent viloyatining iqtisodiy xaritasidan foydalanib viloyat qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuviga tabiiy sharoitning ta’sirini tushuntiring.
3. Toshkent viloyatining iqtisodiy xaritasidan foydalanib turli sanoat tarmoqlarining qaysi shaharlarda rivojlanganini aniqlang va ma’lumotlarni jadval ko‘rinishida daftaringizga yozing.

UYGA VAZIFA

1. 8-rasmdagi xaritadan foydalanib Toshkent aglomeratsiyasi tarkibiga kiradigan shaharlar va shaharchalar ro‘yxatini tuzing.
2. Toshkent viloyati va Toshkent shahri o‘rtasidagi tebranma (mayatniksimon) migratsiyaning sabablari va iqtisodiy-ijtimoiy oqibatlarini tahlil qiling.

7.4. FARG‘ONA VILOYATI



DARS DAVOMIDA

- Farg‘ona viloyatining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va iqtisodiyoti bilan tanishasiz;
- Farg‘ona viloyati xo‘jaligi ixtisoslashuviga tabiiy sharoit va resurslarning ta’sirini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI. Farg‘ona viloyati O‘zbekistonning sharqida, Farg‘ona vodiysining janubiy qismida joylashgan. Viloyat janub va janubi-sharqda Qirg‘iziston, g‘arbda Tojikiston, shimolda Namangan viloyati, shimoli-sharqda Andijon viloyati bilan chegaradosh. Viloyat hududidan Toshkent–Qo‘qon avtomagistrali hamda mamlakatimizni Qirg‘iziston va Xitoy bilan bog‘lovchi transport yo‘llari o‘tgani muhim ahamiyatga ega.

Viloyat tarkibiga 15 ta tuman, 9 ta shahar (4 tasi – Farg‘ona, Marg‘ilon, Quvasoy va Qo‘qon – viloyatga bo‘ysunuvchi) kiradi (01.01.2025-y.). Viloyat hududiy tuzilishining o‘ziga xos xususiyati shundaki, uning tarkibida So‘x va Shohimardon eksklav hududlar mavjud.

O‘YLAB KO‘RING

Farg‘ona viloyati maydoni jihatidan nisbatan kichik bo‘lsa-da, aholisining soni va zichligi bo‘yicha mamlakatda oldingi o‘rinlarda turadi. Bunday xususiyat viloyat iqtisodiyoti uchun qanday imkoniyatlar yaratadi va qanday muammolarni keltirib chiqarishi mumkin?

ILMIY ATAMALAR

Eksklav (lotincha “ex” – ...dan tashqari, “clavis” – kalit) – muayyan davlatning asosiy hududidan ajralgan va boshqa davlat(lar) hududi bilan o‘ralgan qismi.

TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI. Farg‘ona viloyati Farg‘ona tog‘ oraliq botig‘ida joylashgan bo‘lib, hududining katta qismi tog‘oldi tekisliklari va adirlardan iborat. Viloyatni janub tomondan Oloy va Turkiston tizmalari o‘rab turadi. Tog‘ tizmalarida joylashgan viloyat eksklavlarida mutlaq balandlik 2000 m dan oshadi. Viloyatning asosiy hududi janubdan (600–1200 m) shimolga (370–400 m) tomon pasayib boradi. Shimoliy qismida Qoraqalpoq va Yozyovon cho‘llari joylashgan. Ushbu cho‘llar sug‘orma dehqonchilik maqsadida o‘zlashtirilgan (9-rasm).



9-rasm. Farg'ona viloyatining iqtisodiy xaritasi

Viloyatning shimoli-g'arbiy qismidan, Tojikiston bilan chegara bo'ylab Sirdaryo oqib o'tadi. Katta Farg'ona, Janubiy Farg'ona kanallari hamda janubdagi tog' tizmalaridan boshlanadigan daryo va soylar viloyat xo'jaligida muhim ahamiyatga ega. Janubdagi tog' tizmalaridan boshlanadigan So'x, Isfara, Isfayramsoy, Shohimardonsoy kabi daryo va soylar konussimon yoyilmalarni hosil qilgan. Bunday joylar dehqonchilik uchun unumdor yotqiziqlardan iborat bo'lib, qadimdan o'zlashtirilgan. Konussimon yoyilmalarda ko'plab ariqlar, kanallar nishablik yo'nalishida, o'ziga xos tarzda qazilgan.

Farg'ona viloyatida foydali qazilmalardan neft, tabiiy gaz va qurilish materiallari konlari bor. Ular asosan viloyatning janubiy qismida, tog' yonbag'irlari va adirlarda joylashgan. Mamlakatimizdagi birinchi ishga tushirilgan neft koni – Chimyon ham aynan Farg'ona viloyatida.

AHOLISI. Farg‘ona viloyatida mamlakat aholisining 11 % i yashaydi. Farg‘ona aholi sonining ko‘pligiga ko‘ra mamlakatda Samarqand viloyatidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Aholining o‘rtacha zichligi 1 km^2 ga 613 kishiga to‘g‘ri keladi (01.01.2025-y.). Bu ko‘rsatkich bo‘yicha mamlakatda Andijon viloyatidan keyin ikkinchi o‘rinda turadi.

Farg‘onaning urbanizatsiya darajasi 56,8% ni tashkil etadi. Aholi soniga ko‘ra Farg‘ona va Qo‘qon yirik shaharlar, Marg‘ilon katta shaharlar, Quvasoy va Quva o‘rta shaharlar guruhiga kiradi. Viloyatda yashovchi asosiy millat vakillari o‘zbeklardir, keyingi o‘rinda esa tojiklar turadi.

IQTISODIYOTI VA ICHKI TAFOVUTLARI. Farg‘ona viloyati yalpi hududiy mahsulot hajmiga ko‘ra qo‘shni Namangan va Andijon viloyatlaridan oldinda turadi. Hudud respublika miqyosida qurilish materiallari va yengil sanoatga ixtisoslashgan. Shuningdek, viloyatda oziq-ovqat, kimyo va neft-kimyo, yoqilg‘i, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatlari ham rivojlangan. Farg‘onadagi “Farg‘onaazot” va neftni qayta ishlash korxonalari, Quvasoy sement zavodi respublika ahamiyatiga ega bo‘lgan yirik korxonalar hisoblanadi. Elektr energetikasi sanoatida Farg‘ona IEMi muhim ahamiyatga ega.

Farg‘ona viloyati donli ekinlar, meva va sabzavotlar yetishtirishda mamlakatimizda oldingi o‘rinlarda turadi. Viloyatdagi deyarli barcha sug‘oriladigan yerlarda asosan paxtachilik, donchilik va sabzavotchilik bilan shug‘ullaniladi. Shuningdek, hududning shimoliy qismlarida polizchilik, janubiy qismlarida bog‘dorchilik va uzumchilik yaxshi yo‘lga qo‘yilgan. Viloyatning janubiy qismidagi tog‘oldi hududlari va adirlarda tog‘-yaylov chorvachiligi, chekka shimoliy qismidagi cho‘llarda esa cho‘l-yaylov chorvachiligi yo‘lga qo‘yilgan.

Farg‘ona viloyatining janubiy qismidagi tog‘ tizmalarining turizm va rekreatsiyadagi ahamiyati katta. Bu borada baland tog‘ tizmalarida joylashgan eksklav hududlar alohida ahamiyatga ega.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Farg‘ona viloyatining iqtisodiy xaritasidan foydalanib Farg‘ona va Qo‘qon shaharlarida rivojlangan asosiy sanoat tarmoqlarini aniqlang. Ularning sanoat ixtisoslashuvini taqqoslang va bu ixtisoslashuvga qanday omillar sabab bo‘lganini tushuntiring.
2. Farg‘ona viloyatining eksklav hududlarini xaritadan toping. Ushbu hududlarni iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirishda qanday imkoniyatlar va muammolar mavjudligini tahlil qiling.

UYGA VAZIFA

1. Farg‘ona viloyati va mamlakatimizdagi aholining o‘rtacha zichligini ustunli diagrammada tasvirlang. Farg‘ona viloyatida aholi zich joylashganining kamida 3 ta sababini yozing.
2. “Google Earth” ilovasidan foydalanib Farg‘ona viloyatidagi konussimon yoyilmalarni kuzating. Ularning ichida eng yirigi qaysi daryoda hosil bo‘lganini aniqlang. Konussimon yoyilmalarning qishloq xo‘jaligidagi ahamiyatini va ixtisoslashuvga ta’sirini tushuntiring.

7.5. ANDIJON VILOYATI



DARS DAVOMIDA

- Andijon viloyatining geografik o‘rni, tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy sharoiti bilan tanishasiz;
- Andijon viloyatining O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida tutgan o‘rnini baholaysiz va ichki ijtimoiy-iqtisodiy tafovutlarini tahlil qilasiz;
- iqtisodiy xaritalardan ma’lumot manbayi sifatida foydalanishni o‘rganasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Andijon viloyati aholi zichligi ancha yuqori bo‘lgan hudud hisoblanadi. Bunga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan deb o‘ylaysiz?

GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI. Andijon viloyati O‘zbekistonning chekka sharqiy qismida joylashgan. U shimoli-sharq va janubi-sharqda Qirg‘iziston, shimoli-g‘arbda Namangan viloyati, janubi-g‘arbda esa Farg‘ona viloyati bilan chegaralanadi. Iqtisodiy geografik o‘rni mamlakatimizning chekka qismida joylashgani, ayni vaqtda, qo‘shni Qirg‘iziston, u orqali esa Xitoy bilan transport va savdo aloqalarini amalga oshirish qulayligi bilan tavsiflanadi. Viloyat tarkibiga 14 ta tuman, 11 ta shahar (2 tasi – Andijon va Xonobod viloyatga bo‘ysunadi) kiradi (01.01.2025-y.).

TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI. Viloyat hududining relyefi asosan tekislik va adirlardan iborat bo‘lib, g‘arbdan sharqqa tomon asta ko‘tarilib boradi. Hududning markaziy qismini shimoli-sharqdan janubi-g‘arbga tomon cho‘zilgan adirliklar zanjiri (Teshiktosh, Andijon, Asaka, Qoraadir adirlari) kesib o‘tgan. Foydali qazilmalarga Andijon viloyati unchalik boy emas. Bu yerda neft, tabiiy gaz, qurilish xomashyosining kichik konlari mavjud (10-rasm).

Andijon viloyatining eng muhim tabiiy boyliklari unumdor tuprog‘i va suv manbalaridir. Qoradaryo viloyat hududini sharqdan g‘arbga tomon kesib o‘tadi. Qoradaryoda Andijon suv ombori va shu nomdagi GES qurilgan. Viloyatning chekka qismlarida Oqbura, Moylisuv, Tentaksoy va Aravansoy daryolarining etaklari joylashgan. Norindan to‘yinadigan Katta Farg‘ona va Katta Andijon kanallari hamda Qoradaryodan suv oladigan Janubiy Farg‘ona kanali viloyat hududidan oqib o‘tadigan yirik kanallardan hisoblanadi.

AHOLISI. Viloyat aholi soni bo‘yicha respublikada 4-o‘rinda turadi. Doimiy aholisining soni 2020–2025-yillar davomida yiliga o‘rtacha hisobda 2,1% ga ko‘payib borgan.

Andijon viloyatida aholi zichligi, 01.01.2025-yil holatiga ko‘ra, 1 km² da 805 kishiga to‘g‘ri keladi (O‘zbekiston viloyatlari orasida eng yuqori ko‘rsatkich).



10-rasm. Andijon viloyatining iqtisodiy xaritasi

Viloyatda shahar aholisining ulushi 52 % ni tashkil etadi va bu ko'rsatkich bo'yicha u respublikada 3-o'rinda turadi. Andijon shahri respublika shaharlari orasida aholi soni bo'yicha 4-o'rinda turadi (492,4 ming kishi, 01.01.2025-y.). Shahrixon va Asaka shaharlari o'rta, viloyatning qolgan shaharlari esa kichik shaharlar toifasiga kiradi.

Andijon viloyati qishloqlari yirikligi bilan alohida ajralib turadi (viloyatdagi 1 ta qishloqqa o'rtacha hisobda 3500 kishidan ortiq aholi to'g'ri keladi).

STATISTIK FAKT

O'zbekistondagi 163 ta qishloq tumanidan, 01.01.2025-yil holatiga ko'ra, 3 tasida aholi zichligi 1000 kishi / km^2 dan oshadi. Ulardan 2 tasi – Asaka (1341 kishi / km^2) va Shahrixon (1142 kishi / km^2) tumanlari – Andijon viloyatida joylashgan. Yana bittasi esa Toshkent viloyatining Toshkent tumanidir (1276 kishi / km^2).

IQTISODIYOTI VA ICHKI TAFOVUTLARI. Andijon sanoatning rivojlanish darajasi bo'yicha O'zbekiston hududlari orasida yetakchi viloyatlardan biridir. Viloyatda sanoat tarmoqlaridan respublika miqyosida asosan mashinasozlik (respublika bo'yicha tarmoq mahsulotining deyarli 1/3 qismi; hududlar orasida 1-o'rin, 2024) va yengil sanoat (13,4 %;

1-o‘rin, 2024) rivojlangan. Mashinasozlik viloyat sanoatining eng yirik tarmog‘i hisoblanib, jami sanoat mahsulotining 60 foizidan ko‘proq qismi uning ulushiga to‘g‘ri keladi. Bunga, albatta, Asaka avtomobil zavodi va unga avtomobil ehtiyot qismlarini yetkazib beruvchi sanoat korxonalari katta ta’sir ko‘rsatadi. Shu bois viloyat sanoatining hududiy tarkibida Asaka tumani alohida o‘rin (50 % dan ziyod, 2024) egallaydi. Sanoatning rivojlanishi bilan Andijon va Xonobod shaharlari hamda Xo‘jaobod tumani boshqa hududlardan ajralib turadi.

Jami qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmi bo‘yicha Andijon viloyati 2-o‘rinda turadi (2024-yil yakunlari bo‘yicha). Xususan, viloyat respublika miqyosida meva va rezavorlar, sabzavotlar, pilla (1-o‘rin), kartoshka (2-o‘rin) va tuxum (3-o‘rin) yetishtirishda faol.

Asaka tumani viloyatning paxta yetishtirilmaydigan yagona tumani bo‘lib, sabzavotchilik, kartoshkachilik, bog‘dorchilik va uzumchilikka ixtisoslashgan. Viloyatning g‘arbiy (Bo‘ston, Ulug‘nor, Baliqchi, Shahrixon, Izboskan) tumanlarida paxta va bug‘doy bilan birgalikda sabzavot va poliz ekinlari ko‘p yetishtiriladi. Markaziy va janubi-sharqiy (Andijon, Paxtaobod, Marhamat, Buloqboshi, Jalaquduq, Xo‘jaobod, Qo‘rg‘ontepa) tumanlarida esa kartoshkachilik, sabzavotchilik va bog‘dorchilik keng yo‘lga qo‘yilgan.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Andijon viloyati iqtisodiy geografik o‘rnining qulay va noqulay jihatlarini tavsiflang.
2. Viloyat xo‘jaligiga tabiiy sharoit va resurslar qanday ta’sir ko‘rsatgan?
3. Andijon viloyati respublikada qaysi sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlangani bilan ajralib turadi?
4. Viloyat qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvida qanday hududiy tafovutlar mavjud?

UYGA VAZIFA

Diagrammada keltirilgan statistik ma’lumotlardan foydalanib hamda Andijon viloyatida O‘zbekiston aholisining 9,2 foizi istiqomat qilishini hisobga olib, viloyatning turli dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashuv koeffitsiyentlarini hisoblang va daftaringizga yozing.



11-rasm. Andijon viloyatining O‘zbekistondagi ulushi (2024-y.)

7.6. NAMANGAN VILOYATI



DARS DAVOMIDA

- Namangan viloyatining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va iqtisodiyoti bilan tanishasiz;
- tabiiy sharoit va resurslarning hududlar xo‘jaligi ixtisoslashuviga ta’sirini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI. Namangan viloyati O‘zbekistonning sharqida, Farg‘ona vodiysining shimoliy qismida joylashgan. U shimol va shimoli-sharqda Qirg‘iziston, janubi-g‘arbda Tojikiston, g‘arbda Toshkent, janubda Farg‘ona, janubi-sharqda Andijon viloyati bilan chegaradosh. Viloyat iqtisodiy geografik o‘rni uning hududidan Toshkent–Qo‘qon avtomagistrali va Angren–Pop temiryo‘lining o‘tgani bilan belgilanadi. Viloyat tarkibiga 11 ta qishloq tumani, 2 ta shahar tumani (Namangan shahrining Davlatobod va Yangi Namangan tumanlari), 8 ta shahar (1 tasi – Namangan viloyatga bo‘ysunadi) kiradi (01.01.2025-y.).

O‘YLAB KO‘RING

Namangan viloyatining iqtisodiy geografik o‘rni qo‘shni Andijon va Farg‘ona viloyatlaridan qanday jihatlari bilan farqlanadi? Xarita yordamida aniqlang.

BU QIZIQ!

Namangan viloyatining Pop tumani hududida Tojikiston Respublikasi So‘g‘d viloyati Asht tumani tarkibiga kiruvchi Sarvak qishlog‘i joylashgan. Bu O‘zbekiston hududidagi boshqa davlatning yagona eksklavidir. Uning maydoni 27,8 km², aholisi esa 650 kishiga yaqin.

TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI. Namangan viloyati hududining relyefi janub va janubi-sharqdan shimol va shimoli-g‘arbga tomon ko‘tarilib boradi. Chotqol va Qurama tizmalari viloyatning shimoli-g‘arbidan o‘tgan. Qurama tizmasida Farg‘ona vodiysini Toshkent viloyati bilan bog‘laydigan Qamchiq dovoni (mutlaq balandligi 2267 m) joylashgan. Viloyatning janubida, Sirdaryoning chap sohilida Qoraqalpoq cho‘li bor. Uning yerlari 1930–1970-yillarda sug‘orma dehqonchilik maqsadlarida o‘zlashtirilgan.

Foydali qazilmalardan oltin, kumush, neft, qurilish xomashyosi konlari bor. Qimmatbaho metallar viloyatning tog‘li shimoli-g‘arbiy qismida qazib olinadi.

Asosiy suv manbalari – Norin, Sirdaryo, Kosonsoy, Podshoota, G‘ovasoy daryolari. Eng katta kanallari – Katta Farg‘ona, Shimoliy Farg‘ona, Katta Andijon, Katta Namangan va Oxunboboyev nomidagi kanal.



12-rasm. Namangan viloyatining iqtisodiy xaritasi

AHOLISI. Viloyat aholisining soni, 01.01.2025-yil holatiga ko'ra, 3131,7 ming kishiga tengdir. So'nggi yillarda viloyat aholisi yiliga o'rtacha 2,3% ga ko'payib bormoqda.

Viloyatda shahar aholisining salmog'i 64,9%, qishloq aholisining salmog'i esa mos ravishda, 35,1% ga teng. Shahar aholisining ulushi jihatidan viloyat respublika hududlari ichida 1-o'rinda turadi.

Viloyat markazi – Namangan shahri. O'zbekistondagi 120 ta shaharlar orasida aholi soni bo'yicha Toshkentdan keyingi 2-o'rinda turadi (713,4 ming kishi, 01.01.2025) va eng yirik shaharlar toifasiga mansub. Viloyatdagi 3 ta shahar – Chust, Chortoq va Kosonsoy o'rta shaharlar hisoblansa, viloyatning qolgan shaharlari kichik shaharlar guruhiga kiradi.

Namangan viloyati aholi zichligi bo'yicha O'zbekiston viloyatlari orasida 3-o'rinni egallaydi. Ta'kidlash joizki, Namangan Farg'ona iqtisodiy rayonidagi 3 ta viloyat ichida maydoni jihatidan eng kattasi bo'lsa-da, aholi soni jihatidan Andijon va Farg'ona viloyatlaridan ortda. Bu holat Namangan viloyatining relyefi, ya'ni tog'li yerlarining nisbatan ko'pligi bilan bog'liqdir.

IQTISODIYOTI VA ICHKI TAFOVUTLARI. Namangan viloyati respublika miqyosida asosan elektr energetikasi (2024-yilda mamlakat bo‘yicha elektr energiyasining 8 foizi ishlab chiqarilgan; hududlar ichida 5-o‘rin) va yengil sanoat (2024-yilda respublika bo‘yicha tarmoq mahsulotining 9 foizi to‘g‘ri kelgan; Andijon va Farg‘ona viloyatlaridan keyingi 3-o‘rin) rivojlangan hudud sifatida ajralib turadi. Viloyat sanoatining tarmoqlar tarkibida asosiy o‘rinni yengil sanoat, oziq-ovqat sanoati hamda elektr energetikasi egallaydi. Elektr energiyasining asosiy qismi To‘raqo‘rg‘on IESida ishlab chiqariladi. Sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha Namangan shahri, To‘raqo‘rg‘on va Chust tumanlari viloyat ichida yetakchi o‘rinlarda turadi (12-rasm).

Namangan viloyati respublikada qishloq xo‘jaligi mahsulotlaridan asosan meva va rezavorlar (2024-yilda hududlar orasida 4-o‘rin), uzum (4-o‘rin), tuxum (4-o‘rin) va pilla (5-o‘rin) yetishtirish bilan ajralib turadi. Viloyatning tog‘oldi-tog‘ qismidagi tumanlarning (Yangiqo‘rg‘on, Chortoq, Kosonsoy, Chust, To‘raqo‘rg‘on, Pop) qishloq xo‘jaligi ko‘proq bog‘dorchilik, uzumchilik, kartoshkachilik va sabzavotchilikka ixtisoslashgan. Xususan, Yangiqo‘rg‘on meva va uzum yetishtirishda respublika miqyosida peshqadam tumanlardan biri. Mingbuloq, Pop, Norin, Uchqo‘rg‘on tumanlari esa ko‘p miqdorda paxta, don va poliz ekinlarini yetishtirish bilan ajralib turadi. Pop va Chust tumanlarining adir va tog‘ yaylovlarida qo‘ychilik va echkichilik rivojlangan.

Namangan viloyatining tog‘oldi va tog‘li hududlari rekreatsiya resurslariga boy. Chortoq, Yangiqo‘rg‘on, Kosonsoy, Chust va Pop tumanlaridagi dam olish maskanlariga (Chortoq, Kosonsoy, Nanay, G‘ova, Parda Tursun, Chodak va boshqalar) yoz mavsumida ko‘plab dam oluvchilar tashrif buyuradi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Namangan viloyati hududining relyefi qaysi yo‘nalishda ko‘tarilib boradi? Shu yo‘nalishda qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi qay tarzda o‘zgarib boradi?
2. Namangan viloyati O‘zbekiston miqyosida qaysi sanoat va qishloq xo‘jaligi tarmoqlarining rivojlangani bilan ajralib turadi?

UYGA VAZIFA

Diagrammada keltirilgan ma’lumotlar asosida Namangan viloyatida 2022-, 2023- va 2024-yillardagi tabiiy, mexanik va umumiy aholi ko‘payishini hisoblang. Ushbu hisoblashlar natijasi, viloyatning maydoni va 01.01.2025-yildagi aholisi sonidan kelib chiqib, 2022-, 2023- va 2024-yillarning boshidagi holatiga ko‘ra viloyat aholisining soni va zichligini aniqlang.



13-rasm. Namangan viloyatining demografik ko‘rsatkichlari

7.7. AMALIY MASHG‘ULOT

DARS DAVOMIDA

- hududlarning iqtisodiy geografik ko‘rsatkichlarini hisoblaysiz, taqqoslaysiz va tahlil qilasiz;
- iqtisodiy geografik mazmundagi jadval, diagramma va grafiklar bilan ishlaysiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Keys-1.

Chap tomondagi grafikda Andijon, Namangan va Farg‘ona viloyatlarida 2021–2024-yillarda yig‘ib olingan kartoshka hosili (ming tonnada), o‘ng tomondagi grafikda esa o‘sha viloyatlarda mos yillarda necha ming gektar ekin maydoniga kartoshka ekilgani ko‘rsatilgan. Chap tomondagi grafikda keltirilgan raqamlarni o‘ng tomondagi grafikning mos nuqtalaridagi raqamlarga bo‘lib, chiqqan natijani 10 ga ko‘paytirgan holda, tegishli viloyatda muayyan yildagi kartoshkaning hosildorligini (sentner / gektar hisobida) aniqlab oling. Hisoblab chiqilgan raqamlar asosida har bir viloyat uchun 2021–2024-yillardagi kartoshka hosildorligining o‘rtacha arifmetik qiymatini toping (4 ta yillik qiymatni jamlab, yig‘indini 4 ga bo‘ling) va 3 ta viloyatni tegishli ko‘rsatkich bo‘yicha taqqoslang.



Kartoshkaning yalpi hosili (ming tonna hisobida)

Kartoshka ekilgan maydon (ming gektar hisobida)

Keys-2.

Jadvaldagi ko‘rsatkichlar asosida noma’lum sonlarni hisoblab chiqing. Hisob-kitob natijalarini hamda to‘ldirilgan ko‘rinishdagi jadvalni daftaringizga yozing.

Hududlar	01.01.2024-yil holatiga ko‘ra aholi soni (ming kishi hisobida)	2024-yil davomida (ming kishi hisobida)				01.01.2025-yil holatiga ko‘ra aholi soni (ming kishi hisobida)
		Tug‘ilganlar soni	O‘lganlar soni	Kelganlar soni	Ketganlar soni	
Toshkent shahri	3040,8	68,2	16,7	92,1	71,6	?
Toshkent viloyati	3051,8	?	16,4	32,4	28,9	3108,5
Andijon viloyati	?	86,3	17,8	7,2	9,1	3461,0
Farg‘ona viloyati	4061,5	103,1	17,9	13,4	?	4144,7

Keys-3.

Diagrammada keltirilgan ma’lumotlar asosida hududlarning 2024-yil holatiga ko‘ra tashqi savdo aylanmasi va balansini (mln AQSH doll.) hisoblab chiqing.



Hududlarning eksport va import hajmi (mln AQSH doll.)

7.8. SIRDARYO VILOYATI



DARS DAVOMIDA

- Sirdaryo viloyatining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va iqtisodiyoti bilan tanishasiz;
- iqtisodiy geografik o‘rin, tabiiy sharoit va resurslar, yerlarni o‘zlashtirish tarixining hududlar xo‘jaligi ixtisoslashuviga ta’sirini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI. Sirdaryo viloyati Sirdaryoning o‘rta oqimi chap sohilida joylashgan. U shimolda Qozog‘iston, janubda Tojikiston, sharqda Toshkent viloyati, g‘arbda Jizzax viloyati bilan chegaralanadi. Respublikamizning shimoli-sharqiy va janubi-g‘arbiy qismlarini bog‘lovchi temiryo‘l va avtomobil magistrallari viloyat hududidan o‘tgani uning geografik o‘rni qulayligini ta’minlaydi. Viloyat tarkibiga 8 ta tuman, 5 ta shahar (3 tasi – Guliston, Yangiyer va Shirin viloyatga bo‘ysunadi) kiradi (01.01.2025-y.).

O‘YLAB KO‘RING

Andijon va Sirdaryo viloyatlari maydoni deyarli bir xil bo‘lsa-da, aholi soni Sirdaryo viloyatida Andijon viloyatiga nisbatan 4 barobar kam bo‘lishi qanday omillar bilan bog‘liq deb o‘ylaysiz?

TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI. Sirdaryo viloyati hududining relyefi shimoliy va shimoli-g‘arbiy tomonga kichik nishab bilan pasayib boradigan yassi tekislik ko‘rinishiga ega. Bunday relyef uy-joy qurilishi, transport infratuzilmasini rivojlantirish hamda aholi joylashuvi uchun qulay, ammo nishablikning o‘ta kichikligi sizot suvlarining turib qolishiga, shu sababli yerlarning sho‘rlanishiga olib kelmoqda.

Sirdaryo viloyati foydali qazilmalarga boy emas. Bu yerda mahalliy ahamiyatga ega qurilish xomashyosi konlari mavjud xolos.

Viloyatning asosiy suv manbayi – Sirdaryo. Undan boshlanadigan bir nechta kanal viloyat hududini sug‘oradi. Kanallardan eng yiriklari – Do‘stlik va Janubiy Mirzacho‘l.

BU QIZIQ!

Sirdaryo viloyati aholisi migratsiya jarayonlari natijasida shakllangan respublikamizdagi yagona viloyat hisoblanadi. Viloyat yerlari 1950–1970-yillarda keng miqyosda o‘zlashtirilgan. Yerlarni o‘zlashtirish uchun o‘sha vaqtda aholi O‘zbekistonning boshqa hududlari, asosan, Andijon va Farg‘ona viloyatlaridan ko‘chirilgan.



14-rasm. Sirdaryo viloyatining iqtisodiy xaritasi

AHOLISI. Sirdaryo viloyati O‘zbekiston hududlari orasida aholi soni bo‘yicha oxirgi o‘rinda turadi. Viloyat aholisining soni yillik hisobda o‘rtacha 1,9% ga o‘smoqda.

Sirdaryo viloyati aholisining 43 foizi shahar joylarida yashaydi (01.01.2025-y.). Guliston (79,8 ming kishi, 01.01.2025-y.) o‘rta shaharlar toifasiga mansub. Viloyatdagi qolgan 4 ta shahar (Yangiyer, Shirin, Sirdaryo, Baxt) kichik shaharlar hisoblanadi.

Sirdaryo viloyatida aholi zichligining o‘rtacha ko‘rsatkichi 220 kishi/km^2 dan ortadi. Bu mamlakat bo‘yicha o‘rtacha ko‘rsatkichdan salkam 3 barobar yuqoridir. Bu holat viloyat hududining deyarli butunligicha sug‘oriladigan dehqonchilik maqsadida o‘zlashtirilgani bilan bog‘liq. Viloyatning sharqiy hududlarida (Sirdaryo, Guliston, Boyovut tumanlari) aholi zichligi uning g‘arbida joylashgan Sardoba va Oqoltin tumanlariga nisbatan ancha yuqori. Bu holat viloyatning sharqiy qismidagi yerlar nisbatan oldinroq o‘zlashtirilgani bilan bog‘liqdir.

IQTISODIYOTI VA ICHKI TAFOVUTLARI. Sanoat tarmoqlari tarkibida elektr energetikasi, oziq-ovqat va yengil sanoat ustunlik qiladi. Elektr energetikasining viloyat sanoati tarkibidagi ustuvorligi Shirin shahrida joylashgan O‘zbekistondagi eng yirik elektr stansiyasi hisoblanadigan Sirdaryo IES bilan bog‘liqdir (14-rasm). Viloyat sanoatining hududiy tarkibida Shirin shahri va Sirdaryo tumani asosiy o‘rin tutadi. Sirdaryo tumanida oziq-ovqat, yengil, farmatsevtika, qurilish materiallari sanoati rivojlanib bormoqda.

Sirdaryo viloyati qishloq xo‘jaligi paxta, g‘alla, sabzavot va poliz ekinlarini yetishtirishga ixtisoslashgan. Tabiiy yaylovlar, o‘tloqlar va pichanzorlar kamligi sababli chorvachilik, ayniqsa, qo‘y va qoramolni keng miqyosda boqishga qulay emas. Viloyatda baliq xo‘jaligi yaxshi rivojlangan. Viloyat bo‘yicha don ekinlarini yetishtirishda Boyovut va Xovos, sabzavotchilik, bog‘dorchilik va uzumchilikda Xovos, polizchilikda Xovos va Oqoltin, kartoshka yetishtirishda Sirdaryo va Sayxunobod, go‘sht va sut yetishtirishda Boyovut va Sayxunobod tumanlari yetakchilik qiladi.

Viloyatning shimoli-sharqiy qismi 1960-yillar boshiga kelib o‘zlashtirilgan bo‘lsa, janubi-g‘arbiy qismi 1970–1980-yillarda o‘zlashtirilgan. Shu bois shimoli-sharqiy qismi (Sirdaryo, Sayxunobod, Guliston, Boyovut tumanlari; Guliston, Yangiyer, Shirin shaharlari) aholi zichligining nisbatan yuqoriligi, sanoatning yaxshiroq rivojlangani, yer unumdorligi jihatidan viloyatning janubi-g‘arbiy qismidan (Xovos, Sardoba, Oqoltin, Mirzaobod tumanlari) ajralib turadi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Sirdaryo viloyati relyefining xo‘jalik nuqtayi nazaridan ijobiy va salbiy jihatlarini tavsiflang.
2. Sirdaryo viloyati respublika sanoati va qishloq xo‘jaligida qaysi tarmoqlar rivoji bilan ajralib turadi? Qaysi shahar va tumanlar viloyat sanoatida yetakchi o‘rin egallaydi?
3. Viloyatning shimoli-sharqiy va janubi-g‘arbiy tumanlari qanday sharoitlari bilan o‘zaro farqlanadi?

UYGA VAZIFA

Sirdaryo viloyatidagi tuman va shaharlarning viloyat sanoatidagi ulushini (% da) hisoblang. Hisoblab olingan foiz ko‘rsatkichlari asosida doiraviy diagramma tuzing. Diagramma tuzishda 1 % ko‘rsatkich doiraning 3,6 gradusini egallashini hisobga oling.

Tuman (shahar)	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (mlrd so‘m, 2024)	Tuman (shahar)	Ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti (mlrd so‘m, 2024)
Guliston sh.	1363	Guliston tum.	446
Yangiyer sh.	1436	Sardoba tum.	363
Shirin sh.	7258	Mirzaobod tum.	352
Oqoltin tum.	369	Sirdaryo tum.	3907
Boyovut tum.	1537	Xovos tum.	433
Sayxunobod tum.	744		

7.9. JIZZAX VILOYATI



DARS DAVOMIDA

- Jizzax viloyatining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va iqtisodiyoti bilan tanishasiz;
- tabiiy sharoit va resurslarning hududlar xo‘jaligi ixtisoslashuviga ta’sirini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Nimaga Jizzax viloyati hududida O‘zbekistonda mavjud qishloq xo‘jaligi tiplarining barchasi, ya’ni sug‘orma va lalmi dehqonchilik, cho‘l-yaylov va tog‘-yaylov chorvachiligi mavjud?

GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI. Jizzax viloyati shimolda Qozog‘iston, janubda Tojikiston, sharqda Sirdaryo viloyati, g‘arbda Samarqand va Navoiy viloyatlari bilan chegaradosh. Viloyat iqtisodiy geografik o‘rnining qulay xususiyatlari uning O‘zbekistonning markazida joylashgani, ya’ni boshqa hududlar bilan savdo aloqalarini rivojlantirish uchun yaxshi imkoniyatlari bilan izohlanadi. Viloyat tarkibiga 12 ta tuman, 6 ta shahar (1 tasi – Jizzax viloyatga bo‘ysunadi) kiradi (01.01.2025-y.).

TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI. Jizzax viloyati hududining g‘arbiy va janubiy qismlari Turkiston-Nurota tog‘lari va Sangzor-G‘allaorol tog‘ oralig‘idagi botiq, shimoliy va sharqiy qismlari esa Qizilqum va Mirzacho‘l tekisliklaridan iborat.

Viloyatda mineral resurslar, jumladan, oltin, volfram, qo‘rg‘oshin, rux, molibden, ohak, granit, marmar konlari mavjud. Qo‘ytosh konidan volfram, Marjonbuloqdan oltin, Uchqulochdan qo‘rg‘oshin-rux rudalari qazib olinadi.

Viloyatdagi asosiy suv manbalari Sangzor va Zominsuv daryolari, Sirdaryodan to‘yinadigan Janubiy Mirzacho‘l va Jizzax mashina kanallari hamda Zarafshondan to‘yinadigan Tuyatortar kanali hisoblanadi.

Viloyatning shimolida joylashgan Aydarko‘l-Arnasoy ko‘llar tizimi Orol dengizi qurigani-dan so‘ng respublikamizdagi eng yirik ko‘llar tizimiga aylandi. Bu suv havzalarida so‘nggi yillarda baliqchilik, shuningdek, rekreatsiya va turizm rivojlantirilmoqda.

AHOLISI. Viloyat aholi soni bo‘yicha O‘zbekistonda faqatgina Sirdaryo va Navoiy viloyatlaridan oldinda, 12-o‘rinda turadi. Viloyat aholisining o‘rtacha yillik o‘sish sur’ati so‘nggi yillarda 2,1 % ga teng bo‘lmoqda.

Jizzax viloyati aholisining 47 foizi shahar va shaharchalarda yashaydi (01.01.2025-yil holatiga ko‘ra). Jizzax (199,9 ming kishi, 01.01.2025-y.) katta shaharlar toifasiga kiradi, viloyatning barcha boshqa shaharlari esa kichik shaharlar hisoblanadi.



15-rasm. Jizzax viloyatining iqtisodiy xaritasi

IQTISODIYOTI VA ICHKI TAFOVUTLARI. Jizzax viloyati sanoatining tarmoqlar tarkibida hozirgi vaqtda mashinasozlik yetakchi ahamiyatga ega. Hududda yengil avtomobillar, akkumulyatorlar, turli maishiy texnika buyumlari ishlab chiqarilmoqda. Viloyatning eng yirik sanoat korxonasi G'allaorol tumanidagi Jizzax avtomobil zavodi hisoblanadi. Yengil sanoat, qurilish materiallari va oziq-ovqat sanoati ham nisbatan rivojlangan. Zafarobod tumanida yirik sement zavodi faoliyat ko'rsatmoqda. Sanoat ishlab chiqarish hajmi bo'yicha G'allaorol tumani va Jizzax shahri yetakchilik qiladi (15-rasm).

Viloyat qishloq xo'jaligi g'allachilik, paxtachilik, polizchilik, bog'dorchilik, qoramolchilik, qo'ychilik, asalarichilik kabi tarmoqlarga ixtisoslashgan. U respublika miqyosida, ayniqsa, poliz ekinlarini yetishtirishda yuqori salmoqqa ega. Jizzax viloyatining tog'oldi va tog'li tumanlari respublikada lalmi dehqonchilik rivojlangan eng muhim hududlardan biri. Lalmi yerlarda asosan arpa, bug'doy va dukkakli ekinlar yetishtiriladi. Viloyatning tekislik qismi ko'proq bug'doy, paxta va poliz ekinlari, tog'oldi-tog' tumanlari esa kartoshka, sabzavot, meva, uzum yetishtirishga ixtisoslashgan.

Jizzax viloyati tog'li hududlarining rekreatsion-turistik salohiyati ancha yuqori. Bu borada Zomin, Baxmal tumanlari O'zbekistonda mashhur.

Xususan, betakror archazorlar bilan qoplangan tog‘larda joylashgan “Zomin” sanatoriysi mamlakatimiz va xorijiy davlatlarda shifobaxsh havosi bilan tanilgan. Zomin milliy tabiat bog‘ining turistik ahamiyati ham tobora o‘sib bormoqda. Shuningdek, viloyatning shimolida joylashgan Aydar-Arnasoy ko‘llar tizimi negizida ham yirik rekreatsiya va turizm zonasi shakllanib bormoqda.

Umuman olganda, Jizzax viloyatining hududi tabiiy-xo‘jalik sharoitidagi tafovutlar jihatidan 3 ta yirik qismga bo‘linadi: yangi o‘zlashtirilgan Mirzacho‘l vohasi, Turkiston-Nurota tog‘lari va ularning tog‘oldi tekisliklari hamda Aydar-Arnasoy ko‘llari atrofidagi Qizilqum cho‘li yerlari. Bu hududlar tabiatdan foydalanishning asosiy yo‘nalishlari va muammolari bilan sezilarli darajada o‘zaro farq qiladi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Jizzax viloyatining geografik joylashuvi uning hududiy mehnat taqsimotida ishtirok etishi uchun qanday imkoniyatlarni yaratadi?
2. Lalmi dehqonchilik qanday ekinlarni yetishtirishga ixtisoslashgan? Bu ixtisoslashuvni qanday izohlash mumkin?
3. Jizzax viloyatining rekreatsiya va turizmni rivojlantirish borasidagi imkoniyatlarini qanday baholaysiz?

UYGA VAZIFA

Jadvaldagi ma’lumotlarga asoslanib, Jizzax viloyati tumanlari bo‘yicha jami ekin maydonlari tarkibidagi sug‘oriladigan va lalmi yerlarning ulushini (% da) hisoblab chiqing. Viloyat tekislik va tog‘oldi-tog‘ tumanlarining bu boradagi xususiyatlarini taqqoslang, aniqlangan tafovutlarning sababini izohlashga harakat qiling.

Tumanlar	Ekin yerlari maydoni (ming ga, 01.01.2024-y.)		Tumanlar	Ekin yerlari maydoni (ming ga, 01.01.2024-y.)	
	Sug‘oriladigan	Lalmi		Sug‘oriladigan	Lalmi
Tekislik tumanlari guruhi			Tog‘oldi-tog‘ tumanlari guruhi		
Arnasoy	31,5	0,0	Baxmal	3,5	29,7
Do‘stlik	33,5	0,0	G‘allaorol	5,9	78,5
Mirzacho‘l	30,6	0,3	Forish	0,4	43,3
Paxtakor	27,0	0,0	Sharof Rashidov	29,2	17,9
Zafarobod	26,6	0,6	Yangiobod	3,8	30,0
Zarbdor	50,8	1,5	Zomin	17,0	39,8

7.10. SAMARQAND VILOYATI



DARS DAVOMIDA

- Samarqand viloyatining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va iqtisodiyoti bilan tanishasiz;
- Samarqand viloyati tabiiy sharoiti xilma-xilligining mahalliy xo‘jalik ixtisoslashuviga ta’sirini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Samarqand qanday omillar hisobiga O‘zbekiston shaharlari orasida alohida e’tiborga loyiq shahar sifatida e’tirof etiladi?

GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI. Samarqand viloyati O‘zbekistonning markaziy qismida, Zarafshon daryosining o‘rta oqimida joylashgan. Viloyat hududidan o‘tgan transport yo‘llari orqali respublikamizning janubiy, g‘arbiy va sharqiy hududlari o‘zaro bog‘lanadi, shu bois hududning iqtisodiy geografik o‘rnini ancha qulay deb baholash mumkin. Viloyat sharqda Tojikiston, shimoli-sharqda Jizzax viloyati, g‘arb va shimoli-g‘arbda Navoiy viloyati, janubda esa Qashqadaryo viloyati bilan chegaradosh. Viloyat tarkibiga 14 ta tuman, 11 ta shahar (2 tasi – Samarqand va Kattaqo‘rg‘on viloyatga bo‘ysunadi) kiradi (01.01.2025-y.).

TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI. Samarqand viloyatining markaziy qismini Zarafshon vodiysi egallaydi. Viloyatning shimolida Nurota, G‘obduntog‘, Qaroqchitog‘ va Oqtog‘, janubida esa Zarafshon tizmalari joylashgan. Nurota hamda Oqtog‘ va Qaroqchitog‘ tizmalarini Nurota va Qo‘shrabot botiqlari ajratib turadi. Janubi-g‘arbiy qismida Qarnobcho‘l tekisligi va Zirabuloq-Ziyovuddin past tog‘lari bor.

Viloyatdagi asosiy foydali qazilmalar – oltin, uran, volfram va turli qurilish xomashyosi. Nurota tog‘larida Zarmitan yirik oltin koni joylashgan. Volfram rudalari Zirabuloq past tog‘laridagi Ingichka konidan qazib olinadi (16-rasm).

Viloyatning asosiy suv manbayi Zarafshon daryosi hisoblanadi. Samarqand shahrining yonida Zarafshon 2 ta o‘zan – Oqdaryo va Qoradaryoga bo‘linadi. Navoiy viloyati bilan chegara hududda bu 2 ta irmoq yana birlashadi. Natijada Samarqand viloyatining markaziy qismida Miyonqol nomli o‘ziga xos orol (aniqrog‘i, daryolar oralig‘i) vujudga kelgan.

Zarafshon daryosi suvidan oqilona foydalanish maqsadida viloyatda Kattaqo‘rg‘on va Oqdaryo suv omborlari barpo etilgan. Shuningdek, kichik soylarda ham qator suv omborlari (To‘sunsoy, Qorasuv, Qoratepa, Sobirsoy) qurilgan.



16-rasm. Samarqand viloyatining iqtisodiy xaritasi

AHOLISI. Viloyat aholi soni bo'yicha O'zbekiston hududlari orasida peshqadam hisoblanadi. Aholining o'rtacha yillik o'sish sur'ati so'nggi yillarda 2,2% ni tashkil etmoqda.

Samarqand viloyati aholisining 37 foizini shahar aholisi tashkil etadi (01.01.2025-yil holatiga ko'ra). Samarqand shahri (567 ming kishi, 01.01.2025-y.) aholi soni bo'yicha Namangan va Toshkentdan keyin 3-o'rinni egallaydi va eng katta shaharlar toifasiga kiradi. Kattaqo'rg'on va Urgut o'rta shaharlar, viloyatdagi qolgan shaharlar esa kichik shaharlar hisoblanadi.

Samarqand shahri so'nggi yillarda ta'lim, ilm-fan, transport, turizm, tibbiy xizmat ko'rsatish sohalarida yirik

BU QIZIQ!

Urgut tumani aholi soni jihatidan (572,6 ming kishi) respublikamizdagi 163 ta qishloq tumani ichida 1-o'rinda turadi. Urgut tumani, 01.01.2025-yil holatiga ko'ra, O'zbekistonda aholisi 500 ming kishidan oshadigan yagona tuman hisoblanadi.

viloyatlararo markazga aylandi. Shuningdek, ko‘plab xalqaro miqyosdagi siyosiy, iqtisodiy, madaniy, sport tadbirlari o‘tkazilishi hisobiga respublika ahamiyatidagi ko‘p funksiyali shaharga aylanmoqda.

Samarqand viloyatida aholi zichligi, 01.01.2025-yil holatiga ko‘ra, 256 kishi / km² ni tashkil etadi. Viloyat aholisining asosiy qismi Zarafshon daryosi vodiysida, sug‘oriladigan dehqonchilik mintaqasida istiqomat qiladi.

IQTISODIYOTI VA ICHKI TAFOVUTLARI. Viloyatda sanoat tarmoqlaridan respublika miqyosida asosan oziq-ovqat, yengil, mashinasozlik va qora metallurgiya sanoati rivojlangan. Viloyat sanoatining tarmoqlar tarkibida oziq-ovqat sanoati salkam 40 % lik ulushi bilan yetakchi ahamiyatga ega. Hudud O‘zbekiston avtomobilsozligida ham o‘z o‘rniga ega. Samarqand shahrida avtobuslar ishlab chiqaruvchi “SamAvto” korxonasi, Jomboy tumanida esa yuk avtomobillari va maxsus avtotexnikalar ishlab chiqaruvchi “MAN” korxonasi faoliyat ko‘rsatadi.

Viloyatdagi boshqa yirik sanoat korxonalari qatoriga Samarqand shahridagi Samarqand metallurgiya zavodi, “Samarqand don mahsulotlari” korxonasi, spirtsiz ichimliklar va meva-sabzavot konserva mahsulotlarini ishlab chiqaruvchi “Agromir” kompaniyalar guruhi, maishiy texnikalarni ishlab chiqaradigan “Sino” mashinasozlik zavodi, mineral o‘g‘itlarni ishlab chiqaruvchi “Samarqandkimyo” korxonasi, Jomboy tumanidagi “Jomboy don mahsulotlari” korxonasi, Kattaqo‘rg‘on shahridagi “Kattaqo‘rg‘on yog‘-moy” korxonasi, Kattaqo‘rg‘on tumanidagi “China energy international group Samarkand cement” sement zavodi kabilar kiradi.

Viloyat sanoatining hududiy tarkibida Samarqand shahri va atrofida joylashgan Jomboy, Toyloq, Urgut tumanlari alohida o‘rin tutib, viloyatdagi jami sanoat mahsulotlarining 4/5 qismi ularning hissasiga to‘g‘ri keladi.

Samarqand respublikaning qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini eng ko‘p yetishtiruvchi viloyati hisoblanadi. Hududda ko‘p tarmoqli qishloq xo‘jaligi shakllangan bo‘lib, respublika miqyosida kartoshka, uzum, sut, go‘sht, pilla, tuxum mahsulotlarini yetishtirishda yaxshi ko‘rsatkichlarga ega. Xususan, viloyatda O‘zbekistondagi uzumning 36 foizi, kartoshkaning 20 foizi yetishtiriladi.

Viloyat qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvida hududiy tafovutlar yaqqol ko‘rinadi. Samarqand shahri atrofida joylashgan Bulung‘ur, Jomboy, Urgut va Toyloq tumanlari paxta yetishtirilmaydigan hududlar bo‘lib, sabzavotchilik, kartoshkachilik, bog‘dorchilik va uzumchilik, sut-go‘sht qoramolchiligi va parrandachilikka ixtisoslashgan. Samarqand shahridan g‘arbda joylashgan sug‘oriladigan yerlarda esa donchilik, paxtachilik va sabzavotchilik dehqonchilikning asosiy tarmoqlari hisoblanadi. Nurobod, Qo‘shrabot, Payariq, Bulung‘ur, Kattaqo‘rg‘on, Ishtixon tumanlarining tog‘oldi va tog‘li hududlarida lalmikor yerlar katta maydonni egallaydi. Bu yerlarda asosan don va dukkakli ekinlar yetishtiriladi. Nurobod, Qo‘shrabot hamda Paxtachi tumanlarining katta qismida tog‘oldi-tog‘ va cho‘l-yaylov chorvachiligi, xususan, qorako‘lchilik rivojlangan.

Samarqand shahri jahonga o‘zining betakror va boy tarixiy-madaniy merosi bilan mashhur bo‘lib, respublikamizda xalqaro va ichki turizm rivojlanishining asosiy markazlaridan biri sanaladi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1 Nima uchun Samarqand viloyatining iqtisodiy geografik o‘rnini qulay deb baholash mumkin? Qaysi viloyatlar iqtisodiy geografik o‘rni nuqtayi nazaridan Samarqand viloyatiga o‘xshaydi?
2. Qanday tabiiy geografik omillar Samarqand viloyati aholisining hududiy joylashuviga katta ta’sir ko‘rsatadi?
3. Qanday omil va jarayonlar ta’sirida Samarqand respublika ahamiyatidagi shaharga aylanib bormoqda?
4. Samarqand viloyati sanoat va qishloq xo‘jaligining qaysi tarmoqlari rivojiga ko‘ra respublika miqyosida alohida ajralib turadi?

UYGA VAZIFA

Jadvaldagi ma’lumotlardan foydalanib Samarqand viloyati sanoatining tarmoqlar tarkibini 2010- va 2024-yillar holatiga ko‘ra foizlarda hisoblab chiqing. O‘tgan davr mobaynida qaysi sanoat tarmoqlarining ulushi ko‘paygan, qaysilariniki kamayganini aniqlang.

Samarqand viloyatida sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi (mlrd so‘m)

Sanoat tarmoqlari	2010-yil	2024-yil
Elektr energetikasi	72,1	824,9
Yoqilg‘i sanoati	1,1	235,9
Metallurgiya sanoati	61,1	4042,4
Kimyo sanoati	66,1	1998,3
Mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoati	379,1	6308,1
O‘rmon, yog‘ochni qayta ishlash va sellyuloza (qog‘oz) sanoati	37,9	1725,6
Qurilish materiallari sanoati	104,9	3465,3
Yengil sanoat	466,1	8884,0
Oziq-ovqat sanoati	802,9	17625,3
Boshqa tarmoqlar	20,0	298,1
Jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsuloti	2011,3	45407,9

7.11. AMALIY MASHG‘ULOT

DARS DAVOMIDA

- O‘zbekiston hududlarining iqtisodiy-ijtimoiy ko‘rsatkichlariga oid topshiriqlar, grafik va diagrammalar bilan ishlaysiz;
- raqamli xaritalar (Google Earth, Google Maps)dan foydalanib, O‘zbekiston hududlaridagi xo‘jalik ixtisoslashuvi va aholi manzilgohlarining xususiyatlarini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

Keys-1.

O‘zbekiston viloyatlarining iqtisodiy xaritalarini tahlil qilib, qishloq xo‘jaligiga oid quyidagi xususiyatlar qaysi viloyatlarga tegishli ekanini aniqlang. Ushbu viloyatlar quyidagi konturlardan qaysilariga mos keladi?

I. Viloyat markazidagi sug‘orma dehqonchilik qilinadigan yerlarni shimol va janub tomonlardan lalmikor dehqonchilik va tog‘oldi–tog‘-yaylov chorvachiligiga ixtisoslashgan hududlar o‘rab turadi.

II. Viloyatning janubiy va janubi-g‘arbiy hududlari tog‘oldi–tog‘-yaylov choravachiligi va lalmi dehqonchilikka ixtisoslashgan.

III. Shimoliy qismidagi cho‘l-yaylov chorvachiligi bilan shug‘ullaniladigan kichik hududni hisobga olmaganda, viloyatning barcha hududlarida sug‘orma dehqonchilik yo‘lga qo‘yilgan.

IV. Viloyatning g‘arbiy va shimoli-g‘arbiy hududlarida tog‘oldi–tog‘-yaylov chorvachiligi, sharqiy va janubi-sharqiy hududlarida esa sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullaniladi.



A B D E

Keys-2.



Ochiq statistik ma’lumotlar (masalan, https://stat.uz/ vebsaytidagi “Demografiya” bo‘limi) hamda darslikdan foydalanib piramidaga Toshkent viloyatidagi aholi manzilgohlari sonini yozing. Quyidagi fikr-mulohazalar to‘g‘ri yoki noto‘g‘riligini aniqlang.

a) Piramidada aholi manzilgohlari soni pastdan yuqoriga tomon ortib boradi.

b) Piramidada pastdan yuqoriga tomon har bir bo‘g‘indagi aholi manzilgohlari o‘rtasidagi masofa kattalashib boradi.

d) Aholi manzilgohlari kattalashib borgani sari (pastdan yuqoriga tomon) xizmat ko‘rsatish turlari soni ortib boradi.

e) Urbanizatsiya jarayonining jadal rivojlanishi piramidaning yuqori qismidagi aholi manzilgohlari kamayishiga, quyi qismidagilari esa ko‘payishiga sabab bo‘ladi.

Keys-3.

Kosmosdan olingan aholi manzilgohlari tasvirlarini taqqoslang. Ularning tuzilishi va vujudga kelishidagi o‘ziga xos xususiyatlarni tahlil qiling. Raqamli xaritalardan (“Google Earth” va boshqalar) foydalanib, o‘zingiz yashaydigan viloyatda ularga o‘xshash xususiyatdagi aholi manzilgohlarini toping va ularning shakllanishiga ta’sir etgan omillarni izohlang.


A


B


D

Keys-4.

Oila a’zolaringizdan qanday xizmatlardan foydalanishini va ushbu xizmatlar uchun qanday aholi manzilgohlariga borishini so‘rang. O‘zingiz yashaydigan hududdagi turli aholi manzilgohlari va ulardagi xizmat ko‘rsatish turlarini yozing. Xizmat ko‘rsatish turlarining soni aholi manzilgohlarining katta-kichikligiga bog‘liqligini tushuntiring.

Aholi manzilgohlari	Aholi manzilgohlari nomi	Aholi soni	Xizmat ko‘rsatish turlari
Qishloq			
Kichik shahar va shaharchalar			
Katta shaharlar			

7.12. NAVOIY VILOYATI



DARS DAVOMIDA

- Navoiy viloyatining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va iqtisodiyoti bilan tanishasiz;
- Navoiy viloyati xo‘jaligi ixtisoslashuviga tabiiy sharoit va resurslarning ta’sirini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Navoiy viloyati maydonining kattaligiga ko‘ra eng yirik viloyat bo‘lsa-da, aholi soni bo‘yicha oxirgi o‘rinlarda turadi. Bunga qanday omillar ta’sir ko‘rsatgan deb o‘ylaysiz?

GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI. Navoiy viloyati O‘zbekistonning o‘rta qismida joylashgan. Viloyat shimol va shimoli-sharqdan Qozog‘iston, sharqdan Jizzax viloyati, janubi-sharqdan Samarqand viloyati, chekka janubida qisqa masofada Qashqadaryo viloyati, janub va janubi-g‘arbdan Buxoro viloyati bilan chegaradosh. Navoiy O‘zbekistondagi eng oxirgi tashkil etilgan (Buxoro va Samarqanddan keyin) viloyat. Viloyatdan mamlakatimizning sharqiy va g‘arbiy hududlarini hamda respublikani xorijiy mamlakatlar bilan bog‘laydigan transport yo‘llari o‘tgan bo‘lib, bu xususiyat viloyatning iqtisodiy-geografik o‘rni qulayligini ko‘rsatadi.

Navoiy mamlakatimizdagi eng katta viloyat bo‘lib, O‘zbekiston maydonining 1/4 qismini tashkil etadi. Viloyat tarkibiga 8 ta tuman, 7 ta shahar kiradi (01.01.2025-y.). Uchquduq va Tomdi tumanlari maydoniga ko‘ra mamlakatimiz tumanlari orasida ikkinchi va uchinchi o‘rinlarda turadi (Qoraqalpog‘istonning Qo‘ng‘irot tumanidan keyin). Konimex tumani hududi o‘ziga xos bo‘lib, bir-biridan alohida joylashgan 3 qismdan iborat.

TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI. Navoiy viloyati hududining katta qismi Qizilqum cho‘lidan iborat. Viloyatning asosiy qismi 100–300 m mutlaq balandlikda joylashgan. Viloyatning markaziy qismlarida, Qizilqum cho‘lida mutlaq balandligi 1000 m dan oshmaydigan bir nechta past tog‘lar, ularning oralig‘ida botiqlar bor. O‘zbekistonning eng past nuqtasi Mingbuloq botig‘i (-12 m) ushbu viloyat hududida joylashgan. Viloyatning janubi-sharqiy qismlarida o‘rtacha balandlikdagi Nurota, Oqtov va Qoratov tizmalari joylashgan.

Navoiy viloyati foydali qazilmalarga boy. Asosiy foydali qazilmalari oltin, kumush, uran, fosforit, asbest, marmar va turli qurilish materiallaridan iborat. Muruntov oltin koni kattaligi bo‘yicha alohida ajralib turadi. Kosmonachi, Qorabug‘ut konlaridan kumush, Oltintov ruda maydoni va Jontuvar konlaridan uran qazib olinadi. G‘ozg‘on konidan qazib olinadigan marmar yuqori sifatga ega.



17-rasm. Navoiy viloyatining iqtisodiy xaritasi

Viloyatda yog'in miqdori kam bo'lib, Qizilqum cho'lida yillik yog'in miqdori 100–200 mm atrofida. Viloyat Quyosh va shamol energiya resurslariga boy. Navoiy viloyati suv resurslari bilan yaxshi ta'minlanmagan. Viloyatning janubi-sharqiy qismidan Zarafshon daryosi oqib o'tadi. Viloyatdagi sug'oriladigan yerlar ushbu daryo havzasida joylashgan. Yerlarni sug'orishda suv omborlarining (Quyimozor, To'dako'l, Sho'rko'l) ahamiyati katta, chunki Zarafshon daryosidagi suv miqdori viloyat hududiga kelgunicha anchagina kamayib qoladi. Aydarko'lning qishloq xo'jaligidagi ahamiyati katta emas. Qizilqum cho'lida yerosti suvlarining katta zaxiralari bor. Yerosti suvlaridan ichimlik maqsadida va chorva mollarini sug'orishda foydalaniladi.

AHOLISI. Navoiy viloyati aholisi mamlakatimiz aholisining 2,9 foizini tashkil etadi. Viloyat aholi soniga ko'ra faqatgina Sirdaryo viloyatidan oldinda turadi. Navoiy aholi zichligi eng kam ko'rsatkichli viloyatdir. Aholining o'rtacha zichligi 1 km² ga 10 kishini tashkil etadi. Aholi Zarafshon daryosi havzasidagi sug'oriladigan yerlarda zich joylashgan. Ushbu hududlarda aholi zichligi 1 km² ga 100–200 kishini tashkil etadi. Qizilqum cho'llarida

BU QIZIQ!

Uchquduq tumanining urbanizatsiya darajasi 87,7 % ga teng bo‘lib, bu ko‘rsatkich bo‘yicha mamlakatimizdagi tumanlar orasida yetakchilik qiladi.

joylashgan Tomdi va Uchquduq tumanlarida aholi zichligi 1 km² ga 1 kishiga ham yetmaydi. Bunga Qizilqum cho‘lidagi tabiiy sharoitning yashash uchun noqulayligi sabab bo‘lgan.

Navoiy viloyatida urbanizatsiya darajasi 49,3 % ga teng. Ushbu ko‘rsatkich bo‘yicha u Farg‘ona vodiysidagi viloyatlar va Toshkent viloyatidan keyin 5-o‘rinda turadi. Urbanizatsiya darajasining nisbatan yuqoriligi viloyatda sanoatning yaxshi rivojlangani va sug‘orma dehqonchilik uchun imkoniyat cheklangani bilan bog‘liq. Aholi soniga ko‘ra Navoiy shahri katta shaharlar, Zarafshon shahri o‘rta shaharlar guruhiga kiradi. Qolgan shaharlar kichik shaharlar guruhiga mansub. Navoiy shahri atrofidagi shahar va shaharchalar rivojlanishi natijasida Navoiy aglomeratsiyasi shakllanmoqda. Zarafshon, Uchquduq, G‘ozg‘on va boshqalar resurs shaharlar hisoblanib, ular foydali qazilmalarni qazib olish negizida shakllangan.

Viloyatda yashovchi asosiy millat vakillari o‘zbeklardir, shuningdek, hududda qozoqlar, qoraqalpoqlar, ruslar va tojiklar ham istiqomat qiladi.

IQTISODIYOTI VA ICHKI TAFOVUTLARI. Navoiy viloyati respublika miqyosida metallurgiya, elektr energetikasi, kimyo va neft-kimyo, qurilish materiallari, mashinasozlik va metallni qayta ishlash sanoatlariga ixtisoslashgan. Viloyat sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi bo‘yicha hududlar orasida Toshkent shahridan keyin ikkinchi o‘rinda turadi. Navoiy kon-metallurgiya kombinati respublika rangli metallurgiya sanoatida muhim o‘rin tutadi. Ushbu kombinatda oltin, kumush, qurilish materiallari, marmar va boshqa foydali qazilmalar qazib olinadi. Kombinat tarkibida boshqa viloyatlardagi ruda konlari ham bor. Kombinatning rudalarni boyitish, metall va yarim tayyor mahsulotlar ishlab chiqarish korxonalari viloyat hududidagi Navoiy, Uchquduq, Zarafshon shaharlari, Muruntov shaharchasi hamda Samarqand viloyatidagi Nurobod shahrida joylashgan. Shuningdek, viloyatda “Navoiyazot”, “Elektrkimyo” zavodi, Navoiy IESi, “Qizilqumsement” kabi respublika ahamiyatiga ega bo‘lgan sanoat korxonalari faoliyat ko‘rsatadi. “Navoiy” erkin iqtisodiy zonasi viloyat iqtisodiyotiga mahalliy va xorijiy investitsiyalarni jalb etishda muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Navoiy viloyatining yalpi hududiy mahsuloti (YHM) tarkibida qishloq xo‘jaligining ulushi yuqori emas. Viloyatda qishloq xo‘jaligi asosan cho‘l-yaylov chorvachiligi, xususan, qorako‘lchilikka ixtisoslashgan. Qizilqum cho‘lidagi yaylovlarning qorako‘lchilikdagi ahamiyati katta. Nurota, Oqtov, Qoratov tizmalarida tog‘oldi–tog‘-yaylov chorvachiligi yo‘lga qo‘yilgan. Ushbu tog‘larda yog‘in miqdori nisbatan ko‘pligi sababli lalmi dehqonchilik

ILMIY ATAMALAR

Erkin iqtisodiy zona – hududlarni jadal iqtisodiy-ijtimoiy rivojlantirish maqsadida mahalliy va xorijiy sarmoyalarni, zamonaviy texnologiyalarni jalb etish uchun alohida imtiyozlar yaratiladigan hudud.

bilan ham shug‘ullaniladi. Viloyatning chekka janubiy qismi – Zarafshon daryosi havzasida sug‘orma dehqonchilik yo‘lga qo‘yilgan.

Nurota tog‘lari, Aydarko‘l sohillari ekoturizmni rivojlantirish imkoniyatlariga ega. Viloyatning cho‘l qismlarida o‘tovlarda tunash, tuyalarda sayr qilish kabi mashg‘ulotlar sayyohlarni o‘ziga jalb qiladi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. 18-rasmda Navoiy viloyatining yalpi hududiy mahsuloti tarkibi keltirilgan. Diagramma yordamida sanoat va qurilish tarmoqlaridagi ishlab chiqarish hajmi qishloq xo‘jaligiga nisbatan necha marotaba ko‘pligini aniqlang va bunga ta’sir ko‘rsatadigan kamida 3 ta omilni yozing.
2. Navoiy viloyati transporti qay darajada rivojlangan? Viloyatdagi muhim temiryo‘l va avtomobil yo‘llari qaysi shaharlardan o‘tadi?
3. Navoiy viloyatining iqtisodiy xaritasidan foydalanib rangli metallurgiya, qurilish materiallari va yengil sanoat tarmoqlariga ixtisoslashgan shaharlarni aniqlang.



18-rasm. Navoiy viloyati yalpi hududiy mahsuloti tarkibi (% da, 2024-y.)

4. Navoiy viloyati qaysi tabiiy resurslar bilan yaxshi ta’minlangan, qaysilari bilan nisbatan kam ta’minlangan? Mavjud tabiiy resurslarning xo‘jalik ixtisoslashuvi ta’siriga 2 ta misol keltiring.

UYGA VAZIFA

1. Raqamli xaritalar (“Google Earth” va boshqalar)dan Navoiy viloyatidagi yirik ruda konlari karyerlarini toping. Foydali qazilmalarni qazib olish natijasida atrof-muhitda qanday o‘zgarishlar sodir bo‘lishini tahlil qiling.
2. Navoiy viloyatining iqtisodiy xaritasidan foydalanib quyidagi qishloq xo‘jaligi tarmoqlari qaysi tumanlarda yo‘lga qo‘yilganini aniqlang.

Qishloq xo‘jaligining ixtisoslashgan mintaqalari	Tumanlar
Cho‘l-yaylov chorvachiligi	
Tog‘oldi–tog‘-yaylov chorvachiligi	
Lalmi yerlarda dehqonchilik	
Sug‘oriladigan yerlarda paxtachilik, donchilik, sabzavotchilik	

7.13. BUXORO VILOYATI



DARS DAVOMIDA

- Buxoro viloyatining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va iqtisodiyoti bilan tanishasiz;
- Buxoro viloyati xo‘jaligi ixtisoslashuviga tabiiy sharoit va resurslarning ta’sirini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Nima uchun Buxoro viloyatidagi aholi manzilgohlarining asosiy qismi uning sharqida joylashgan?

GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI. Buxoro viloyati mamlakatimizning sharqiy va g‘arbiy hududlarini hamda respublikani xorijiy mamlakatlar bilan bog‘laydigan transport yo‘llari ustida joylashgan. Viloyatning tabiiy geografik o‘rni Qizilqum cho‘lining janubida, Zarafshon daryosining quyi oqimida joylashgani bilan belgilanadi. Viloyat hududi shimol va sharqdan Navoiy viloyati, janubi-sharqdan Qashqadaryo viloyati, janub va janubi-g‘arbdan Turkmaniston, shimoli-g‘arbdan Xorazm va Qoraqalpog‘iston bilan chegaradosh.

Viloyat tarkibiga 11 ta tuman, 11 ta shahar (2 tasi – Buxoro va Kogon viloyatga bo‘ysunuvchi) kiradi (01.01.2025-y.). Romitan tumani hududi o‘ziga xos bo‘lib, bir-biridan alohida joylashgan 3 ta qismdan iborat.

TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI. Buxoro viloyati hududining katta qismi Qizilqum cho‘lidan iborat. Relyefi nisbatan tekis bo‘lib, hududining asosiy qismi 100–300 m mutlaq balandlikda joylashgan. Viloyat hududi shimoldan va shimoli-sharqdan janubga va janubi-g‘arbga − Amudaryoga tomon pasayib boradi. Viloyatning sharqiy qismi Zarafshon daryosi havzasining qadimgi deltasiga to‘g‘ri keladi. Bu yerda daryo Buxoro va Qorako‘l vohalarini hosil qilgan. Viloyatdagi deyarli barcha sug‘oriladigan yerlar ushbu vohalarda joylashgan.

Buxoro viloyati neft va tabiiy gazga boy. Ularning asosiy qismi viloyatning janubiy va g‘arbiy qismlarida, cho‘l hududlarida joylashgan. Shuningdek, viloyatda grafit, qurilish materiallari konlari bor (19-rasm).

Buxoro viloyatida suv resurslari taqchil. Viloyat xo‘jaligida Amudaryodan suv oladigan Amu-Buxoro kanali va Zarafshon daryosining ahamiyati katta. Amudaryo nisbatan pastroq hududlardan oqqani sababli Amu-Buxoro kanaliga suv nasos stansiyalari yordamida chiqariladi. Yerlarni sug‘orishda Sho‘rko‘l, Navoiy viloyatidagi Quyimozor, To‘dako‘l suv omborlaridan foydalaniladi. Qizilqum cho‘lida yerosti suvlarining katta zaxiralari bor va bu yerlarda ko‘plab quduqlar qazilgan.



19-rasm. Buxoro viloyatining iqtisodiy xaritasi

AHOLISI. Buxoro viloyati hissasiga mamlakatimiz aholisining 5,5 foizi to‘g‘ri keladi. Aholining o‘rtacha zichligi 1 km^2 hududga 52 kishini tashkil etadi. Aholi zichligi viloyatning sharqiy qismidagi sug‘oriladigan hududlarda yuqori, tabiiy sharoit noqulay bo‘lgan cho‘l hududlarida esa aksincha.

Viloyatning urbanizatsiya darajasi yuqori emas − 36,9 % ni tashkil etadi. Aholi soniga ko‘ra Buxoro (300,2 ming kishi; 2025-yil 1-yanvar) yirik shahar, Kogon va G‘ijduvon o‘rta shaharlar hisoblanadi. Qolgan shaharlar kichik shaharlar guruhiga kiradi. Qorovulbozor va Gazli foydali qazilmalarni qazib olish, ularni qayta ishlash natijasida shakllangan shaharlardir. Viloyatda yashovchi asosiy millat vakillari o‘zbeklar hisoblansa, keyingi o‘rinda tojiklar turadi.

IQTISODIYOTI VA ICHKI TAFOVUTLARI. Buxoro viloyati respublika miqyosida neftni qayta ishlash sanoatiga ixtisoslashgan. Viloyatda yengil va oziq-ovqat, qurilish materiallari sanoatlari ham yaxshi rivojlangan. Qorovulbozor tumanidagi Buxoro neftni qayta ishlash zavodi viloyatdagi eng yirik sanoat korxonasi bo‘lib, mamlakatimiz sanoatida

alohida ahamiyatda ega. Buxoro viloyatida ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotalarining 2/5 qismi Qorovulbozor tumaniga to‘g‘ri keladi. Sanoat hududiy tarkibida keyingi o‘rinda Buxoro shahri turadi.

Buxoro viloyati qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuviga ko‘ra xilma-xil emas. Viloyatning sharqiy qismida, Buxoro va Qorako‘l vohalarida sug‘orma dehqonchilik yo‘lga qo‘yilgan. Sug‘oriladigan yerlarda paxtachilik, donchilik, bog‘dorchilik, sabzavotchilik va boshqa sohalar bilan shug‘ullaniladi. Viloyat hududining katta qismini egallagan Qizilqum, Sandiqli cho‘llarida cho‘l-yaylov chorvachiligi, suv havzalarida esa baliqchilik yo‘lga qo‘yilgan. Buxoro viloyati paxta, uzum, pilla, qorako‘l terilari, go‘sht kabi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirishda mamlakatimizda oldingi o‘rinlarda turadi.

Buxoro shahri boy tarixiy-madaniy merosi bilan ko‘plab sayyohlarni o‘ziga jalb etadi. Viloyatdagi “Sitorayi Mohi Xosa” dam olish maskani mashhur.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Buxoro viloyatining sharqiy qismidagi Zarafshon daryosi havzasi qadimdan sug‘orma dehqonchilik uchun o‘zlashtirilgan. Viloyatning g‘arbiy qismidan oqib o‘tadigan Amudaryo yaqinidagi hududlar o‘zlashtirilmaganiga qanday omillar sabab bo‘lgan?
2. Buxoro viloyatining iqtisodiy xaritasidan foydalanib qaysi shaharlarning sanoat ixtisoslashuvida oziq-ovqat va yengil sanoat tarmoqlari katta salmoqqa ega emasligini aniqlang va buning sabablarini tahlil qiling.
3. Buxoro viloyati respublikada qanday qishloq xo‘jaligi va sanoat mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashgan?
4. Buxoro viloyatida aholi zichligi kam bo‘lgan tumanlarni aniqlang. Aholi zichligi kam hududlarda xizmat ko‘rsatish sohalari (ta’lim, sog‘liqni saqlash va b.)da qanday muammolar vujudga kelishi mumkin?

UYGA VAZIFA

Buxoro va Navoiy viloyatlarining sanoati va qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvini taqqoslang hamda natijalarni Venn diagrammasida tasvirlang.



Sanoat ixtisoslashuvi



Qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvi

7.14. QASHQADARYO VILOYATI



DARS DAVOMIDA

- Qashqadaryo viloyatining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va iqtisodiyoti bilan tanishasiz;
- Qashqadaryo viloyati xo‘jaligi ixtisoslashuviga tabiiy sharoit va resurslarning ta’sirini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI. Qashqadaryo viloyati mamlakatimizning janubida joylashgan. Viloyat shimoldan Samarqand viloyati va qisqa masofada Navoiy viloyati, shimoli-sharqdan Tojikiston, janubi-sharqdan Surxondaryo viloyati, g‘arb va janubi-g‘arbdan Turkmaniston, shimoli-g‘arbdan Buxoro viloyati bilan chegaradosh. Viloyatning asosiy qismi Qashqadaryo havzasida joylashgan. Viloyat tarkibiga 14 ta tuman, 12 ta shahar (2 tasi – Qarshi va Shahrisabz viloyatga bo‘ysunuvchi) kiradi (01.01.2025-y.).

O‘YLAB KO‘RING

Qashqadaryo viloyati qanday foydali qazilmalarga boy va ular viloyatning sanoat ixtisoslashuviga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI. Qashqadaryo viloyatini shimoli-sharq, sharq va janubi-sharqdan Zarafshon, Hisor tizmalari va ularning tarmoqlari o‘rab turadi. Tog‘ tizmalari orasida Kitob-Shahrisabz tog‘ oraliq botig‘i joylashgan. Viloyatda Hisor tog‘larining 4000 m dan ortiq cho‘qqilari va tog‘ muzliklari bor. Hudud relyefi g‘arbga tomon pasayib boradi va mutlaq balandligi 250–300 m bo‘lgan tekisliklarga tutashib ketadi. Viloyatning g‘arbiy qismida bir nechta cho‘llar joylashgan bo‘lib, ularning eng yirigi Qarshi cho‘lidir.

Qashqadaryo viloyati neft va gaz zaxiralari va ularni qazib olinishi bo‘yicha mamlakatimizda birinchi o‘rinda turadi. Neft va gaz konlari viloyatning g‘arbiy qismidagi tekisliklarda, Hisor tizmasining janubi-g‘arbiy tarmoqlarida joylashgan. Shuningdek, hududda turli xil tuz, qurilish materiallari konlari ham bor (20-rasm).

Viloyat suv resurslarining asosiy qismini Qashqadaryo va uning irmoqlari tashkil etadi. Viloyat g‘arbidagi Qarshi cho‘lini o‘zlashtirishda Amudaryodan suv oladigan Qarshi magistral kanalining ahamiyati katta. Amudaryo nisbatan pastroqdan oqqani uchun ushbu kanalga nasos stansiyalari yordamida suv chiqariladi. Viloyatda Tallimarjon, Chimqo‘rg‘on, Pachkamar, Qamashi, Qalqama va boshqa suv omborlari qurilgan.

AHOLISI. Qashqadaryo viloyatiga mamlakatimiz aholisining 9,7 foizi to‘g‘ri keladi. Viloyat aholi sonining ko‘pligiga ko‘ra Samarqand va Farg‘ona viloyatlaridan keyin uchinchi



20-rasm. Qashqadaryo viloyatining iqtisodiy xaritasi

o'rinda turadi. Qashqadaryo aholisining tabiiy o'sish koeffitsiyenti 2,4% ni tashkil etadi va bu ko'rsatkich bo'yicha Surxondaryo viloyatidan keyin ikkinchi o'rinda turadi.

Aholining o'rtacha zichligi 1 km^2 hududga 127 kishini tashkil etadi. Kitob-Shahrisabz tog' oraliq botig'ida, Qarshi vohasida aholi zich joylashgan. Tabiiy sharoit noqulay bo'lgan baland tog' tizmalari va viloyatning g'arbiy qismidagi cho'l hududlarida esa aksincha.

Viloyatning urbanizatsiya darajasi 42,7% ni tashkil etadi. Aholi soniga ko'ra Qarshi (300,8 ming kishi; 2025-yil 1-yanvar) yirik shahar, Shahrisabz (150,1 ming kishi) katta shahar hisoblanadi. Koson, Kitob, Qamashi shaharlari o'rta shaharlar, viloyatdagi qolgan shaharlar esa kichik shaharlar guruhiga kiradi.

IQTISODIYOTI VA ICHKI TAFOVUTLARI. Qashqadaryo viloyati mamlakatimizda yoqilg'i (neft va gazni qayta ishlash), elektr energetikasi, kimyo sanoatlari rivojlangan hudud sifatida ajralib turadi. Shuningdek, yengil va oziq-ovqat, qurilish materiallari sanoatlari ham yaxshi rivojlangan. Mamlakatimizdagi neft va gazning asosiy qismi Qashqadaryo viloyatidan qazib olinadi. Sho'rtan gaz-kimyo majmuasi, Muborak gazni qayta ishlash zavodi, "Uzbekistan GTL" zavodi, Dehqonobod kaliy zavodi respublika miqyosidagi yirik sanoat korxonalaridir. Elektr energetikasi sanoatida viloyatdagi Tallimarjon IES va Muborak IEM muhim ahamiyatga ega.

Qashqadaryo viloyatida mamlakatimiz qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 10 foizga yaqin qismi ishlab chiqariladi. Viloyat qishloq xo‘jaligi mahsuloti hajmida chorvachilik dehqonchilikdan ustun turadi. Qashqadaryo viloyati donli ekinlar yetishtirishda mamlakatimiz hududlari orasida uchinchi o‘rinda, paxta yetishtirish, qoramollar hamda qo‘y va echkilar soni bo‘yicha birinchi o‘rinda turadi. Viloyatning sharqiy qismidagi tog‘ tizmalari va ularning yonbag‘irlarida tog‘oldi–tog‘-yaylov chorvachiligi, lalmikor dehqonchilik, viloyatning g‘arbiy qismidagi cho‘llarda esa cho‘l-yaylov chorvachiligi yo‘lga qo‘yilgan. Kitob-Shahrisabz botig‘ida sug‘orma dehqonchilik bilan shug‘ullaniladi. Shuningdek, Qarshi cho‘lining katta qismi sug‘orma dehqonchilik uchun o‘zlashtirilgan.

Qashqadaryo viloyati rekreatsiya va turizmni rivojlantirishda katta imkoniyatlarga ega. Shahrisabz va Qarshi shaharlaridagi tarixiy-madaniy binolar, Kitob davlat geologik milliy bog‘i, viloyatning sharqiy qismidagi baland tog‘ tizmalari mazkur sohada alohida ahamiyatga ega.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Qashqadaryo viloyatidagi neft va tabiiy gaz konlarini xaritadan aniqlang va ulardan 10 tasi nomini daftaringizga yozing.
2. Ochiq statistik ma’lumotlar (masalan, https://stat.uz/ vebsaytidagi “Sanoat” bo‘limi)dan foydalanib Qashqadaryo viloyatining mamlakatimiz sanoat ishlab chiqarishidagi ulushini aniqlang.
3. Qashqadaryo viloyatining tabiiy sharoiti qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuviga qanday ta’sir ko‘rsatgan? Sizningcha, viloyatning qishloq xo‘jaligi ixtisoslashuvi qaysi viloyatnikiga o‘xshash?

UYGA VAZIFA

1. Qashqadaryo viloyati shaharlari va ularga xos xususiyatlarni moslashtiring.

I. Qarshi	a) Tog‘ oraliq botig‘ida joylashgan. Viloyatga bo‘ysunuvchi shahar aholi soniga ko‘ra katta shahar hisoblanadi.
II. Koson	b) Viloyatning g‘arbiy qismida, temiryo‘l va avtomobil yo‘llari ustida joylashgan. Shaharda gazni qayta ishlash zavodi bor.
III. Shahrisabz	d) Shahar asosan Qashqadaryoning chap sohilida, transport tuguni-da joylashgan. Sanoati ko‘p tarmoqli.
IV. Muborak	e) Qashqadaryoning o‘ng sohilida joylashgan. Aholi sonining ko‘pligi-ga ko‘ra viloyatda uchinchi o‘rinda turadi.

2. Qashqadaryo viloyati shaharlaridan birini tanlab, uning geografik o‘rni va sanoat ixtisoslashuviga tavsif bering.

7.15. SURXONDARYO VILOYATI



DARS DAVOMIDA

- Surxondaryo viloyatining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va iqtisodiyoti bilan tanishasiz;
- Surxondaryo viloyati xo‘jaligi ixtisoslashuviga tabiiy sharoit va resurslarning ta’sirini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Surxondaryo viloyati geografik o‘rnining o‘ziga xos xususiyatlari nimada?

GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI. Surxondaryo O‘zbekistonning eng janubida joylashgan viloyatdir. U shimoli-g‘arbdan Qashqadaryo viloyati, shimol va sharqdan Tojikiston, janubdan Amudaryo orqali Afg‘oniston, janubi-g‘arbda Turkmaniston bilan chegaradosh. Chegaralarning katta qismi tabiiy obyektlar – daryolar va tog‘ tizmalari orqali o‘tadi. Surxondaryo viloyatidan mamlakatimizni Turkmaniston va Tojikiston, shuningdek, janubdagi mamlakatlar bilan bog‘laydigan transport yo‘llari o‘tadi. Afg‘oniston orqali hududdan Hind okeaniga chiqish imkonini beruvchi transport yo‘llari ochilsa, viloyatning iqtisodiy geografik o‘rni yaxshilanadi. Viloyat tarkibiga 14 ta tuman, 8 ta shahar (1 tasi – Termiz viloyatga bo‘ysunadi) kiradi (01.01.2025-y.).

TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI. Surxondaryo viloyatini shimol va shimoli-g‘arbda Hisor tog‘lari va uning tarmoqlari, sharqdan Bobotog‘ tizmasi o‘rab turadi. O‘zbekistonning eng baland nuqtasi Hazrati Sulton cho‘qqisi (4643 m) viloyatning shimolida, Hisor tog‘larida joylashgan. Surxondaryo viloyatining katta qismi Surxon-Sherobod tog‘ oraliq botig‘iga to‘g‘ri keladi. Ushbu botiqning mutlaq balandligi shimoli-sharqdan (700 m) janubi-g‘arbga (300 m) – Amudaryoga tomon pasayib boradi. Viloyatning janubida Sherobod cho‘li joylashgan.

Surxondaryo viloyatida neft, toshko‘mir, polimetall, osh tuzi va boshqa foydali qazilma konlari bor. Sharg‘un va Boysun konlaridan toshko‘mir, Xo‘jaikon konidan osh tuzi, Xonjizadan polimetall qazib olinadi. Neft konlarining (Xovdog‘, Kakaydi, Uchqizil va boshq.) asosiy qismi Surxondaryo vodiysida joylashgan.

Surxondaryo viloyati nisbatan janubda joylashgani uchun subtropik iqlim xususiyatlariga ega. Havo harorati mamlakatimizning boshqa hududlariga nisbatan yuqoriroq bo‘lib, o‘simliklarning vegetatsiya davri uzoqroq davom etadi.

Surxondaryo viloyati xo‘jaligida Amudaryoga quyiladigan Surxondaryo va Sherobod daryolarining ahamiyati katta. Asosiy sug‘oriladigan yerlar ushbu daryolar havzasida



21-rasm. Surxondaryo viloyatining iqtisodiy xaritasi

joylashgan. Amudaryo viloyatning janubidan oqib o'tadi. Surxondaryo viloyatida Janubiy Surxon, Uchqizil, Oqtepa va boshqa suv omborlari qurilgan. Yerlarni sug'orishda Hazorbog', Zang, Sherobod va boshqa kanallardan foydalaniladi.

AHOLISI. Surxondaryo viloyatida O'zbekiston aholisining 7,8% i yashaydi. Viloyat aholisining yillik tabiiy o'sish koeffitsiyenti 2,5% ni tashkil etadi va bu ko'rsatkich bo'yicha mamlakatimizda birinchi o'rinda turadi.

Surxondaryo viloyatining urbanizatsiya darajasi yuqori emas − 36,1% ni tashkil etadi. Viloyatda aholi soniga ko'ra Termiz (207,3 ming kishi; 2025-yil 1-yanvar) katta shahar hisoblanadi. Denov shahri (98,6 ming kishi) ikkinchi o'rinda turadi va u katta shaharlar guruhiga qo'shilish arafasida. Viloyatdagi qolgan shaharlar kichik shaharlar guruhiga mansub. Hududda yashovchi asosiy millat vakillari o'zbeklar bo'lib, keyingi o'rinda tojiklar turadi. Surxondaryo tojiklar soni va ulushi eng ko'p bo'lgan viloyatdir.

IQTISODIYOTI VA ICHKI TAFOVUTLARI. Surxondaryo viloyat mamlakatimiz hududlari orasida sanoat tarmog‘ining yaxshi rivojlanmagani bilan ajralib turadi. Viloyatga mamlakatimizda ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlarining 1,6 foizigina to‘g‘ri keladi va bu ko‘rsatkich bo‘yicha oxirgi o‘rinda turadi. Viloyat sanoatining tarmoqlari tarkibida yengil va oziq-ovqat sanoati katta ulushga ega. Shuningdek, hududda qurilish materiallari, yoqilg‘i va kimyo sanoatlari rivojlanmoqda. Jarqo‘rg‘ondagi neftni qayta ishlash zavodi, Sherobod sement zavodi viloyat sanoatida muhim o‘rin tutadi (21-rasm).

Surxondaryo viloyatiga mamlakatimizda yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining 8 foizi to‘g‘ri keladi (2024-yil). Viloyat iqlimining nisbatan issiqligi sababli dehqonchilik mahsulotlari boshqa hududlarga nisbatan oldinroq pishadi. Bu esa viloyatning hududiy mehnat taqsimotidagi o‘ziga xos o‘rnini belgilaydi. Surxondaryo anjir, anor, pista, bodom, uzum, limon kabi dehqonchilik mahsulotlari hamda qorako‘l terilari yetishtirishda mashhur. Sug‘oriladigan yerlar asosan Surxondaryo va Sherobod daryolari vodiysida joylashgan. Bunday yerlarda paxtachilik va donchilik yo‘lga qo‘yilgan. Shuningdek, bog‘dorchilik, sabzavotchilik, uzumchilik va kartoshkachilikka hududiy ixtisoslashuv tumanlar kesimida farq qiladi. Viloyatni o‘rab turgan tog‘ tizmalarida tog‘oldi–tog‘-yaylov chorvachiligi, ularning qulayroq joylarida lalmi dehqonchilik yo‘lga qo‘yilgan. Viloyatning janubida cho‘l-yaylov chorvachiligi bilan shug‘ullaniladi.

Surxondaryoda ko‘plab shifobaxsh mineral buloqlar bor. Ulardan Jayronxona, Omonxona, Xo‘jaipok va boshqalar mashhur. Viloyatda O‘zbekistondagi eng baland shar-sharalardan biri – Sangardak joylashgan. Yuqoridagilar viloyat rekreatsiya va turizmni rivojlantirish imkoniga egaligidan darak beradi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Tabiiy va siyosiy xaritalardan foydalanib Surxondaryo viloyati chegaralari qaysi daryolar va tog‘ tizmalaridan o‘tishini, ular orqali qaysi davlatlar va viloyatlar bilan chegaralanib turishini aniqlang.
2. Nima uchun Surxondaryo viloyatida sanoat mamlakatimizning boshqa hududlariga nisbatan sust rivojlangan? Sizningcha, viloyat sanoatini rivojlantirish uchun qanday chora-tadbirlarni amalga oshirish lozim?
3. Surxondaryo viloyatida aholi tabiiy o‘sishining yuqoriligi qanday omillarga bog‘liq?
4. Surxondaryo viloyati qishloq xo‘jaligining hududiy ixtisoslashuviga tabiiy sharoit qanday ta’sir ko‘rsatadi? Tumanlar kesimida tahlil qiling.

UYGA VAZIFA

1. Surxondaryo viloyati iqtisodiy geografik o‘rnining qulaylik va noqulayliklarini tahlil qiling.
2. Xaritalar va ochiq statistik manbalardan foydalanib Termiz shahriga tavsif bering. Shaharni rivojlantirishda qanday imkoniyatlar va muammolar borligini tahlil qiling.

7.16. XORAZM VILOYATI



DARS DAVOMIDA

- Xorazm viloyatining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholi va iqtisodiyotining asosiy xususiyatlarini tavsiflay olasiz;
- viloyatning milliy iqtisodiyotimizdagi ixtisoslashuvi va unga ta’sir ko‘rsatadigan omillarni tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

O‘YLAB KO‘RING

Xorazm viloyati mahalliy madaniyatiga oid qaysi mashhur an’analarini bilasiz?

GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI. Xorazm viloyati Amudaryoning quyi oqimida, O‘zbekistonning shimoli-g‘arbida joylashgan. G‘arb va janubda Turkmaniston, shimol va shimoli-sharqda Qoraqalpog‘iston Respublikasi, janubi-sharqda Buxoro viloyati bilan chegaradosh. Viloyat hududi Amudaryodagi Tuyamo‘yin to‘g‘oni atrofida tutashgan ikki qismdan iborat. Hududning katta qismi Amudaryoning chap sohilida joylashgan bo‘lib, qadimdan o‘zlashtirilgan Xorazm vohasiga to‘g‘ri keladi. Viloyat hududining ikkinchi, kichikroq qismi Amudaryo, jumladan, Tuyamo‘yin o‘zanli suv omborining o‘ng qirg‘og‘ida joylashgan cho‘l-yaylov yerlaridan iborat bo‘lgan Tuproqqal’a massividir. Viloyat tarkibiga 11 ta tuman, 3 ta shahar kiradi (01.01.2025-y.).

TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI. Viloyat hududi Amudaryo qadimgi deltasining bir qismi sifatida daryo yotqiziqlaridan tashkil topgan. Qoraqum cho‘liga tutashgan g‘arbiy va janubi-g‘arbiy qismi qumliklardan iborat. Relyefi tekisliklar va kichik balandliklardan tashkil topgan.

BU QIZIQ!

Xorazmda suv resurslaridan samarali foydalanish qadimdan muhandislik darajasiga chiqqan. Kanallar va ariqlar tizimi tarixiy gidrotexnik inshootlar hisoblanadi.

Foydali qazilmalardan ohaktosh, qum, gil va boshqa qurilish materiallari bor.

Yagona daryosi Amudaryo bo‘lib, u viloyat chegaralari bo‘ylab keng vodiy hosil qiladi, qirg‘oqlari past, shu sababli toshqinlar bo‘lib turadi. Amudaryo suvidan yirik kanallar yordamida ekinlarni sug‘orishda foydalaniladi. Viloyat janubida baliq xo‘jaligida keng foydalanilayotgan sho‘r ko‘llar ko‘p (22-rasm).

Tuproqlari Amudaryoning allyuvial yotqiziqlaridan tashkil topgan, turli darajada sho‘rlangan.



22-rasm. Xorazm viloyatining iqtisodiy xaritasi

AHOLISI. Aholi soni bo'yicha Xorazm viloyati respublikamiz hududlari orasida 10-o'rinda turadi. Aholi zichligi – 336 kishi / km² (01.01.2025-y.). Bu borada viloyat respublikada Farg'ona vodiysidagi 3 ta viloyatdan keyingi o'rinni egallaydi.

Aholining asosiy qismi qishloqlarda yashaydi, shahar aholisining salmog'i esa 33% ga teng (O'zbekiston hududlari orasida eng so'nggi o'rinda turadi). Aholi soni bo'yicha viloyat markazi – Urganch (155,7 ming kishi; 01.01.2025-y.) hamda Xiva (100,1 ming kishi) katta, Pitnak esa kichik shaharlar toifasiga mansubdir.

Viloyat aholisining milliy tarkibi asosan o'zbeklardan (97%) iborat bo'lib, shuningdek, turkmanlar, qozoqlar, qoraqalpoqlar, ruslar, koreyslar va boshqa millat vakillari istiqomat qiladi.

BU QIZIQ!

Xiva shahri – Markaziy Osiyodagi eng yaxshi saqlangan tarixiy shaharlardan biri. Ichanqal'a majmuasi UNESCOning Butunjahon merosi ro'yxatiga kiritilgan hamda ochiq osmon ostidagi muzey-shahar hisoblanadi.

IQTISODIYOTI VA ICHKI TAFOVUTLARI. Xorazm viloyatida avtomobillar va ularning ehtiyot qismlari, ekskavatorlar, paxta tolasi va ip-kalava, to‘qimachilik mahsulotlari, jumladan, gilamlar, turli oziq-ovqat va boshqa sanoat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Xorazmda paxta tozalash sanoati rivojlangan bo‘lib, deyarli barcha tuman markazlari va Urganch shahrida shunday zavodlar faoliyat ko‘rsatadi. Gurlan, Bog‘ot, Xonqa, Shovot, Urganch, Xiva va Hazorasp tumanlarida to‘qimachilik va tikuvchilik korxonalari joylashgan. Xiva shahrida mashhur “Xiva gilami” korxonasi ishlab turibdi. So‘nggi yillarda Xorazmda sanoat tarkibi kengayib, mashinasozlik sohasi rivojlanmoqda. Xorijiy hamkorlikdagi korxonalardan “Khorezm Auto” zavodida (Tuproqqal’a tumani markazi Pitnak shahrida joylashgan) yengil avtomobil va maxsus avtomobil texnikasi yig‘iladi, qator korxonalarda esa Xitoy hamkorligida butlovchi qismlar ishlab chiqarish yo‘lga qo‘yilgan. Bu korxonalar yangi ish o‘rinlari yaratib, eksport salohiyatini oshiradi va Xorazm iqtisodiyotini zamonaviy texnologiyalar bilan boyitadi (23-rasm).



23-rasm. “Khorezm Auto” zavodi

Qishloq xo‘jaligida paxtachilik va g‘allachilik yetakchi tarmoqlar bo‘lib, polizchilik (ayniqsa, qovunning gurvak nomli navi mashhur), sabzavotchilik, chorvachilik va pillachilik ham rivojlangan. Xorazm viloyati O‘zbekistonda sholi yetishtirish bo‘yicha yetakchi hududlardan biri. Amudaryo suvi, tekis relyef va issiq iqlim sholichilik uchun qulay sharoit yaratadi.

Xorazm nafaqat sanoat va qishloq xo‘jaligi, balki turizm sohasi bilan ham mashhur. Viloyat turizmi tarixiy yodgorliklar, milliy hunarmandchilik, an’anaviy oshxona va madaniy festivallar asosida rivojlanmoqda.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Xorazm viloyatining geografik o‘rni uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi va ekologik sharoitiga qanday ta’sir qiladi? Geografik o‘rinning qaysi xususiyatlari qulay, qaysilari esa noqulay ekanini aniqlang.
2. Xorazm viloyatida aholi zichligining ancha yuqoriligi qanday omillar bilan bog‘liq deb o‘ylaysiz?
3. Viloyat sanoati va qishloq xo‘jaligining qaysi tarmoqlari O‘zbekiston milliy iqtisodiyotida katta ahamiyatga ega?

UYGA VAZIFA

Qo‘shimcha manbalardan foydalanib Xorazm viloyatida Xivadagi mashhur tarixiy-madaniy yodgorliklardan tashqari qanday turistik obyektlar borligini aniqlang va ularning birortasi haqida qisqacha axborot yoki taqdimot tayyorlang.

7.17. QORAQALPOG‘ISTON RESPUBLIKASI



DARS DAVOMIDA

- Qoraqalpog‘iston Respublikasining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari, aholisi va iqtisodiyoti bilan tanishasiz;
- Qoraqalpog‘iston Respublikasi tabiiy sharoiti va resurslari, ekologik vaziyatining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’sirini tahlil qilasiz.

BILIMLARNI EGALLAYMIZ

GEOGRAFIK O‘RNI VA MA’MURIY-HUDUDIY TUZILISHI. Qoraqalpog‘iston Respublikasi O‘zbekistonning shimoli-g‘arbiy qismida joylashgan bo‘lib, shimol va g‘arbda Qozog‘iston, janubda Turkmaniston, sharqda Navoiy viloyati, janubi-sharqda Xorazm va Buxoro viloyatlari bilan chegaradosh. Iqtisodiy geografik o‘rni mamlakatimizning markaziy qismidan ancha olisda, ayni paytda, Yevropa mamlakatlariga chiqish yo‘lida joylashgani bilan tavsiflanadi. Qoraqalpog‘iston Respublikasida 16 ta tuman, 12 ta shahar (1 tasi – Nukus Qoraqalpog‘iston Respublikasiga bo‘ysunadi) mavjud (01.01.2025-y.). Poytaxti – Nukus shahrida uning oliy boshqaruv organlari – Jo‘qorg‘i Kenges va Vazirlar Kengashi faoliyat ko‘rsatadi.

O‘YLAB KO‘RING

Qoraqalpog‘iston Respublikasi siyosiy-ma’muriy maqomi nuqtayi nazaridan O‘zbekiston tarkibidagi boshqa ma’muriy-hududiy birliklardan qanday farq qiladi?

TABIIY SHAROITI VA RESURSLARI. Qoraqalpog‘istonning relyefi tekisliklardan iborat bo‘lib, markaziy va janubiy qismida Amudaryo deltasi, g‘arbiy qismida Ustyurt platosi, sharqida Qizilqum cho‘li, shimoliy qismida esa Orol dengizining qoldiq suv havzalari va Orolqum cho‘li joylashgan. Eng baland nuqtasi Qizilqum cho‘lidagi Sulton Uvays tizmasida joylashgan (Achchitov, 473 m).

BU QIZIQ!

Qo‘ng‘irot (76 ming km²), Mo‘ynoq (37,9 ming km²) va Taxtako‘pir (21,1 ming km²) tumanlarining hududi umumiy hisobda Qoraqalpog‘iston maydonining 81,0 % ini, mamlakatimiz jami maydonining esa 30,1 % ini tashkil qiladi.

Qoraqalpog‘iston hududi mineral resurslarga boy. Ustyurt platosi va Orolqumda tabiiy gaz va neft konlari mavjud. Sulton Uvays tizmasida temir va titan rudalari, turli qurilish materiallarining katta zaxiralari aniqlangan. Qoraqalpog‘iston hududida sulfat, magniy va osh tuzlari singari kimyo sanoati xomashyosining ulkan zaxiralari mavjud (24-rasm).

Qoraqalpog‘istonda yillik yog‘in miqdori 200 mm dan oshmaydi. Yer maydoni katta bo‘lsa-da, sug‘orma dehqonchilikni rivojlantirish imkoniyatlari suv tanqisligi bois ancha cheklangan.



24-rasm. Qoraqalpog'iston Respublikasining iqtisodiy xaritasi

Asosiy suv manbayi – Amudaryo. Uning yuqori va o'rta oqimida ko'p suv sarflanayotgani sababli Qoraqalpog'istonda suv yetishmovchiligi seziladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasining tabiiy sharoiti va resurslari asosan kimyo, yoqilg'i va qurilish materiallari sanoati hamda chorvachilik uchun qulay. Ayni vaqtda suv resurslarining taqchilligi sug'orma dehqonchilik, sanoatning ko'p suv talab qiluvchi tarmoqlarini rivojlantirishga to'sqinlik qiladi. Qolaversa, Orol dengizining quriyotgani ekologik vaziyatga salbiy ta'sir ko'rsatgan.

AHOLISI. Qoraqalpog'istonning mamlakat aholisidagi ulushi 5,4% ni tashkil etadi. Aholi soni bo'yicha O'zbekiston hududlari orasida 11-o'rinni egallaydi. Aholining o'rtacha yillik o'sish sur'atlari so'nggi yillarda 1,3% ni tashkil etgan. Bu respublikamiz hududlari orasida eng past ko'rsatkichlardan biri bo'lib, bunga asosan Orolbo'yidagi noxush ekologik vaziyat va suv tanqisligi sharoitidagi aholi migratsiyasi sabab bo'lmoqda.

Aholining salkam 49% i shahar joylarida istiqomat qiladi (01.01.2025-yil holatiga ko'ra). Nukus shahri (341,9 ming kishi; 01.01.2025-y.) mamlakatimizdagi shaharlar orasida aholi soni bo'yicha 5-o'rinda turadi, yirik shaharlar toifasiga kiradi. Xo'jayli, To'rtko'l, Beruniy, Chimboy va Taxiatosh o'rta, qolgan shaharlari esa kichik shaharlardir.

IQTISODIYOTI VA ICHKI TAFOVUTLARI. Qoraqalpog‘iston sanoati O‘zbekiston miqyosida, avvalo, kimyo sanoati bilan alohida ajralib turadi. Bunda Qo‘ng‘irot tumani hududida joylashgan Ustyurt gaz-kimyo majmuasi va Qo‘ng‘irot soda zavodining ahamiyati katta. Ustyurt gaz-kimyo majmuasida polietilen va polipropilen singari polimer materiallari, Qo‘ng‘irot soda zavodida esa kalsiylangan soda kabi eksportbop mahsulotlar ishlab chiqariladi. Bu ikkita yirik sanoat korxonasi mahalliy mineral resurslarga tayanadi.

Hududda yoqilg‘i, elektr energetikasi, qurilish materiallari, yengil va oziq-ovqat sanoati rivojlanmoqda. Taxiatosh IES – Qoraqalpog‘istondagi yagona elektr energiyasi manbayi va yirik sanoat korxonalaridan biri. Yirik korxonalar sirasiga Qorao‘zak tumanidagi “KARAKALPAK SEMENT” zavodi ham kiradi. Sulton Uvays tog‘laridagi Tebinbuloq temir ruda koni negizida yirik metallurgiya majmuasi qurilmoqda.

O‘zbekiston miqyosida Qoraqalpog‘iston dehqonchilik mahsulotlaridan paxta, poliz ekinlari va sholi, chorvachilik mahsulotlaridan go‘sht va qorako‘l terilarini yetishtirishda nisbatan yuqori salmoqqa ega. Hudud miqyosida barcha turdagi qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishtirish hajmi bo‘yicha Amudaryo, Beruniy, To‘rtko‘l, Ellikqal’a tumanlari sezilarli darajada yetakchilik qiladi.

BILIMLARNI MUSTAHKAMLAYMIZ

1. Qoraqalpog‘iston Respublikasining geografik o‘rni uning ekologik vaziyatiga qanday ta’sir ko‘rsatadi deb o‘ylaysiz? Nima uchun Qoraqalpog‘istondagi ekologik vaziyat Amudaryo havzasida tabiatdan foydalanish jarayonlariga bog‘liq?
2. Qoraqalpog‘istondagi tabiiy-ekologik sharoit aholining o‘sishi va joylashuvi, qishloq xo‘jaligining rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatadi?

UYGA VAZIFA

Qoraqalpog‘iston Respublikasining geografik o‘rni, tabiiy sharoiti va resurslari uning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga qanday ta’sir ko‘rsatishi haqidagi fikrlaringizni jadval ko‘rinishida daftaringizga yozing.

Geografik omillar	Qoraqalpog‘istonning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri	
	Ijobiy	Salbiy
Geografik o‘rin		
Tabiiy sharoit va resurslar		

7.18. UMUMLASHTIRUVCHI DARS

DARS DAVOMIDA

- o‘zingiz yashaydigan hududni tadqiq qilasiz, mavjud muammolarni aniqlaysiz, yechimlar taklif qilasiz va loyihalar ustida ishlaysiz.

Keys-1.

Ushbu ilmiy atamalarning mazmun-mohiyatini tushuntiring:

iqtisodiy geografik o‘rin, ma’muriy-hududiy tuzilish, mineral resurslar, aholining tabiiy ko‘payishi, migratsiya, urbanizatsiya, mehnat resurslari, milliy iqtisodiyot, infratuzilma, melioratsiya, rekreatsiya, tashqi savdo aylanmasi, tashqi savdo balansi, hududiy mehnat taqsimoti, iqtisodiy rayon.

Keys-2.

Quyidagi miqdoriy ko‘rsatkichlar qanday hisoblanishini eslang va ayting:

– migratsiya saldosi;

– aholining umumiy ko‘payishi;

– aholi zichligi;

– hosildorlik;

– ixtisoslashuv koeffitsiyenti.

Keys-3.

“Geografik omillar asosida hududni baholash” mavzusi bo‘yicha vaziyatni tahlil qiling va baholang.

Vaziyat. Tasavvur qiling, siz geografiya jamiyati guruhi a’zosisiz. Sizga ma’lum bir hudud (o‘zingiz tanlang yoki o‘qituvchi belgilaydi) bo‘yicha qisqa geografik tavsif tayyorlash topshirildi. Quyidagi reja asosida geografik xulosa yozing.

Iqlim	harorat va yog‘in miqdorining umumiy tavsifi, qaysi xo‘jalik tarmoqlari uchun qulay yoki noqulayligi
Suv resurslari	asosiy suv manbalarining aholi hayoti va sanoatdagi o‘rni
Aholi	aholi zichligi va joylashuvi tabiiy sharoit bilan bog‘liqligi
Sanoat	qaysi sanoat tarmoqlari rivojlangani, buning sabablari

Keys-4.

Quyidagi obyektlar qaysi viloyatlarda joylashganini va tegishli hududlar yozuvsiz xaritada qaysi raqam bilan belgilanganini aniqlang:



- Muruntov oltin koni;
- O‘zbekistondagi eng yirik avtomobil zavodi;
- Respublikamizdagi eng yirik elektr stansiyasi;
- Qamchiq dovoni;
- Sho‘rtan gaz-kimyo majmuasi;
- O‘zbekistondagi yagona soda zavodi;
- Mamlakatimizdagi eng yirik neftni qayta ishlash korxonasi;
- “Zomin” sanatoriysi;
- Ichanqal’a tarixiy yodgorligi;
- “MAN” avtomobil zavodi;
- Sharg‘un ko‘mir koni;
- So‘x eksklavi;
- Olmaliq kon-metallurgiya kombinati.

Keys-5.

Iqlim va suv resurslarining aholi joylashuvi hamda sanoatga ta’siri yuzasidan tuzilgan quyidagi savollarga javob toping va berilgan vazifalarni bajaring:

1. Hudud iqlimi (harorat, yog‘in miqdori) aholi joylashuviga qanday ta’sir ko‘rsatadi?
2. Suv resurslari (daryo, yerosti suvlari) qaysi sanoat tarmoqlarining rivojlanishiga sharoit yaratadi?
3. Aholi zichligi yuqori bo‘lgan hududlarda sanoatning qaysi turlari ko‘proq rivojlanadi? Sababini tushuntiring.
4. Suv tanqisligi sharoitida sanoatni rivojlantirish uchun bir nechta geografik asoslangan taklif bering.

Keys-6.

Aholi qishloq joylaridan yirik shaharlarga ko‘chishining mehnat bozori, uy-joy masalasi, transport tizimi, ta’lim va sog‘liqni saqlashga ko‘rsatadigan ijobiy va salbiy ta’sirini tahlil qiling. Migratsiya tufayli yirik shaharlarda vujudga keladigan muammolarni yechish bo‘yicha takliflar bering.

O‘quv nashri

Musayev Jahongir Payozovich,
Fedorko Viktor Nikolayevich,
Xayitmurodov Alijon Olimjon o‘g‘li

GEOGRAFIYA
9-sinf

Umumiy o‘rta ta’lim maktablari uchun darslik

G‘afur G‘ulom nomidagi nashriyot-matbaa ijodiy uyi
Toshkent – 2026

Muharrir	*Xurshid Ibrohimov*
Musahhih	*Nargiza Sotvoldiyeva*
Texnik muharrir	*Abdujalil Karimov*
Badiiy muharrir	*Dilmurod Jalilov*
Rassom	*Aziza Ibraimova*
Sahifalovchi-dizayner	*Artur Nurullayev*

Nashriyot litsenziyasi AI № 290. 04.11.2016-yilda berilgan.
Bosishga 00.00.2026-yilda ruxsat etildi. Bichimi 84x108 $^{1}/_{16}$.
“Arial” garniturasi. Kegli 12 shponli. Ofset bosma.
Shartli bosma tabog‘i 20,16. Nashriyot-hisob tabog‘i 14,1.
Adadi: 000 000 nusxa. Buyurtma № 000.

Ijaraga beriladigan darslik holatini ko‘rsatuvchi jadval

№	O‘quvchining ismi va familiyasi	O‘quv yili	Darslikning olingandagi holati	Sinf rahbarining imzosi	Darslikning topshirilgandagi holati	Sinf rahbarining imzosi
1						
2						
3						
4						
5						

Darslik ijaraga berilib, o‘quv yili yakunida qaytarib olinganda yuqoridagi jadval sinf rahbarlari tomonidan quyidagi baholash mezonlariga asosan to‘ldiriladi:

Yangi	Darslikning birinchi marta foydalanishga berilgandagi holati.
Yaxshi	Muqova butun, darslikning asosiy qismidan ajralmagan. Barcha varaqlari bor, yirtilmagan, ko‘chmagan, betlarida yozuv va chiziqlar yo‘q.
Qoniqarli	Muqova ezilgan, birmuncha chizilib, chetlari yedirilgan, darslikning asosiy qismidan ajralish holati bor, lekin qoniqarli ta’mirlangan. Ko‘chgan varaqlari qayta joylangan, ayrim betlariga chizilgan.
Qoniqarsiz	Muqova yirtilgan, ustiga chizilgan, asosiy qismidan ajralgan yoki butunlay yo‘q, qoniqarsiz ta’mirlangan. Betlari yirtilgan, varaqlari yetishmaydi, chizib, bo‘yab tashlangan. Darslikni tiklab bo‘lmaydi.